ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2023

4-son

(Iyul-Avgust)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

		TAHRIRIYAT
	4	Sohaga oid davriy nashrlarning o‘qituvchi kasbiy kompetentligini rivojlantirishdagi hamda bolalar nashrlarining ta’lim-tarbiya jarayonidagi o‘rni
		TA’LIM VA TARBIYA NAZARIYASI
O. Musurmanova	6	Oliy ta’lim tizimida ilm-ma’rifatli oqila qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini takomillashtirish mexanizmlari
D. Shomalikova	11	Bolalar davriy nashrlari asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining odob-axloq ko‘nikmalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish
Z. Raximov	16	Oliy kasbiy ta’limda talabalar o‘quv-bilish kompetentligini rivojlantirish mohiyati va mantiqiy jihatdan tahlili
N. Abdurahimova	21	O‘zbek tilshunoslik terminlarining shakllanishi va taraqqiyotining ayrim aspektlari
D. Otaxanova	25	Talaba faolligini oshirishda o‘qituvchining kreativligi
D. Saparboyeva	29	Inson qadrini ulug‘lash – oliy qadriyat
M. Halimova	33	Boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitishning kompetensiyaviy yondashuv asosida tizimli tahlili
A. Hamdamov	37	Oliy ta’lim samaradorligini oshirish bo‘yicha zamonaviy yondashuvlar
		TA’LIM VA TARBIYA METODIKASI
E. Murodov	40	Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarini mustaqil hayotga tayyorlashda tayanch fanlar va kasb ko‘nikmalarining o‘zaro bog‘liqligi
N. Isakulova	45	Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasini o‘qitishda o‘quv keyslardan foydalanish
A. Hasanov	52	Akademik litsey o‘quvchilariga fizika fanini o‘qitishda bilimlarni umumlashtirish usullari
F. Mahmudov	55	Kvant fizikasi bo‘limini darsdan tashqari mustaqil o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikasi
L. Xolmurodova	58	Oliy ta’limda umumiy va noorganik kimyo kursining kasbiy-pedagogik yo‘naltirilganligi (tuzilmaviy tarkibi va tahlili)
N. Xolbozorova	62	Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy va shaxsiy shakllantirishning pedagogik metodi va ahamiyati
		ZAMONAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARI
T. Xakimova	65	Ta’lim tashkilotlarida davlat tilini o‘qitish texnologiyalarini takomillashtirish – o‘quvchi-yoshlarning nutq madaniyatini oshirishning asosi
O. Axmedov, A. Amonov	70	Oliy ta’lim tizimida kompyuter imitatsion modellardan foydalanishning afzallik jihatlari
A. Avliyoqulov	74	Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishda integrativ yondashuvlarning konseptual asoslari
		MILLIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARI
D. Oymatova	78	Oilaviy munosabatlarda bola intelektining o‘zaro aloqadorligini ijtimoiy-psixologik xususiyatlari

		TA’LIMDA MENEJMENT
M. Xalilova	81	Inson kapitalini rivojlantirishda ta’lim tizimidagi xorijiy hamkorlik ishlarini tadbiq etishning ilmiy-amaliy asoslari
		JISMONIY TARBIYA VA SPORT
B. Ne’matov	86	Jismoniy tarbiya darslarida yengil atletikaning barerlar osha yugurish texnikasi (Elementlariga o‘rgatishda yig‘ma barer asosiy vosita sifatida)
S. Baxodirov	90	Oliy ta’limda futbol to‘garaklarini tashkil etishning ahamiyati va dolzarbligi
		MAKTABGACHA TA’LIM
G. Omonova	93	Maktabgacha ta’lim tashkilotida hamkorlik pedagogikasining ayrim aspektlari
R. Nosirova	98	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘quv mashg‘ulotlari samaradorligini oshirishda pedagogik ta’lim innovatsion klasteri komponentlaridan foydalanish
L. Ahmedova	102	Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolani kasbga yo‘naltirishda faollik markazlarining roli
		ILM, MA’RIFAT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR
M. Tayirova	105	O‘quvchilarning multimedia vositalari bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik-amaliy texnologiyalari.
M. Mingboyeva	109	Raqamli texnologiyalarni ta’lim tizimiga tadbiq etishning ahamiyati haqida ba’zi mulohazalar
		PSIXOLOGIYA
S. Xolto‘rayeva	113	Bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishning psixologik aspektlari
		QIYOSIY PEDAGOGIKA
Sh. Boyjigitov	116	O‘quvchilarning intellektual ijodiy qobiliyatini shakllantirishda Finlandiya ta’lim tizimi
		XALQ PEDAGOGIKASI
B. O‘taboyev	119	Amir temur va temuriylar davri me’morchiligi
D. Axatova	123	O‘rta asr islom falsafasining o‘ziga xos xususiyatlari tahlili
		ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ
С. Ашуров	126	Совершенствования механизма государственно-частного партнерство в сфере образования как основа обеспечения качества образовательных услуг
		ДОШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ
З. Дехкамбаева, А. Мансурова	133	Зарубежные концепции математического развития детей дошкольного возраста
		ОХРАНА ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ И ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ
И. Ким	136	Исторические аспекты становления экологического образования
		ПСИХОЛОГИЯ
Г. Тургунова	140	Процессы развития личности детей при негативном отношении к учебной дисциплине

SOHAGA OID DAVRIY NASHRLARNING O‘QITUVCHI KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDAGI HAMDA BOLALAR NASHRLARINING TA’LIM-TARBIYA JARAYONIDAGI O‘RNI

Zamonaviy dunyoda sohaga oid davriy nashrlar hamda bolalar nashrlari katta pedagogik salohiyatga egadir. Uzluksiz ta’limda sohaga oid davriy nashrlarning o‘qituvchi kasbiy kompetentligi rivojlantirishda hamda bolalar nashrlarining ta’lim-tarbiya jarayonidagi pozitiv ahamiyatini ilmiy tadqiqot ishlarida, pedagoglar, psixolog olimlar ham ko‘rsatib o‘tishgan. Kitoblar va an’anaviy ommaviy axborot vositalaridan tashqari – radio va televidenie, turli shakllardagi ko‘plab internet resurslari – ijtimoiy tarmoqlar, veb-saytlar, videobloglar va h.k. paydo bo‘lib bormoqda. Natijada ko‘rib turibmizki, endi hamma kontent yaratayapti va ularning soni geometrik progressiya bo‘yicha ko‘payib bormoqda. Endilikda yoshlar o‘zining bilimlar manbaini tinimsiz va tezkorlik bilan to‘ldirib borishni va yangilab turishni afzal deb biladi.

Bunday betartib axborot makonida pedagoglar uchun ta’lim oluvchilar bilan ta’lim-tarbiya yo‘nalishida muloqot qilish tobora qiyinlashmoqda. Bugungi kunda faqatgina o‘qituvchi mavqei va vakolati bilan hamda darsliklar yordamida ta’lim oluvchilarning o‘quv materialiga e’tiborini qaratish mumkin emas, chunki boshqa axborot manbalari bilan raqobat juda katta. Haqiqatni aytganda, “raqobatchilar” maktab sumkasining cho‘ntagiga bemalol joylashadi va ta’lim-tarbiya jarayonida ta’lim oluvchilarni doimiy chalg‘itib kelmoqda. Ushbu tengsiz kurashda g‘alaba qozonish uchun yangi pedagogik yechimlar zarur. Pedagoglar ta’lim oluvchilar bilan ta’lim-tarbiya yo‘nalishida samarali muloqot qilishi uchun o‘quv materiallarini izlash, tanlash, yetkazish, o‘zlashtirish, mustahkamlash, baholashning zamonaviy pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqishlari, o‘quv materiallarini ta’lim oluvchilarga taqdim etish shakllarini diversifikatsiya qilishlari talab etilmoqda.

Darhaqiqat, bugunga kelib globallashuv jarayoni tezkor sur’atlarda avj oldi. U barcha jabhalarni, jumladan, jurnalistika sohasini ham tamomila zabt etdi. Albatta, bolalar matbuoti ham bu jarayondan tashqarida emas. Har bir nashr bolalar va o‘smirlarni tarbiyalashda faol va o‘z o‘rniga ega.

Ommaviy axborot vositalari bolalar ongini shakllantirishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Erta bolalikdan odam turli xil ma’lumot manbalaridan ta’sirlanadi. Shu bilan birga, axborotni tahlil qilish, real faktlarni yolg‘on fikrlardan (feyklardan) ajratish qobiliyatiga ega bo‘lmagan bolalar auditoriyasi ommaviy axborot vositalarining ta’siriga eng ko‘p duchor bo‘ladi. Shu munosabat bilan, yosh avlod uchun mo‘ljallangan maxsus ommaviy axborot vositalari, birinchi navbatda, ijtimoiy mas’uliyatni xis qilishi va shaxsning birlamchi ijtimoiylashuvini amalga oshirish vazifasini o‘z zimmasiga olgan.

Kuzatishlar asosida aytish kerakki, bugungi kun o‘quvchilari ham kechagidan tubdan farq qiladi. Ular endilikda maktab darsliklaridan oladigan bilimlaridan tashqari yuqorida aytib o‘tilganidek, turli qo‘shimcha adabiyotlar hamda internet olamidan ham kerakli bilimlarni, o‘zlari uchun qiziqarli bo‘lgan ma’lumotlarini olishlari va o‘zlari istagancha yangiliklardan boxabar bo‘lishlari mumkin. Zero, bu tezkorlikni zamon talabi ham deyish mumkindir, biroq biz shu o‘rinda bilimlar ba’zasi qatoriga bemalol OAV

asosi sanalmish davriy nashrlarimizni ham kirtishimiz, ma’naviy-ma’rifiy qarashlarimizni boytishimiz, davriy nashrlar orqali o‘quvchining ham nazariy, ham amaliy bilimlarini boyitib borishimiz zarur.

So‘nggi yillarda jamiyatda ta’lim maqsadlari va ularni amalga oshirish usullarini tushunishda keskin o‘zgarishlar ro‘y berdi. Kompetensiyalar, bilim, ko‘nikma va malakalarni ta’limning asosiy natijasi sifatida e’tirof etishdan boshlab, ta’limni o‘quvchilarni real hayotga tayyorlash jarayoni, faol fuqarolik pozitsiyani egallashga, hayotiy muammolarni muvaffaqiyatli hal etishga tayyor bo‘lish jarayoni sifatida tushunishga o‘tish sodir bo‘ldi.

Davriy nashrlarining pedogoglarni kasbiy faoliyatini oshirishidagi muhim shartlari shuki, o‘qituvchi akademik nashrlarga o‘z ilmiy materiallari bilan faol ishtirok etib borishi, pedagogik ish faoliyati davomida chop etilgan badiiy-ilmiy maqolalar ustida ishlashi va amaliyotda qo‘llashi, mavzu doirasida o‘quv-seminarlar, ilmiy ma’ruzalar hamda nazariy va amaliy ochiq darslar tashkil etib borishi darkor. Jumladan, o‘quvchi-yoshlarning sifatli ta’lim olishi jarayonida bosma nashrlarda chop etilgan maqolalar yuzasidan ochiq darslar va ma’lum ijodiy fan to‘garaklarining tashkil etib borilishi ham zamonaviy ta’limning yana bir yangicha ko‘rinishini namoyon etadi.

Demak, o‘qituvchi dars o‘tish jarayonida davriy nashrlar materiallaridan foydalanish, o‘tiladigan fan yuzasidan amaliy darslar yoki qator to‘garaklar tashkil etilishi, bu o‘quvchi-yoshlarining zamonaviy ta’lim olish samaradorligini oshiribgina qolmay, ularning odob-axloq ko‘nikmalarini rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Bunda chop etilgan maqola yohud hikoyalar asosida matnlar hamda qator topshiriqlar, savol va javoblari tuzilishi, maqola mazmuni yuzasidan insholar yozilishi, topshiriqlar berilishi o‘quvchining ta’lim olishdagi faolligini oshirib, fikr doirasini boyitishiga, nutqining ravonlashuviga va dunyo qarashining kengayishiga, shuningdek, tahliliy-tanqidiy fikrlashiga, ma’lum bir mavzu yuzasidan o‘zining shaxsiy xulosasini chiqarishiga o‘rgatadi. Va bu talab o‘qituvchining zimmasidagi sharafli mas’uliyatni yanada oshiradi.

Endilikda o‘qituvchi-pedagoglar akademik nashrlar bilan uzviy bog‘lanishi, o‘zining ilmiy maqolalarini muntazam chop ettirib turishi va qator bosma nashrlarda chop etilgan maqolalar yuzasidan amaliy hamda nazariy dars soatlarini tashkil ettirib borishi orqali faollikni doimiy ushlab turishi uning kasbiy faoliyatining o‘sishi va o‘quvchi-yoshlarning uzluksiz zamonaviy ta’lim olishini yana bir bor mustahkamlab beradi.

O‘qituvchining asosiy vazifasi – bolalarni voqelik, atrofdagi dunyo bilan tanishtirish; hayotni idrok etishni o‘rgatish. Kognitiv ta’lim faoliyatini shakllantirish muammosi bugungi kunda dolzarbdir.

Xulosa shuki, ta’lim tizimida pedagoglarning ilmiy salohiyatini oshirish borasida sohaga oid davriy nashrlarning o‘qituvchi kasbiy kompetentligini rivojlantirishdagi muhim o‘rnini belgilab olish joiz. Shuningdek, bolalar nashrlarining maktab o‘quvchilarini sifatli ta’lim olishi va ta’lim-tarbiya jarayonidagi ijobiy ko‘rsatgichlarini yanada o‘stirish maqsadga muvofiq. Ushbu amaliyotlar hamda olib borilayotgan sa’y-harakatlar tizimning tubdan isloh bo‘layotganini anglatadi, ya’ni bu jarayonda o‘qituvchi-pedagoglar kasbiy malakalarini muntazam oshirib turishlari sohadagi istiqbolli yo‘l sifatida tan olinishiga sabab bo‘ladi. Demakki, taraqqiy etib borayotgan texnika asrida ma’naviy dunyoni ma’rifat nuri birla aslicha qoldirish, kitoblar va bosma nashrlar orqali bilimlar xazinasini boytish darkor. Zero, hech bir ma’lumot manbaasi vositalari (televideniі, radio, telefon, kompyuter kabilar) davriy nashrlar, kitoblar beradigan zavqni, tuganmas va o‘chmas bilimlarni bera olmaydi.

Oynisa MUSURMANOVA,
Oila va xotin-qizlar qo'mitasi huzuridagi "Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot instituti direktor o'rinbosari, Respublika "Oqila ayollar" harakati yetakchisi, p.f.d., professor

OLIY TA'LIM TIZIMIDA ILM-MA'RIFATLI OQILA QIZLARNING IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLLIGINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo'lajak ilm-fan bilan shug'ullanuvchi iqtidorli qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishning mazmuni, yo'nalishlari, pedagogik shart-sharoitlari, omillari, bosqichlari, indikatorlari ilmiy-nazariy jihatdan talqin etilgan, muallif tomonidan oliy ta'lim tizimida ilm-ma'rifatli oqila qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Iijtimoiy-siyosiy faollik, ijtimoiy muhit, mikromuhit, makromuhit, ijtimoiy-pedagogik omil, ilmiy-ma'rifiy shart-sharoit, mafkuraviy immunitet, an'anaviy hamda innovatsion shakl, metod va vositalar, fuqarolik pozitsiyasi, olima va oqila qizlar, qobiliyat va intellektual salohiyat bosqichlari, ijtimoiy-kommunikatsiya jarayoni.

В данной статье научно и теоретически осмыслены содержание, направления, педагогические условия, факторы, этапы, показатели повышения общественно-политической активности будущих талантливых девушек, занимающихся наукой, автором даны рекомендации по совершенствованию общественно-политической активности образованных интеллигентных девушек в системе высшего образования.

Ключевые слова. Общественно-политическая активность, социальная среда, микросреда, макросреда, социально-педагогический фактор, социально-педагогические условия, идеологический иммунитет, традиционные и инновационные формы, методы и средства, гражданская позиция, образованные, интеллигентные и ученые девушки, этапы способностей, интеллектуальный потенциал, процесс социальной коммуникации.

In this article, the content, directions, pedagogical conditions, factors, stages, indicators of increasing the socio-political activity of future talented girls involved in science are scientifically and theoretically comprehended, the author gives recommendations for improving the socio-political activity of educated intelligent girls in the higher education system.

Key words. Socio-political activity, social environment, microenvironment, macroenvironment, socio-pedagogical factor, socio-pedagogical conditions, ideological immunity, traditional and innovative forms, methods and means, citizenship, educated, intelligent and scientific girls, stages of abilities, intellectual potential, the process of social communication.

O'zbekiston mustaqilligi yillarida globallashuv jarayoni talablariga mos ijtimoiy-siyosiy faol avlodni tarbiyalash masalasi davlat siyosatining ustuvor masalalaridan biriga aylandi. Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan olg'a surilgan "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da ta'kidlanganidek: "Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirishda jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazargaega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish" mamlakatni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Chunki, globallashuv, integratsiya jarayonida barcha sohalardagi shiddat bilan kechayotgan taraqqiyot bo‘lajak mutaxassislarning ijtimoiy faolligini taqozo etadi. Shu bois, ularning iqtidori, iste'dodi, qobiliyati, intellektual salohiyati, kreativ va sog‘lom tafakkurini jamiyat talablariga mos rivojlantirishdan davlat va jamiyat manfaatdordir.

Darhaqiqat,”Ijtimoiy faollikning o‘zi nima? Nima sababdan bugungi kunda yoshlarda ijtimoiy faollikni tarbiyalashga davlat ta’lim siyosati darajasida qaralmoqda?”.

Lug‘atlarda izohlanishicha “Ijtimoiy faollik-ijtimoiy sub'ektlar (jamiyat,tabaqa, guruh va shaxslar)ning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtirokining, mehnat hamda madaniy-ma’rifiy faoliyatining kuchayishi,qonunda belgilab qo‘yilgan huquq va burchlarini to‘liq amalga oshirishga intilishi” demakdir. Shuningdek, ‘‘ijtimoiy faollik shaxsning jamiyatda o‘z o‘rnini topishi va xulq atvorini ongli ravishda boshqarishniing asosiy sharti hisoblanadi. Ijtimoiy tarbiya esa tarbiyaning muhim bir shakli, butun jamiyat, xalq, millat va tabaqaga ko‘rsatilgan maqsadga muvofiq ma’naviy ta’sirni ifoda etadigan tarbiya”dir.

Bizning nazarimizda ijtimoiy faollik – shaxsning jamiyat taraqqiyotini ijtimoiy-siyosiy,ma’naviy-ma’rifiy,yaratuvchanlik hamda insonparvarlik siyosati mazmun va mohiyatini ongli ravishda bilishi hamda unga kreativ yondoshuv asosida amal qilishi demakdir.Ijtimoiy tarbiya esa-shaxsning mavjud intellektual salohiyatini ijtimoiy-siyosiy ongi va tafakkurining mahsuli sifatida jamiyat taraqqiyoti uchun safarbar etishga tayyorlash demakdir (Mualliflik yondoshuvi).

Ijtimoiy faollik natijasi shaxs ongi va tafakkuri mahsuli sifatida amaliy faoliyatda o‘zini namoyon etadi.ijtimoiy faolligi demokratik fuqarolik jamiyati barpo etishning negizi hamda mamlakatimizni dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlar qatoridan o‘rin olishlarida muhim omil hisoblanadi. Shu bois, mamlakatimizda qizlarni jahon standartlariga mos raqobatbardosh mutaxassis kadrlar bo‘lib yetishishlari bilan bir qatorda, ularni ijtimoiy faol fuqaro sifatida tarbiyalash davlat ta’lim siyosatining ustuvor masalalaridan biriga aylangan.

Tadqiqot ishlari natijasi tahlillari shundan dalolat beradiki,bo‘lajak ilm-fan bilan shug‘ullanuvchi qizlarningijtimoiy faolligini shakllantirishning ijtimoiy-siyosiy mexanizlari, uning tarkibiy komponentlari, manbalari, shart-sharoitlari, mazmuni va samarali shakl va metodlari globallashuv sharoiti talablari asosidaetarlicha tasnif etilmagan. Shuningdek,ijtimoiy faollikni shakllanganligini belgilovchiijtimoiy-pedagogik indikatorlari ishlab chiqilmagan.

Bizning ilmiy xulosalarimizga ko‘ra bo‘lajak ilm-fan bilan shug‘ullanuvchi iqtidorli qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishda to‘rtta ustuvoryo‘nalishlarga e'tiborni ko‘chaytirish lozim:

– bo‘lajak ilm-fan sohibalaridagloballashuv jarayoni talablariga mos ijtimoiy-siyosiy faollik indikatorlarini shakllantirish;

– umuminsoniy va milliy demokratik qadriyatlarga sodiqlik asosida zamonaviy keng dunyoqarash va bag‘rikenglikni rivojlantirish;

– ma’naviy-ma’rifiy tarbiya negizida yosh qizlarda milliy qadriyatlar vositasida mafkuraviy immunitet va milliy o‘zlikni anglashni shakllantirish;

– jamiyat taraqqiyotida har bir shaxso‘z intellektual salohiyati, ijodkorligi, tashabbuskorligi va tadbirkorliginikreativ tafakkur mezonlariasosida namoyon etish zamirida fuqarolik pozitsiyasini amaliy hayotda namoyon etishini takomillashtirishdan iboratdir.

Mazkur yo‘nalishlar asosida ilm-fan bilan shug‘ullanuvchi iqtidorli qizlarning kasbiy faoliyatida namoyon bo‘ladigan ijtimoiyfaollikning bir qancha indikatorlari mavjud bo‘lib,biz ularni quyidagi mazmunda taklif etdik:

– mamlakatimizda yoshlarga, xotin-qizlarga oid davlat siyosatining asoslarini g‘oyaviy-siyosiy mohiyatini nazariy va amaliy jihatdan anglab yetish va unga faoliyati jarayonida metodologik asos sifatida amal qilish;

– bo‘lajak ilm-fan bilan shug‘ullanuvchi iqtidorli qizlarningo‘z huquq va burchlarini mukammal bilishlari va ularga og‘ishmay amal qilishlari;

– jamiyatda bo‘layotgan tub o‘zgarishlar va ularning mazmun va mohiyatidan xabardorlik;

– jamoa va jamiyat manfaatlarini o‘z manfaatidan yuqori qo‘yish;

– vatan,xalq,millat ravnaqi yo‘lida butun kuch, bilim va imkoniyatlarini safarbar etish;

– ijodkorlik,tashabbuskorlik hamdao‘z faoliyatining har bir turiga kreativ tafakkur bilanyondoshish (o‘qish,o‘yin, ijtimoiy foydali mehnat) malaka va ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

– o‘z qobiliyati va intellektual salohiyatini oilasi, mahallasi, maktab yoki oliy ta’lim muassasi jamoasi manfaatlari yo‘lida saxiylik bilan namoyon etish;

– atrof-muhitda bo‘layotgan vaqyea-hodisalarga sezgirlik va ogohlik bilan munosabatda bo‘lish;

– milliy mintalitetimizga xos diantologik qoidalar,mezonlarga og‘ishmay amal qilish;

– mafkuraviy immunitet orqaliturli yot mafkuraviy oqimlar,g‘oyalarga nisbatan murosasizlikni o‘z amaliy faoliyatida namoyon etish;

– umuminsoniy va milliy qadriyatlarga nisbatan hurmat va ehtiromni nazariy va amaliy jihatdan isbotlash;

– bo‘sh vaqtlariniiqtidorlari, intilishlari, qiziqishlari, qobiliyatlari bo‘yicha maqsadli,ijtimoiy foydali tashkil etish;

– sog‘lom turmush tarzi asosida hayot kechirish,turli illatlarga nisbatan murosasiz bo‘lish;

– globallashuv jarayoni talablaridan kelib chiqqan holda tolerantlik tafakkuri asosida turli millat vakillari, ularning milliy an’analari, tili, dini,madaniyati, san’atiga nisbatan hurmat va ehtiromini ko‘rsatish;

– shaxsiy refleksiya talablariga rioya etgan holda o‘z faoliyatini doimiy nazoratda ushlay olish, vaqtdan to‘g‘ri foydalanish, natijani oldindan ko‘ra bilish qobiliyatini namoyon etish.

Albatta bo‘lajak ilm-fan bilan shug‘ullanuvchi iqtidorli qizlarningijtimoiy-siyosiy faolligini belgilab beradigan mazkur indikatorlarning hayotiyligi, zamonaviyligi, ilmiy va metodik jihatdan asoslanganligi muhim rol o‘ynaydi.

Bo‘lajak ilm-fan bilan shug‘ullanuvchi iqtidorli qizlarning ijtimoiy-siyosiyfaolligini shakllantirish va ularning natijasini ijtimoiy-pedagogik jihatdan baholash murakkab ijtimoiy-siyosiyjarayon hisoblanadi.Ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun avvalo”Bo‘lajak mutaxassislarda ijtimoiy-siyosiy faollikqanday mexanizm asosida shakllantiriladi?”-degan savolga javob topish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot natijalari shundan dalolat beradiki bo‘lajak ilm-fan bilan shug‘ullanuvchi iqtidorli qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishning g‘oyaviy-ijtimoiy manbalari mavjud bo‘lib,ulardan ta’lim muassasalarida dars va darsdan tashqari bo‘sh vaqtda shug‘ullaniladigan mastaqil ta’lim jarayonida foydalanish mutasaddi mutaxassislar, o‘qituvchilardan yuksak pedagogik mahorat talab etadi.

Ya’ni ularni quyidagicha tasniflash mumkin:

– barcha o‘quv fanlaridan darslik materiallari, metodik materiallari (o‘quv-metodik qo‘llanmalar, ommabop metodik risolalar, ilmiy tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan tavsiya va takliflar,tarqatma materiallar va b.q.);

– siyosiy-huquqiy xarakterdagi me'yoriy hujjatlar(qonunlar, Prezident Farmon va qarorlari,hukumat qarorlari, davlat dasturlari,tegishli vazirlik va idoralarning huquqiy-me'yoriy hujjatlari va b.q.);

– umumyosh qizlar manfaatlari yo‘lida ishlab chiqilgan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy loyihalar;

– OAV, media materiallar;

– xalqaro va milliy xarakterdagi ijtimoiy hayotda to‘plangan ilg‘or tajribalar shular jumlasidandir. Ularda jamiyatning yangi-yangi ehtiyojlari, g‘oyalari va ijtimoiy mezonlari o‘z aksini topgan.

Umuman bu o‘rinda ta'lim-tarbiyada ichta asosga suyanish maqsadga muvofiqdir: birinchisi, avlod-ajdodlarimizning oqila ayollari ma'naviy merosiga tayanish; ikkinchisi,milliy va xalqaro zamonaviy ilm-fan, texnika va texnologiya yutuqlariga; uchinchidan,ijtimoiy hayotda bo‘layotgan tub o‘zgarishlar, vaqyea- hodisalar, milliy va xalqaro hayotiy tajribalarga suyanish. Bular bo‘lajak ilm-fan bilan shug‘ullanuvchi iqtidorli qizlar ijtimoiy faolligini shakllantirishdagi tarbiyaviy ishlar uchun tayanch manbai hisoblanadi. Bo‘lajak ilm-fan bilan shug‘ullanuvchi iqtidorli qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishda mamlakatimiz va dunyo yoshlari,qizlari hayotidagi kundalik yangiliklar asosida ularning o‘zaro muloqot almashinuvi, ya'ni ijtimoiy-kommunikatsiya jarayonini ta'minlash eng samarali natijalarga olib keladi. Zero, ijtimoiy mavzulardagi kommunikatsiya jarayonida ishtirok etgan yoshlar o‘z bilim va tajribalarini sinovdan o‘tkazish bilan birga tengdoshlari o‘rtasida targ‘ibot ishlarini olib boradilar va shu asosda ularni ham faollikka undash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ayniqsa ushbu metod uyushmagan iqtidorli yosh qizlar qatlami hamda ijtimoiy-huquqiy xavfli guruh qizlarni birlashtirishda,ijtimoiy hayotga moslashtirishda ijobiy samara beradi.

Bo‘lajak ilm-fan bilan shug‘ullanuvchi iqtidorli qizlarning ijtimoiy-siyosiyfaolligini oshirish samaradorligi ushbu jarayonda jamiyatning barcha institutlar ya'ni, ta'lim muassasalari, yoshlar agentligi,tegishli vazirlik hamda idoralar, oila,mahalla,”Olimalar ”jamiyati, ‘‘Oqila ayollar” harakati va boshqa yoshlar masalalari bilan shug‘ullanuvchi fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligiga bog‘liqdir.Bo‘lajak mutaxassislarni g‘oyaviy yetuklik sari boshlash uchun o‘z-o‘ziga ishonch hissini uyg‘otish kerak.

Shuningdek, bo‘lajak ilm-fan bilan shug‘ullanuvchi iqtidorli qizlarijtimoiy-siyosiy-faolligini rivojlantirishga qaratilgan ba'zi muhim chor-tadbirlarni ham amalga oshirish bu boradagi ishlar samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

– mobil internet foydalanuvchilarga mo‘ljallangan yosh qizlarning intellektual salohiyati va ijtimoiy faolligini yanada oshirishga xizmat qiladigan milliy intellektual o‘yinlar mazmunini ishlab chiqish, normativ-huquqiy hujjatlarni targ‘ib etuvchi alohida saytlar ochish maqsadga muvofiqdir;

– tegishli vazirlik va idoralar tomonidan mamlakatimizda turli sohalarda ta'lim olayotgan ilm-fan bilan shug‘ullanuvchi iqtidorli qizlar haqida hujjatli ommabop filmlar, teleradio ocherklar,risolalar,internet videoroliklari yaratish, ijtimoiy saytlarda, OAVda maxsus ruknlar tashkil etish, ommaviy axborot vositalarida mavzuga oid ko‘rsatuv va eshittirishlar berib borish zarur;

– respublikada yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish bo‘yicha vazirlik, idoralar, ijodkor, ijtimoiy-siyosiy faol xotin-qizlar,hokimlik vakillik organlari rahbarlari bilan ijtimoiy tarmoqlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri uzatiladigan ochiq muloqotlar tashkil etish;

– uzluksiz ta’lim tizimida bo‘lajak ilm-fan bilan shug‘ullanuvchi iqtidorli qizlarijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiluvchi maxsus o‘quv kurslari, fakultativ mashg‘ulotlar mazmunini ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish;

– ijtimoiy xarakterdagi muammolar bo‘yicha to‘garaklar tashkil etish, bitiruv malakaviy ishlar, ilmiy-ijtimoiy loyihalar tanlovlarini tashkil etish hamda Respublika miqyosida mavzuga oid an’anaviy ko‘rik-tanlovlar, ilmiy-amaliy Forum tashkil etish bo‘lajak ilm-fan bilan shug‘ullanuvchi iqtidorli qizlarning g‘oyaviy-siyosiy kompetentligini oshishida muhim ahamiyat kasb etadi.

– uyushmagan, ijtimoiy xatar guruh, boquvchisini yo‘qotgan chin yetim, imkoniyati cheklangan bo‘lajak ilm-fan bilan shug‘ullanuvchi iqtidorli qizlarni ham qiziqishlariga ko‘ra ijodiy va kasb-hunar to‘garaklariga imtiyozli jalb etishni takomillashtirish mexanizmini belgilab beruvchi Konsepsiya yaratilmog‘i davr talabidir.

Shunday qilib,bo‘lajak ilm-fan bilan shug‘ullanuvchi iqtidorli qizlarningijtimoiy faolligini shakllantirish davr talabi bo‘lib,ushbu muammoning ilmiy, ijtimoiy-pedagogik asoslarini, shart-sharoitlarini, ta’lim-tarbiya jarayonida amalga oshirish mexanizmini bilish va unga ijodiy yondoshish uzluksiz ta’lim tizimi mutaxassis o‘qituvchilari hamda fuqarolik jamiyati institutlari mutaxassis xodimlaridan, olima-yu oqila ayollaridan ijtimoiy-siyosiy madaniyatni, ijodiy kompetentlikni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 23-avgustdagi “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni.

3. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktabrdagi ‘‘Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi O‘RQ-576-son Qonuni.

4. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 7-martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-87-son Farmoni.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7 -maydagi “Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3698-son Qarori.

8. Narbayeva T., Musurmanova A. Priority Areas Of Spiritual, Moral And Physical Education Of Youth In The Family. Ilkogretim Online, 20 (3), 2021. 1648-1656.

9. Мусурманова А. Консептуалные основы формирования духовной культуры молодежи в системе непрерывного образования. Проблемы педагогики, 2019. (1), (40), – С. 5-7.

10. Мусурманова А. Профессионализм педагога в духовном формировании подростков средствами книг. Аадемй, 2019. (2 (41)), – С. 77-79.

11. Musurmanova A. PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES-THE FACTOR OF EDUCATIONAL EFFICIENCY. Thematics Journal of Education, 2022. 7 (4).

Dilfuza SHOMALIKOVA,
T.N. Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari
ilmiy-tadqiqot instituti mustaqil tadqiqotchisi

BOLALAR DAVRIY NASHRLARI ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING ODOB-AXLOQ KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijodiy faoliyatni rivojlantirishda bolalar nashrlarining o‘rni batafsil ochib berilgan. Shuningdek, muallif tomonidan bolalar jurnalistikasi, bolalar matbuoti, bolalar ommaviy axborot vositalaridan foydalanish yangi yechimlari haqida fikr yuritilgan. Hamda muallif tomonidan bolalar nashrlaridan o‘quv materiallari sifatida foydalanish bo‘yicha didaktik tavsiyalar, bolalar va yoshlar uchun bosma ommaviy axborot vositalaridan ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanishning ijtimoiy-pedagogik funksiyalari, bolalar davriy nashrlari bilan ishlash natijasida ta’lim oluvchilarda shakllanadigan ta’limiy faoliyat natijalari keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, ijodiy faoliyat, bolalar nashrlari, pedagogik salohiyat, uzluksiz ta’lim, o‘quvchi qiziqishi, bolalar matbuoti, axborot makoni, bolalar jurnalistikasi, bolalar ommaviy axborot vositalari, o‘quv materiallari, ijtimoiy-pedagogik funksiyalar, ta’limiy faoliyat natijalari.

В статье подробно раскрываются роль детских изданий в развитии творческой активности младших школьников пространства. Также, автор прокомментировал детскую журналистику, детскую прессу, новые решения использования детских средств массовой информации. Автор представляет дидактические рекомендации по использованию детских изданий в качестве учебных материалов, социально-педагогические функции использования печатных изданий для детей и молодежи в образовательном процессе, результаты учебной деятельности, которые формируются у учащихся в результате работы с детской периодикой.

Ключевые слова. Младшие школьники, творческая деятельность, детские издания, педагогический потенциал, непрерывное образование, ученический интерес, детская пресса, информационное пространство, детская журналистика, детские средства массовой информации, учебные материалы, социально-педагогические функции, результаты воспитательной деятельности.

The article reveals in detail the role of children's publications in the development of creative activity of younger schoolchildren information space. Also, the author commented on children's journalism, children's press, new solutions for the use of children's media. The author presents didactic recommendations on the use of children's publications as educational materials, socio-pedagogical functions of using printed publications for children and youth in the educational process, the results of educational activities that are formed by students as a result of working with children's periodicals.

Key words. Primary schoolchildren, creative activity, children's publications, pedagogical potential, lifelong education, student interest, children's press, information space, children's journalism, children's media, educational materials, socio-pedagogical functions, results of educational activities.

Bugungi kunda jamiyatda yuz berayotgan katta o‘zgarishlar maktab oldiga o‘quv faoliyatning barcha jabhalarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijodiy faoliyatni rivojlantirish hamda jamiyatda shaxs sifatida shakllantirish bilan bog‘liq muammolar yechimini hal etish vazifasini qo‘ymoqda. Bu muammolarning yechimini topishda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida bolalar nashrlari vositasida ijodiy faoliyatni rivojlantirish asosiy omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Zamonaviy dunyoda bolalar davriy nashrlari katta pedagogik salohiyatga ega. Uzluksiz ta’limda o‘quvchi qiziqishini shakllantirish uchun bolalar matbuoti materiallaridan foydalanishning pozitiv ahamiyatini ilmiy tadqiqot ishlarida, pedagog, psixolog olimlar ko‘rsatib o‘tishgan. Zamonaviy dunyo turli-tuman ma’lumotlar bilan to‘ldirilgan. Kitoblar va an'anaviy ommaviy axborot vositalaridan tashqari – televidenie, radio, turli shakllardagi ko‘plab internet resurslari – ijtimoiy tarmoqlar, veb-saytlar, podkastlar, videobloglar va h.k. paydo bo‘lib bormoqda. Zamonaviy axborot makonining o‘ziga xos jihati uning doimiy ravishda to‘ldirilib borilishidir. Monitoring qilish natijasida ko‘rib turibmizki, endi hamma kontent yaratayapti va ularning soni geometrik progressiya bo‘yicha ko‘payib bormoqda.

Bunday betartib axborot makonida pedagoglar uchun ta’lim oluvchilar bilan ta’lim-tarbiya yo‘nalishida muloqot qilish tobora qiyinlashmoqda. Bugungi kunda faqatgina o‘qituvchi mavq'i va vakolati bilan hamda darsliklar yordamida ta’lim oluvchilarning o‘quv materialiga e'tiborini qaratish mumkin emas chunki, boshqa axborot manbalari bilan raqobat juda katta. Haqiqatni aytganda, “raqobatchilar” maktab sumkasining cho‘ntagiga bemalol joylashadi va ta’lim-tarbiya jarayonida ta’lim oluvchilarni doimiy chalg‘itib kelmoqda. Ushbu tengsiz kurashda g‘alaba qozonish uchun yangi pedagogik yechimlar zarur. Pedagoglar ta’lim oluvchilar bilan ta’lim-tarbiya yo‘nalishida samarali muloqot qilishi uchun o‘quv materiallarini izlash, tanlash, yetkazish, o‘zlashtirish, mustahkamlash, baholashning zamonaviy pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqishlari, o‘quv materiallarini ta’lim oluvchilarga taqdim etish shakllarini diversifikatsiya qilishlari talab etilmoqda.

Darhaqiqat, bugunga kelib globallashuv jarayoni tezkor sur’atlarda avj oldi. U barcha jabhalarni, jumladan, jurnalistika sohasini ham tamomila zabt etdi. Albatta, bolalar matbuoti ham bu jarayondan tashqarida emas. Har bir nashr bolalar va o‘smirlarni tarbiyalashda faol va o‘z o‘rniga ega. Shu ma’noda bugungi kunda kitob o‘qish va unga munosabat bir qadar susaygandek. Chunki aksariyat yoshlar ko‘proq kompyuter va ijtimoiy tarmoqlarga berilib ketishdi. Istalgan yangiligu axborotlarni bu vositalardan xohlagancha olish mumkin. Achinarlisi, kitob o‘qish uchun vaqt sarflashga hojat yo‘qdek. Aslida, hech bir axborot vositasi, kino yoki videofilm badiiy asar o‘rnini bosolmaydi.

Kitobning, gazeta-jurnallarning yuzi olovli, yuragimizni, umrimizni isitadi, taft beradi. O‘ziga tortadi. Ammo bu nashrlarni ko‘rmagan, qo‘liga tutmagan, ta’mini totmagan bola, agar shu nashr unga tavsiya qilinmasa, qanday yo‘l tutadi, uni qanday qilib o‘qiydi (D.Sh.).

O‘quv jarayonida bolalar ommaviy axborot vositalaridan foydalanish ana shunday yangi yechimlardan biri bo‘lib, avvalambor ta’lim muloqotini takomillashtirishga qaratilgan. Bolalar ommaviy axborot vositalari turli pedagogik vazifalarga erishadigan ajoyib o‘quv materialidir.

Bolalar davriy nashrlarining tematik xilma-xilligi ta’lim oluvchilarning o‘qishi orqali ularning qiziqishlarini aniqlash imkonini beradi. Ta’lim-tarbiya jarayonida ta’lim oluv-

chilarning e'tiborini mutoalaga qaratish orqali, bolalar nashrlaridan o'quv materiallari sifatida foydalanish bo'yicha quyidagi didaktik tavsiyalarga e'tiboringizni qaratmoqchimiz:

· nashrlardagi materiallar asosida ta'limiy so'z o'yinlari;

· matn tugatishni uylab topish;

· nashrlardagi hikoya va she'rlar syujetlari bo'yicha rollarni taqsimlash hamda ijro etish;

· nashrlardagi hikoya va she'rlar syujetlari bo'yicha matn tuzish;

· nashrlardagi rasmlar bo'yicha insho yozish;

Ommaviy axborot vositalari bolalar ongini shakllantirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Erta bolalikdan odam turli xil ma'lumot manbalaridan ta'sirlanadi. Shu bilan birga, axborotni tahlil qilish, real faktlarni yolg'on fikrlardan (feyklardan) ajratish qobiliyatiga ega bo'lmagan bolalar auditoriyasi ommaviy axborot vositalarining ta'siriga eng ko'p duchor bo'ladi. Shu munosabat bilan, yosh avlod uchun mo'ljallangan maxsus ommaviy axborot vositalari, birinchi navbatda, ijtimoiy mas'uliyatni xis qilishi va shaxsning birlamchi ijtimoiylashuvini amalga oshirish vazifasini o'z zimmasiga olgan.

Umuman jurnalistika, ayniqsa, bolalar va yoshlar jurnalistikasi jamiyatda o'ziga xos funksiyalarni bajaradigan maxsus ijtimoiy institutdir. Yosh avlod uchun bosma davriy nashrlarning ijtimoiy vazifalarini shakllantirish pedagogik g'oyalar va jamiyat qarashlari ta'sirida amalga oshiriladi. Ushbu konsepsiyaga asoslanib, biz bolalar va yoshlar uchun bosma ommaviy axborot vositalaridan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanishning quyidagi ijtimoiy-pedagogik funksiyalarini aniqladik:

1. Informatsion-kognitiv funksiya – bolalar davriy nashrlari ularga o'zi yashayotgan dunyo haqida to'liq va batafsil ma'lumot beradi, ularni turli ma'lumotlar, tarixiy voqealar haqidagi bilimlar bilan boyitadi.

2. Ma'rifiy funksiya – bolalar auditoriyasi bilimga qiziqishi va bilim egallashga bo'lgan faol intilish bilan ajralib turadi, shuning uchun nafaqat jamiyatda sodir bo'layotgan voqyealarni, balki inson mehnati mahsullarini ham to'g'ri idrok etish va baholash ko'nikma va malakalarini shakllantirish zarurati tug'iladi. Shu munosabat bilan bolalar davriy nashrlarining maqsadi yosh avlodni jamiyatda to'plangan ma'naviy qadriyatlarga yo'naltirish, ularni qo'llash imkoniyatlari haqida ma'lumotlar berishdan iborat.

3. Tarbiyaviy funksiya – bolalar va o'smirlar auditoriyasiga mo'ljallangan davriy nashrlarning ta'lim-tarbiyaviy salohiyati juda katta. Bolalar matbuoti turli yoshdagi bolalar uchun axloqiy va estetik ko'rsatmalarning qimmatli va noyob tashuvchisi hisoblanadi. Bolalar davriy nashrlarida yaxshi va yomon, go'zal va dahshatli, fojiali va kulgili, do'stlik, sevgi, go'zallik, mas'uliyat, va boshqa estetik toifalar bolalarga tushunarli tarzda yoritib beriladi.

4. Ta'limiy funksiya – bosma davriy nashrlarga murojaat qilgan bolalar va o'smirlar auditoriyasi medialashgan jamiyatda hayot uchun zarur bo'lgan ma'lum bilim, ko'nikma va malakalarni oladilar. Bolalar davriy nashrlari ta'lim oluvchilarga o'qish, hisoblash, mantiqiy fikrlash va h.k. qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

5. Ijtimoiylashtirish funksiyasi – bolalar va o'smirlar davriy nashrlarining asosiy maqsadi shaxsni birlamchi ijtimoiylashtirishdir. Bolalar matbuotining konsepsiyasi quyidagilardan iborat: maksimal darajada bolalarga tushunarli publitsistik, ilmiy axborotni bolalikning turli davrlariga, o'quvchilarning yosh xususiyatlariga moslashtirgan holda fikrlash va idrok etishning tegishli shakllarida ishlab chiqish, uzatish. O'quvchilarni shaxs sifatida rivojlanishiga ko'maklashish, yosh fuqarolarni ijtimoiylashuvini ta'minlash.

6. Tashkilotchilik funksiyasi – turli yoshdagi bolalarga yo‘naltirilgan nashrlar o‘z sahifalarida jamiyat, jamoa, oiladagi xulq-atvor normalari bilan tanishtiradi, ularni turli mehnat faoliyatlari bilan tanishtiradi, kasb tanlashga yo‘naltiradi.

7. Madaniy-ma’rifiy funksiya – bolalar nashrlari bolalar va o‘smirlar ichki dunyosini boyitadi, bolani har tomonlama barkamol, sog‘lom, o‘z-o‘zini ta’minlay oladigan shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

8. Rekreativ funksiya – bolalar nashrlari o‘z sahifalarida dam olish va zavqlanishni o‘z ichiga olgan ‘‘psixologik dam olish’’ vazifalarini ham bajaradi. Shu bilan birga, rekreatsion faoliyatning asosiy shakllari “dam olish”, “o‘yin”, “kulgi” hisoblanadi. Ko‘pgina gazeta va jurnallarda o‘yin elementlari mavjud bo‘lgan krossvordlar, jumboqlar, hikoyalar nashr etiladi, bu esa o‘quvchilarning faol qiziqishini uyg‘otadi, bolaning ruhiyatini rivojlantirishga hissa qo‘shadi. Bolalar jurnali va gazetasidagi dam olish funksiyasi sun’iy ravishda simulyasiya qilingan voqyelik orqali aks ettiriladi, bu o‘yinning asosiy mexanizmiga aylanadi. Bolalar matbuotida taqdim etilgan o‘yin shakllari yoshga bog‘liq idrok psixologiyasiga mos keladi va tarixiy, ma’naviy va axloqiy mavzularni ochib beradi.

9. Reklama-ma’lumot funksiyasi – bu funksiya so‘nggi paytlarda kuchli e’tibor qaratilayotgan yo‘nalishlardan biriga aylandi. Bolalar nashrlari o‘z mushtariylari, o‘quvchilari orasida jurnal yoki gazeta mazmuni bilan tanishtirish jarayonida bolalarni badiiy, ilmiy-ommabop kitoblar, rivojlantiruvchi o‘yinlar, tanlovlar, olimpiadalar, musobaqalar va ta’lim yo‘nalishlarini taqdimot va targ‘ib qiladi.

10. Kommunikativ funksiya – uning maqsadi yosh bolalar auditoriyasi o‘rtasida fikr almashish uchun maxsus axborot makonini yaratishdir. So‘nggi paytlarda bolalar nashrlari tomonidan amalga oshirilayotgan muloqot tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta’lim oluvchilarda media-madaniyatni shakllantirish dolzarb bo‘lib, u maktab o‘quvchilarining salbiy axborot xurujlaridan himoyasini, muloqot qilish ko‘nikmalarini, o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashni shakllantirishni, milliy qadriyat yo‘nalishlari tizimini yaratishni o‘z ichiga oladi. Ta’lim oluvchilarda insoniy, shaxsiy fazilatlarni, faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga ularni ijtimoiy sharoitga moslashtirishga xizmat qiladi.

Bolalar davriy nashrlari bola tarbiyasining o‘ziga xos pedagogik, axloqiy va estetik salohiyatidir. Bolalik davri – bu shaxsning uzluksiz shakllanishi, uning shaxsiy rivojlanishi. Bu murakkab jarayon “ijtimoiylashuv” so‘zi bilan belgilanadi. Shuning uchun “ijtimoiylashtirish” bolalar matbuotining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Ilmiy tadqiqotlar televidenie va internetning bolalar rivojlanishiga, ularning salomatligiga, jismoniy va ruhiy holatiga salbiy ta’siriga e’tibor qaratmoqda. Bizni ilmiy tadqiqotimizda faqat ushbu hodisaning ko‘p jihatlaridan biri – ommaviy axborot vositalarining bolalar shaxsiyatini shakllantirishga ta’siri qiziqtiradi. Bola shakllanmagan ruhiyati va tajribasizligi tufayli ma’lumotni tanqidiy baholay olmaydi, bu esa unga ma’lumotlarni o‘ylamasdan singdirilishiga va dastlabki insoniy qadriyatlarni almashtirishga olib keladi. Zararli ta’sirni kamaytirish uchun ota-onalar davriy nashrlardan ma’lumot olishni alternativ variant sifatida taklif qilishlari kerak.

Birinchidan, o‘qish bolani fikrlashga, tahlil qilishga, ijodkorlikni rivojlantirishga o‘rgatadi va uning shaxsini shakllantiradi. O‘qish dunyoqarashni kengaytiradi va nutqni boyitadi, til va tasavvurni rivojlantiradi (...bolalar nashrlari kitobning bo‘laklari emas, aynan kitobdir... kitobga qo‘lini uzatgan xalq bolalarining ma’naviyati hamisha yetuk bo‘ladi. Ular o‘z ko‘zlagan cho‘qqilarini, so‘zsiz, zabt etadi. (D.Sh.)).

Ikkinchidan, bolalar davriy nashrlaridan ma’lumot olish orqali bola fuqarolik jamiyatida shaxsi – o‘z-o‘zini anglash darajasi yuqori bo‘lgan shaxs sifatida shakllanadi. Albatta, biz bolalar davriy nashrlari deganimizda ko‘ngilochar jurnallar, yot qadriyatlarini

targ‘ib qiluvchi ommaviy axborot vositalarini nazarda tutmayapmiz. Bunday ommaviy axborot vositalari fikrlashga o‘rgatmaydi, balki bolaga salbiy ta’sir qiladi.

So‘nggi yillarda jamiyatda ta’lim maqsadlari va ularni amalga oshirish usullarini tushunishda keskin o‘zgarishlar ro‘y berdi. Kompetensiyalar, bilim, ko‘nikma va malakalarni ta’limning asosiy natijasi sifatida e’tirof etishdan boshlab, ta’limni o‘quvchilarni real hayotga tayyorlash jarayoni, faol fuqarolik pozitsiyani egallashga, hayotiy muammolarni muvaffaqiyatli hal etishga tayyor bo‘lish jarayoni sifatida tushunishga o‘tish sodir bo‘ldi.

Bugungi kunda maktab o‘quvchilari o‘rtasida metasubyekt faoliyatini shakllantirish eng istiqbolli yo‘l sifatida tan olingan. Metasubyekt faoliyatining tarkibiy qismlaridan biri kognitiv universal ta’lim faoliyatidir. Ularning shakllanishi maktab ta’limi muvaffaqiyatining tarkibiy qismlaridan biridir. Bu tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Bolalar davriy nashrlarining boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalarda kognitiv universal ta’lim faoliyatini shakllantirishga ta’sirini o‘rganish jamiyatimizning keyingi rivojlanishini belgilab olish uchun zarurdir. Ushbu vaziyatni hisobga olgan holda o‘qish darslarida bolalar davriy nashrlaridan foydalanish orqali kognitiv universal ta’lim faoliyatini shakllantirish o‘ta muhimdir.

Bolalar nashrlari bilan ishlashning asosiy shakli darsdan tashqari o‘qishdir deb xisoblashadi, ammo biz bolalar davriy nashrlaridan o‘qish darslarida foydalanishni tavsiya qilamiz, bu yerda kichik yoshdagi o‘quvchilar bolalar nashrlarini o‘qishni o‘rganadilar, mustaqil ishlash usullarini o‘zlashtiradilar va natijada ularda kognitiv ko‘nikma shakllanadi. Ayniqsa, o‘qish darslarida, umuman, o‘quv jarayonida kichik yoshdagi o‘quvchilarning bilish faoliyatini shakllantirish ta’limning muhim muammolaridan biridir. O‘qituvchining asosiy vazifasi – bolalarni voqelik, atrofdagi dunyo bilan tanishtirish, hayotni tushunishga o‘rgatish. O‘qish darslarida bolalar o‘qishni tushunish orqali atrofdagi dunyoni bilib oladilar.

Bolalar nashrlari kichkintoylar qalbida kitobga mehr uyg‘otadigan ilk ko‘prik. Bugun mana shu zumrad ko‘prikning mustahkamlanishiga har birimiz o‘zimizning amaliy hissamizni qo‘shsak, shu millat, shu xalq uchun bitmas-tuganmas savobli ishga qo‘l urgan bo‘lamiz. Unutmang, o‘qigan millatning farzandlari er bo‘ladi! Zero, matbuot ichimizdagi ustunni quvvatlantiradigan – ziyo minbari, ziyo minorasidir! (D.Sh.)

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘rsida”gi PF-5847-son Farmoni. https://lex.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi” to‘g‘risidagi PF5712-sonli Farmoni. https://lex.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-son Farmoni. https://lex.uz.

4. Jumayev M.E. Boshlang‘ich ta’lim fanlarini o‘qitish metodikasi moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. II qism. – T., 2018.

5. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari – T.: 2006. CENTRAL ASIAN ACADEMIC JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCH ISSN: 2181-2489 VOLUME 2 | ISSUE 3 | 2022 157 UZBEKISTAN | www.caajsr.uz.

6. Maqsudov U.Q. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida xalq og‘zaki ijodi vositasida ijtimoiy faolligini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari // Toshkent davlat pedagogika universitetining Ilmiy axborotlari ilmiy-nazariy jurnali. –T., 2019, №3(19). B.53-56.

Zokir RAXIMOV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti,
‘‘Pedagogika’’ kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari doktori,
professor, Turon Fanlar Akademiyasining akademigi

OLIY KASBIY TA’LIMDA TALABALAR O‘QUV-BILISH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MOHIYATI VA MANTIQIY JIHATDAN TAHLILI

Annotatsiya

Maqolada ta’lim tizimi islohotlarni amalga oshirish sharoitida oliy ta’lim talabalarini o‘qitishda kompetentlikka asoslangan yondashuvga o‘tish uchun ularning ish beruvchilar va shaxsiy ta’lim ehtiyojlari talablariga javob beradigan kasbiy tayyorgarlik darajasini ta’minlash zarurati, oliy kasbiy ta’limda talabalar o‘quv-bilish kompetentligini rivojlantirish mohiyati va mantiqiy jihatdan tahlili masalalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Ta’lim, faollik, kompetentlik, tizim, jarayon, kasb, tayyorgarlik, tahlil, yondashuv, ehtiyoj, sifat, natija, daraja, rivojlanish.

В статье анализируются вопросы перехода к компетентностному подходу в обучении студентов высших учебных заведений в условиях реформирования системы образования, необходимости обеспечения уровня их профессиональной подготовки, отвечающего требованиям работодателей и индивидуальным образовательным потребностям, сущности и логичности развития учебно-познавательной компетентности студентов в высшем профессиональном образовании.

Ключевые слова. Образование, активность, компетентность, система, процесс, профессия, подготовка, анализ, подход, потребность, качество, результат, уровень, развитие.

The article analyzes the transition to a competency-based approach to the education of higher education students in the conditions of implementing educational system reforms, the need to provide a level of professional training that meets the requirements of their employers and personal educational needs, the essence of the development and logical analysis of student academic competence in higher professional education.

Key words. Education, activity, competence, system, process, profession, preparation, analysis, approach, need, quality, result, level, development.

O‘zbekistonda ta’lim tizimi islohotlarni amalga oshirish jarayonida shaxsning har tomonlama kamol topishi, yoshlarning samarali ta’lim olishi uchun keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Har bir bo‘lajak mutaxassis ta’lim tizimini isloh qilishning zarurligini tushunib yetishi va uning amaliyotda ta’lim muassasalari innovatsion jarayonlariga qo‘shilishdagi ahamiyatini anglab yetishi hamda yaratish imkoni mavjud bo‘lgan innovatsion maydonda o‘zini ko‘rish va eng muhimi, yangiliklarni o‘zlashtirishdan iborat.

Bugungi kunga kelib, Respublikamiz milliy ta’lim tizimining huquqiy asoslarini shakllantirish uchun keng sharoit yaratildi. O‘z navbatida, islohotlar ta’lim tuzilmasi va mazmun-mohiyatini takomillashtirish imkonini berdi. Shuningdek, mutaxassislik bo‘yicha bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy

talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi.

Hozirgi kunda amalga oshirilayotgan ta’lim sohasidagi qonunchilikdagi o‘zgarishlarga muvofiq, oliy kasbiy ta’limning yangi tizimi tegishli bilimlarni o‘z ichiga oladi. Bu esa oliy kasbiy ta’lim uchun kompetentlikka yo‘naltirilgan o‘quv dasturlarini ishlab chiqish zarurligini belgilaydi, uning natijalari talabalar o‘rtasida talab qilinadigan kompetensiyalarni shakllantirish bo‘lishi kerak. Yuqoridagilarga bog‘liq holda oliy ta’limda talabalarni o‘qitishda kompetentlikka asoslangan yondashuvga o‘tish ularning ish beruvchilar va shaxsiy ta’lim ehtiyojlari talablariga javob beradigan kasbiy tayyorgarlik darajasini ta’minlash zaruratidan kelib chiqadi.

Kompetentlikka ega bo‘lish ta’lim maqsadlarini aniqlash, ta’lim mazmunini tanlash, ta’lim jarayonini tashkil etish va ta’lim natijalarini baholashning umumiy tamoyillaridan foydalanishni taqozo qiladi. Respublikamizda kompetentlik, kompetensiyalar, oliy kasbiy ta’limni loyihalashda kompetentlikka asoslangan yondashuv, o‘quv-bilish kompetentligi faoliyat turlari va masalari bo‘yicha A.R. Xodjaboyev, N.A. Muslimov, O.A. Qo‘ysinov, B.A. Nazarova, X.Sh. Kadirov kabi bir qator olimlar izlanishlar olib borgan.

Bizning fikrimizcha: kompetentlikni rivojlantirishning asosiy g‘oyalari quyidagicha shakllantirilishi mumkin:

– kompetentlik ta’limning intellektual va mahorat komponentlarini birlashtiradi;

– kompetentlik tushunchasi nafaqat bilim va operatsion-texnologik komponentlarni, balki motivatsion, axloqiy, ijtimoiy va xulq-atvorni ham o‘z ichiga oladi;

– o‘quv natijalarini (bilim va ko‘nikmalar) belgilaydi;

– kompetentlik-muayyan vaziyatda, muayyan faoliyatda olingan bilim, ko‘nikma, tajriba va xulq-atvor yo‘llarini safarbar qilish qobiliyatini anglatadi;

– kompetentlik tushunchasi ta’lim mazmunini talqin qilish mafkurasiga asoslangan;

– kompetentlik yondashuvi asosiy ko‘nikmalarni identifikatsiyalashni o‘z ichiga oladi;

– kompetentlik nafaqat o‘quv jarayonida, balki atrof-muhit ta’siri ostida ham shakllanadi.

– “kompetentlik” tushunchasi protsessual tushuncha, ya’ni turlicha faoliyatda ham namoyon bo‘ladi va shakllanadi;

– kompetentlik yondashuvi ishlab chiqarishda tez-tez o‘zgarib turadigan texnologiyalarga insonning moslashishi zaruratidan kelib chiqdi.

Kompetentlik yondashuvining asosiy tushunchalari – “kompetensiyalar” va “kompetentlik” katta bahs-munozaralarga sabab bo‘ladi, bu tushunchalarni izohlashda noaniqlik yo‘q, garchi o‘tgan asrning 60-yillarida terminlar o‘rtasidagi farqlarni tushunish qo‘yilgan bo‘lsa ham. Kompetentlikka yo‘naltirilgan ta’lim “kompetentlik” tushunchasi umumiy kontekstida Amerikada 70-yillarda shakllangan (Massachusets universiteti) til nazariyasi bilan bog‘liq.

Xorijiy so‘zlarning qisqa lug‘ati quyidagi ta’rifni beradi: “kompetentlik (lotincha competens, competentis to‘g‘ri, qobiliyatli) – bilimdon, ma’lum bir sohada bilimdon; biror narsa qilish yoki qaror qabul qilish huquqiga ega, o‘z bilimi yoki vakolatiga ko‘ra biror narsani yaratish qobiliyatiga ega”.

Ensiklopedik lug‘atda “kompetensiya” tushunchasining quyidagi talqini berilgan (lot.dan. competo-men erishish; men mos), bilim sifatida, muayyan sohada tajriba, va

“kompetentlik” – muayyan qonuniy belgilangan shartlari, rasmiy, bilim, muayyan sohada tajribasi hisoblanadi.

Ta’lim bilan bog‘liq ilmiy kategoriya sifatida kompetensiyalarni o‘rganish uchinchi bosqichi, chunki 1990 yilda mehnat psixologiyasi umumiy kontekstida, kasbiy mahorat, kasbiy kompetentlik tushunchalari keng qamrovli ko‘rib chiqiladi .

Oliy kasbiy ta’limni rivojlantirish va modernizatsiya qilish dasturlari bitiruvchilarning kasbiy mahoratini shakllantirish va rivojlantirishga to‘liq hissa qo‘shadigan ta’lim muhitini yaratish zarurligini belgilaydi. Ta’lim zamonaviy kompetensiyalarga yo‘naltirilgan paradigma murakkab vazifalar bir qator oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak mutaxassislar faoliyati muvaffaqiyat va qulayliklarga erishishini belgilaydi. Ular orasida eng dolzarb va ahamiyatli vazifalarni aniqlash mumkin: ijodkor shaxsini rivojlantirishning ustuvorligi, uning o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘z-o‘zini takomillashtirish qobiliyati va o‘quv-bilish kompetentligini shakllantirish kabi.


Kompetentlik yondashuvi mafkurasi aslida amaliyotga qaratilgan ta’lim natijasida muayyan kasbiy vazifalarni muvaffaqiyatli uddalay olishida aks etgan kompetensiyalarni shakllantirishni nazarda tutadi. Shuning uchun kasbiy tayyorgarlik talabalar tomonidan amalga oshiriladigan kasbiy harakatlar va tadbirlar majmuasiga aylanishi, ya’ni o‘quv-kasbiy faoliyatni kasb-hunarga yaqinlashtirishi lozim. Bunday yondashuvda afzalliklarni payqash oson. Kasbiy va ta’lim jarayoni ijtimoiy-kasbiy tajriba sifat va miqdor jihatdan o‘zgarib, vaziyatlarni baholash, bashorat qilish va ularning muvaffaqiyatli yakunlanishiga olib keladigan aniq amaliy harakatlarni tanlash imkonini beradigan maqsadli ta’lim va kasbiy faoliyatni amalga oshirishda kasbiy yo‘naltirilgan vaziyatlarda mavzuni qamrab olish jarayoni sifatida paydo bo‘ladi.

Ko‘pincha bu tushuncha yuqori darajadagi malaka va professionalizmni ifodalash uchun intuitiv ravishda ishlatiladi. Kompetentlik mutaxassis tayyorlash sifati, mehnat faoliyati samaradorligi salohiyatining o‘ziga xos xususiyati sifatida qaraladi. Biz bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining kompetentligini kelgusida kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni egallash, ularni amalda qo‘llay olish va o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan doimiy intilish deb tushunamiz.

Oliy ta’limda bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilari zarur kompetensiyalarga ega bo‘lishi umumiy madaniy va kasbiy, ta’limiy faoliyatini davom ettirishga tayyor bo‘lishga imkon beruvchi poydevor sifatida xizmat qilish uchun mo‘ljallangan.

Yangi ta’lim standartlari mafkurasiga muvofiq, umumiy madaniy kompetensiyalar oliy ta’lim uchun zamonaviy jamiyat talablarini aks ettiruvchi kompleks shaklda, asosiy, universal, ular bitiruvchisi kasbiy va ijtimoiy faoliyat har qanday sohasida muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun imkon, ular, shuningdek, muayyan kelajak kasbiy faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bilim olishi lozim. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining umumiy madaniy kompetensiyalari bilim olish va haqiqiy vaziyat o‘rtasidagi aloqani o‘rnatish, to‘g‘ri ta’lim yo‘nalishini yaratish va uni amalga oshirish uchun harakatlar algoritmini ishlab chiqish qobiliyatini ifodalaydi. Ular o‘quv predmetlari mazmunining bir qismi bo‘lib, aniq muammolarni hal qilish uchun nazariy bilimlarni amalda qo‘llash, olingan bilim va ko‘nikmalarni majmuali qo‘llashga hissa qo‘shish, ta’lim sifatini integrativ tavsiflash imkonini beradi.

Kompetentlik tushunchasiga bir qator mahalliy va xorijiy olimlar o‘z ta’riflarini berganlar. Bizning fikrimizcha: Kompetentlik – bu nazariy bilimlar va kasbiy ko‘nikmalarni, shaxsiy sifatlarni faoliyatda samarali qo‘llay olishidir.



Huquqiy kompetentlik – ta'limning normativ-huquqiy hujjatlarini amaldagi qonun normalarini faol bilish ka o'z kasbiy faoliyatida to'g'ri foydalana olish, normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish malakasiga ega, qonunchilik normalari asosida qarorlar qabul qilish tajribasiga egalik.

O'quv-bilish kompetentligi – talabalarning mustaqil bilim olish faoliyatiga tayyorligi va ushbu kompetentlikkaga ega bo'lish, o'z-o'zini rivojlantirish, kasbiy rivojlanish maqsadiga erishish

Axborot kompetentligi – barcha sohalarda atrof-olamdagi ma'lumotlarga nisbatan faoliyat ko'nikmalari, zamonaviy axborot vositalariga ega bo'lish (televizor, magnitafon, telefon, faks, kompyuter, printer, modem, fotoapparat va boshqalar.) va axborot texnologiyalari (audio-video yozish, e-mail, ommaviy axborot vositalari, internet). Kerakli axborotni qidirish, tahlil qilish va tanlash, uni o'zgartirish, saqlash va uzatish.

Kommunikativ kompetentlik – tillarni bilish, atrofdagi va uzoqdagi kishilar va hodisalar bilan o'zaro aloqa qilish yo'llari, guruh, jamoada ishlash ko'nikmalari, turli ijtimoiy rollarni bilish. Ta'lim jarayonida ushbu kompetensiyalarni o'zlashtirish uchun o'rganilayotgan har bir fan yoki ta'lim sohasi doirasida o'qitishning har bir bosqichi talabasi uchun zarur va yetarli miqdordagi real aloqa obyektlari va ular bilan ishlash yo'llari belgilanadi.

Kasbiy kompetentlik – kasbiy faoliyatda zarur bo'lgan kasbiy bilimlar, kasbiy ko'nikmalar va kasbiy malakalarni o'zlashtirish hamda amaliyotda mahorat bilan samarali qo'llay olish.

Ijtimoiy-madaniy kompetentlik – milliy va umuminsoniy madaniyat sohasidagi bilim va faoliyat tajribasi, inson hayoti va insoniyatning ma'naviy-axloqiy qarashlari, ijtimoiy hodisalar va an'analar, ilm-fanning inson hayotidagi o'rni, kundalik va madaniy va dam olish sohalari, bo'sh vaqtni tashkil etishning samarali usullarini egallash. Bunga

dunyoning ilmiy manzarasini o‘zlashtirish, dunyoni madaniy va umumbashariy tushunishni kengaytirish tajribasi ham kiradi.

Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy mahoratining eng muhim tarkibiy qismi kasbiy kompetentlikdir. Kompetentlikning zamonaviy yondashuvlari va talqinlari juda farq qiladi. Kasbiy mahorat tushunchasi olimlar bir qator maxsus sohasida fundamental fan sohasida nazariy bilim, shuningdek, kasbiy faoliyatida bu bilim foydalanish qobiliyati va bevosita kasbiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa shaxsiy fazilatlarni, masalan, biznes uchun ijodiy munosabat, yangi bilim olish va kasb yaxshilash istagi va hokazo.

O‘quv-bilish kompetentligi qator olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Muallif sifatida bizning ta’rifimiz quyidagicha: o‘quv-bilish kompetentligi deganda, talabalarning mustaqil bilim olish faoliyatiga tayyorligi va ushbu kompetentlikkaga ega bo‘lish, o‘z-o‘zini rivojlantirish, kasbiy rivojlanish maqsadiga erishish tushuniladi.

O‘quv-bilish kompetentligi – bu talabaning mustaqil bilish faoliyati sohasidagi kompetentligi bo‘lib, mantiqiy, uslubiy, umumiy o‘quv faoliyati elementlari majmuidir. Bunga maqsadni belgilash, rejalashtirish, tahlil qilish, aks ettirish va o‘z-o‘zini baholashni tashkil etish yo‘llari kiradi. O‘quv-bilish kompetentligi kasbiy va maxsus kompetentliklar rivojlanishining samaradorligini ta’minlaydi, bu esa uning rivojlanishini zamonaviy ta’limning ustuvor vazifasi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘quv-bilish kompetentligining mohiyati va tuzilishini aniqlagan holda shuni ta’kidlash mumkinki, uni shakllantirish samaradorligi talabalarning bilish faoliyatiga bo‘lgan bilim qiziqishini va barqaror motivatsiyasini rivojlantirish, umumiy o‘quv ko‘nikma va faoliyat usullarini ishlab chiqish vazifalarini qo‘yadi. Shuni qayd etib o‘tamizki, talabalarning o‘quv-bilish kompetentligini shakllantirish bilish faoliyatida talabaning shaxsiy sifatlarini, umumiy ilmiy ko‘nikma va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishning bosqichma-bosqich va murakkab jarayoni sifatida yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Горылев А.И. Методология Tuning: компетентностный подход при определении содержания образовательных программ: электронное методическое пособие [Электронный ресурс] / А.И. Горылев, Е.А. Пономарева, А.В. Русаков, – Нижегородский государственный университет им. Н.И. Лобачевского. Национальный исследовательский университет. – 2011г. URL: http://www.unn.ru/cie/Gorylev PonomarevaRusakov.pdf (дата обращения: 18.09.2017)

2. Godwin, A. Kara “The Counter Narrative: Critical Analysis of Liberal Education in Global Context.” New Global Studies 9 (2015): 223-243.

3. Gary W.Millar. The Power of Creativity: Results of the 50–Year Follow–Up to the Torrance Longitudinal Study of Creative Behavior. Bensenville, Ill.: Scholastic Testing Service, 2010.

4. Зеер Э.Ф. Компетентностный подход к образованию [Электронный ресурс] /http://cyberleninka.ru/article/n/kompetentnostnyy-podhod-k-obrazovaniyu (Дата обращения: 22.05.2017).

5. Зеер Э.Ф. Формирование компетенций в практике преподавания общих и специальных дисциплин в учреждениях среднего профессионального образования: сб.ст. по материалам Всерос. науч.практ.конф. (5 мая 2011 г.) / науч.ред. Э.Ф. Зеер. - Екатеринбург – Березовский: Филиал Рос. гос. проф.-пед. ун-та в г. Березовском, 2011. – С. 266.

Nigora ABDURAHIMOVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
‘‘Media va kommunikatsiya’’ fakulteti, “2-chet tili” kafedrasi o‘qituvchisi

O‘ZBEK TILSHUNOSLIK TERMINLARINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTINING AYRIM ASPEKTLARI

Annotatsiya

Maqolada jahon tilshunosligida milliy tillarning paydo bo‘lishi, shakllanishi, rivojlanish bosqichlari turli aspektlarda ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, terminlar, ularning lingvistik tabiati, yuzaga kelish manbalari, yasalish usullari, terminlarning tuzilishga ko‘ra turlari, ularda sinonimlik va dubletlikni bartaraf qilish yo‘llari, termin va tushuncha munosabati, turli aloqa va munosabatlar natijasida ona tili tarkibida o‘zlashma so‘zlar qatlamining vujudga kelishi batafsil yoritilgan. Muallif tomonidan, jahon tilshunosligida lingvistik terminologiyaning paydo bo‘lishi va alohida terminologik qatlam sifatida shakllanishi, terminlarning lingvistik tushunchani qay darajada ifodalashdan kelib chiqib, tartibga solish borasida takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar. Tilshunoslik, paydo bo‘lish, shakllanish, rivojlanish, aspekt, termin, lingvistika, usul, sinonimlik, dubletlik, tushuncha, munosabat, ona tili.

В статье в разных аспектах рассмотрены этапы возникновения, становления и развития национальных языков в мировой лингвистике. Также, в статье подробно описываются термины, их языковая природа, источники возникновения, способы образования, виды терминов по их структуре, способы устранения в них синонимии и дублирования, соотношение терминов и понятий, формирование заимствованных слов в родном языке в результате различных связей и отношений. Автором выявлены предположения о появлении лингвистической терминологии в мировом языкознании и формировании ее как отдельного терминологического пласта, исходя из того, в какой степени термины выражают языковое понятие и от их расположения.

Ключевые слова. Языкознание, возникновение, становление, развитие, вид, термин, языкознание, метод, синонимия, дублет, концепт, отношение, родной язык.

The article examines the stages of the emergence, formation and development of national languages in world linguistics in different aspects. Also, the article describes in detail the terms, their linguistic nature, sources of origin, methods of formation, types of terms in terms of their structure, ways to eliminate synonymy and duplication in them, the relationship between terms and concepts, the formation of borrowed words in the native language as a result of various connections and relationships. The author reveals assumptions about the emergence of linguistic terminology in world linguistics and its formation as a separate terminological layer, based on the extent to which the terms express the linguistic concept and their location.

Key words. Linguistics, emergence, formation, development, type, term, linguistics, method, synonymy, doublet, concept, attitude, native language.

Jahon tilshunosligida milliy tillarning paydo bo‘lishi, shakllanishi, rivojlanish bosqichlari turli aspektlarda o‘rganilgan. Har qanday fan tadqiqining asosiy vositasi bo‘lgan terminlar, ularning lingvistik tabiati, yuzaga kelish manbalari, yasalish usullari, terminlarning tuzilishiga ko‘ra turlari, ulardagi sinonimlik va dubletlikni bartaraf qilish yo‘llari, termin va tushuncha munosabati kabilar ham tilshunoslikdagi asosiy masalalaridan biriga aylangan. Jahon tilshunosligida lingvistik terminologiyaning paydo bo‘lishi va alohida terminologik qatlam sifatida shakllanishini antropotsent-

rik planda tadqiq etish, terminlarning lingvistik tushunchani qay darajada ifodalashidan kelib chiqib tartibga solish borasida tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu ma’noda tilshunoslikning rivoji bilan yangi terminlarining paydo bo‘lishi, terminlardagi sinonimiya, polisemiya va variantlilikning yuzaga kelish sabablarini aniqlash, o‘zlashma terminlarning milliy terminologik tizimga ta’sirini ochib berish, murakkab tarkibli terminlarning hosil bo‘lishi yuzasidan aniq xulosalarga kelish tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan biridir.

O‘zbekistonning mustaqil milliy taraqqiyotga erishishi jamiyat hayotining barcha sohalariga, xususan, milliy-madaniy qadriyatlarning tiklanishiga o‘z ijobiy ta’sirini ko‘rsatdi. Shuning barobarida o‘zbek tilshunosligida ham tilimizning turkona tabiatini aniqlashga yo‘naltirilgan qator tadqiqotlar bajarildi. O‘zbek tilshunoslari terminologiyani tartibga solish, o‘zbek tilidagi turli soha terminlarini izohlash, o‘zbekcha termin yasash usullarini ishlab chiqish borasida salmoqli ishlarni amalga oshirdilar. Shu bilan bir qatorda, tilshunoslikning taraqqiy etib borishi bilan uning terminologiyasida ham tadqiq qilinishi zarur bo‘lgan muammolar kelib chiqadi.

Til milliy boylik, xalqning mulki. Asrlar osha avlodlardan-avlodlarga meros bo‘lib o‘tib kelgan. O‘zbek tili esa o‘zbek xalqining bitmas-tuganmas ma’naviy xazinasidir. Mamlakatimizdagi keng ko‘lamli islohotlar o‘zbek tilining ham Davlat tili sifatidagi maqomini mustahkamlash, uning mavqeini ko‘tarish bo‘yicha qabul qilingan qonun va qarorlar tilshunoslik sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlarining yangi bosqichga ko‘tarilishiga sabab bo‘ldi. O‘zbek tilshunosligi turkiy tilshunoslikning nazariy jihatdan atroflicha mukammal rivoj topgan tarmoqlaridan biridir. O‘zbek tilshunosligi tilning jahon tilshunosligi so‘nggi yillarda qo‘lga kiritgan yutuqlarini o‘rganib, uni tilning barcha sath hodisalariga tatbiq etayotir. Bu xususiyatni o‘zbek tilshunosligining fonetika va fonologiya, so‘z yasalishi va morfemika, leksikologiya va frazeologiya, morfologiya va sintaksis sohalarida ko‘rish mumkin. O‘zbek tilshunosligida til hodisalarini, xususan, lug‘aviy birliklarni komponent tahlil usulida o‘rganishga allaqachon kirishilganki, tahlilning bu usulini boshqa turkiy xalqlar til ilmida hozircha ko‘rish qiyin.

So‘z – tilning asosiy birligidir. Tilni nutq tovushlarisiz, grammatik shakllarsiz va kommunikatsiya jarayonidan tashqarida tasavvur qilish mumkin emas. Nutq tovushlari tizimi, morfologik shakllar majmuasi va kommunikatsiya uchun xizmat qiluvchi qurilmalar – hammasi birgalikda tilni, uning bir butun organizmini tashkil etadi. Shuning uchun so‘z tilning asosiy birligi sanaladi. So‘zning funksional-semantik ko‘rinishlaridan biri termin (atama)dir. Terminning material tomoni so‘z yoki so‘zlar birikmasidan tarkib topgan iboraga teng keladi. Lekin so‘z va atama o‘zaro farq qiladi. So‘z umumxalq mulki, u til jamoasining hamma ijtimoiy qatlamlari uchun bir xil xizmat qiladi. Termin esa, aksincha, umumxalq mulki sifatida emas, balki til jamoasining ayrim-ayrim ijtimoiy qatlamlari uchun xoslangan bo‘ladi. Termin yordamida xalq xo‘jaligi, fan va texnikaning muayyan tushunchalari nomlanadi. Terminning ma’no hajmi so‘znikiga nisbatan tor va uning iste’mol doirasi cheklangan bo‘ladi.

Fan va texnika jadal sur’atlar bilan rivojlanayotgan hozirgi kunda turli sohalarga oid terminlarni tartibga solish dolzarb mavzuga aylandi. Har bir soha terminologiyasi sistemali va mukammal terminlarning bo‘lishini taqozo etadi. Har bir terminologik tizim faqat o‘ziga xos maxsus leksik birliklardan iborat bo‘ladi. U yoki bu sohadagi terminlarni mavzuiy guruhlarga bo‘lib o‘rganish, shu tizimning leksik qatlami haqida tasavvur hosil qiladi, shuningdek, mazkur tizimning so‘z yasash imkoniyatlari, modellari haqida ma’lumot beradi.

Tillarning o‘zaro so‘z almashinuvi qadimgi davrlardan boshlangan. O‘tmishda yevropa xalqlarining tillari uchun lotin va grek tillari, sharq xalqlari uchun esa arab va fors tillari asosiy so‘z o‘zlashtirish manbai sifatida xizmat qilgan. Ma’lumki, VII asrdan arablar Eron, O‘rta Osiyo va unga yondosh bo‘lgan mamlakatlarni zabt eta boshlagan va ushbu hududlarda islom dini bilan birga arab madaniyati, tili va yozuvi ham joriy etilgan. Bu davrlarda O‘rta Osiyo, Eron, Xuroson, hatto Hindistonda fors tili ko‘proq badiiy adabiyot – ijod tili sifatida ravnaq topgan bo‘lsa, falsafa, huquq, adabiyotshunoslik, tilshunoslik, tibbiyot kabi ko‘plab sohalarga oid ilmiy asarlar, asosan, arab tilida yaratilgan. Arablar bosib olgan butun hududda qariyb ikki asr mobaynida arab tili adabiyot va ilm-fanga hukmronlik qiladi. O‘rta Osiyoda ayni shu davrda o‘zbek-arab tillari aloqasi yuzaga keldi. Arab tili mahalliy aholiga davlat va fan tili, ayniqsa, din tili sifatida majburan o‘qitildi va singdirildi. Natijada mahalliy aholi vakillari o‘z ona tili bilan bir qatorda arab tilida ham gapira oladigan bo‘ldi. Shuning uchun ham o‘rta osiyolik mashhur Beruniy, Ibn Sino, Xorazmiy, Farobiy kabi olimlar ham o‘z ilmiy asarlarini arab tilida yozganlar. O‘zbek-arab tillarining o‘zaro aloqasi va ta’siri natijasida o‘zbek tiliga, ilm fanning turli soha va tarmoqlariga ham ko‘plab ilmiy va kasbiy terminlar o‘zlashdi. Xususan, xalq hayoti bilan bevosita aloqada bo‘lgan tibbiyot sohasida ham sanoqsiz arabiy terminlar paydo bo‘la boshladi. Ahamiyatlisi mazkur o‘zlashmalarning ko‘p qismi hozirgi kungacha tibbiyotga oid manbalarda qo‘llanilib kelinmoqda. Ular turli tipdagi lug‘atlarda ham o‘z ifodasini topgan. Shu o‘rnida aytish mumkinki, o‘zbek tiliga kirib kelgan arabcha so‘z va terminlar turli sohalarga oid bo‘lib, ularning ko‘pchiligi allaqachon tilimizga chuqur singib ketgan va o‘zbek tili lug‘at tarkibining ajralmas qismiga aylanib ulgurgan.

Bizning davrimizga kelib, termin yaratish tilning ongli faoliyatiga aylandi. Ma’lumki terminlar aniq, amaliy ishda qo‘llash uchun qulay bo‘lishi kerak. Muayyan bir tushunchaning ikki va undan ortiq til birligi orqali ifodalash terminologiyada salbiy hodisa hisoblanuvchi sinonimiyaga olib keladi. Bunday sinonimiyani bartaraf etish, ya’ni tartibga solish uchun barcha terminologik talablarga javob beradigan terminni qoldirib, boshqasini ite’moldan chiqarish kerak bo‘ladi.

Terminologiyada tejamlilik va qisqalikka bo‘lgan talab birikma terminlar doirasida variantdorlikni vujudga keltiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Bir tushunchani ifodalash uchun qo‘llanilayotgan bir necha variantlardan tejamlilik asosida qayta yasalgan ixcham varianti saqlanib qolib, boshqa variantlari terminologik tizimdan asta-sekin chiqib ketadi.

O‘zbek tili terminologiyasida, ayniqsa, keyingi davrda chetdan o‘zlashgan so‘zlar ta’sirida, shuningdek, rus tilidan kalkalash natijasida –lash, -lashish, -lashtirish qo‘shimchalarining vazifasi faollashdi va qo‘llanish doirasi kengaydi. Ular turli sohalarga tegishli ish-harakat hamda jarayon tushunchalarini anglatuvchi terminlar yasamoqda. Jarayon anglatuvchi murakkab, ya’ni bir necha komponentli terminlar ko‘pincha turli variantlar shaklida ifodalanmoqdaki, bu hol sohalarda qo‘llanayotgan jarayon terminlarini tartibga solishni qiyinlashtiradi. Ba’zi xalqaro termin elementlar semantik ko‘lamning kengligi o‘zbek tilida ularni barcha holatlarda muqobili bilan almashtirishga imkon bermaydi. Xalqaro terminelementlarning so‘z tarkibidagi oranjirovkasi, ya’ni so‘z oldida, so‘z o‘rtasida, so‘z oxirida joylasha olishi, shuningdek, bir termin tarkibida ikki va undan ortiq terminlarning ketma-ket joylasha olishi ularning sohaviy terminlar yasashdagi imkoniyati kengligini ko‘rsatib turibdi. Xalqaro terminelementlar yordamida yasalgan terminlar asosan monosemantik xususiyatga ega ekanligi bilan ham ajralib

turadi. Bu hol, o‘z navbatida, terminelementlarni maxsuslashtirishda qo‘l keladi. Fan va texnikaning turli sohalariga oid baynalmilal terminlarning aksariyati dunyo tillarining ko‘pchligida faol qo‘llanib kelayotgan bo‘lishiga qaramay, ba’zan ularga sun’iy tarzda o‘zbekcha muqobil topishga urinishlarni ham kuzatish mumkin. Ba’zi terminlar borki, ular o‘zi anglatgan tushunchalari bilan tilimizga kirib kelgan. Ularga o‘zbekcha muqobil topishda eng asosiy mezon uning muqobili shu so‘z anglatayotgan barcha ma’nolarni qoplashi va terminologik talablarga javob berishi kerak. Ularning ko‘pchiligi xalqaro terminelementlardan foydalanib hosil qilinganligi uchun standart semantikaga ega bo‘lganligi sababli bir ma’nolidir. Shu tufayli ulardan unumli foydalanish bilan birga, o‘zbek tili qonuniyatlari asosida milliy terminelementlar yaratish zarur. Terminologiyamizning ba’zi sohalarida bu borada ancha ijobiy siljishlar bor. Masalan, botanikada -simon, -dosh qo‘shimchalari, dorishunoslikda -in, geologiyada -it, hujjatchilikda -noma, texnikada -gich qo‘shimchalar maxsuslashtirilgan va terminelement darajasiga yetgan. Ushbu samarali usulni har bir sohaga tatbiq etish kerak. Milliy terminelementlar yaratish, ya’ni qo‘shimchalarni maxsuslashtirish terminlarga qo‘yiladigan eng asosiy talablardan biri – qisqalikni ta’minlashda muhimdir.

Yuqorida aytilganlardan xulosa shuki, har bir soha terminologiyasini tartibga solishda aynan o‘sha soha olimlari, mutaxassislar fikri asos bo‘lishi kerak. Soha mutaxassislari bilan tilshunos (atamashunos)larning hamkorligi esa turli fan atamalarini tartibga solishda juda katta samara beradi. O‘zbek tili terminologik sistemalarini tartibga solish va birxillashtirishda quyidagi tamoyillar yetakchi bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 17 b.

2. Решетов В.В. Краткий справочник по лингвистической терминологии. – Т., 1950.

3. Nizomiddinova S. Hozirgi zamon o‘zbek tilida son. – T.: O‘zFA nashr., 1963.

4. Hojiyev A. O‘zbek tili so‘z yasalishi. – T.: O‘qituvchi, 1989.

5. Hojiyev A. Termin tanlash mezonlari. – T.: Fan, 1996.

6. Hojiyev A., Reshetova L. O‘zbek tili grammatik terminlarining qisqacha izohli lug‘ati. – T.: O‘qituvchi, 1980.

7. Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi tarixi. – T., 2002.

8. Ashirboyev S. O‘zbek tili grammatik qurilishining o‘rganilish tarixidan (1875–1917 yillardagi rus turkologlarining asarlari asosida): Filol. fan. nomz....diss. avtoref. – T., 1972.

9. Eltazarov J.D. O‘zbek tilida so‘z turkumlari paradigmasidagi o‘zaro aloqa va ko‘chish hollari. – T., 2006.

10. Goleman D. The Emotional Intelligence. Why it Can Matter More than IQ? – Bentam Books, 1997. – 309 p.

Dilnoza OTAXANOVA,
Namangan davlat universiteti katta o‘qituvchisi

TALABA FAOLLIGINI OSHIRISHDA O‘QITUVCHINING KREATIVLIGI

Annotatsiya

Maqolada mehnat bozorida pedagoglarga bo‘lgan talab, o‘zgarib boruvchi davr va hayot sharoitlariga muvofiq tarzda o‘qituvchining ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanish ko‘nikmalari, talaba faolligini oshirishda o‘qituvchiga qo‘yilayotgan talablar, pedagogik imidj, o‘qituvchi faoliyatini baholash kriteriyalari xususida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Pedagoglarga bo‘lgan talab, o‘qituvchining ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanish ko‘nikmalari, talaba faolligini oshirishda o‘qituvchiga qo‘yilayotgan talablar, pedagogik imidj, o‘qituvchi faoliyatini baholash kriteriyalari.

В статье размышляется о востребованности педагогов на рынке труда, умениях учителя заниматься творческой деятельностью в соответствии с меняющимся периодом и жизненными обстоятельствами, требованиях к учителю в повышении активности учащихся, педагогическом имидже, критериях оценки деятельности учителя.

Ключевые слова. Востребованность педагогов, умение учителя заниматься творческой деятельностью, требования к учителю в повышении активности учащихся, педагогический имидж, критерии оценки деятельности учителя.

The article reflects on the demand for educators in the labor market, the skills of the teacher to engage in creative activities in accordance with the changing period and life circumstances, the requirements for the teacher in increasing student activity, pedagogical image, criteria for assessing teacher activity.

Key words. Demand for educators, skills of the teacher to engage in creative activities, requirements for the teacher in increasing student activity, pedagogical image, criteria for assessing teacher activity.

Jamiyat rivojlanishidagi zamonaviy tendensiyalar shuni ko‘rsatadiki, yaqin kelajakda dunyo mehnat bozorida taklifning talabga nisbatan ortishi kuzatiladi. Rossiyalik tadqiqotchi V.S. Bezrukovaning fikriga ko‘ra, “mehnat bozorida yuqori kasbiy fazilatlarni taklif eta oladigan, ular uchun davlat va nodavlat korxonalariga real ehtiyoj mavjud bo‘lgan” raqobat sharoitlari vujudga keladi. Hozirgi vaqtda raqobatbardosh mutaxassis bir qator talablarga javob berishi kerak, xususan, professional harakatchanlik, yangi bilim ko‘nikmalarni tezkorlik bilan egallash qobiliyati, o‘zining kasbiy faoliyatini kasbiy funksiyasining o‘zgarishiga muvofiq ravishda moslashtirish va hokazolar.

Yetuk olimlar biror jarayon haqida fikr bildirishdan oldin uzoq tajriba va kuzatishlar olib borishadi. Pedagogika sohasi olimlari ham falsafaning tarkibida bo‘lgan davrlardan tortib to bugungacha bo‘lgan vaqt oralig‘ida muntazam to‘ldirib, o‘ziga xos tarzda takomillashtirib kelishdi. O‘tmishdagi vaqtlar oralig‘ida ro‘y bergan turli o‘zgarishlar va davrlarning ta’sirida bu soha yanada rivojlandi. Qaysi davrni olmaylik, ilm fanni rivojlantirishga o‘z hissasini qo‘shish uchun xizmat qilgan bu soha bugun ham har doimgidek asosiy o‘rin egallamoqda.

Ta’lim va tarbiya jarayoni o‘sib kelayotgan yosh avlodni jamiyat talablarini o‘zida aks ettiruvchi ijtimoiy buyurtma asosida hayotga tayyorlashdan iborat. Ta’lim va tarbiya jarayonida yoshlar ajdodlar tomonidan to‘plangan bilim, odob, urf-odat, madaniyat

va mehnat ko‘nikmalarini o‘zlashtirishida, hayotiy tajriba asosida jamiyatda o‘zining munosib o‘rnini egallashida, salohiyati va dunyoqarashining shakllanishida pedagog shaxsi, uning kasbiy mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun, avvalo, pedagogning o‘zida yangicha bilim berish, o‘zgarib boruvchi mehnat va hayot sharoitlariga muvofiq ijodiy faoliyat bilan shug‘ullana olish ko‘nikmalari tarkib topgan bo‘lishi lozim. Davr bilim berish, talabalarda muayyan ko‘nikma va malakalarni shakllantirishning o‘zgacharoq yo‘llarini topishni talab etmoqda. Ta’lim tizimi va uni yo‘lga qo‘yish borasidagi shu xil yangilanishlar keyingi vaqtlarda dunyo miqyosida keng yoyilib borayotgan interfaol metodlarning yuzaga kelishini taqozo etdi.

Ta’lim jarayonida o‘qituvchining sifatga erishish yo‘llari asrlar davomida izlangan va bu jarayon davom etadi. Shuni ham ta’kidlash zarurki, mehnat bozorida, pedagoglarga bo‘lgan talab hamisha ortib boraveradi. Shu sababli pedagogik faoliyat o‘qituvchiga yuqori talablar qo‘yadi. Bo‘lajak o‘qituvchini barkamol mutaxassis qilib shakllantirish jarayoni professional pedagogikaning muammolaridan biridir. So‘ngi yillarda ijtimoiy tajriba doimiy ravishda o‘zgarib borayotganligi, ta’lim sohasi qayta qurilayotgani tufayli o‘qituvchining malakasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘qituvchining kasbiy mahoratiga oid g‘oyalarni o‘rganish turli xil yondashuvlardagi jiddiy o‘zgarishlarni ko‘rsatmoqda: o‘qituvchining pedagogik yo‘nalishini shakllantirish asoslarini ishlab chiqishdan tortib, kasbiy va shaxsiy muhim fazilatlarni rivojlantirish va shaxs sifatida pedagogik ijod manbalarining mohiyatini tushuntirishgacha.

Kasbiy va pedagogik kompetensiyaning umumiy fenomenologiyasi va uning o‘ziga xos turlari Zeer Ye.F., Pavlova A.M., Sshanyuk Ye.E., Kuzmina N.V., Simonenko va boshqalarning asarlarida izohlangan bo‘lsa, Keldiyorov R., Mirqosimova M. asarlarida kasbiy mahoratning individual jihatlari yoritilgan.

Insoniyat bilim olish va bilim berishning shunday bosqichiga yetdiki, endilikda necha ming yillardan buyon foydalanib kelinayotgan o‘qitish usullari yetarli bo‘lmay qoldi. Bugun o‘qitishning turli-tuman innovatsion ko‘rinishlari yuzaga kelmoqda. O‘qituvchi yutuqqa erishishi uchun ko‘plab turli metodlarni qo‘llashi emas, balki tanlangan shu metod orqali o‘quv jarayoniga yangilik olib kirish va shu yangiliklar bilan yoshlarni “qurollantirishi” lozim. Pedagogga qo‘yilayotgan yagona, asosiy talab samarali ta’lim berish va qo‘yilgan talablarni hamda DTSni bajarishdir. Ta’lim tizimida mukammallik bugungi kun qarashlarida birinchi o‘ringa chiqib oldi. Sabab oddiy, kompetentlik darajasi yuqori, ta’lim sifatini oshiruvchi, bilimli va zukko o‘qituvchiga ta’lab katta. O‘qituvchi o‘z ustida ishlamasa, izlanmasa, jarayonlarga, tadbirlarga, darslarga ijodiy yondashmasa, yoshlar oldida hurmatsiz shaxsga aylanib qoladi. Bu esa uning pedagoglar oldida hurmati pasayib ketishiga olib keladi. O‘qituvchining bir maqsadi: bugun qanday dars o‘tsam samarali bo‘ladi, deb o‘ylashidadir. Dars jarayonida o‘qituvchi auditoriyaning ichki imkoniyatlarini hisobga olib, talabalarning nimaga qodirligidan kelib chiqib, bilim saviyasini o‘rganib, usul tanlaydi. Metodikamizda metod va texnologiyalar, usul va vositalar juda ko‘p. Lekin hammasi ham bir dars uchun to‘g‘ri kelavermaydi.

O‘qituvchi bu ildam davr muhitini hisobga olgan holda o‘zining ilmiy-pedagogik izlanishlarini talaba yoshlarga yetkazib berishi lozim bo‘lgan shaxsdir. Bunda hayotiy tajriba muhim ahamiyat kasb etadi. Izlanishlardan to‘plangan ma’lumotlar bazasini amaliyotga tadbiq qilish ham ta’lim va tarbiya samaradorligini kafolatlaydi. O‘qituvchi, avvalambor, o‘qitishni o‘rgatmog‘i, uning o‘qitish texnikasining boyligi, qiziqtira olish mahorati bilan bir qatorda so‘zlash san’ati, notiqlik madaniyati, ta’sir eta olish ko‘nikmalariga ham ega bo‘lishi maqsadlidir. O‘qituvchining ish faoliyatini baholash kriteriya-

larini aniqlashga doir turlicha fikrlar mavjud. Ba'zi olimlar o'qituvchi faoliyatini baholash kriteriyasini jamiyatimizning umumiy maqsadidan kelib chiqqan holda uning «o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishiga» qarab baholash lozimligini ta'kidlaydi. Ikkinchi olimlar "jamiyatning maqsadini ta'lim tizimida amalga oshirish lozim", degan fikr bilan o'quvchining bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ya'ni ta'limning natijaliligi asosida o'qituvchining kasbiy sifatlariga tavsif berishligini ta'kidlaydi. Bizningcha, kreativ o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonini har tomonlama to'g'ri tashkil etishi bilan birga o'zlarining imidjiga ham e'tibor berishi lozim. Pedagogik imidj orqali yoshlarning qiziqishlarini orttirgan holda o'zini namoyon qila olish, o'ziga og'dira olish va e'tiborni qarata olish dars jarayonining samaradorligini oshiradi. Pedagoglarga faqatgina iste'dodining o'zi yetarli emas, shu bilan birga, yoshlarga yoqa olishni ham bilishi kreativlikka kiradi.

O'qituvchi shaxsining shakllanishi murakkab va turli xil ziddiyatlarga ega jarayon bo'lib, bu o'qituvchining o'z fani yuzasidan bilimlarni egallashi va o'zlashtirishlari emas, balki uning o'zini har tomonlama, yetik va axloqiy, kasbiy-pedagogik sifatlarini doimiy ravishda rivojlantirib borishidir. Uning shakllanish jarayoni pedagogik jarayon barcha ishtirokchilarining turli xil ta'siri, ijtimoiy muhit, pedagogika fanining, amaliyotining, umuman, jamiyatning ijtimoiy talablariga bog'liqdir.

Olib borgan tadqiqotlarimiz va tajribalarimiz o'qituvchi shaxsining asosiy sifatlariga g'oyaviy ishonchi, ijtimoiy-siyosiy faolligi, ma'naviy-axloqiy sifatlari va o'z mehnatiga ijodiy yondoshish ekanligini ko'rsatmoqda. Talabalar orasida o'z nufuziga, avtoritetiga ega o'qituvchi talaba-yoshlar jamoasiga etalon, namuna bo'lib hisoblanadi. Talabalar unga o'xshashga, uning fikrlari, qiziqishlari, qarashlari, xatti-harakatlari, o'zini jamoa oldida tutishi, hatto kiyinish manerasigacha unga tahlid qilishga, uning darajasiga yetishga harakat qiladi, u dars beradigan fanga ijobiy munosabati shakllanadi.

O'qituvchining faoliyati asosan uchta obyektga yo'naltirilgandir. Birinchisi, o'qituvchining o'z faoliyatiga yo'naltirilganligi. Bunda o'qituvchi o'zining pedagogik faoliyati jarayonida pedagogik jamoa orasida:

– o'z ijtimoiy mavqeiga ega bo'lishi;
– o'z tarafdorlariga ega bo'lishi;
– o'z bilimi va tafakkurini oshirib borib, yangilik sari intilishi;
– samarali natijalarga erishishi;
– o'z faoliyatini samarali tashkil etishi;
– tajriba orttirishi;
– o'ziga qulay ish sharoitini yaratishi.

Ikkinchisi, o'qituvchi faoliyatining boshqa shaxslarga, jumladan, talaba shaxsiga yo'naltirilganligidir. Bunda o'qituvchining:

– talabalarga insonparvarlik nuqtayi nazaridan munosabatda bo'lishi;
– ularning ishonchiga kirishi;
– talabalarga turli xil vaziyatlarda yordam berishi;
– ularni qo'llab-quvvatlashi;
– bir-birini tushuna bilishi;
– talabaning o'z fikrlarini to'liq yoritishiga sharoit yaratishi;
– o'z qobiliyatlari, imkoniyatlari va o'zligini anglashiga yordam berishi;
– talabalarni boshqara olishi;
– ular bilan har qanday vaziyatda muloqotga kirisha olishi.

Uchinchisi, shaxs sifatida o‘qituvchi faoliyatining o‘z-o‘ziga yo‘naltirilganligi nazarda tutiladi. O‘qituvchi quyidagi jihatlarga ega bo‘lishi talab etiladi:

– psixologik va fiziologik jihatdan salomat bo‘lishi, o‘z-o‘zini himoya qila olishi; o‘qituvchining darsda his-hayajonlarini bartaraf eta olishi, har qanday sharoitda ham asab tolalarini saqlagan holda o‘zining komfort holatini buzmasligi;

– o‘z mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi.

– o‘z nuqtayi nazariga ega bo‘lishi, mustaqil bo‘lishi;

– o‘z qadriga yetishi, bilimiga ishonishi va uni muntazam takomillashtirib borishi.

O‘qituvchining kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehn o‘tkirlikni ham belgilab beradi.

Demak, talaba faolligini oshirishda o‘qituvchi ta’lim-tarbiya jarayonining asosiy figurasi ekan, uning shaxsini va kasbiy faoliyatini, kreativligini baholash, qolaversa, o‘qituvchining o‘z faoliyatini o‘zi baholashi muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bezrukova V.S. Kasbiy pedagogikaga kirish. – Yekaterinburg, 2019. – 51 b.

2. Sobirova M. Zamonaviy o‘qituvchining hamkorlik texnologiyasi. “Zamonaviy o‘qituvchining kasbiy faoliyatiga innovatsion yondashuvlar” mavzusidagi xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Namangan. 5.10.2020.– 235 b.

3. Zeer Ye.F., Pavlova A.M., Sshanyuk Ye.Ye. Kasbiy ta’limni modernizatsiya qilish: barkamollikka asoslangan yondashuv. – M.: MPSI, 2005. – 48 b.

4. Kuzmina N.V. Akmeologiya mavzusi. – Sankt-Peterburg: Politexnika, 2002. – 102 b.

5. Umumiy va kasbiy pedagogika. Darslik. Pedagogika universitetlari talabalari uchun qo‘llanma / Yed.V.D. Simonenko. – M.: Ventana-Graf, 2005. –114 b.

6. Keldiyorov R. Adabiyot o‘qituvchisi faoliyatining muhim qirrasi.// Til va adabiyot ta’limi, 1998, №1.– 41 b.

7. Sobirova M. Hamkorlik ta’limi texnologiyalarining didaktik mohiyati. Til va adabiyot masalalari. №7. Respublika oliy o‘quv yurtlari professor o‘qituvchilarining ilmiy maqolalari to‘plami. – Namangan. 2019. – 335 b.

Dilshoda SAPARBOYEVA,
University of science and technologies,
“Boshlang‘ich va maktabgacha ta’lim” kafedrasi mudiri

INSON QADRINI ULUG‘LASH – OLIY QADRIYAT

Annotatsiya

Ushbu maqolada inson qadrini ulug‘lash oliy qadriyat sifatida talqin etilgan va uning asosiy yo‘nalishlari pedagogik jihatdan asoslangan. Shuningdek, Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy tendensiyalarini baholay olish haqida fik yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Inson, qadr, ulug‘lash, insonparvarlik, axloq, qadriyatlar, ta’lim, o‘quvchi, o‘qituvchi, natija, psixologiya, individual, mahalla, oila, mashg‘ulot, faollik, dunyoqarash, burch, millat manfaati.

В данной статье прославление человеческой ценности трактуется как высшая ценность, а ее основные направления обосновываются педагогически. Также обсуждалась возможность оценки социально-экономических и культурных тенденций в развитии нового Узбекистана.

Ключевые слова. Человек, достоинство, честь, человечность, мораль, ценности, образование, ученик, учитель, результат, психология, индивидуальность, соседство, семья, занятие, активность, мировоззрение, долг, интересы нации.

In this article, the glorification of human value is interpreted as a higher value, and its main directions are pedagogically based. There was also a fik on how to assess socio-economic and cultural trends in the development of New Uzbekistan.

Key words. Human, dignity, glorification, humanism, ethics, values, education, student, teacher, outcome, psychology, individual, neighborhood, family, occupation, activism, worldview, duty, interest of the nation.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti uchun yuksak ma’naviyatli va odob-axloqli iqtidorli, bilim saviyasi yuqori va zukko, ishbilarmon, ishchan kishilar zarur. O‘z qadrini bilmagan, bilim saviyasi yuzaki va past, ishning ko‘zini bilmaydigan kishilar o‘z maqsadlariga erisha olmaydilar. Shu jihatdan ham inson qadrini ulug‘lash masalasi dolzarb muammolardan hisoblanadi. Chunki inson qadrini ulug‘lash davlatimiz siyosati darajasiga ko‘tarildi. Qo‘yida Yangi O‘zbekiston taraqqiyot taqdirini har jihatdan yetuk, ulug‘ odamlar hal qiladi. Ularning bilimlari, murakkab texnologiyalar, qobiliyati, ma’naviy barkamolligi, mustaqil tafakkuri, aql zakovati va ruhiy-ma’naviy salohiyati, ma’rifati inson qadrini ulug‘lashning asosini tashkil etadi. Avvalo shuni aytish kerakki, inson qadrini ulug‘lash tushunchasi o‘zi keng qamrovli, serqirra tushuncha bo‘lib, u ma’naviy barkamol, komil inson tushunchalari bilan hamohangdir. Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy tendensiyalarini baholay olish normalari keltirib o‘tilgan:

− muayyan jamiyatning tartib-qoidalariga mos fazilatlarini o‘quvchilar ongiga yo‘naltira olish;

− demokratik huquqiy davlat sharoitida yashash va undan demokratik asosda foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘lish;

− ijtimoiy buyurtma sifatida o‘quvchilarni tarbiyalash, o‘qitish, ma’lumotli qilish qonunlarini amaliyotga tadbiq etish;

− boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida bilim egallashga ehtiyojini tarbiyalash va muntazam ravishda o‘z ma’lumotlarini ijtimoiy talablar asosida boyitib borish ko‘nikmasiga ega bo‘lish;

− o‘zi yashayotgan mamlakatning axloqiy-huquqiy qonunlarini to‘g‘ri tushunib yetish va ularga doimo rioya qilish;

− o‘ziga nisbatan talabchan, xatti-harakatida nuqsonlarni bartaraf etishga intilish sifatini o‘zida tarkib toptirish;

− inson qadrini ulug‘lash his-tuyg‘usi, burchi, mas’uliyatli, g‘ururli, faxrli bo‘lishga intilish;

− o‘zini o‘zi nazorat qilish, o‘z faoliyatini to‘g‘ri baholash, o‘ziga nisbatan talabchan bo‘lish, vaziyatga moslashish, o‘zgalar bilan kelisha olish sifatlariga ega bo‘lish.

− ijtimoiy hayot qonunlariga tayanish;

− ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan amaliy faoliyatni tashkil etish;

− ijtimoiy-siyosiy onglilik, madaniy-ma’rifiy savodxonlikni kuchaytirish;

− dars mashg‘ulotlarining ta’limiy-tarbiyaviy imkoniyatlarini kengaytirgan holda amalga oshirish;

− o‘z faoliyatiga, xulq-atvoriga tanqidiy qarash ko‘nikmasini hosil qilish;

− darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘z bilimi, ma’lumoti ustida mustaqil ishlash ko‘nikmalarini hosil qilish va h.k.

Bu sifatlar o‘qituvchida va o‘quvchilarda inson qadrini ulug‘lash madaniyatini chuqurroq anglash, uning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati, madaniy-ma’rifiy tarbiyani takomillashtirishga ko‘maklashadi. Buning natijasida o‘quvchilarning ijtimoiy-siyosiy faolligi, dunyoqarashi, davr talablariga mos holda rivojlanadi. O‘quvchi inson sifatida o‘zining davlat, xalq, oilasi oldidagi burchi, mas’uliyati, majburiyati, haq-huquqlarini teranroq anglaydi. Inson qadri, g‘ururi, ongi, tafakkuri rivojlanib, insonparvarlik, vatanparvarlik, dovyuraklik, intizomlilik, ishbilarmonlik kabi sifatlari kamol topadi.

Inson qadrini ulug‘lash mohiyatdan inson axloqi va odobi, ularda shakllangan barcha ijobiy xislatlar, insonlarga, jamiyatga va Vatanga bo‘lgan munosabatlaridan tortib, toki oilaga, ota-onaga va boshqalarga munosabatlarining barcha qirralarini qamrab oladi. Inson qadrini ulug‘lash masalalariga birinchi darajali ahamiyat berish, yangi O‘zbekiston taraqqiyotini mustahkamlash, tarbiya sohasida sog‘lom avlod, ma’naviy barkamol inson, komil inson, to‘g‘rilikka, halollikka, poklikka, vatanparvarlik va insonparvarlikka, ezgulikka va qo‘yingki, yuksak axloqlilikka yo‘llash mohiyati va mazmunini tashkil etadi. Hozirgi kunda bu masalalarga birinchi darajali ahamiyat berishimizning boisi iymoni, e’tiqodi va axloqiy fazilatlari, ma’naviyati kuchli, milliy mas’uliyat to‘yg‘usi qalbida chuqur ildiz otgan, ma’naviy barkamol fuqarolarga ega mamlakatgina mustaqil va barqaror rivojlana oladi. Buyuk kelajak inson qadrini ulug‘lash orqali yaratiladi. Boshqacha aytganda, ulug‘ insonlargina buyuk kelajakni yarata oladilar. Shuning uchun sog‘lom avlodni tarbiyalash, inson qadrini ulug‘lash muhim va dolzarb masala. Demak inson qadrini ulug‘lash, voyaga yetkazish Sharqona axloq-odob va umumbashariy g‘oyalarni uning ongiga singdirish jarayonida uning dunyoqarashi, e’tiqodi, ruhiyati, xulq-atvor normalari, axloq-odobi bilan ajralib turadi. Ulug‘ insonlar xalq taqdiri va farovonligi, vatan taqdiri va uning ravnaqini o‘ylaydilar. Ular mutelikda, qaramlikda yashashni istamaydilar.

Inson qadrini ulug‘lash deganda, biz faqatgina jisman baquvvat farzandlarni emas, balki ma’naviy boy avlodni, aqliy rivojlangan, axloqiy pok, ma’rifatli farzandlarni, avlodni tushunmog‘imiz kerak. Bunday kishilar o‘zlarida xalqimizning eng ardoqli fazilatlari – iymon va insof, mehr-oqibat, shafqat va rahmdillik, uyat va andisha, or-nomus, o‘zaro hurmat, yuksak Vatanparvarlik, eliga va xalqiga sadoqat kabi qadriyatlarni va g‘oyalarni mujassamlashtirgan bo‘lishlari lozim. Albatta ushbu jarayonda inson qadrini ulug‘lash kishilarda o‘z haq-huququni bilish, buning uchun kurashish, o‘z kuchi va imkoniyatlariga tayanish, imkoniyatlarini ishga solish, samarasini ko‘rsatish, atrofida sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bildirish, shaxsiy manfaatini mamlakat va xalq manfaati bilan uyg‘un holda ko‘rib, faoliyat yuritish kabi xususiyatlar kamol topadi. Barkamol, ulug‘ insonlar shon-shuhrat, mansab, moddiy boylik ketidan quvmaydi, moddiy qiyinchiliklarga duch kelganda qaddi bukilmaydi. Ba’zan uyushtirilgan tuhmatu-fitnalar uning ruhini tushira olmaydi. Har qanday salbiy holatlar ulug‘ inson ma’naviyatini buza olmaydi, balki mustahkamlaydi, chiniqtiradi. Yuksak darajadagi ma’naviyatga ega bo‘lgan ulug‘ inson- fidoyilik, jasorat, mardlik, o‘z xalqini sevish, Vatanni qadrlash, ajdodlaridan faxrlanish kabi olijanob fazilatlari bilan ajralib turadi. Insonning insonligi, birinchi navbatda uning ma’naviy-ahloqiy jihatdan barkamolligi, pokligi bilan belgilanadi. Inson qadrini ulug‘ deb bilgan kishilar ota-onasi, farzandlari, qarindoshlari, xullas butun oila a’zolari, qo‘ni-qo‘shnilari, mahalla-ko‘yi, qishloqdoshlari va butun mamlakat xalq farovonligi haqida qayg‘urishi; tevarak-atrofdagi insonlar unga kerak bo‘lganligi singari, o‘zi ham ularga kerakli bo‘lishga intilishi; odob-axloqi, fe’l-atvorini yoqimli qilishni insoniy burch, deb hisoblash; ota-bobolardan, ajdodlardan yodgor bo‘lib qolgan madaniy merosni qadrlash, milliy qadriyatlarni e’zozlash va ularga sodiq bo‘lib qolish; vatanparvarlik, xalqparvarlik, insonparvarlik tuyg‘ularining barqaror bo‘lishi, o‘zaro muomala-munosabatda o‘rnak bo‘lishga moyillik, birovning og‘irini yengil qilishni odat qilish, umumxalq ma’qullagan va hukumat tomonidan qonuniy qabul qilingan Konstitutsiyani hurmat qilish va unga sadoqat namunalarini amalda ko‘rsatish, Vatanni himoya qilish, boshqacha aytganda, harbiy-vatanparvarlik tuyg‘ulari bilan yashash; diyonat va adolat, mehr-shafqat va ezgulikni himoya qilish, va’daga vafoli bo‘lish va boshqalar kiradi. Inson qadrini ulug‘lash mezonlari qatoriga mustaqillik tafakkuri va milliy iftixor, fidokorlik, vatanparvarlik, millatparvarlik kabi xislatlar muhim o‘rin tutadi. Inson qadrini ulug‘lash keng qamrovli bo‘lib, unda Vatan istiqboli va istiqloli haqida qayg‘urish, xalqi, yurti qadr-qimmati, or-nomusini anglash va buni himoya qilish, butun mehnati, iste’dodi, imkoniyatini, zarur bo‘lsa, jonini ham yurt istiqboli, xalq baxti uchun baxshida etish va boshqalar uning asosini mazmuni hisoblanadi. Inson qadrini ulug‘lash – bu bizga ajdodlarimiz qoldirgan boy va muqaddas merosini avaylab-asrashimiz davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan muhim vazifa va burchni amalga oshirish va hal qilishda yoshlar hamda butun xalq ongiga yangi O‘zbekiston ruhini singdirish katta ahamiyat kasb etadi.

Inson qadrini ulug‘lash xususiyatlaridan yana biri milliy iftixordir. Milliy g‘urur – bu milliy iftixordir. Milliy g‘urur o‘z xalqining bir necha ming yillar davomida yaratib kelgan barcha moddiy va ma’naviy boyliklari, tarixiy merosi, urf-odatlari, an’analari, odob-axloqi, turmush tarzi, yuksak ma’naviyati, barcha tarixiy yutuqlari va saboqlariga cheksiz hurmat va e’zoz bilan munosabatda bo‘lish, avaylab-asrashdir.

O‘z xalqining tarixini, milliy qadriyatlarini, tilini, istiqbol manfaatlarini bilmagan, qadrlamagan, milliy mansubligini unutgan, o‘z millatining istiqboli uchun qayg‘urmaydigan, kurashmaydigan kishilar inson qadrini ulug‘lamaydi. Bunday kishilarni qadrli

inson, deb aytib bo‘lmaydi. Inson qadrini ulug‘lash mohiyati va asosiy qirralari uning ulug‘ligi bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, har bir shaxs ushbu darajaga yetish uchun butun umri davomida intiladi. Uchala tushuncha: inson, qadr, madaniyat – darajama-daraja chuqur ma’no kasb etadi. Shundan kelib chiqadigan bo‘lsak, inson qadrining chegarasi yo‘q. Inson qadrini ulug‘lashni tarbiyalash, voyaga yetkazish haqidagi ta’limot va amaliyot sifatida barcha dunyoviy va ilohiy bilimlarni egallagan, ruhi mutlaq ruhga tutash, fayzu karomati serob, qalbi ezgu tuyg‘ularga limmo-lim pokiza zotni inson orzu qilgan jamiki ezgu xislatlarini ifodalovchi jarayondir.

Inson qadrini ulug‘lash – bu vijdonli, xushyor bo‘lish, o‘zlariga kelib, o‘z qalblariga, o‘z qilayotgan ishlariga razm solish, tavba-tazarru qilish, insonlar diliga quvvat, ko‘ziga nur bag‘ishlash, shariat va tariqat va haqiqatda yetuk bo‘lgan odam hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, inson qadri uning kamoloti, yaxshi so‘zi, yaxshi fe’li, yaxshi axloq va tarbiyasi bilan belgilanadi. Har bir ulug‘ inson yolg‘on, riyo va badkirdorlikdan chekinadi, hamma vaqt ezgu niyat bilan yashab, ezgu ishlarga tayyor turadi.

Yaxshi sifatlarni egallab borgan insonning martabasi baland bo‘ladi. Ulug‘ insonlarning eng mukammali, eng oqili va donosi jamiyat ichidan yetishib chiqadigan mo‘tabar zotdir. Ulug‘ insonlar komillikka axloqiy-ma’naviy poklanish jarayonida erishadilar.

Shuni aytish kerakki, Yangi O‘zbekistonda boshlang‘ich ta’lim mazmuni tubdan o‘zgardi, yangi dasturlar, darsliklar yaratildi. ‘‘Tarbiya’’ fani boshlang‘ich ta’lim mazmunidan o‘rin oldi. Albatta, ushbu fanda inson qadri huquqlari, xatti-harakati va xulq-atvori, axloq darajasi, umuminsoniy qadriyatlari chuqur o‘rin egallagan.

Inson qadrini ulug‘lash madaniyatini rivojlantirishning asosiy xususiyatlaridan biri ma’suliyat hisoblanadi. Ma’suliyat faoliyatini to‘liq tasavvur qilish – bu uning o‘zi va o‘zgalar uchun nima keltirishini anglay olish qobiliyatidir. Shunday ekan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mas’uliyatni his qilgan holda ishni doimo puxta rejalashtirish, uning oqibatlarini oldindan tasavvur qila olish va zarur natijaga erishish bilim, ko‘nikma va malakalarini egallashga o‘rgatish o‘qituvchining pedagogik mahoratiga bog‘liq. Albatta, bunda o‘qituvchi o‘z o‘quvchisini shaxsiy mas’uliyatni farqlashga o‘rgatishi, ularning kundalik faoliyatida shaxsiy manfaat bilan jamiyat manfaatlarini inson mas’uliyatini his etgan holda, eng avvalo, o‘zi ta’lim olayotgan o‘quv dargohi, o‘z mahallasi va yurti ravnaqini o‘ylashi, Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti uchun xizmat qilish hayotining ma’no-mazmuni haqidagi g‘oyalarni amalga oshirishga, bolalarni hayotga tayyor, faol, erkin va mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida kamol toptirishi lozim. Buning uchun ularda mas’uliyat bilan birga o‘z-o‘zini anglash, shaxsiy g‘urur tuyg‘ularini ona-Vatan oldidagi burch, o‘z taqdiri, mahalla, mehnat jamoasi, oila va yaqin kishilar hayoti uchun javobgarlik hissini tarbiyalash muhim ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. O‘zbekiston, – T., 2022-yil.

2. Mahkamov U., Mahkamov D., Mahkamova N., Isroilova D. Tyutor pedagogik faoliyatini tashkil etish.. “ZERO PRNT”, – T., 2022-yil.

3. Luiza Xey Eng sara asarlari “BOOK MEDIA NASHR” – T., 2020.

4. Jon Grey. Eng sara asarlari “BOOK MEDIA NASHR” – T., 2020.

5. Haydarov A. Madaniyat – milliy yuksalish poydevori. – T.: Oltin meros press. 2021.

Madina HALIMOVA,
Qarshi davlat universiteti doktoranti

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TABIIY FANLARNI O‘QITISHNING KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA TIZIMLI TAHLILI

Annotatsiya

Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun joriy qilingan hamda integratsiyalashgan ta’limga mo‘ljallangan “Tabiiy fanlar” darsligi haqida ma’lumot berilgan. Bundan tashqari “Tabiiy fanlar”ni o‘qitishning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda 1-sinf darsligi umumiy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Tizim, ekologik barqarorlik, bio xilma-xillik, tur, masshtab, materiya, energiya, yorug‘lik, tovush, issiqlik.

В данной статье представлена информация об учебнике “Естествознание” для учащихся начальных классов, который предназначен как для внедрения, так и для интегрированного образования. Кроме того, проведен общий анализ учебника 1 класса, исходя из целей и задач преподавания ‘‘Естествознанию’’.

Ключевые слова. Система, экологическая устойчивость, биоразнообразие, вид, масштаб, материя, энергия, свет, звук, тепло.

This article provides information about the textbook “Natural Science” for primary school students, which is intended for both implementation and integrated education. In addition, a general analysis of the textbook of the 1st grade was carried out, based on the goals and objectives of teaching "Natural Science".

Key words. System, environmental sustainability, biodiversity, species, scale, matter, energy, light, sound, heat.

O‘quv jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirishning zarur shartlaridan biri o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishidir. Bugungi kunda psixologlar va o‘qituvchilarning olib borgan tadqiqotlarida o‘quvchilarning fan asoslarini muvaffaqiyatli o‘zlashtirishlari uchun qiziqishning ahamiyati o‘z ifodasini topgan va isbotlangan.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning tabiatga bo‘lgan qiziqishini, unda kechayotgan hodisa va jarayonlar to‘g‘risidagi bilimlarini oshirishda hamda ularning imperik (kuzatish, tadqiqot) metodlarni o‘zlashtirishida “Tabiiy fanlar” o‘quv predmeti muhim ahamiyat kasb etadi. Yangi tahrirdagi “Tabiiy fanlar” darsligi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘rtasida tabiiy-ilmiy dunyoqarash bo‘yicha boshlang‘ich tushunchalarni shakllantirishga yordam beradigan turli ish uslublarini o‘z ichiga qamrab olgan. Darsliklarda berilgan muammoli topshiriqlar, loyiha ishlari, amaliy va labaratoriya ishlari, kichik maktab yoshidagi bolalarni kuzatishga, kuzatishlari natijasida olgan bilimlaridan ma’lum xulosalar chiqarishga, fan doirasida tashkil qilingan tajriba jarayonida har bir hodisaga tadqiqotchi sifatidagi yondashuvni o‘rgatadi. Chunki, fanlar asoslarini o‘rganishda tadqiqot usuli o‘quvchilarda tevarak-atrofga nisbatan chuqur qiziqish uyg‘otadi. Tabiat hodisalarini o‘rganishga, idrok etishga, olingan bilimlarni ham amaliy, ham nazariy muammolarni hal etishda qo‘llashga intilishni uyg‘otadi. Bu usul ta’lim jarayonida o‘quvchilarda tafakkur qilishga, tanqidiy fikrlashga, xulosa chiqarishga va olgan bilimlarini kundalik hayotga qo‘llashlariga bevosita xizmat qiladi.

Yangi tahrirdagi “Tabiiy fanlar” biologiya, geografiya, kimyo, fizika, astronomiya, ekologiya, yo‘nalishlarini o‘z ichiga oladi. Bu fanlarning har biri o‘ziga xos tarkib, tuzilish va tadqiqot usullariga ega. Olamda sodir bo‘layotgan turli hodisa hamda jarayonlarni tushuntirishda tabiiy fanlarni o‘zaro bog‘lash asosida tabiatning turli jihatlarini tasvirlaydigan modellardan foydalaniladi.

Fanlarni o‘zaro bog‘lab, olamda sodir bo‘layotgan turli hodisa hamda jarayonlar haqidagi tushunchalarni kichik maktab yoshidan anglashda “Tabiiy fanlar” darsligi o‘quvchiga katta yordam beradi.

Endilikda umumta’lim maktablarida boshlang‘ich sinflardanoq o‘quvchilarga integratsiyalashgan ta’lim berish amaliyotga joriy etilmoqda. Integratsiyaning o‘zi maqsad emas, balki o‘qituvchi faoliyatining ma’lum bir tizimi bo‘lgani uchun, u muayyan o‘quv muammolarini hal qiladi. Bular quyidagilar:

– integratsiyalashgan ma’lumotlardan foydalanib, fanga oid tushunchalar yordamida o‘quvchilarning bilim darajasini oshirish;


– o‘quv materialini yetakchi g‘oyalar nuqtayi nazaridan o‘rganish, o‘rganilayotgan muammolar o‘rtasida tabiiy aloqalarni o‘rnatish orqali intellektual faollik darajasini o‘zgartirish;

– o‘quvchilarning kognitiv qiziqishini, ularning fikrlash faoliyatini rivojlantirish, darsda va darsdan keyin faol va mustaqil ishlash istagini oshirish;

– o‘quvchilarni ijodiy faoliyatga jalb qilish.

“Tabiiy fanlar” darsligining yaratilishi hamda uni o‘qitishda PISA xalqaro baholash dasturi modeli hisobga olingan.

1-jadval



O‘quvchilar topshiriq kontekstida ifodalangan muammoli vaziyatni hal etishda tabiiy fanlar bo‘yicha savodxoblik kompetensiyalarini namoyish etishlari talab etiladi. O‘quvchilarning munosabati (tabiiy fanlarga bo‘lgan qiziqishi, tadqiq etilayotgan masalaga ilmiy yondashishi, atrof-muhit bilan bog‘liq masalalardan xabardorligi) va (fanning

mazmuniga oid, metodologik, epistemik) bilimlari ularda tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonlikni belgilaydi.

2-jadval

Kontekst	Shaxsiy	Mahalliy/milliy	Global
Tabiiy resurslar	Salomatlikni asrash, baxtsiz hodisalar, ovqatlanish.	Kasalliklarga qarshi kurash, kasalliklarning tarqalishi, iste’mol qilinadigan oziq-ovqat mahsulotlarini tanlash, aholi salomatligi.	Epidemiyalar, yuqumli kasalliklarning tarqalishi.
Tabiiy resurslar	Moddalar va energiyani iste’mol qolish.	Aholi soni, yashash darajasi, xavfsizlik, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va taqsimlanishi, energiya ta’minotini qo‘llab-quvvatlash	Tiklanadigan va tiklanmaydigan tabiiy sistemalar, aholi sonining ortishi, turlardan oqilona foydalanish.
Atrof-muhit	Atrof-muhitga do‘stona munosabat, moddiy boyliklar va texnik qurilmalardan foydalanish hamda ularning yo‘q qilinishi (utilizatsiya).	Aholining taqsimlanishi, chiqindilarning yo‘q qilinishi, atrof-muhitga ta’sir ko‘rsatish..	Bioxilmaxillik, ekologik barqarorlik, atrof-mihitning ifloslanishi, tuproq biomassa hosil bo‘lishi va kamayishi.
Xavf-xatarlar	Turmush-tarzini tanlashda xavf-xatarlarni baholash.	Favqulodda ro‘y beradigan o‘zgarishlar (masalan, zilzila, noqulay ob-havo sharoiti), sekin kechadigan va progressiv o‘zgarishlar (masalan, qirg‘oq yemirilishi), xavf-xatarlarni baholash.	Iqlim o‘zgarishi, zamonaviy kommunikatsiyalarning ta’siri.
Ilm-fan va texnologiyalar sohasidagi yangi bilimlar	Sevimli mashg‘ulotlar, shaxsiy texnika, musiqa va sport bilan shug‘ullanishning ilmiy jihatlari	Yangi moddalar, texnik qurilmalar, genetik modefikatsiyalar, sog‘liqni saqlash texnologiyalari, transport.	Turlarning yo‘q bo‘lib ketishi, fazoning tadqiq etilishi, koinotning paydo bo‘lishi va tuzilishi.

“Tabiiy fanlar” dasturida 1-sinf uchun kiritilgan mavzular quyidagi asosiy kontekstlarda ifodalangan:

- tizimlar;
- materiya va energiya;
- shakl, tartib va tuzilish;
- masshtab va o‘lchash;
- barqarorlik va o‘zgarish;

– shakl va funksiya.

Masalan, boblarga oid mavzularni quyidagicha tasniflash mumkin.

Tizimlar: o‘simlik, hayvon, odam organlari sistemasi, Quyosh sistemasiga oid bilimlar.

Materiya va energiya: issiqlik, yorug‘lik, tovush.

Shakl, tartib va tuzilish: jonli va jonsiz tabiat, tirik organizmlar.

Masshtab va o‘lchash: ob-havo, issiqlik, Yer va koinot.

Barqarorlik va o‘zgarish: tirik organizmlarning rivojlanishi, ob-havo, yil fasllari, yashash joyi.

Shakl va funksiya: tirik organizmlar, o‘simlik va hayvonlarning xilma-xilligi, issiqlik, yorug‘lik va tovush manbalari.

Mavzularni o‘rganishda mulohaza yuritishni talab etadigan savollardan iborat og‘zaki, yozma va amaliy topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Darsga tayyor bilimlar to‘plami sifatida emas, balki shaxsning o‘ziga xos intellektual faoliyati sifatida qarash kerak. O‘rganish bilimlar majmuasini oddiy uzatish emas, balki uni qayta kashf etish shaklida tashkil etilishi o‘z natijasini beradi.

Yangi darslik bilan ishlash orqali o‘quvchilar vaziyatga tezda yechim topishga o‘rganadilar. “Tabiiy fanlar” darsligida dars maqsadiga erishish uchun o‘quvchining imkoniyati va ehtiyojini hamda o‘qituvchi bilan hamkorlikdagi faoliyatni to‘g‘ri tashkil eta olish vako‘zlagan maqsadga erishish uchun bevosita xizmat qiladi. Bundan tashqari o‘qituvchi dars bosqichlari uchun vaqt grafigidan ijobiy yondashgan holda foydalanishi kerak. Bu esa dars jarayonida muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beradi [5:47].

Darsni samarali tashkil qilish uchunzamonaviy maktab o‘qituvchilari o‘quvchilarni fan asoslari bo‘yicha chuqur va mustahkam bilimlar bilan shakllantirishi, shu bilan birgalikda o‘z bilimlarini doimiy ravishda oshirishga bo‘lgan intilishlarini,ularni mustaqil ravishda to‘ldirish va amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirib borishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sharipova D., Xodiyeva D.P., Shirinov M.K. Tabiatshunoslik va uni o‘qitish metodikasi. – T.: “Barkamol fayz media” 2018.

2. Nuriddinova M. “Tabiatshunoslik o‘qitish metodikasi”. – T.: O‘qituvchi, 2005.

3. Suyarov K.T., Tillayeva Z.Y., Sangirova B. va boshqalar. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik. “O‘zbekiston” MChJ nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – T., 2021.

4. Suyarov K.T., Tillayeva Z.Y., Sangirova B. va boshqalar. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. “G‘afur G‘ulom” nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. – T., 2021.

5. Suyarov K.T., Tillayeva Z.Y., Sangirova B. va boshqalar. Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma. – T., 2021.

6. Suyarov K.T., Tillayeva Z.Y., Sangirova B va boshqalar. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. “G‘afur G‘ulom” nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. – T., 2021.

7. Bahromov A., Sharipov Sh., Nabiyeva M. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. – T., 2017.

Anvar HAMDAMOV,
University of Science and technologies rektor

OLIY TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Annotatsiya

Maqolada oliy ta'lim samaradorligini oshirish muammolari, talabalar manfaatlari va professor-o'qituvchilar maqsadlari birligi, jamoaviy manfaatdorlik texnologiyalarining mohiyati yoritilgan.
Kalit so'zlar. Oliy ta'lim samaradorligi, oliy ta'lim samaradorligini oshirish muammolari, ta'limda talabalar manfaati, professor-o'qituvchilar maqsadi, talab va maqsad birligi.

В статье освещаются проблемы повышения эффективности высшего образования, единства интересов студентов и целей преподавателей, сущности технологий коллективного интереса.
Ключевые слова. Эффективность высшего образования, проблемы повышения эффективности высшего образования, интересы студентов в образовании, цель профессорско-преподавательского состава, единство спроса и цели.

The article highlights the problems of improving the effectiveness of higher education, the unity of students' interests and teachers' goals, the essence of technologies of collective interest.
Key words. The effectiveness of higher education, the problems of improving the effectiveness of higher education, the interests of students in education, the purpose of the teaching staff, the unity of demand and purpose.

Mamlakatimizda ta'lim samaradorligini oshirish, mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab davlat ichki siyosatining ustivor yo'nalishlaridan biri bo'lib kelgan. Qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ni amalga oshirish jarayonida jamiyatda ta'lim-tarbiya va uning samaradorligini oshirish bo'yicha ma'lum ishlar amalga oshirildi. Lekin mustaqillikning jamiyat oldiga qo'ygan talablarining ko'lami va darajasini amalga oshirish uchun davlat qabul qilgan hujjatlarning quvvati ma'lum bir obyektiv va subyetiv omillarga ko'ra yetmadi. Natijada ta'lim samaradorligini oshirishga nisbatan qo'yilgan talablarning darajasi bir necha barobarga oshib ketdi.

Shu sababli mamlakatimizda ta'lim sohasidagi davlat siyosati uzluksiz ta'lim tizimi prinsipiga asosan, bola tug'ilganidan boshlab, 30 yoshgacha bo'lgan davrda uni har tomonlama qo'llab-quvvatlaydigan, hayotda munosib o'rin topishi uchun ko'mak beradigan, yaxlit va uzluksiz tizim yaratishga harakat qilayotgani bekorga emas.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ko'rsatganlaridek, rivojlangan mamlakatlarda ta'limning to'liq sikliga investitsiya kiritishga, ya'ni bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta e'tibor beriladi. Chunki, ana shu sarmoya jamiyatga 15-17 barobar miqdorda foyda keltiradi. Bizda esa, bu ko'rsatkich atigi 4 barobarni tashkil etadi. Binobarin, inson kapitaliga e'tiborni kuchaytirishimiz, buning uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart .

Shularni hisobga olgan holda Respublika hukumati keyingi yillarda ta'lim va tarbiyaga, ularning samaradorligiga nihoyatda katta ahamiyat bermoqda va ushbu

talablarga javob berishga qodir bo‘lgan huquqiy-me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqmoqda. Zarur iqtisodiy-ijtimoiy shart-sharoitlar yaratilmoqda. Boshqaruvning yangi tizimi vujudga kelmoqda. Shular jumlasiga mamlakatda nodavlat oliy ta’lim tizimining vujudga kelishi ham kiradi.

Bugun Respublikada tashkil qilingan xususiy oliy o‘quv yurtlarining ko‘pchiligida pedagogika, psixologiya, maktabgacha ta’lim va boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishlari mavjud. Albatta, har bir mustaqil oliy o‘quv yurti ushbu ta’lim yo‘nalishlarining pedagogik jarayonini o‘zlarining maqsadlaridan kelib chiqqan holda tashkil qilmoqdalar. Shuni hisobga olgan holda “University of Science and technologies”da maktabgacha ta’lim va boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishlari o‘quv rejasini rejaga ko‘ra o‘qitilishi kerak bo‘lgan fanlar, ularga qo‘yilgan talablarni hamda alohida olingan o‘quv predmetlarining dasturlarini bugun respublikamizdagi mavjud maktabgacha ta’lim tashkilotlari va maktablarning boshlang‘ich ta’lim bosqichlaridagi talabdan va ularning istiqbollaridan kelib chiqqan holda shakllantirish talab qilinadi.

Ma’lumki, maktabgacha ta’limdagi ta’lim-tarbiya jarayoni “Ilk qadam” davlat dasturi asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy rivojlanish, ijtimoiy-xususiy rivojlanish, nutq-muloqot, o‘qish va yozish kompetetsiyasini shakllantirish amalga oshiriladi. Ushbu faoliyat qurilish va konstruksiyalash, syujet rolli o‘yinlar va dramalashtirish, til va nutq, ilm-fan va tabiat, san’at hamda musiqa va ritmika markazlarida olib boriladi.

Albatta, ilk qadam dasturining qabul qilinganiga ham mana besh yil to‘lmoqda. Ushbu besh yil ichida O‘zbekistonda bir qator jiddiy islohotlar amalga oshirildi va mavjud ta’lim tizimiga nisbatan bir qator yangi talablar va ehtiyojlar vujudga keldi. Bu birinchidan, xalqaro mehnat bozoridagi jiddiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan, mamlakat ichidagi mehnat bozorida ketayotgan qayta taqsimlanish bilan bevosita bog‘liq. Shularni hisobga olganda O‘zbekistonning kelajak istiqboli maktabgacha ta’lim tashkilotlarida amalga oshirilayotgan ta’lim mazmunini va xarakterini tubdan o‘zgartirish va ushbu jarayon samaradorligi darajasini oshirish davr talabidir.

Ushbu masalaning hal qilinishi birinchi galda, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida va boshlang‘ich ta’limda xizmat qilayotgan pedagog xodimlarning kompetensiyasi bilan uzviy bog‘liq. O‘tkazilgan tajriba-sinov natijalari va pedagogik ilmiy axborotlar bergan ma’lumotlariga ko‘ra, bugungi kundagi pedagog xodimlarining pedagogik mavjud kompetensiyalarini yuqori baholab bo‘lmaydi. Albatta, buning uchun pedagog kadrlarni ayblashdan biz uzoqmiz. Buning sababini ularni tayyorlash tizimidan qidirishimiz kerak.

Biz universitetda nimalarni mo‘ljallamoqdamiz. Birinchidan, yuqorida keltirilgan yo‘nalishlarning o‘quv rejalarini rivojlangan mamlakatlarda ishlayotgan rejalar darajasiga ko‘tarish va ushbu rejalarni shakllantirishda nafaqat maktabgacha ta’lim tashkilotlari rahbarlarining balki, ota-onalarning, universitetga kirmoqchi bo‘lgan yoki bizda o‘qiyotgan talabalarning qiziqishlarini hisobga olish talab etiladi.

Ikkinchidan, maktabgacha ta’lim mazmuni va sifatiga qo‘yilgan talablarni belgilab olish, bunda milliy, umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlar asosida tarbiyaning samarali shakllari va usullarini tanlashga alohida ahamiyat berish, bunda tarbiyalanuvchilarning intilishlari, qobiliyati, qiziqishlari ustuvorligi ta’minlanishi zarur.

Ayniqsa, maktabgacha ta’limning boshqa ta’lim turlari, bosqichlari bilan uzluksizligi, ta’lim mazmunining uzviyligiga, maktabgacha ta’limning mazmuni, shakli, vositalari va usullarini tanlashda innovatsion texnologiyalarga asoslanishga, xorijiy mamlakatlarning ta’lim sohasidagi me’yorlarni belgilash tajribasini milliy xususiyatlarimiz bilan gormonizatsiya qilingan holda hayotga tatbiq qilishga ahamiyat berishimiz kerak.

Uchinchidan, auditoriya soatlarini taqsim qilishda nazariya va amaliyot nisbatini shakllantirish o‘zini o‘zini oqlaydi, degan fikrdamiz. Ushbu 80 foiz amaliyot darslarining 40 foiz ni universitetning o‘zida tashkil qilish mumkin. Bunda universitetda ‘‘mini’’ maktabgacha ta’lim tashkilotining integrallashgan 3-4, 5-6 yoshlardan iborat guruhlarni talabalarning o‘zidan shakllantirib, shakllangan “talaba-bolalar” guruhlarida talabalar amaliy mashg‘ulotlarni kuzatuv, yarim faol, faol va tarbiyachi sifatida o‘tishlarini tashkil qilish va ushbu mashg‘ulotlarni real maktabgacha ta’lim tashkilotlari guruhlarida amalga oshirishiga erishishimiz zarur.

Buning uchun esa bizga maktabgacha ta’lim tashkiloti, maktablar bilan memorandum tuzib, uning doirasida faoliyatni shakllantirish, memorandumga kiritilgan maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori, metodisti va innovator-tarbiyachisi bizdagi maktabgacha ta’lim kafedrasida 0,5 va 0,25 yuklama bilan ishlashi kerak bo‘ladi.

Bugungi kunda O‘zbekistondagi maktablar va maktabgacha ta’lim tashkilotlarimizga yangi-yangi ta’lim texnologiyalari kirib kelmoqda. Shulardan biri “STEAM”ta’lim texnologiyasidir. Bu ta’lim texnologiyasida nafaqat aniq fanlar – matematika, texnologiyalar, texnik ijodkorlik birligi, ushbu fanlarni o‘qitish metodikalari o‘rtasidagi o‘zaro singish, balki bu birlikka psixologiyaning va mantiqning faol ishtiroki asosiy o‘rinni egallaydi.

Ushbu jarayon samaradorligini oshirishda san’at va ijodkorlik ham belgilovchilik rolini o‘ynaydi. Hayotimizga kirib kelayotgan shunga o‘xshash yangiliklar pedagoglarni tayyorlash jarayoniga nisbatan tanqidiy qarashni kuchaytirishi kerak. Bu tizimning esa asosiy subyekti oliy o‘quv yurtida xizmat qilayotgan professor-o‘qituvchidir. Albatta, har bir professor-o‘qituvchi kafedrada unga ajratilgan o‘quv predmeti bo‘yicha mashg‘ulot olib boradi. Bu mashg‘ulotlar davlat qabul qilgan ta’lim standartlariga javob berishi kerak. Ammo, biz universitetda ushbu innovatsiyani tajriba-sinovdan o‘tkazmoqchimizki, bunga ko‘ra, masalan, pedagogika fanidan dars beradigan o‘qituvchi ushbu predmetni o‘qitish jarayonini, uslubini, vositalarini o‘zining shaxsiy pedagogik konsepsiyasidan kelib chiqqan holda tashkil etadi. Bu konsepsiyada mavjud pedagogik usullardan tashqari “mantiqli – ijodkor – texnologik - rolli o‘yinlar”modeli yetakchilik qilishi kerak va ayni vaqtda, bunda talabalarga teng qarash, teng talab, teng rag‘batlantirish, teng baholash asosiy mezon bo‘lmog‘i kerak. Ushbu texnologiyaning birinchi qismi auditoriyalarda amalga oshirilsa, uning ikkinchi yirik qismi axborot resurslari markazlarida, va uyda davom ettirilishi kerak. Shuning natijasida o‘qituvchi talabaning o‘zi tanlagan yo‘nalishi bo‘yicha mutloq bandligini ta’minlashi kerak.

Biz ushbu tezisimizda maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglarini boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlash texnologiyasining ayrim jihatlariga yengilgina to‘xtaldik, , xolos. Zero, ushbu sohada qilinishi kerak bo‘lgan vazifalar talaygina. Ushbu vazifalarni hal qilish, birinchidan, talabalarning o‘zlariga bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan, universitet jamoasiga, uning professor-o‘qituvchilariga bevosita bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Yagi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. – 224 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti”ni tasdiqlash to‘g‘risidagi 802-son Qarori.

Erkin MURODOV,
A. Avloniy nomidagi xalq ta'limi muammolarini o'rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot instituti mustaqil tadqiqotchisi

UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARI O'QUVCHILARINI MUSTAQIL HAYOTGA TAYYORLASHDA TAYANCH FANLAR VA KASB KO'NIKMALARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy davr ta'lim talablari o'quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlashda muhim bo'lgan kasb ko'nikmalari o'rganilib, umumta'lim maktab o'quvchilarini kasbga tayyorlashda tayanch fanlarning o'zaro bog'liqligi, tayanch fanlarning kasb ko'nikmalari va kompetensiyalarini shakllanishiga ta'siri aniqlashtirilgan. Bu borada xorijiy ilmiy tadqiqotlar o'rganilib, mahalliy sharoitda tajriba sinov o'tkazilgan va tajriba-sinov natijalariga ko'ra, tayanch fanlarga qiziqish va ularni yaxshi o'zlashtirish o'quvchilarda u yoki bu kasb ko'nikmalari va kompetensiyalari shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ochib berilgan.

Kalit so'zlar. Tayanch fanlar, kasb ko'nikmalari, kompetensiyalar, tajriba-sinov natijalari, shakllanish.

В данной статье исследуются современные образовательные требования к профессиональным навыкам, имеющим важное значение в подготовке учащихся к самостоятельной жизни, выясняется взаимосвязь базовых дисциплин в профессиональной подготовке учащихся общеобразовательных школ, влияние базовых дисциплин на формирование профессиональных навыков и компетенций. В связи с этим были изучены зарубежные научные исследования, проведено экспериментальное тестирование в отечественных условиях, и по результатам эксперимента-тестирования выявлено, что интерес к базовым наукам и их хорошее усвоение положительно влияют на формирование у учащихся тех или иных профессиональных навыков и компетенций.

Ключевые слова. Базовые предметы, профессиональные навыки, компетенции, результаты эксперимента-тестирования, формирование.

This article explores the professional skills that the educational requirements of the modern era are important in preparing students for independent life, and clarifies the relationship of the fundamentals in the preparation of general education schoolchildren for the profession, the influence of the fundamentals on the formation of professional skills and competencies. In this regard, foreign scientific research was studied, an experimental test was carried out in a local setting, and according to the results of the experiment, it was revealed that interest in the base Sciences and their good mastery have a positive effect on the formation of skills and competencies of one profession or another in students.

Key words. Base sciences, professional skills, competencies, experience-test results, formation.

Jahonda shiddat bilan o'zgarayotgan texnologiya davrida umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarini mustaqil hayotga tayyorlashda tayanch fanlar bilan birga kasbiy bilim va ko'nikmalar, kognitiv va ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Globallashuv bilan birga o'rta maktabni bitiruvchi yoshlar jahon miqiyosida raqobatga kirishar ekan, hayotiy muammo va

masalalarga yechim izlovchi, ijodiy va tanqidiy fikrlaydigan, kasb ko‘nikmalarini o‘zida shakllantirgan bo‘lishi taqozo qilmoqda.

XXI asrda yoshlar nimani bilishi va o‘zlashtirgan bo‘lishi kerakligi haqida ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Shunday tadqiqotlardan M. Byalik, Ch. Fadel va boshqalarning *Skills for the 21st Century: What Should Students Learn?* maqolasida[1] bilim, ko‘nikma, xarakter va metabilish kesishmasidan bahs yuritadi. Unga ko‘ra, bilimlar an’anaviy (matematika, til va b.) va zamonaviy (robototexnika, tadbirkorlik va b.) ko‘rinishga bo‘linadi. Ko‘nikmalar ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, kommunikativ, hamkorlik kabi sifatlarni tashkil qiladi, xarakter hushyorlik, qiziquvchanlik, jasorat, chidamlilik, axloq, yetakchilik kabi hislatlarni aks etadi. Metabilish (metacognition) esa o‘z-o‘zini aks ettirish (self-reflection) va qanday o‘rganishni o‘rgatish jarayoni, shuningdek, qolgan uch o‘lchovni qurishni rag‘batlantiradi.

Ish beruvchilar yoshlardan qayday qobiliyat va malakalarni talab qilishi borasidagi fikr mulohazalarda bir-biriga yaqin taklif va talablarni ko‘rishimiz mumkin. Bular asosan, jamoada ishlay olish, muammolarni hal qila olish, ijodkor va tanqidiy fikrlash, kirishuvchan va boshqa shu kabi kasbiy ko‘nikmalar kiradi. Eng muhimi, ish beruvchilar, korxona va beznes vakillariga ko‘ra, mehnat munosabatlarida tayyanch fanlarni bilishni o‘zi yetarli emasligi to‘g‘risidagi qat’iy qarashlarning mavjudligidir.

Shu bois, umumta’lim maktabi bitiruvchi o‘quvchilarini mustaqil hayotga tayyorlashda tayanch fanlar bilan birga yuqoridagi kompetensiya va kasb ko‘nikmalarini ham shakllantirish muhim rol o‘ynamoqda. Tadqiqotchi Patrik O’Donnell maqolasida umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilari mustaqil hayotga o‘tishda qanday fazilatlarga ega bo‘lishi kerak savoliga bir nechta tadqiqotchilarning fikrlarini jamlagan holda, ularni quyidagilar, deb ko‘rsatadi:[2]

– *asosiy ko‘nikmalar va bilimlar*: savodxonlik, arifmetik hisoblash va texnologiya;

– *kengaytirilgan tarkib*: ijtimoiy tadqiqotlar, fanlar, tillar, san’at, kodlash va boshqalar;

– *tanqidiy bilimlar*: fikrlash, muammolarni hal qilish, dizayn fikrlash, ijodkorlik, axborot tahlili;

– *ijtimoiy-hissiy*: o‘sish tafakkuri, qat’iyatlilik, o‘z-o‘zini anglash, jamoada ishlash va hamkorlik.

Amaliy jihatdan umumta’lim o‘quvchilarini kasbga tayyorlashda dunyoda keng tarqalgan uchta model mavjud bo‘lib, ular Buyuk Britaniyaning – liberal iqtisodiyotga asoslangan modeli (bozor modeli), Fransiyaning – davlat byurokratiyasiga asoslangan va amaliyotda maktablarga asoslangan model, Germaniyaning – davlat va kompaniyalar uchrashadigan, natijada ikki tomonlama shogirdlik tizimi yaratiladigan dualistik korporativ modelidir.[3]

Bundan tashqari, ingliz tilidagi tadqiqotlarda “Model Profile of a Future Graduate” (Kelajak bitiruvchisining namunaviy profili), rus tilidagi tadqiqotlarda “Модель выпускника” (Bitiruvchi modeli) ko‘rinishida uchraydigan ishlarda bitiruvchining qanday bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarga ega bo‘lishlari kerakligi haqida fikr va yondashuvlar ilgari surilishini ko‘rishimiz mumkin.

[1] Maya Bialik, Charles Fadelet al. Skills for the 21st Century: What Should Students Learn? Center for Curriculum Redesign, 2015, p. ii.

[2] Patrick O’Donnell, What attributes should a high school graduate have? It’s not just the “three R’s” anymore, Jan. 30 2019 https://www.cleveland.com/metro/2018/01/what_attributes_should_a_high_1.html

[3] Eichhorst W., Rodríguez-Planas N., Schmidl R., and Zimmermann K., A Road Map to Vocational Education and Training in Industrialized Countries. ILRRev. 68, 2015, pp. 314-337. doi:10.1177/0019793914564963

Tadqiqotchilar X. Asfani, X. Suvanto va A.P. Vibava o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kasbga yo‘naltirishda ta’sir qiluvchi omillarni uch guruhga bo‘ladi. Bular o‘rgatuvchi (instruktor) sifatida o‘qituvchi, o‘rganuvchi sifatida o‘quvchi va yordamchi sifatida atrof-muhit. Unga ko‘ra, o‘qituvchi omillari: o‘qitish samaradorligi, to‘g‘ri yo‘l-yo‘riq, o‘qitish tajribasi va har bir o‘qituvchining kompetensiyasidan iboratdir. O‘quvchi omillari: o‘zini-o‘zi tartibga soluvchi ta’lim, muloqot qobiliyatlari, muvaffaqiyatga bo‘lgan motivatsiyasi, o‘qishdan qoniqishi shaklida bo‘lishi mumkin. Atrof-muhit omillariga esa: yetarli imkoniyatlar va infratuzilma, ota-onalarning ishtiroki, va ijobiy sinf muhiti hisoblanadi[4]. Tadqiqotchilar ushbu omillardan faqat uchtasini o‘qituvchilarning o‘qitish samaradorligi (X1), o‘quvchilarning ta’limdan qoniqishi (X2), o‘quvchilarning muvaffaqiyat motivatsiyasi (Y), o‘quvchilarning bilim va kompetensiya yutuqlari (Z) o‘zgaruvchan omillarining maktab bitiruvchilari uchun eng muhim ekanligiga qaror qiladi.

Boshqa bir tadqiqotchi I.I. Rodomanchenkoning yozishicha, tayanch (asosiy) fanlarning yuqori saviyada o‘qitilishi, turli kognitiv tanlov va turnirlarda, olimpiadalarda, ilmiy loyihalarda ishtirok etishi, o‘qitishning interfaol usullari o‘quvchining olgan bilimlaridan unumli foydalanishga, mazmunli bo‘lishiga yordam beradi[5].

Yuqoridagi tadqiqotlardan kelib chiqib, tanyach fanlar va kasb ko‘nikmalari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlashga harakat qildik. Buning uchun tajriba-sinov o‘tkazish uchun Buxoro, Namangan va Surxondaryo viloyatlaridan saylanma ravishda 15ta maktab tanlab olindi va qo‘yidagilar aniqlashtirildi:

O‘quvchilar orasida:

a) Bitiruvchilar uchun qaysi fan va predmetni ko‘proq o‘qitilishi va o‘rgatilishi lozim, deb hisoblaysiz?

b) Zamonaviy bitiruvchi o‘quvchi qanday bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak, deb hisoblaysiz?

O‘qituvchilar orasida:

c) Bitiruvchilarga kerak bo‘ladigan eng muhim bilim va ko‘nikmalar qaysilar, deb hisoblaysiz?

Tajriba-so‘rov natijalari qo‘yidagicha bo‘ldi:

1-diagramma. O‘quvchilarning fan va predmet bo‘yicha javoblari

1-diagrammadan ko‘rishimiz mumkinki, so‘rovnomada ishtirok etgan o‘quvchilar maktabda xorijiy til, matematika, ona-tili va adabiyot, axborot texnologiyalari darslarini ko‘proq o‘qitishga yuqori ballarni bergan.

2-diagramma. O‘quvchilarlarning ko‘nikma va kompetensiyalar bo‘yicha so‘rovnomaga javobi

Ikkinchi so‘rovnomadagi natijalarga qaraydigan bo‘lsak, o‘quvchilar eng ko‘p “insonlar bilan aloqa va munosabatlarni yo‘lga qo‘yishni bilish kerak”, ya’ni kommunikatsiya muhim ekanligini ko‘rsatgan. Undan keyingi o‘rinlarda “hayotiy maqsadlarni shakllantira olish va maqsadlarga erishish yo‘llarini bilish”, “shaxsiy va ijtimoiy (jamiyat oldida) javobgarlikni his qilish” ko‘nikmalarini bitiruvchi hayotida kerak bo‘ladigan eng muhim ko‘nikmalardan ekanligini ishorat qilmoqda. Qiziq tarafi ishtirokchilar “tanqidiy fikrlash”ga eng kam baho bergan.

[4] Khoirudin Asfani, Hary Suswanto & Aji P. Wibawa, Influential factors of students’ competence. World Transactions on Engineering and Technology Education. Vol.14, No.3, 2016, pp. 416-420

[5] Родоманченко И.И., Модель выпускника современной школы. Выпускник школы, каков он? Роль классного руководителя в развитии социально-адаптированной личности через формирование общечеловеческих ценностей. https://ik-ptz.ru/dictations-on-the-russian-language--class-3/model-vypusknika-sovremennoi-shkoly-vypusknik-shkoly-kakov-on-rol.html (Ma'lumotga erishilgan tarix: 17.01.2021)

3-diagramma. O‘qituvchilarning hayotiy ko‘nikmalari bo‘yicha so‘rovnomaga javoblari

Ushbu 3-diagrammada ko‘rishimiz mumkinki, so‘rovnomada ishtirok etgan o‘qituvchilarning fikricha, o‘quvchilarda eng muhim ko‘nikmalar “Zamonaviy texnika va texnologiyalarni bilish”, “O‘ziga bo‘lgan ishonchning yuqori bo‘lishi”, “Biror bir kasb va hunar egasi bo‘lishi”, “Moslashuvchanlik va turli vaziyatlardan chiqib keta olish”, “Shaxsiy munosabatlar va psixologik ko‘nikmalar” ekanligini ko‘rsatishgan. O‘quvchilardan farqli o‘laroq o‘qituvchilar “Tanqidiy fikrlash va nostandart qarorlar qabul qilish” ko‘nikmalariga ijobiy baho bergan.

Tadqiqot natijalarini tekshirish uchun Kronbax alfa (Cronbach alpha) va Styudent t-testi metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalarini tekshirish uchun ma’lumotlar analizida tayanch fanlar va ko‘nikmalarning o‘zaro bog‘liqligi va ahamiyatini to‘rt kategoriyaga bo‘lamiz: yuqori darajali (ahamiyatli) va past darajali (ahamiyatli) hamda rivojlanish va motivatsiya ko‘rsatkichlari. Tayanch fanlar bo‘yicha (1, 2, 3, 4...10) faktor omili (67) va (78) orasida o‘zgarmoqda, kompetensiyalarga qaratilgan moddalar (1, 2, 3, 4...10) bo‘yicha faktor omili (64) va (78) orasida o‘zgarmoqda. O‘lchovning o‘rtacha ishonarligi (73) bo‘lmoqda. Baholash esa tayanch fanlar uchun 1.36-6.00 orasida o‘zgarmoqda. Bunda eng yuqori baholash o‘rtachasi (x=4.10) eng past baholash o‘rtachasi (x=3.41)ni tashkil etmoqda. Ko‘nikmalar uchun baholash 1.30-4.00 orasida o‘zgarayotgan bo‘lib, o‘rtacha 2.83 ni tashkil etmoqda.

1-jadval. Tayanch fanlar va ko‘nikmalar orasidagi munosabat

		O‘zaro bog‘liqligi va ahamiyati yuqori	O‘zaro bog‘liqligi va ahamiyati past	Rivojlanish ko‘rsatkichi	Motivatsiya ko‘rsatkichi
Tayanch fanlar	r	.150	.048	.338**	.364**
	p	.030	.487	.000	.000
Ko‘nikmalar	r	.195**	.079	.369**	.372**
	p	.005	.256	.000	.000

Mazkur 1-jadvaldan ko‘rishimiz mumkinki, yuqori ahamiyatga ega bo‘lgan tayanch fanlar bilan ko‘nikmalar orasida o‘zaro bog‘liqlik munosabatlari bor ekan, pastroq ahamiyatga ega bo‘lgan tayanch fanlar bilan ko‘nikmalar orasida o‘zaro munosabatlarning zaif ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda**,** umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari hayotida muhim bo‘lgan kasb ko‘nikmalar borasida olib borgan tadqiqot-so‘rovnoma va uning natijalarini matematik-statistik baholash va testdan o‘tkazish xulosalari shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning u yoki bu tayanch fanlardan biriga qiziqishi ularning kasb ko‘nikmalari va kognitiv kompetensiyalariga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, o‘qituvchilarning ham dunyoqarashi va fanini yaxshi o‘tishi o‘quvchilarning bilim va kasb ko‘nikmalarini yaxshi o‘zlashtirishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Yuqorida ko‘rib chiqqanimizdek, o‘quvchilar orasida xorijiy til, matematika, axborot texnologiyalari, ona tili va adabiyot darslariga qiziqishi kommunikativ (til bilan bog‘liq), zamonaviy texnologiyalarni bilish (axborot texnologiyalari bilan bog‘liq), muammolarni

hal qilish va javobgarlik (matematika bilan bog‘liq) kompetensiyalarni rivojlanishiga va motivatsiyalashuviga xizmat qilmoqda, ya’ni, progressiv bog‘liqlikni shunda ko‘rishimiz mumkin.

O‘quvchilarda fizika, kimyo va biologiyalarga bo‘lgan qiziqishning pastligi tanqidiy fikrlash va nostandart qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarining ham pastligini shu bilan bog‘lashimiz mumkin. Shu bois, ushbu ko‘nikmalarini takomillashtirish uchun fizika, kimyo va biologiya fanlarini yaxshi tushunadigan shaklda o‘qitilishi, ya’ni dars mazmuni va mavzular tematigini takomillashtirish, ixchamlashtirish, o‘quvchilarni ko‘proq diskussiya qilish va tanqidiy-ijodiy fikrlashga jalb qilishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Kasbga qiziqtirish tayanch fanlar va ko‘nikmalar bilan o‘zaro bog‘liqlikda amalga oshirilishi bitiruvchilarni tez va mukammal ko‘rinishda kasblarni o‘zlashtirishga ijobiy ta’sir qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Eichhorst W., Rodríguez-Planas N., Schmidl R., and Zimmermann K., A Road Map to Vocational Education and Training in Industrialized Countries. ILRRev. 68, 2015, pp. 314-337. doi:10.1177/0019793914564963

2. Khoirudin Asfani, Hary Suswanto & Aji P. Wibawa, Influential factors of students’ competence. World Transactions on Engineering and Technology Education. Vol.14, No.3, 2016, pp. 416-420.

3. Maya Bialik, Charles Fadelet al. Skills for the 21st Century: What Should Students Learn? Center for Curriculum Redesign, 2015, p. ii.

4. Patrick O’Donnell, What attributes should a high school graduate have? It’s not just the “three R’s” anymore, Jan. 30, 2019, https://www.cleveland.com/metro/2018/01/what_attributes_should_a_high_1.html

5. Родоманченко И.И., Модель выпускника современной школы. Выпускник школы, каков он? Роль классного руководителя в развитии социально-адаптированной личности через формирование общечеловеческих ценностей. https://ik-ptz.ru/dictations-on-the-russian-language--class-3/model-vypusknika-sovremennoi-shkoly-vypusknik-shkoly-kakov-on-rol.html (Ma'lumotga erishilgan tarix:17.01.2021)

Nilufar ISAKULOVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti pedagogika fanlari doktori, professor

MATERIKLAR VA OKEANLAR TABIIY GEOGRAFIYASINI O‘QITISHDA O‘QUV KEYSLARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Maqolada uzoq yillar davomida to‘plangan materiklar va okeanlar to‘g‘risidagi bilimlarni turli davrlarda yashagan olimlar hamda geografiya sohasiga ulkan hissa qo‘shgan o‘lkamiz olimlarining ilmiy geografik tadqiqotlari xususida so‘z borgan va tahlil qilingan. Shuningdek, terminologiyaning rivojlanishi, boyish yo‘llari va o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zi. Geografiya, terminologiya, materiklar, okeanlar, atmosfera, troposfera, litosfera, geografik qobiq, keys bayoni, keys topshirig‘i.

В статье рассматриваются и анализируются накопленные за долгие годы знания о материках и океанах, а также научные географические исследования ученых нашей страны, внесших огромный вклад в развитие географии. Также раскрыты развитие терминологии, пути обогащения и особенности.

Ключевые слова. География, терминология, материки, океаны, атмосфера, тропосфера, литосфера, географическая оболочка, тематическое исследование, тематическое задание.

The article addressed and analyzed the scientific geographical studies of scientists who lived in different periods of time and scientists of our country who made outstanding contributions to the field of geography, the knowledge about the matter and oceans accumulated over many years. Also, the development of terminology, ways of enrichment and distinctive features are revealed.

Key words. Geography, terminology, matter, oceans, atmosphere, troposphere, lithosphere, geographic shell, case description, case assignment.

Materiklar va okeanlar to‘g‘risidagi bilimlar uzoq yillar davomida to‘plangan. Bu bilim manbalarini turli davrlarda yashagan olimlar (Aneksimandr, Pifagor, Aristotel, Eratosfen, Ptolemey, A.Gumboldt, N. Vavilov), buyuk sayyohlar, qo‘rqmas dengizchilar (finikiyaliklar, arablar, normanlar, portugallar, ispanlar va b.) yig‘ishgan va bu sohada kashfiyotlar qilishgan. Ayniqsa, dunyo fani va madaniyatiga, xususan, geografiya sohasiga ulkan hissa qo‘shgan o‘lkamiz olimlaridan al-Xorazmiy (783-850 y.), Ahmad Farg‘oniy (IX asr), Abu Nasr Foro- 4 biy (873-950 y.), Abu Rayhon Beruniy (973-1048 y.), Abu Ali ibn Sino (980-1037 y.), Mahmud Koshg‘ariy (XI asr), Mirzo Ulug‘bek (1394-1449 y.) va boshqalarning xizmatlari tahsinga sazovordir. “O‘zbek Magellani” nomi bilan mashhur bo‘lgan Hamidulla Hasanov (1919-1985 y.) o‘rta asrlarda yashab ijod etgan ko‘plab o‘rta osiyolik allomalarning ilmiy geografik merosini atroflicha tavsiflab bergan.

Terminologiyaning rivojlanishi, boyish yo‘llari har xil: boshqa tillardan so‘z olish, yangi so‘z yasash, ayrim fammatik kategoriyalarning leksikalashuvi, so‘z birikmasining semantik bir butun holga kelib qolishi va boshqalardan iborat. Bugungi kunda o‘zbek terminologiyasining boyishi, asosan, boshqa tillardan so‘z olish va ichki so‘z yasash hisobiga ro‘y bermoqda. U yoki bu soha terminologik tizimining barqarorligini belgilov-

chi asosiy omil uning tartibga solinganligi va muntazamligidir. Terminologiyaning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud .

Zamonaviy o‘qitish amaliyotida o‘quv keyslarining quyidagi turlari qo‘llanilmoqda:

muammoning yechimi va qarorlarni tahlil qilishga yo‘naltirilgan keyslar;

qaror yoki yaxlit muammoni ifodalovchi keyslar;

talaba faoliyatini tahlil qilish va baholash imkoniyatini beruvchi keyslar.

Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasini o‘qitishda o‘quv keyslardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Keys bayoni. Atmosferaning quyi qatlami – troposfera, litosferaning ustki g‘ovak qatlami, gidrosfera va biosferalarni o‘z ichiga olgan hamda o‘zaro ta’sir etib turadigan yaxlit qobiq Yerning geografik qobig‘i deb ataladi. Geografik qobiqning yuqori va quyi chegarasini, uning qalinligini turli olimlar turlicha o‘tkazishadi va belgilashadi. Ko‘p olimlar geografik qobiqning yuqori chegarasini troposferaning yuqori qismidan o‘tkazishadi va uning qalinligini 30-35 km deb hisoblashadi. Aniqlanishicha, geografik qobiqning yuqori chegarasi ozon pardasiga, pastki chegarasi esa g‘ovak jinslarining tag qismiga to‘g‘ri keladi. Ozon pardasi Yerdagi organizmlarni Quyoshning ultrabinafsha nurlaridan muhofaza qiladi.

Keys topshirig‘i. Geografik qobiqning xususiyatlarini juftlang.

Keys topshirig‘ini bajarish uchun ish qog‘ozi

1.	Geografik qobiqning gorizontal tuzilishi	A	tarkibiy qismlari – litosfera, gidrosfera, atmosfera va biosferalar doimiy ravishda o‘zaro aloqadorlikda bo‘lishi va bir-biriga ta’sir etishidir
2.	Geografik qobiqning vertikal tuzilishi	B	modda va energiya almashinish jarayonining bo‘lib turishidir
3.	uchinchi xususiyati	C	geografik qobiqda organik hayotning, jumladan, insoniyat jamiyatining mavjudligidir
4.	ikkinchi xususiyati	D	uning tarkibiy qismlari balandlik bo‘ylab joylashgan holatini tushunish lozim
5.	birinchi xususiyati	E	tabiat komplekslarining kenglik va uzunlik bo‘ylab tarqalishi va almashib kelishida namoyon bo‘ladi

O‘qituvchining yechimi:

Savollar	1	2	3	4	5
Javoblar	E	D	C	B	A

Keys bayoni. Geografik qobiqning rivojlanish bosqichlari. Olimlar geografik qobiqning rivojlanishini uch bosqichga ajratishadi: nobiogen, biogen va antropogen.

Keys topshirig‘i. Geografik qobiqning rivojlanish bosqichlarini juftlang.

Keys topshirig‘ini bajarish uchun ish qog‘ozi

1.	umumiy geografik qonuniyatlari	A	Yer taraqqiyotining 4,6 mlrd yildan to 570 mln yilgacha o‘tgan davrini qamrab oladi. Bu bosqichda geografik qobiqning asosi tarkib topadi, ya’ni litosfera, atmosfera va gidrosfera shakllanadi. Yerda hayot 3,8-3,5 mlrd yil muqaddam paydo bo‘lgan bo‘lsa-da, ular o‘ta oddiy organizmlardan tashkil topganligi uchun geografik qobiqning rivojlanishiga sezilarli ta’sir etmagan
2.	Antropogen bosqich	B	570 mln yil muqaddam boshlangan. Bu davrda organizmlar taraqqiy etgan. Natijada, biosfera shakllangan va geografik qobiqning mukammal tizimga ega bo‘lishiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan
3.	Biogen bosqich	C	Inson paydo bo‘lgandan (2 mln yil avval) hozirgi kunga qadar o‘tgan davrni qamrab oladi. Ayni paytda geografik qobiqning rivojlanishiga insonning xo‘jalik faoliyati (texnika inqilobi, kosmik asr) sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatmoqda. Bular tabiatni muhofaza qilish, ekologik, demografik muammolarni keltirib chiqardi. Shulardan biri o‘lkamizdagi Orolbo‘yi ekologik muammosidir
4.	Nobiogen bosqich	D	Bir butunlik, modda va energiyaning tabiatda aylanib yurishi, davriy yoki ritmik hodisalar, geografik zonallik va balandlik mintaqalanishi (hududiylik)

O‘qituvchining yechimi:

Savollar	1	2	3	4
Javoblar	D	C	B	A

Keys bayoni. Litosfera (yunoncha „litos“ - tosh, qattiq, „sfera“ - qobiq) Yer po‘sti va yuqori mantiyaning bir qismini egallaydi. Yer po‘sti bilan yuqori mantiya oralig‘idagi chegarani 1914-yilda yevropalik olim Moxorovichich aniqlagan. Yer po‘sti tuzilishi va qalinligiga ko‘ra ikki turga bo‘linadi. Yer po‘stining kontinental tipi materiklarda tarqalgan bo‘lib, tekisliklarda 35-40 km, yosh tog‘larda 55-70 km qalinlikka ega. Pomir va Hindukushda 60-70 km, Himolay tog‘larida 80 km ga boradi. Kontinental yoki materik po‘sti cho‘kindili, granitli va bazaltli qatlamlardan tuzilgan.

Keys topshirig‘i. Litosferaga oid ma’lumotlarni juftlang.

Keys topshirig‘ini bajarish uchun ish qog‘ozi:

1.	O‘rtacha baland tog‘lar	A	Yer po‘stining o‘ta mustahkam qismlari bo‘lib, tog‘ burmalanishlari, kuchli zilzila va vulqon harakatlari kuzatilmaydi
2.	O‘rtacha tog‘lar	B	Yer po‘stining o‘ta serharakat joylari: ularga kuchli zilzilalar, harakatdagi vulqonlar, tog‘ burmalanishlari xos
3.	Past tog‘lar	C	5-10 km qalinlikka ega. So‘nggi tadqiqot ishlari natijasida bazaltli qatlamdan pastda joylashgan va qalinligi 3,5-5 km bo‘lgan magmatik jinslar borligi aniqlandi

4.	Qirlar	D	Yer po‘sti bilan mantiya oralig‘idagi qatlamining yumshoq va elastik holatdagi moddalardan tuzilganligiga bog‘liq ekan
5.	Pasttekisliklar	E	Yer yuzasining kattaligi, kelib chiqishi, yoshi va rivojlanish tarixi turlicha bo‘lgan shakllari
6.	Cho‘kmalar va botiqlar	F	Quruqlikdagi dengiz sathidan past yerlar
7.	Relyef	G	Dengiz sathidan 200 m balandlikkacha bo‘lgan tekisliklar
8.	Astenosfera	H	200 m dan 500 m balandlikkacha bo‘lgan yerlar
9.	Okean po‘sti	I	500 m dan 1 000 m balandlikkacha bo‘lgan yerlar
10.	Geosinklinal mintaqalar	J	1 000 m dan 2 000 m gacha bo‘lgan tog‘lar
11.	Platformalar	K	2000 m dan 3000 m gacha bo‘lgan tog‘lar

O‘qituvchining yechimi:

Savollar	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
Javoblar	K	J	I	H	G	F	E	D	C	B	A

Keys bayoni. Gidrosfera (yunoncha, suv qobig‘i) geografik qobiqning asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, yerusti va yerosti suvlaridan, muzliklardan, atmosferadagi suv bug‘laridan iborat. Daryo, ko‘l, botqoqlik, muz va yerosti suvlari gidrosferaning quruqlikdagi suvlaridir. Ular umumiy gidrosfera suvlarining 3,5 foiz qismini tashkil etadi. Shundan 2,5 foizi chuchuk suvlardir.

Keys topshirig‘i. Gidrosferaga oid ma’lumotlarni juftlang.

Keys topshirig‘ini bajarish uchun ish qog‘ozi:

1.	Ko‘p yillik muzloq yerlar	A	zichligi, sersuvligi iqlimga va relyefga bog‘liq
2.	Yerosti suvlari	B	kattaligi, chuqurligi, oqar yoki oqmasligi, sho‘r yoki chuchukligi va kelib chiqishiga ko‘ra xilma-xildir
3.	Muzliklar	C	kanallar yerlarni sug‘orish, elektr energiyasi olish, sel hodisalarining oldini olish, daryo suvlarini tartibga solish, dam olish kabi maqsadlarda quriladi
4.	Suv omborlari	D	quruqlikning 11 foiz maydonini egallaydi, 99 foizi qutbiy o‘lkalarda, qoplama holatida joylashgan
5.	Ko‘llar	E	yog‘inlarning Yer po‘stiga shimilishidan hosil bo‘ladi, lekin kelib chiqishiga ko‘ra magmatik xususiyatga ega bo‘lgan geyzerlar
6.	Daryolar	F	tuproq, cho‘kindi jinslar bilan yerosti suvlarining birgalikda muzlab qolishi

O‘qituvchining yechimi:

Savollar	1	2	3	4	5	6
Javoblar	F	E	D	C	B	A

Keys bayoni. Atmosfera (yunoncha, bug‘ – havo qobig‘i) geografik qobiqning eng yuqori qismini egallagan, yengil va serharakat havo qobig‘idir. U Yerning boshqa qobiqlari bilan muntazam ravishda aloqada bo‘lib, o‘zaro ta’sir etib turadi.

Keys topshirig‘i. Atmosferaga oid ma’lumotlarni juftlang.

Keys topshirig‘ini bajarish uchun ish qog‘ozi:

1.	mezosfera	A	quyi qatlam Quyosh nuri va Yerdan qaytgan nur hisobiga isiydi
2.	qutbiy	B	50-55 km gacha
3.	mo‘tadil	C	1 000 km gacha
4.	tropik	D	2 000 km gacha
5.	ekvatorial	E	harorat, bosim, havo massalari va doimiy shamollarning zonal tarqalishiga olib keladi
6.	havo massasi	F	troposferaning bir xil xususiyatga ega bo‘lgan katta hajmdagi havolari
7.	geografik kenglik omili	J	issiq va nam havo massalari
8.	ekzosfera	H	issiq va quruq havo massalari
9.	termosfera	I	iliq va nam havo massalari
10.	stratosfera	J	arktika va antarktika (sovuq va quruq) havo massalari
11.	troposfera	K	80-85 km gacha

O‘qituvchining yechimi:

Savollar	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
Javoblar	K	J	I	H	G	F	E	D	C	B	A

Keys bayoni. Ekvatordan qutblarga tomon issiqlikning kamayishi hamda turli kengliklarda yil bo‘yi yoki fasllar bo‘yicha turli havo massalarining hukmronligi tufayli Yer yuzida 7 ta asosiy va 6 ta oraliq iqlim mintaqalari vujudga kelgan. Asosiy mintaqalarda yil bo‘yi nomlari tegishli havo tipi bilan bog‘liq bitta havo massasi hukmron. Oraliq mintaqalarda havo tiplari fasllar bo‘yicha almashib turadi.

Keys topshirig‘i. Iqlim mintaqalariga oid ma’lumotlarni jadvalning o‘ng tomonida yozing:

1) Ekvatorial, shimoliy va janubiy tropik, shimoliy va janubiy mo‘tadil, qutbiy (arktika va antarktika);

2) Shimoliy va janubiy subekvatorial, shimoliy va janubiy subtropik, subarktika va subantarktika;

3) Ekvatorial, issiq va nam; tropik, issiq va quruq; mo‘tadil, iliq va nam; Qutbiy, sovuq va quruq;

4) Yozda ekvatorial, qishda tropik; yozda tropik, qishda mo‘tadil; yozda mo‘tadil, qishda qutbiy;

5) Yil bo‘yi issiq va seryomg‘ir yoz, harorat +24 +26 °C atrofida saqlanadi; yoz issiq, quruq; qish iliq, quruq, yog‘in kam yog‘adi; to‘rtta fasl aniq namoyon bo‘ladi; yil bo‘yi sovuq, yog‘in kam yog‘adi, yer qor va muzlik bilan qoplangan;

6) Yoz issiq, seryomg‘ir; qish iliq, quruq; yoz issiq, quruq; qish iliq, yog‘inli (yomg‘ir, ba’zan qor); yoz biroz iliq, yog‘inli; qish sovuq, quruq.

Keys topshirig‘ini bajarish uchun ish qog‘ozi:

Iqlim mintaqalari	Javob raqamlar
Asosiy iqlim mintaqalari	
Oraliq iqlim mintaqalari	

O‘qituvchining yechimi:

Iqlim mintaqalari	Javob raqamlar
Asosiy iqlim mintaqalari	1, 3, 5
Oraliq iqlim mintaqalari	2, 4, 6

Keys bayoni. Olimlarning fikricha, hayot okean sohillaridagi to‘lqinlar hosil qilgan “hayot sharbati – bo‘tqasimon loyqa”li suv muhitida hosil bo‘lgan. Okean suvlarida mikroskop bilan ko‘rinadigan organizmlardan tortib 150 tonna keladigan ko‘k kitlargacha, turli xil organizmlar yashaydi. Hozir Dunyo okeanida 160 ming hayvon turi, 10 ming atrofida o‘simlik turi mavjud.

Keys topshirig‘i. Okean boyliklari va ulardan foydalanishga oid ma’lumotlarni juftlang.

Keys topshirig‘ini bajarish uchun ish qog‘ozi:

1.	dengiz turizmi	A	okean suvlari tubida, yotqiziqlar orasida yashaydi
2.	dengiz transporti yo‘li	B	erkin ko‘chib yuruvchi organizmlar
3.	planktonlar	C	suv oqimlariga qarshilik ko‘rsata olmay, muallaq holatda suzib yuruvchi organizmlardir
4.	nektonlar	D	dunyo okeani eng muhim va arzon vazifani bajaradi
5.	bentos organizmlar	E	okean resurslaridan foydalanishning bir sohasi sifatida tobora rivojlanmoqda

O‘qituvchining yechimi:

Savollar	1	2	3	4	5
Javoblar	E	D	C	B	A

Keys bayoni. Dunyo okeanining qismlari dengiz, qo‘ltiq, bo‘g‘izlardan iborat. Okeanlar bir-biridan geografik o‘rni, geologik tuzilishi, biologik xususiyatlari bilan farq qiladigan bir butun tabiat komplekslaridir. Dengizlar – okeanning bir qismi bo‘lib, ular dunyo okeanidan quruqlik yoki orollar, yarimorollar va suvosti relyefining ko‘tarilgan joylari bilan ajralib turadi.

Keys topshirig‘i. Okean dengizlariga oid ma’lumotlarni jadvalning o‘ng tomonida yozing:

1) Boltiq;
2) Bering;
3) Qizil;
4) Grenlandiya;
5) Shimoliy;
6) Oxota;

7) Arabiston;
8) Norvegiya;
9) Irlandiya;
10) Sharqiy (Yapon);
11) Andaman;
12) Oq;
13) O‘rta;
14) Sariq;
15) Timor;
16) Barens;
17) Alboran;
18) Sharqiy Xitoy;
19) Arafur;
20) Kara.

Keys topshirig‘ini bajarish uchun ish qog‘ozi:

Dunyo okeani va dengizlari	Javob raqamlar
Atlantika okeani dengizlari	
Tinch okean dengizlari	
Hind okeani dengizlari	
Shimoliy Muz okeani dengizlari	

O‘qituvchining yechimi:

Dunyo okeani va dengizlari	Javob raqamlar
Atlantika okeani dengizlari	1, 5, 9, 13, 17
Tinch okean dengizlari	2, 6, 10, 14, 18
Hind okeani dengizlari	3, 7, 11, 15, 19
Shimoliy Muz okeani dengizlari	4, 8, 12, 16, 20

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduqodirov A.A., Astanova F.A., Abduqodirova F.A. “Case-study” uslubi: nazariya, amaliyot va tajriba. – T.: Tafakkur qanoti, 2012. – 134 b.

2. Soatov A., Abdulqosimov A., Mirakmalov M. Geografiya (materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi). Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinf o‘quvchilari uchun darslik. – T.: O‘qituvchi, 2017. – 160 b.

3. Terminologiya. Elektron resurs: Terminologiya – Vikipediya (wikipedia.org). Murojaat sanasi: 18.03.22.

Abduhakim HASANOV,
Jizzax davlat pedagogika universiteti akademik litseyi, ‘‘Aniq fanlar’’
kafedrasi fizika fani o‘qituvchisi

AKADEMIK LITSEY O‘QUVCHILARIGA FIZIKA FANINI O‘QITISHDA BILIMLARNI UMUMLASHTIRISH USULLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada akademik litsey o‘quvchilariga fizika fanini o‘qitishda bilimlarni umumlashtirish usullari yoritilgan. Shuningdek, O‘qituvchining uslubiy faoliyatining predmeti o‘quv materialining mazmunini tanlash, tizimlashtirish, qisqartirish, usullar va dasturlarni muayyan o‘quv sharoitlari va o‘quvchilarning bilim qobiliyatlariga moslashtirish tizimidir, haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Fizika fanini o‘qitish, virtual labaratoriya, electron dasturiy qo‘llanmalar, bilim, bilimlarni umumlashtirish, laboratoriya ishlari.

В этой статье рассматриваются методы обобщения знаний при обучении физике обучаемых в академических лицеях. Также предметом методической деятельности учителя является отбор, систематизация, сокращение содержания учебного материала, система адаптации методов и программ к конкретным условиям обучения и познавательным способностям учащихся.

Ключевые слова. Преподавание физики, виртуальная лаборатория, электронные программные пособия, знания, обобщение знаний, лабораторные работы.

This article discusses the methods of generalization of knowledge in teaching physics to academic high school students. Also, the subject of the teacher's methodological activity is the selection, systematization, reduction of the content of educational material, the system of adaptation of methods and programs to specific learning conditions and cognitive abilities of students.

Key words. Teaching physics, virtual laboratory, electronic software manuals, knowledge, generalization of knowledge, laboratory work.

Davlatimizda so‘nggi yillarda fizika fanini o‘qitishning ilmiy-nazariy hamda uslubiy asoslarini rivojlantirish, zamonaviy o‘qitish texnika vositalari hamda usullaridan dars davomida qo‘llashda innovatsion yondashuvga erishishning me’yoriy-huquqiy asoslari ishlab chiqilmoqda. “Fizika sohasidagi ilmiy-nazariy tadqiqotlar hajmi va samaradorligini oshirish, yosh tadqiqotchilarga zarur ilmiy-pedagogik shart-sharoitlarni yaratish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar amalga oshirish” ustuvor vazifa qilib ko‘rsatilgan. Shu sababli fizika fani o‘qitish bo‘yicha yangi avlod adabiyotlarini ishlab chiqish, fan-texnika, o‘quv adabiyotlarining mazmuni hamda ishlab chiqarish texnologiya taraqqiyotining bugungi salohiyatini qamrab olishi, masalalar yechish metodikasi va to‘plami, labaratoriya ishlarini bajarish bo‘yicha uslubiy qo‘llanmalar, elektron dasturiy mahsulotlarni yaratish imkoniyati yanada oshdi.

O‘qituvchining uslubiy faoliyatining predmeti o‘quv materialining mazmunini tanlash, tizimlashtirish, qisqartirish, usullar va dasturlarni muayyan o‘quv sharoitlari va o‘quvchilarning bilim qobiliyatlariga moslashtirish tizimidir.

Ushbu turdagi faoliyatning natijasi dars uchun tanlangan uslubiy qayta ishlangan o‘quv materialidir. O‘quvchilar fizika fanini o‘zlashtirishda o‘quv adabiyotlaridan foydalanadilar. Ular orasida masalalarni yechish algoritmlari, dars ishlanmalari, eslatmalar va boshqalar mavjud.

Fizika o‘qituvchisi tomonidan darslarga tayyorgarlik ko‘rishda amalga oshiriladigan uslubiy faoliyat turlariga quyidagilar kiradi:

- o‘quv-dasturiy hujjatlarni, uslubiy majmualarni tahlil qilish;
- nazariy va amaliy mashg’ulotlar uchun darslar tizimini rejalashtirish;
- o‘quv materialining mazmunini tanlash;
- o‘quv materialini uslubiy tahlil qilish;
- darsda o‘quv ma’lumotlarini taqdim etish shakllarini loyihalash;
- nazariy tushunchalar va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda talabalarning faoliyatini loyihalash;
- bilim va malakalarni nazorat qilish turlari va shakllarini ishlab chiqish;
- o‘qitish usullarini tanlash;
- fan bo‘yicha o‘qitish usullarini ishlab chiqish;
- o‘quv faoliyatini aks ettirish.

Tizimning uslubiy ta’minoti qatorida biz fizika metodologiyasida (mavjud tadqiqotlar asosida) bilimlarni umumlashtirish muammosini hal qilishning asosiy yo‘nalishlarini belgilaymiz. Bunday holda, biz didaktikada “umumlashtirish” “tizimlashtirish” (ya’ni umumiyroq) bilan bog‘liq bo‘lgan umumiy tushuncha bo‘lib, uni yagona jarayonning (va “umumlashtirish”) tomonlaridan biri sifatida o‘z ichiga olishini hisobga olamiz.

Fizika fanidan bilimlarni umumlashtirish texnikasi akademik litseylarda fizika fanini o‘qitish jarayoniga adekvat bo‘lgan to‘liq tizimdir.

Fizika fanini o‘rganishda laboratoriya ishlari bajaradigan asosiy vazifasi sifatida talabalar tomonidan umumlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliyotga qo‘llash hisoblanadi. Shu sababli o‘quvchilar tomonidan laboratoriya ishlarini bajarish jarayonida egallanadigan ko‘nikmalar mohiyati ularning kelajakdagi kasbiy faoliyati jarayonida zarur ko‘nikmalarni hosil qilishga yordam beradi.


Fizika fanidan laboratoriya ishlarini tashkil etishning an’anaviy metodologiyasini o‘rganish jarayonida o‘quvchilar faoliyatining mantiqiy ketma-ketlikdagi vazifalarini bajarish va labaratoriya o‘tkazish usullarini qo‘llash jarayonida o‘quvchilarni tadqiqot metodi asosidagi nazariy tamoyillar bilan tanishishtirish lozim. O‘quvchilar labaratoriya ishini bajarishda nimalarga e’tibor qaratish kerakligini tushuntirish o‘qituvchining asosiy vazifasi hisoblanadi. buning uchun labaratoriya mashg‘ulotining maqsadi shakllantiriladi. Keyin labaratoriya mashg‘uloti mavzusi ko‘rsatiladi. Keyinchalik labaratoriya mashg‘uloti usuli aniqlanadi.

Fizika fanini o‘zlashtirishning yetakchi usullari quyidagilardir: o‘lchash, modellashtirish, o‘lchangan parametrlarni tahlil qilish, vektor diagrammasi va boshqalar. Usullarni tanlab, o‘quvchilar bajariladigan faoliyat turlarini taqdim etadilar: barcha kerakli o‘lchov asboblari (ularning turlari); o‘lchov komplekslari.

Shundan so‘ng, o‘quvchilar sanab o‘tilgan asboblarning laboratoriya stendidagi o‘rnini tushunishlari uchun labaratoriya mashg‘ulotining sxematik diagrammasi ko‘rsatilishi kerak.

V.A. Kondakov fikriga ko‘ra, agar fizika o‘qituvchisi fizikani o‘qitishning ikkinchi bosqichida bilimlar tizimining o‘zagi fizik printsiplar, qonunlar va nazariyalarning man-

tiqiy o‘zaro bog‘langan tizimi bo‘lishi kerak degan pozitsiyada bo‘lsa, u, albatta, umumiy qabul qilinganidan ko‘ra ko‘proq deduktiv yondashuvdan foydalanadi .



Ushbu yondashuvning mohiyati quyidagicha. Ma’lumki, klassik mexanikaning asosiy tamoyillari Nyutonning dinamika qonunlarida (shu jumladan, butun dunyo tortishish qonunida) jamlangan holda ifodalangan. Shuning uchun dinamikaning o‘quv materiali mexanika kursida ham hajm, ham taqdim etish ketma-ketligi bo‘yicha yuqori o‘rinni egallashga mo‘ljallangan. Harakatning umumlashtirilgan dinamik qonunlari yordamida tabiatda va ishlab chiqarishda eng ko‘p uchraydigan turli kinematik va statistik vaziyatlarni ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir .

Akademik litsey o‘quvchilariga fizika fanini o‘qitishda bilimlarni umumlashtirish usullarini tanlashning quyidagi didaktik shartlari mavjud.

V.A. Kondakov butun mexanika kursi davomida eksperimental binolarni va Nyuton qonunlarining nazariy ma’nosini bosqichma-bosqich har tomonlama ochib berishga qaratadi. Har bir bosqich o‘quvchilar tomonidan Nyuton qonunlarini bilishning sifat jihatidan yangi darajasiga mos keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

2. O‘zbekicton Respublikasi Prezidentining ‘‘Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohatlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida’’gi 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-con Qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar to‘plami. – T., 2018. – 24 b.

3. Kondakov V.A. “Maktabda fizika” fani tizimida fizikaviy tamoyillar va nazariyalarning o‘rni va o‘rni haqida. //Kuybishev davlat pedagogika institutining ilmiy yozuvlari. V.V. Kuybishev. Fizika metodologiyasi. 1966 yil, 49-son. II qism. – 5-24 b.

4. Landsberg G.S. Fizika bo‘yicha eksperimental darslik. – M.: Nauka, 1973-yil.

Furqat MAHMUDOV,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Samarqand filiali akademik litseyi
O‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari

KVANT FIZIKASI BO‘LIMINI DARSDAN TASHQARI MUSTAQIL O‘QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Annotatsiya

Maqolada elektron darslik va LabVIEW dasturlash tilida yaratilgan virtual laboratoriyadan foydalanish avfzalliklari yoritilgan. Xususan o‘quvchilarda motivatsiya paydo bo‘lishi, fizik qonuniyatlarni yaxshi tushunishi, tahlil qilishi, mushohada qilish va olingan natijalar bo‘yicha xulosa chiqarishiga LabVIEW dasturlash tilida yaratilgan virtual laboratoriyadan foydalanish yuqori samara berishi yoritilgan.

Kalit so‘zlari. Elektron darslik, LabVIEW dasturlash, real, vertual, laboratoriya, kvant.

В статье освещаются преимущества использования электронного учебника и виртуальной лаборатории, созданной на языке программирования LabVIEW. В частности, показано, что высокая эффективность использования виртуальной лаборатории, созданной на языке программирования LabVIEW способствует возникновению у учащихся мотивации, хорошему пониманию физических законов, анализу, наблюдению и умозаключению по полученным результатам.

Ключевые слова. Электронный учебник, LabVIEW программирование, реальное, вертикальное, лабораторное, квантовое.

The article covers the advantages of using an electronic textbook and a virtual laboratory created in the LabVIEW programming language. In particular, the emergence of motivation in students, a good understanding of physical laws, falsification, observation and conclusion on the results obtained are highlighted by the high efficiency of using a virtual laboratory created in the LabVIEW programming language.

Key words. Electronic textbook, LabVIEW programming, real, vertual, laboratory, quantum..

Bugungi kunda aniq va tabiiy fanlar, jumladan, fizika fanini o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishni taqoza etayapti. Elektron resurslarni ishlab chiqish va ta’lim jarayonining raqamlashtirish maqsadlariga qaratilgan ilmiy-metodik tadqiqotlar ulushi oshib bormoqda. Ayniqsa, o‘qituvchi va pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonini samarali tashkil etish uchun innovatsion elektron ta’lim muhiti sharoitida fizik jarayonlarga raqamli texnologiyalarni qo‘llash, dasturiy vositalardan foydalanish, nazariy, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarida multimediyali elektron vositalarni qo‘llashga optimal yondashuvlar bilan bog‘liq ilmiy ishlanmalar ko‘lamini oshirishga talab ortganligi ko‘zga tashlanmoqda.

Yu.A. Goroxovatskiy yozadi – “Aynan kompyuter ... fizikani o‘qitishning yangi takomillashgan texnologiyalarini rivojlantirishga imkon beradi. Ushbu texnologiyalardan biri – o‘quvchilarning tadqiqot izlanuvchi faoliyatini tashkil etishdir. O‘quvchilarning tadqiqot faoliyati kompyuter modellarini eksperimentlashni (kompyuterli fizik eksperiment) va kompyuter bilan bog‘langan datchiklar (kompyuterlashtirilgan fizik tajriba) yordamida to‘liq tajriba o‘tkazishda tashkil etilishi mumkin.

Darsda va darsdan tashqari o‘quvchilarni nazariy va amaliy bilim ko‘nikmalarini rivojlantirishda fizik hodisa va qonunlar mazmun-mohiyatini tushunish, tahlil qilishda

xulosa chiqarish va olgan nazariy bilimlarni amalyotga qo‘llashda LabVIEW dasturlash tilida yaratilgan virtual laboratoriya ishlari majmuasidan foydalanib ta’lim samardorligini oshirishga erishish mumkin.

Kvant fizikasi bo‘limini o‘qitishda LabVIEW dasturlash tilida yaratilgan virtual laboratoriya ishlar majmuasidan foydalanish afzalliklari:

1. Nazariy bilimlarni to‘ldiradi, mustahkamlaydi va rivojlantiradi.


2.Virtual laboratoriyada olingan natija real laboratoriyada olingan natija bilan bir xillikni ta’minlaydi.

3. LabVIEW dasturlash tilida yaratilgan virtual laboratoriya ishidagi asbob-uskunalar ko‘rinishi real laboratoriya asbob-uskunalari bilan bir xillikni ta’minlaydi.

LabVIEW virtual laboratoriyasidan foydalanishdagi yana bir qulaylik laboratoriya ishining tavsifnomasi, nazariyasi, bajarish tartibi, jadvallar, grafiklar, nazorat savollari virtual laboratoriya dasturining o‘zida keltirilishi mumkin hamda talabga muvofiq yoki foydalanishdan oldin o‘zgartirilishi, almashtirilishi, tuzatish kiritilishiga imkoniyat bor

LabVIEW dasturlash tilida yaratilgan virtual laboratoriya ishlarini bajarishi o‘quv jarayonida muamoli vaziyatlar yaratadi va hal etadi. Bu jarayon o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, taqqoslashga, ma’lumotlarni umumlashtirishga, tahlil qilishga, xulosa chiqarishga hamda “nima uchun” savoliga javob topishga undaydi.

LabVIEW dasturlash tili yordamida yaratilgan virtual laboratoriya mashg‘ulotlar majmuasi yordamida fotoeffektning qonuninlarini o‘rganamiz. Laboratoriya jarayonini boshlaymiz.



1-rasm. Fotoeffekt qonunini o‘rganish

Qurilma yordamida nurlanish quvvatini oshirsak, tok kuchi ham oshadi. 20mVt dan 30mVt ga oshirsak, to‘yinish toki 3 A dan 5 A, bundan o‘quvchilar tok kuchi bilan elektronlar oqimi to‘g‘ri proportsional ekanligini tushunadilar.

Tajriba natajalariga ko‘ra o‘quvchilarda:

– aniq ilmiy ma’lumotlarga tayanib xulosa chiqarish va o‘zlariga bo‘lgan ishonch mustahkamlanadi;

– tajriba qurilmasi yordamida natijalarni olish o‘quvchilar uchun yangi bilimlarni kashf qiladi;

– tajriba qurilmasidan foydalanilganlik o‘quvchilarda yangi bilimlarni mustahkamlash va yangilikka, ixtiroga bo‘lgan qiziqish rivojlanadi va ortadi;

– o‘quvchilarda tajriba natijalariga ko‘ra, xulosa chiqarish, tahlil qilish tushunchalari shakllanadi va rivojlanadi.

Fizika fanini o‘qitishda raqamli texnologiya yordamida har bir dars jarayonida foydalanish o‘quvchida qiziqish va ijodiy motivlar uyg‘otadi, darsdan tashqari mustaqil bilim olishga bo‘lgan ko‘nikmalarini rivojlantiradi va o‘z-o‘zini nazorat qilgan holda quyidagilarga e’tibor qaratadi:

• o‘quv jarayonida o‘z-o‘zini his qilish orqali tarbiyalash, yangi bilimlarni olish hissi ortadi;

• ichki motivatsiya paydo bo‘lib, bilim olishga bo‘lgan ishtiyoq ongli ravishda ortib boradi;

• har bir tajriba natijasini olish o‘quvchilarning mustaqil bilim olishga bo‘lgan intilishini oshira boradi;

• tajribalar natijasi o‘quvchilarda xulosa chiqarish, tahlil qilish, ishonch hosil qilish bilan birga yangi ixtiroga bo‘lgan qiziqishini rivojlantiradi.

Bundan xulosa qiladigan bo‘lsak, o‘quvchi kasbiy faoliyatini rivojlantirishda o‘ziga zamin yaratishi kerak.Umumiy qilib aytganda o‘quvchida:

– mustaqil, ishonchli, aniq fikriga ega bo‘lmog‘i kerak;

– o‘z-o‘zini tarbiya topishga intilishi kerak;

– o‘z bilimiga va imkoniyatiga ishonch bilan qarash kerak;

– o‘zida mas’uliyat hissi yuqori bo‘lishi kerak;

– o‘z imkoniyatlaridan foydalana olishi kerak;

– axborot manbalaridan unumli foydalanishi kerak.

Darslarda belgilanayotgan maqsadlar o‘quv maqsadlarga mos tushishi va o‘quvchining shaxsiy maqsadiga aylanishi kerak. Umuman olganda, o‘quvchi o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar shaxsan unga qaratilgan, maqsadlar esa bir-biriga mos tushishi kerak. Shunday ketma-ketlik va uzviylik dars samaradorligini oshirishga xizmat qilishi bilan bir qatorda o‘quvchilarda kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan muhim shaxsiy sifatlarni kamol toptirishga erishiladi.

Ishda kvant fizikasi qonuniyatlarini o‘rganishda LabVIEW dasturlash vositalaridan foydalanib tushuntirilsa, o‘quvchilarni fanga bo‘lgan qiziqishi, nazariy bilimlarni mustahkamlashi, amalyotga qo‘llay bilish ko‘nikmasi shakillanishi bilan birga, fizik qonuniyatlarni tahlil qilishi, mushohada yuritilishi dars samaradorligini oshganlinini xulosa qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ходанович А.И. Концептуально-методические аспекты информатизации общего физического образования на современном этапе [Текст] : Автореферат ... докт. пед. наук / А.И. Ходанович. – Спб., 2003. – С. 32.

2. Гороховатский Ю.А. Проект “Применение новых информационнокоммуникационных технологий в преподавании физики” и его место в развитии системы подготовки учителей физики в Российской Федерации [Текст] / Ю.А. Гороховатский // Применение новых информационнокоммуникационных технологий в преподавании. – СПб., 2001. – С. 5-8.

3. Чудинский, Р.М. К вопросу о компьютеризации учебного эксперимента [Текст] / Р.М. Чудинский // Наука и образование. — 2006. - №6. – С. 69-71.

Laziza XOLMURODOVA,
Qarshi davlat universiteti o‘qituvchisi

OLIY TA’LIMDA UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO KURSINING KASBIY-PEDAGOGIK YO‘NALTIRILGANLIGI (TUZILMAVIY TARKIBI VA TAHLILI)

Annotatsiya

Maqolada oliy ta’limda umumiy va noorganik kimyo kursining kasbiy-pedagogik yo‘naltirilganligi, tuzilmaviy tarkibi va tahlili hamda tamoyillar haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, noorganik kimyo kursining ilmiy diapazonida kimyo sohasidagi barcha asosiy qonunlar fanning so‘nggi yutuqlari nuqtayi nazaridan qaralishi va dars jarayonida bo‘lajak kimyo o‘qituvchisining kasbiy tayyorlanganlik bo‘yicha o‘z dunyoqarashi shakllanishi lozimligi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Kimyo, metodika, tizim, kasbiy-pedagogik, tamoyil, tarkibi va tahlili.

В статье рассматриваются профессионально-педагогическая направленность, структурный состав и анализ, а также принципы курса общей и неорганической химии в высшем образовании. Также в научном диапазоне курса неорганической химии анализируется, что все основные законы химии должны рассматриваться с точки зрения последних достижений науки, и что в процессе урока у будущего учителя химии должно формироваться собственное мировоззрение о профессиональной подготовке.

Ключевые слова. Химия, методика, система, профессионально-педагогическая, принцип, состав и анализ.

The article discusses the professional and pedagogical orientation, structural composition and analysis, as well as the principles of the course of general and inorganic chemistry in higher education. Also, in the scientific range of the course of inorganic chemistry, it is analyzed that all the basic laws of chemistry should be considered from the point of view of the latest achievements of science and that in the course of the lesson, the future chemistry teacher should form his own worldview about professional training.

Key word. Chemistry, methodology, System, Professional-pedagogical, principle, composition and taxality

OTMlarida umumiy o‘rta ta’lim maktablarining kimyo fani o‘qituvchilari tayyorlab beriladi va ularning istiqbolda 30-35 yil faoliyat yuritishlari ko‘zda tutiladi. O‘qituvchilik kasbi, birinchi navbatda insonparvarlik xususiyatiga ega. Kimyo fani o‘qituvchisi kimyo sohasidagi boshqa mutaxassislardan farqli o‘laroq, nafaqat kimyoni bilishi, balki o‘z bilimni boshqalarga (to‘g‘rirog‘i o‘quvchilarga) yetkaza olishi va ularni tarbiyalay olishi ham lozim. Shundan kelib chiqib, aytish mumkinki, asosiy maqsad – kimyo fani bo‘yicha o‘z bilimlarini va o‘qitish mahoratini mustaqil ravishda oshirib borishga qodir o‘qituvchilarni tayyorlashdan iboratdir.

OTMlarda o‘qitishning eng muhim kasbiy-pedagogik masalalaridan biri – bu maktabga mo‘ljallangan va OTMda o‘qitiladigan noorganik kimyo kursi o‘rtasidagi nisbat va bog‘liqliklarni ochib berishdan iboratdir. A.C. Goncharenkoning fikriga ko‘ra, bunda ikki holatni imkon boricha chetlab o‘tish lozim:

– dasturdagi materialni yuqori nazariy darajada bayon qilish: bu orqali OTM kimyosi bilan maktab kimyosi o‘rtasida uzilish paydo bo‘lishi kuzatiladi;

– OTM kimyo kursini maktab kursiga haddan tashqari ko‘p yaqinlashtirib yuborish. Buning natijasida OTM talabasi yetarli darajada o‘zlashtirish imkoniga ega bo‘lmaydi.

Bundan kelib chiqadiki, noorganik kimyo kursini kasbiylashtirishning eng samarali usuli maktab kimyo kursida murakkab sanalgan mavzu va masalalarga jiddiy e’tibor qaratishdan iboratdir. Noorganik kimyo kursining ilmiy diapazoni shunday bo‘lishi kerakki, unda kimyo sohasidagi barcha asosiy qonunlar fanning so‘nggi yutuqlari nuqtayi nazaridan qaralishi hamda dars jarayonida bo‘lajak kimyo o‘qituvchisining kasbiy tayyorlanganlik bo‘yicha o‘z dunyoqarashi shakllanishi lozim. Shu bilan birga, noorganik kimyo fani mundarijasi va uni taqdim etish shaklining bo‘lajak o‘qituvchida kasbiy sifatlarning shakllanishiga xizmat qilishiga erishish muhim sanaladi.

Shunday an’ana shakllanganki, OTMlarida kimyoviy fanlarni o‘rganish jarayonida talabalar faqat kimyo bo‘yicha bilimga ega bo‘ladilar, kimyo o‘qituvchisida shakllanishi lozim bilimlar, malaka va kasbiy masalalarni hal etish ko‘nikmalari yuqori kurslar uchun rejalashtiriladi. Ko‘p yillar davomida talabalar maxsus fan o‘qituvchilarining dars o‘tish usullari, harakatlari, o‘zlarini boshqarishlari va boshqa jihatlarini o‘rganib boradilar va aksar hollarda ulardan andoza olib, o‘z faoliyatlariga tatbiq etadilar. Biroq maxsus fanlar yoki kimyo o‘tish metodikasi kabi fanlarni o‘rganish jarayonida orttirilgan ko‘nikmalar, o‘zlashtirilgan bilimlar, o‘rganilgan malakalar ularning nazaridan chetda qolib ketadi. Shuning uchun bo‘lajak kimyo o‘qituvchisining kasbiy faoliyati kontekstini kimyo majmuasiga kiruvchi maxsus fanlar mundarijasi bilan to‘ldirish orqali OTMlari bitiruvchilarini kelgusida samarali faoliyat yurtishlarini ta’minlovchi barqaror rezervga bo‘lishimiz mumkin.

Turli xil kontekstlar, jumladan, kasbiy kontekstlarning o‘qitishning maqbul tarzda tashkil etilish jarayoniga metodologik va metodik jihatdan ta’siri masalasiga V.M. Shabarshinning tadqiqotlarida keng o‘rin berilgan. Tanlash bo‘yicha o‘zaro bog‘liq kurslarning kasbiy yo‘naltirilgan majmuaviy tizimini tashkil etish bo‘yicha tadqiqotlar I.V. Goreva ishlarida o‘z ifodasini topgan. Mohiyatan qaralganda, kontekstli o‘qitish sohasida bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Ularda noorganik kimyoni o‘rganish jarayonida kimyo bo‘yicha dars mashg‘ulotlarini tashkil etish va olib borish metodikasini o‘qitish masalalari keng tadqiq etilgan. Bunday ishlarga I.G. Prisyaginaning noorganik kimyo bo‘yicha laboratoriya va seminar mashg‘ulotlari mundarijasiga kasbiy faoliyatga xos elementlarni kiritishga oid empirik tadqiqotlarini namuna sifatida keltirish mumkin. Shuningdek, T.A. Borovskixning noorganik kimyo bo‘yicha laboratoriya va seminar mashg‘ulotlariga kasbiy faoliyatga xos elementlar kiritilishining bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash samaradorligi ta’siriga bag‘ishlangan dissertatsiya tadqiqotlari ham yuqorida qayd etilgan mavzuni yoritishga qaratilgan ahamiyatli ishlardan hisoblanadi. Mazkur ko‘rsatib o‘tilgan ishlarda kimyoni o‘rganish metodikasini o‘qitish masalalari bilan bir qatorda bo‘lajak kimyo o‘qituvchisining kasbiy konteksti (kasbiy faoliyat elementlari, muammoli va kasbga yo‘naltirilgan topshiriqlar, kasbiy faoliyat davomida yuzaga keladigan vaziyatlar, o‘quv-kasbiy faoliyat, kontekstli o‘qitishning faol metodlari va hokazo) ham taqdim etilgan.

Maktabda umumiy va noorganik kimyoni o‘rganishga ajratilgan soatlar maktab dasturida kimyoni o‘rganish uchun ajratilgan vaqtning uchdan ikki qismiga to‘g‘ri keladi. Shuning uchun, aynan OTM umumiy va noorganik kimyo kurslarini o‘rganishda kontekstli o‘qitishni joriy etish bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorlanganlik darajasini oshirishga samarali ta’sir ko‘rsatadi.

Biroq ilmiy-metodik, monografik va o‘quv adabiyotlari, shuningdek, kimyoni o‘qitish metodikasining tadqiqiga bag‘ishlangan dissertatsiya ishlarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, hozirgacha OTMlarida noorganik kimyoni o‘rganish jarayoniga faqat fanni o‘qitish nuqtayi nazaridan qaraladi. Noorganik kimyo fanining mundarijasiga kasbiy kontekstni kiritish masalasi hozircha tizimli va aniq maqsadli xususiyat kasb etgan, deya olmaymiz. Bu ayniqsa, elementlar kimyosini o‘qitishda yaqqolroq namoyon bo‘ladi.

“Mazmun” va “tuzilmaviy tarkib” tushunchalarining o‘zaro nisbati, ularning mohiyatini hosil qiladigan tushuncha va fikrlarni mantiqiy tuzilmaning elementlari sifatida alohida ajratib olish, tahsil davomida ularning tub mohiyatini oydinlashtirish usullari kabi masalalar ko‘pchilik tadqiqotchilar izlanishlarida o‘z aksini topgan.

Har qanday tizimda, shu jumladan, noorganik kimyo fanining mazmunida ham mazkur tizimni hosil qiluvchi elementlar o‘rtasida bog‘liqlik va o‘zaro nisbat kuzatiladi. Ushbu bog‘liqliklar va o‘zaro nisbatlar tizimlarning ichki tuzilishi va tashkil topish shaklini, ya’ni tuzilmaviy tarkibini belgilab beradi. Noorganik kimyo mazmuni ham moddalar va kimyoviy reaksiyalar haqidagi ma’lumotlar, ya’ni tushunchalar, atamalar, xossalardan iborat mustaqil kichik tizimlarni o‘z ichiga olgan tizim sifatida qaralishi mumkin.

Noorganik kimyoning dastlabki qismi elementlari mazkur bo‘limga xos tushunchalardan iborat kichik tizimlarni o‘z ichiga oladi. Bu kichik tizimlarni har biri nisbatan kamsonli bo‘lgan asosiy tushunchalar tashkil qiladi. Tushunchalarning kichik tizimlarni rivojlantirish atomistika, davriylik qonuni, atomning tuzilish nazariyasi, elekrolistik dissotsiatsiya nazariyasi, elektron nazariya kabi umumiy nazariyalar bilan belgilanuvchi nazariy darajada amalga oshiriladi. Tushunchalarning kichik tizimi tuzilmaviy tarkibining keng miqyosli elementlari qatoriga kiritilgan. Ayrim bir alohida tushunchalargina kichik tizimning tor miqyosidagi elementlari sifatida qaraladi. Keng miqyosli tushunchalarning tuzilmaviy tarkibidagi o‘rni va ahamiyati noorganik kimyo kursini tuzilmasining umumiy konsepsiyalari bilan belgilanadi. Mazkur konsepsiyalar kimyo bo‘yicha bilimlarni shakllantirishga qaratilgan umumiy yondashuvlar haqidagi tasavvurlarni o‘z ichiga oladi. Kurs tarkibidagi tor miqyosli elementlarning maqomi yoki holati ular mohiyatini ifoda etuvchi alomatlarning o‘zaro aloqadorligiga qarab belgilanadi. Qoidaga ko‘ra, tuzilmaviy tarkibdagi keng miqyosli elementlarning nazariy darajalari bilan chegaralangan bo‘ladi. Mazmunning tuzilmaviy tarkibga kirmaydigan “ko‘chib yuruvchi” elementlari sirasiga xususiy qonunlar va hodisalar taalluqlidir. Ularning kursdagi o‘rni qat’iy barqarorlashtirilmagan, ya’ni aniq belgilanib berilmagan.

Kursni o‘zlashtirish samaradorligini oshirishda mazmun muhim o‘rin tutadi. Kimyo kursi bo‘yicha o‘quv dasturlari, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarining mazmunlarini tahlil etish natijasida elementlar kimyosi kursining tarkibini tuzish uchta: an’anaviy, tizimli-tuzilmaviy, tizimli-shajaraviy tarkib ko‘rinishda amalga oshiriladi.

Kimyo kursining an’anaviy tarkibi asosida o‘qitishda o‘quv fanlarining mantig‘i qat’iy ilmiy asoslanganlikka ega bo‘lmaydi. Kursning alohida mavzulari mantiqiy bayon vositasida bog‘lanilmaydi.

Bilimlarni nazariy jihatdan shakllantirish mazmun tuzishning ikki ko‘rinishi – tizimli-tuzilmaviy va tizimli-shajaraviy elementlardan foydalanish orqali ta’minlanadi.

O‘rganilayotgan obyekt predmeti har biri tizimning barqarorligi va davomli mavjudligini ta’minlashda muqobillik xususiyatiga ega bo‘lgan darajalardan va murakkab tizimlardan iborat bo‘lgan hollarda tizimli-tuzilmaviy elementlardan foydalaniladi. Bunda tizim hosil qiluvchilar sifatida mazkur darajalarning amal qilinishida yuzaga keladigan bog‘lanishlar olinadi.

Tizimli-shajaraviy elementlar asosida tuzish kelgusida tizim hosil qiluvchi tushunchalar, ya'ni "katakchalar"ni ta'limning dastlabki davriga (boshlanishiga) ko'chirishni nazarda tutadi. Tizimlashtiruvchi, kelgusida esa tizim hosil qiluvchi mazkur tushunchalar o'rtasidagi asosiy aloqalarning rivojlanish, genezis kabi ko'rinishlari mavjud. Bu hol ta'lim oluvchilarga o'quv fani bo'yicha mustaqil nazariy harakatlarni amalga oshirish imkonini beradi.

Hozirgi vaqtda xorijiy pedagogik OTMlarda o'qitiladigan umumiy va noorganik kimyo kursining tuzilmaviy tarkibi quyidagi ko'rinishda bo'ladi: birinchi bo'lim – chiziqli-majmuaviy tamoyil asosida tuzilgan umumiy kimyo kursi va ikkinchi qism – elementlar kimyosi. Ular o'rtasidagi farqlanish nazariy materiallarni o'zlashtirish hajmi, ularning matematikalashtirilish darajasi, laboratoriya xonalari jihozlanishi, kursni o'rganish uchun ajratilgan soatlar hajmi va kursni o'rganish tartibi kabi omillarga bog'liq.

Yaqin istiqbolda bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning mazmunida, shu jumladan, noorganik kimyoning mazmunida hamda o'quv jarayonlarini tashkil etishda ham jiddiy o'zgarishlar sodir etilishi kutilmoqda. Xususan, kutilayotgan ko'p darajali ta'lim tizimiga o'tish munosabati bilan, umumiy kimyoning "Noorganik birikmalar sinflari" bo'limini yanada kengaytirish lozim. Bu tadbir elementlar kimyosini batafsil o'rganmasdan ham bakalavriat ta'lim doirasidagi kimyoviy fanlarni o'rganish uchun zamin yaratadi. Elementlarning noorganik kimyosini magistratura asoslarida, kolloid, fizikaviy hamda analitik kimyo kurslarini o'rganish so'ngida chuqur va keng o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Aytish mumkinki, OTMlarning elementlar kimyosini o'rganish bo'yicha foydalaniladigan o'quv adabiyotlarida moddalar va ularning xossalarining invariantlilik xususiyatlari haqidagi g'oyani joriy etishda izchillik va ketma-ketlikka rioya qilmaydi hamda bunda talabalarning bilish ehtiyojlari hisobga olinmaydi. Noorganik kimyo o'quv mazmunining tarkibi va tarkibiy-tuzilmasining alohida ko'rsatilishining tub maqsadi, mazkur tuzilma bilan ishlash bo'yicha tavsiyalar ilmiy tizimni o'quv fanlari tizimiga ko'chirish g'oyasining afzalliklariga tayanadi. Holbuki, oliy kasbiy ta'lim muassasalarida, asosan, OTMlarida maxsus fanlarning, birinchi navbatda, kimyoviy majmuaga kiruvchi fanlarning o'quv mazmuni bilan ishlash metodikasi, ilmiy tizimning o'quv fanlari tizimga ko'chirilish g'oyasi hamda kasbiy kontekstni hisobga olish asosida tanlanishi va qayta ishlanishi lozim. Bu o'z navbatida kasbiy jihatdan ahamiyatga ega bo'lgan kamsonli noorganik moddalar to'plamiga tartib berish va ularning tizimli xususiyatlarini tavsiflash hamda tadqiqotchilik va ijodiy metodlar yordamida mazkur noorganik moddalarning xossalarini bayon etish malakasini o'zlashtirishga qaratilgan o'quv faoliyatini tashkil qilish metodikasini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Зайцев О.С. Методика обучения химии: теоретический и прикладной аспекты. – М.: Владос, 1999. – С. 384.

2. Зорина Л.Я. Системность - качество знаний. – М., 1976. – С. 64.

3. Минченков Е.Е. Научно-методические основы отбора содержания и структурирования школьного курса химии: Автореф. дис. докт. пед. наук. – М., 1987. – С. 42.

4. Педагогика / Ю.К. Бабанский. – М.: Просвещение, 1988. – С. 478.

5. Подласый И.П. Педагогика. Т.1. – М.: Владос, 1999. – 576 – С. 84. Зорина Л.Я. Системность - качество знаний. – М., 1976. – С. 64.

Nasiba XOLBOZOROVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI KASBIY VA SHAXSIY SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK METODI VA AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada o‘qituvchining butun umri davomida o‘rganishni davom ettirishi, ayniqsa, o‘quvchilaridan ajoyib natijalarga erishishi lozimligi xususida so‘z borar ekan, zamonaviylik o‘z kasbiy mahoratini oshirishga ongli ravishda intiladigan o‘qituvchining yangi ta’lim ehtiyojlarini shakllantirish borasida amaliy takliflar beriladi. Shuningdek, o‘qituvchilardan turli sohalarda, ijtimoiy va ijodiy faoliyatga doimiy rivojlanishni talab qilinishi qayd etiladi. O‘qituvchining yangi qiyofasini shakllantirish tendensiyasi uning yaxshi tayyorlangan mutaxassis va professional o‘qituvchi, nafaqat pedagogik texnologiya ustasi, balki o‘zini o‘zi baholashga qodir bo‘lgan tushunchalaridagi aniq farq bilan bog‘liq ekanligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar. Pedagog, mahorat, boshlang‘ich ta’lim, usul, qiyofa, rivojlanish, kasbiy komponentlik.

В статье даются практические предложения по формированию новых образовательных потребностей педагога, сознательно стремящегося к совершенствованию своего профессионального мастерства, при этом подчеркивается, что учитель должен продолжать обучение на протяжении всей своей жизни, особенно от своих учеников, добивающихся выдающихся результатов. Также отмечается, что от педагогов требуется постоянное развитие в различных сферах, к общественно-творческой деятельности. Отмечается, что тенденция к формированию нового имиджа педагога обусловлена четким различием в его представлениях о хорошо подготовленном специалисте и профессиональном педагоге, не только мастере педагогической технологии, но и способном к самооценке.

Ключевые слова. Педагог, мастерство, начальное образование, метод, образ, развитие, профессиональная составляющая.

The article provides practical suggestions for the formation of new educational needs of a teacher who consciously strives to improve his professional skills, while emphasizing that a teacher should continue learning throughout his life, especially from his students who achieve outstanding results. It is also noted that teachers are required to constantly develop in various fields, to social and creative activities. It is noted that the tendency to form a new image of a teacher is due to a clear difference in his ideas about a well-trained specialist and a professional teacher, not only a master of pedagogical technology, but also capable of self-assessment.

Key words. Teacher, skill, primary education, method, image, development, professional component.

Zamonaviy o‘qituvchi – bu doimiy o‘z-o‘zini rivojlantirish va kasbiy o‘sishga qaratilgan ijobiy dunyoqarashga ega, bag‘rikeng, yuksak ma’naviy obro‘ga ega, o‘zini-o‘zi takomillashtirishga intiladigan shaxs.

O‘qituvchining kasbiy o‘zini-o‘zi takomillashtirish va o‘z-o‘zini rivojlantirish – bu tashqi ijtimoiy talablarga, pedagogik faoliyat shartlariga va shaxsiy rivojlanish dasturiga muvofiq o‘z kasbiy kompetensiyasini oshirish, kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan fazilatlarni rivojlantirishning ongli, maqsadli jarayoni bo‘lib, ular o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir-

ga asoslangan, shuningdek, ichki ahamiyatli va faol ijodiy idrok etilgan tashqi omillar va uning kasbiy mahoratini oshirishga, pedagogik mahorat, tajriba, kasbiy bilimlarni to‘plashga qaratilgan.

Haqiqiy dunyoda hayot juda o‘zgaruvchan. Boshlang‘ich ta’limning jadal rivojlanishi, muqobil dasturlarning xilma-xilligi, ta’limning protsessual tomonining tubdan o‘zgarishi o‘qituvchining shaxsini, uning o‘quv jarayonidagi roli va faoliyatini sifat jihatidan o‘zgartirish muammosini ta’kidlaydi. O‘qituvchining kasbiy ongida tub o‘zgarishlarsiz ta’limdagi jiddiy o‘zgarishlarni amalga oshirish mumkin emas. U doimo o‘zini takomillashtirishi, yangi bilimlarni izlashi kerak. O‘qituvchi bilim tarjimoni emas, balki bolaning, sinfning ta’lim muhitini loyihalashtira oladigan shaxs bo‘lishi kerak. Aytish kerakki, u axborot texnologiyalaridan faol foydalanuvchi bo‘lishi kerak.

Zamonaviy o‘qituvchi uchun zarur bo‘lgan ko‘plab yangi bilimlar, tushunchalar paydo bo‘ldi. Mutaxassisning tegishli kasbiy malaka darajasini tavsiflovchi “kompetentlik”, “kompetentlik” tushunchalari ilmiy va kundalik muomalaga faol kiritilgan.

Kompetentlik – o‘qituvchining noaniq vaziyatda harakat qilish qobiliyati. Noaniqlik qanchalik baland bo‘lsa, bu qobiliyat shunchalik katta bo‘ladi.

Turli yangiliklarni amaliyotga muvaffaqiyatli joriy etish, yangi sharoitda qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirish uchun o‘qituvchi zarur darajadagi kasbiy malakaga, o‘z faoliyatida muvaffaqiyatga erishish istagiga ega bo‘lishi kerak.

Kasbiy kompetensiyaning eng muhim xususiyati – bu bolaga e’tibor berish. O‘qituvchining bolaga bo‘lgan pedagogik e’tibori o‘quvchining o‘rganishga, uning atrofidagi dunyoni, odamlarni va o‘zini o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini rivojlantirishga qaratilgan. Bu bolaga g‘amxo‘rlik qilish, unga bo‘lgan qiziqish, sevgi, uning shaxsiyatini rivojlantirishga yordam berish va uning individualligini maksimal darajada o‘z-o‘zini namoyon qilishni o‘z ichiga oladi.

Pedagogik faoliyatni, pedagogik muloqotni yetarlicha yuqori darajada amalga oshiradigan, o‘qishda izchil yuqori natijalarga erishadigan o‘qituvchini kasbiy jihatdan barkamol deb atash mumkin.

Vakolatlar – o‘qituvchining muayyan xatti-harakatlar standartlariga rioya qilish qobiliyati, ya’ni. ish, faoliyat qanday bajarilishi kerakligi mezonlari. Kompetensiyalar faoliyatning murakkab natijasini aks ettiradi va nafaqat bilim va ko‘nikmalarni (malakalarni), balki shaxsning shaxsiy xususiyatlarini ham o‘z ichiga oladi.

O‘qituvchining kasbiy mahorati o‘qituvchining quyidagi kompetensiyalari bilan ta’minlanadi: umumiy madaniy kompetensiya, shaxsiy o‘zini o‘zi takomillashtirish kompetensiyasi, kognitiv va ijodiy kompetensiya, shaxsning qiymat-semantik yo‘nalishi, kommunikativ kompetensiya, axborot kompetensiyasi, ijtimoiy va mehnat kompetensiyasi; o‘qituvchining kasbiy malakasi.

Umumiy madaniy kompetensiya:

– milliy, umuminsoniy madaniyat sohasidagi bilimlar;

– shaxsiy tizimni aks ettirish qobiliyati;

– turli etnik madaniyatlarga nisbatan bag‘rikenglik.

Shaxsiy o‘z-o‘zini takomillashtirish kompetensiyasi:

– O‘z shaxsiy potensialini amalga oshirish va amalga oshirish zarurati;

– o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyati.

Kognitiv va ijodiy qobiliyat:

– o‘quv va tarbiyaviy faoliyatni maqsad qo‘yish, rejalashtirish, aks ettirish ko‘nikmalari;

– Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish;
– Mustaqil ravishda yangi bilimlarni egallash qobiliyati.
Shaxsning qiymat-semantik yo‘nalishi:
– Roli va maqsadini bilish;
– O‘z-o‘zini anglash zarurati va qobiliyati;
– Hayot va kasbiy faoliyatni ishtiyoq bilan qurish.

Xulosa shuki, boshlang‘ich maktabdagi ishning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi o‘qituvchining kasbiy kompetensiyalari qo‘yidagicha bo‘lishi lozim:

1. Yetakchi faoliyatning o‘yindan o‘rganishga o‘tishi munosabati bilan birinchi sinf o‘quvchisi rivojlanishining ijtimoiy holatining o‘ziga xosligini hisobga olish, bolalarda o‘quvchining ijtimoiy pozitsiyasini maqsadli shakllantirish.

2. Asosiy maktabda o‘qish uchun zarur bo‘lgan darajaga o‘rganish qobiliyati (universal ta’lim faoliyati) rivojlanishini ta’minlash.

3. Boshlang‘ich maktab yoshining eng muhim neoplazmalari sifatida o‘quv faoliyatini tashkil etishda meta-predmetli ta’lim natijalariga erishishni ta’minlash.

4. Kichkina o‘quvchining rivojlanishidagi ijtimoiy vaziyatda eng muhim kattalar sifatida, bolalarning o‘qituvchiga bo‘lgan ishonchi ortib borayotgan sharoitda muloqot qilishga tayyor bo‘lish.

5. Bolalarning o‘qituvchiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaatlariga javob bera olish, ularning orqasida jiddiy shaxsiy muammolar borligini tan olish, talabalarning shaxsiy ta’lim natijalari uchun javobgarlikni o‘z zimmangizga oling.

6. O‘quvchilarning muvaffaqiyatlari va qobiliyatlarini baholashda boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalarning individual aqliy rivojlanishining notekisligini, shuningdek, o‘g‘il va qizlarning o‘quv faoliyati rivojlanish dinamikasining o‘ziga xosligini hisobga olishdan iborat.

Zamonaviy o‘qituvchi yuqori ijodkorlik, faol ijodiy va transformatsion faoliyatga yo‘naltirilganligi va texnologik tayyorgarligi bilan ajralib turishi kerak.

O‘qituvchi ijodkor va u qanchalik ijodiy rivojlanganligi, u bolaga yetkazishi mumkin bo‘lgan o‘ziga xos narsaga ega, uning shaxsiy muvaffaqiyati, nafaqat o‘qituvchi, balki shaxs sifatiga ham bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Магомеддибирова З.А., Шамхалов Р.И. Модель подготовки будущего учителя начальных классов сельской школы. Мир науки, культуры и образования. 2017. – С. 86.

2. Магомеддибирова З.А., Альбекхаджиева З. К вопросу о формировании информационной культуры младших школьников. Мир науки, культуры, образования. 2018: 5 (72): – С. 115-117.

3. Магомеддибирова З.А., Навразова М.Р. Духовно-нравственное воспитание подростков на примере чеченских народных традиций. Мир науки, культуры, образования. 2018: 5 (72): – С.117-119.

4. Магомеддибирова З.А., Сельмурзаева М.Р. Развитие профессиональной культуры общения будущего учителя начальных классов как педагогическая проблема. Мир науки, культуры, образования. 2018: 5 (72): – С.120-121.

Turg‘unoy XAKIMOVA,
Toshkent shahar, Yashnabod tumani, 307-sonli davlat ixtisoslashtirilgan umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi

TA’LIM TASHKILOTLARIDA DAVLAT TILINI O‘QITISH TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH – O‘QUVCHI-YOSHLARNING NUTQ MADANIYATINI OSHIRISHNING ASOSI

Annotatsiya

Maqolada o‘zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiborini tubdan oshirish, unib-o‘sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to‘laqonli joriy etishni ta’minlash, O‘zbekistondagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o‘zbek tilini sifatli o‘rganish uchun o‘qitish texnologiyalarini takomillashtirish masalalari batafsil yoritilgan.

Kalit so‘zlar. O‘zbek tili, ijtimoiy hayot, xalqaro miqyos, obro‘-e’tibor, vatanparvarlik, milliy an’ana, qadriyat, tarbiyalash, davlat tili, rivojlantirish, sifat, o‘qitish texnologiyalari, takomillashtirish.

В статье расматриваются вопросы повышения значения узбекского языка в общественной жизни и на международном уровне, воспитане молодежи в духе патриотизма, верности национальным традициям и ценностям, обеспечение реализации полноценного внедрения государственного языка в стране, сохранения и развития языков других наций и народов Узбекистана. Также, в статье подробно освещаются вопросы совершенствования технологий обучения для качественного изучения узбекского языка.

Ключевые слова. Узбекский язык, общественная жизнь, международный масштаб, престиж, патриотизм, национальная традиция, ценность, воспитание, государственный язык, развитие, качество, технологии обучения, совершенствование.

The article deals with the issues of increasing the importance of the Uzbek language in public life and at the international level, educating young people in the spirit of patriotism, loyalty to national traditions and values, ensuring the implementation of the full implementation of the state language in the country, preserving and developing the languages of other nations and peoples of Uzbekistan. Also, the article details the issues of improving teaching technologies for the qualitative study of the Uzbek language.

Key words. Uzbek language, public life, international scale, prestige, patriotism, national tradition, value, education, state language, development, quality, teaching technologies, improvement

Mamlakatimizda 1989-yil 21-oktabrda, hali yurtimiz mustaqillikka erishmagan paytda “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili haqida”gi qonuni qabul qilinib, unga ko‘ra, o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. Ushbu Qonunning 1-moddasida “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir”, deb belgilab qo‘yildi. Bu esa davlat tilida ish yuritish muammosini va millatlararo munosabatlarni yanada yaxshilash, xalqlarning milliy o‘zligini anglashi milliy tillarni har tomonlama rivojlantirishni taqozo etadi. Mazkur Qonun o‘zbek tilining O‘zbekiston Respublikasining butun hududida davlat tili sifatida amal qilishining huquqiy asoslarini belgilab berdi. Davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o‘zbek adabiy tilining amaldagi ilmiy qoidalari va normalariga rioya etilishi, davlat o‘zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishini

ta’minlashi, shu jumladan, uni hamma e’tirof qilgan ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-siyosiy atamalarni joriy etish hisobiga rivojlantirishi belgilab qo‘yildi. “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili haqida”gi qonunning qabul qilinishi va o‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi ona tilimiz qadrini tiklash yo‘lidagi muhim bir hodisa hisoblanadi.

Davlat tili haqidagi qonun va uning amalga oshirilishi ilm-fan, ta’lim-tarbiya, madaniyat va san’atning barcha sohalarini respublika davlat tilida rivojlantirish hamda idoralar, tashkilotlar, korxonalar davlat tilida ish yuritishi uchun zarur bo‘lgan hamma shart-sharoitlarni yaratib berishni taqozo etadi.

O‘zbek tilining jamiyatimiz hayotida va xalqaro darajadagi obro‘-e’tiborini yuksaltirish, ulg‘ayib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to‘liq joriy etish, O‘zbekistondagi barcha fuqarolarning tillarini asrash va takomillashtirish, davlat tili asosida o‘zbek tilini o‘rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, o‘zbek tili va til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalish va vazifalarini hamda rejadagi rivojlanish bosqichlarini belgilash, hamda yurtimizda o‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tilini davlat tili sifatida o‘qitishda samarali natijalarga erishish maqsadida bugungi kunda bir qator chora-tadbirlar, maqsadli vazifalar amalga oshirib kelinmoqda.

Bugungi texnika asrida davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalaridagi o‘rnini kuchaytirish, zamonaviy dasturiy ishlanmalarni yaratishdagi mavqeini oshirish yo‘nalishida o‘zbek tiliga oid barcha ilmiy, nazariy va amaliy ma’lumotlarni o‘zida jamlagan elektron ko‘rinishdagi o‘zbek tili milliy korpusini yaratish, o‘zbek tilini internet jahon axborot tarmog‘ida ommalashtirish, unda o‘z o‘rnini egallashini ta’minlash, dasturiy mahsulotlarning o‘zbekcha ilovalarini yaratish, o‘zbek tilini o‘rgatuvchi kompyuter dasturlarini keng miqyosda amaliyotga tatbiq qilish, o‘zbek tilidagi matnlar tahririga mo‘ljallangan kompyuter dasturlarini yaratish va o‘zbek tili darslarida kompyuter va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda o‘zga tilda so‘zlashuvchilarga o‘zbek tilini o‘rgatuvchi mashg‘ulotlarni o‘tish samarali natijalarni beradi.

Shu bois, o‘qituvchi va o‘quvchi-talabaning shaxsga yo‘naltirilgan o‘zaro hamkorligi ta’lim jarayonining muhim jihatiga aylanib, bunda ta’lim texnologiyalarini takomillashtirish katta rol o‘ynaydi. Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash mutaxassislarni tayyorlashning sifatini oshirishga hamda talabalarning mustaqil ishlarining rolini faollashtirishga ko‘maklashadi. Bo‘lajak mutaxassisning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion ta’lim metodlarini joriy etish kelajakda uning mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lishiga zamin yaratadi. Innovatsiya yoki yangilash insonning har qanday kasbiy faoliyatiga xosdir.

Alisher Navoiyning: ‘‘Tilga ixtiyorsiz – elga e’tiborsiz’’, degan so‘zlarida naqadar chuqur hayotiy haqiqat mujassam ekaniga yana bir bor ishonch hosil qilamiz. Darhaqiqat, keyingi yillarda davlat tili ta’limida ijobiy o‘zgarishlar yuz berayotgan bo‘lsa-da, rasmiy muloqotda, hattoki ommaviy axborot vositalarida ham adabiy til me’yorlaridan chetga chiqish va yiroqlashish holatlari kuzatilmoqda. Shu bilan birga, respublikamizda yashovchi o‘zga millat vakillarining davlat tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlari tobora ortib borayotganini ham qayd etish lozim. Ma’lumki, ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan yo‘nalishlarda o‘zbek tili darslarida qo‘llangan an’anaviy usullar, asosan, ijtimoiy-siyosiy, ommabop mavzulardagi matnlarni o‘qib tushunish va ushbu axborotni og‘zaki (dialogik yoki monologik shaklda) va yozma ravishda ifodalash malakalarini hosil qilishga qaratilgan. Zamonaviy ta’lim usullari esa talabalarda kasbiy kompeten-

siyalarni shakllantirishga, jumladan, og‘zaki va yozma muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga undaydi. Bu borada ularning bo‘lajak mutaxassisligiga oid matnlar va terminlar ustida ishlash asosiy o‘rin tutadi. Ushbu maqsadga erishishga nutqiy mavzuga oid matnlarda grammatik ma’lumotlarga oid til birliklari bilan bir qatorda, sohaviy terminlarni qo‘llash yordam beradi. Bu, albatta, har bir darsga innovatsion yondashuvni taqozo etadiki, uni samarali amalga oshirish, avvalo, topshiriq va mashqlarning qanday tuzilishiga va darsni qanday tashkillashtirishga bog‘liq. Shuni qayd etish kerakki, muayyan sohaga oid terminlarni mukammal bilish talabalarning kasbiy layoqatida muhim amaliy ahamiyatga ega. Shu bois, o‘zbek tili ta’limida asosan sohaviy terminlarni o‘z ichiga olgan materiallardan foydalanish, qonun hujjatlaridan misollar keltirish va ularning mazmunini sharhlash, terminlarni kasbiy muloqot doirasida dialogik va monologik nutq tuzishda faol qo‘llashga o‘rgatish maqsadga muvofiq, deb o‘ylaymiz. Mashg‘ulotlarda terminlar izohi bilan ishlash nafaqat talabalarning so‘z boyligini oshiradi, balki ularda nutq kompetensiyasini bo‘lajak kasbga yo‘naltirilgan holda shakllantirishga ko‘maklashadi.

O‘zbek tilini o‘qitishda ilg‘or pedagoglar tomonidan joriy qilinayotgan yuqoridagi kabi ko‘plab texnologiyalardan foydalanish mumkin. Bugungi kunda e’tibor qozonayotgan muammoli ta’lim texnologiyasi bilishga oid, ijodiy topshiriqlarni bilim va malakalarni oshirish orqali mustaqil bajarishni ko‘zda tutadi, talabalarni ma’lum bir harakatlar tizimini shakllantirishga undaydi, muloqotda ijodiy muhitni yaratadi. Muammoli ta’lim texnologiyasini quyidagi bosqichlarda amalga oshirish mumkin:

1. Berilgan vaziyat (holat)da yuzaga kelgan muammoni aniqlash.
2. Holatni tahlil qilish, muammoni ifodalash.
3. Muammoning yechimini topish.
4. Yechimning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini aniqlash.

Muammoli ta’lim texnologiyasida o‘qituvi va talabalarning ishtiroki quyidagi darajalarda aks etadi:

1. O‘qituvchi muammoni talabalar bilan birga aniqlaydi, uning yechimini topadi va muhokama qiladi.

2. Talaba o‘qituvchi tomonidan qo‘yilgan muammoning yechimini o‘zi topadi, o‘qituvchi esa unga faqat yo‘nalish beradi.

3. Talaba mustaqil ravishda muammoni topadi, o‘qituvchi unga yechimni topishda yordam beradi.

4. Talaba muammoni o‘zi aniqlaydi va uning yechimini ham mustaqil ravishda topadi. Ushbu daraja muammoli ta’limning ‘‘keys-stadi’’ usuli deb ataladi.

Muammoli ta’lim texnologiyasida tadqiqot usulini qo‘llash ham talabalarda mustaqil fikrlashni rivojlantiradi. Unda talaba o‘z bilimlarini o‘zi kengaytiradi, ilmiy metodlarni o‘rganadi va qo‘llaydi, axborotni izlab topadi, uni saralaydi, rejalaydi, xulosalar chiqaradi. Bularning barchasi talabaning faoliyatini tashkillishtiradi, fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, unda mas’uliyat, o‘z ishidan qoniqish hissini paydo qiladi. Mustaqil tarzda olingan bilimlar yaxshiroq o‘zlashtiriladi. Biroq, mazkur texnologiyani qo‘llashda bir qator muammolar uchraydiki, bu uning amalda keng qo‘llanishiga to‘sqinlik qiladi. Ulardan asosiysi o‘qituvchidan ham, talabadan ham ko‘p vaqt hamda sa’y-harakat, mas’uliyat, kreativlik talab qilinishidir.

Darsni qanday texnologiyalar yordamida o‘tkazish mashg‘ulot mavzusi hamda maqsadi, o‘qituvchi hamda o‘quv auditoriyasining imkoniyatlari, talabalarning qiziqishlari va qobiliyatlari, shuningdek, boshqa ko‘p omillarga bog‘liq. Biroq, innovatsion usul-

larni ta’limga joriy qilish an’anaviy ta’limni butunlay inkor etmaydi, balki turli metodlarni uyg‘unlashgan holda qo‘llashni taqozo etadi, chunki ta’lim jarayonini boshqarish va to‘g‘ri yo‘naltirish o‘qituvchining bevosita vazifasi ekanligi shubhasiz. Yuqorida qayd etilganidek, mazkur texnologiyalar o‘qituvchidan katta mas’uliyatni, o‘z ustida muntazam ishlashni, har bir fanning mazmuni va hajmidan kelib chiqqan holda eng maqbul va samarali metodlarni qo‘llashni talab qiladi. Bu jarayonda, albatta, tajriba orttiriladi, ba’zan xatolarga ham yo‘l qo‘yiladi. Albatta, ta’lim jarayonida an’anaviy usullar texnologiyalar kabi tez o‘zgarmasligi mumkin. Biroq, innovatsiyalarning rivojlanishi inkor etib bo‘lmaydigan haqiqatdir. O‘qituvchining bu boradagi vazifasi esa zamonaviy texnologiyalarni til o‘rganish jarayonining tabiiy va ajralmas qismi sifatida o‘zlashtirib, muloqotning haqiqiy modelini yaratishdan iboratdir.

O‘zbek tilini milliy maktablarda o‘qitilishiga qaratilgan “Ona tili” fanida o‘quvchilarga taqdim etiladigan o‘quv materiallari o‘zbek tilining tuzilishi, grammatik kategoriyalarini izchillik tamoyilida tushuntirishga yo‘naltirib tanlanadi. “O‘zbek tili” fani esa o‘quvchilarni shu tilda so‘zlay olish, aytilayotgan so‘zlar va gaplarni tinglab tushunish, o‘qish va yozish, ya’ni og‘zaki va yozma nutqiy ko‘nikma-malakalarini shakllantirishga olib chiqishga qaratiladi. Buning uchun bilimlarni taqdim etishning ixcham, kompakt modellarini yaratish, o‘quv-biluv materiallarini zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda o‘quvchilar ongiga oson va puxta singdirish mexanizmlarini ishlab chiqish kerak bo‘ladi. Bu holat ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda o‘zbek tilini o‘qitishning ona tilini o‘qitishdan tubdan farqlanishini ko‘rsatadi, ya’ni ikkinchi til ta’limida mavzuga oid qoida va ta’riflarni tushuntirish va ularni mustahkamlashga qaratilgan mashq va topshiriqlar bilan ishlashning o‘zi yetarli bo‘la olmaydi. Ta’lim tizimiga kompetensiyaviy yondashuvning tatbiq etilishi natijasida ta’lim bosqichlarida o‘tkazilgan islohotlar natijasida “O‘zbek tili” fanidan o‘quv dasturlari va darsliklari mazmunida va tuzilishida tub o‘zgarishlar yuzaga keldi. Kompetensiyaviy yondashuv asosida 5-11 sinflar uchun yaratilgan “O‘zbek tili” darsliklarini o‘rganib chiqish, ularda o‘quv-biluv materiallari, mashq va topshiriqlar quyidagicha tizimlashtirib berilayotganini ko‘rsatdi: 1. Illyustratsiyalar va rasmlar bilan ishlash. 2. Matn ustida ishlash. 3. Qoida va ta’riflar bilan ishlash. 4. Leksik-grammatik mashqlar. 5. Suhbat va savol-javob mashqlari. 6. Adabiy o‘qish materiallari bilan ishlash. 7. Mavzuni mustahkamlash uchun berilgan savol va topshiriqlar ustida ishlash. 8.Uyda mustaqil bajarish uchun beriladigan vazifalar.

Albatta, darsliklarda beriladigan har qanday o‘quv materiali, avvalo, o‘quvchilarda davlat ta’lim standartlarida nazarda tutilgan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni hosil qilishga yo‘naltirilishi kerak. Shuningdek, o‘quv axborotlarini muayyan izchillikda jamlash, ixchamlash, ularni o‘zlashtirish uchun qulay holatga keltirish ham zamonaviy didaktikada juda dolzarb masala hisoblanadi. Ma’lumki, har bir fan darsligi o‘quv jarayonini boshqarib turuvchi me’yoriy hujjat bo‘lib, u aslida ta’lim jarayonining ssenariysi sifatida namoyon bo‘lishi kerak. Bugungi kunda ta’lim sohasida yuz bergan tub o‘zgarishlar, ta’lim jarayoniga innovatsion va kompetensiyaviy yondashuvlarning joriy etilishi darsliklarning yangi tiplari va modellarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Darslikda o‘quv materiallarining tizimlashtirib va tarkiblashtirib berilishi darsni rejalashtirishda o‘quvchilarning diqqatini maqsadli boshqarishni, ularda bilish usullarini tarkib topdirish orqali bilish ko‘nikmalarini rivojlantirish, mustaqil fikrlashga, ijodkorlikka undash imkonini beradi. Bu jarayon ta’lim jarayonini loyihalash bilan bog‘liq bo‘lib, darsliklarni yaratishda mazkur prinsipga asoslanishni darslikni loyihalash, deb hisoblash ham mumkin. Darslikda o‘quv materialining har bir bo‘lagi ta’lim mazmuni-

ning barcha elementlari bilan uzviy bog‘liq holda uning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘lishi o‘quvchiga o‘quv materiallarini keyingi mavzularda mustahkamlab borishga, quyi sinflarda va shu sinfda o‘qiyotgan fanlar bo‘yicha olgan bilimlaridan amaliy foydalanish orqali o‘quv materiallarini osonroq o‘zlashtirish, qiziqish va ijodkorlik bilan qabul qilishga va provard natijada bilimlarni to‘liq idrok etishga yordam beradi.

Mazkur yondashuvlar nafaqat muayyan o‘quv fani ichidagi mavzulararo bog‘lanish, balki o‘quv fanlariaro aloqadorlikni ham ta’minlaydi. Grammatik ma’lumotlarning til strukturasidan kelib chiqib, oddiydan murakkabga qarab izchillikda berilishi o‘quvchilarning grammatik bilimlarni tushungan holda mustahkam egallashlariga hosil qilinayotgan ko‘nikma va malakalarning stixiyali tarzda yod olish orqali emas, aksincha, tizimli ravishda puxta tushunish orqali bilimlarning singib borishiga yordam beradi. Fan darsliklarida o‘quv predmetiga oid bilimlargina emas, metodik bilimlar ham taqdim etiladi. “O‘zbek tili” darsliklarida o‘quv materiallarini mantiqiy tarkiblashtirish har bir mavzu doirasida beriladigan matnlar, grammatik ma’lumotlar, mashq va topshiriqlar, jadvallar, illyustratsiyalar, rasmlarni aniq rejalashtirish, bunda shu mavzu uchun ajratilgan vaqt — soat taqsimotini ham ko‘zda tutishni taqozo etadi. Ko‘rinadiki, o‘quv-biluv materiallarini tanlash va strukturalashtirish hozirgi zamon didaktikasining muhim masalalaridan biri bo‘lib, ushbu muammolar bo‘yicha olib borilgan ayrim tadqiqot ishlarida o‘quv materiallarni aniq tamoyillarga asoslangan holda tanlash va tizimlashtirish muhim o‘rin egallashi ta’kidlandi. Buning uchun o‘quv materiali muayyan mezonlar va tamoyillar asosida tanlanishi va o‘zaro aloqadorlikda tizimlashtirilishi zarur. O‘quvchilarda nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni tarkib topdirish va ular vositasida tayanch kompetensiyalarni shakllantirish ko‘p jihatdan darsliklarda taqdim etilgan o‘quv-biluv topshiriqlarini bosqichli ketma-ketlikda bajartirishga ham bog‘liq. Shundan kelib chiqib, “O‘zbek tili” darsliklarida grammatika bo‘yicha beriladigan sof nazariy ma’lumotlarni emas, aynan nutq faoliyatida amaliy ishlatiladigan grammatik shakllar, vositalarni, ularning qo‘llanishi va imlosi bo‘yicha qisqa qoidalarni berib borish ko‘zda tutiladi.

Til davlat mustaqilligining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri ekan, davlat tili ta’limi samaradorligini ta’minlash va yurtimizda yashovchi turli millatlarning respublikamiz davlat tilini o‘rganishlari uchun qulay shart-sharoit yaratib berish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF 5850-sonli Farmon. – T., 2019-yil 21-oktabr. – URL: https://lex.uz/docs/4561730

2. Mansurova G. O‘zbek tili saboqlari. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2000. – 93-b.

3. Ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 5-11-sinflari uchun “O‘zbek tili” darsliklari. 2016–2019 yy.

4. Boqiyeva G. Pedagogik tadqiqotlar: bugungi talab va yangi vazifalar // Ma’rifat. – T., 1999. 10-noyabr.

5. Yo‘ldoshev B., Aliqulov Z. O‘zbek atamashunosligidagi me’yoriy buzilishlar va ularni bartaraf etish haqida / Davlat tili ta’limi muammolari. – T., 2004. – 12 b.

6. Ko‘chimov Sh. O‘zbekistonda til siyosatining ilmiy-nazariy masalalari // O‘zbek tili va adabiyoti, 2017. – №5. – 7 b.

Yodgorbek AXMEDOV,
O‘zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar vazirligi
Navoiy akademik litseyi o‘qituvchisi
Adxam AMONOV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali,
“Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalar” kafedrasi dotsenti

OLIY TA’LIM TIZIMIDA KOMPYUTER IMITATSION MODELLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIK JIHATLARI

Annotatsiya

Maqolada oliy ta’lim uchun “Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan multimediali elektron darsliklar yaratish texnologiyalarini takomillashtirish masalalariga e’tibor qaratilgan. Shuningdek, axborot texnologiyalari va kommunikatsiya vositalari dasturlarini ishlab chiqish, rivojlanishi hamda talabalarni bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishda maxsus dasturlar asosida elektron resurslari soni ortishi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Multimedia, elektron darslik, texnologiya, Informatika va axborot texnologiyalari, pedagogik talablar, psixologik talablar, texnik talablar.

В статье уделено внимание вопросам совершенствования технологий создания мультимедийных электронных учебников по дисциплине “Информатика и информационные технологии” для высшего образования. Также проанализировано развитие информационных технологий и средств коммуникации, а также увеличение количества электронных ресурсов на основе специальных программ в формировании знаний и навыков студентов.

Ключевые слова. Мультимедиа, электронные учебники, технологии, информатика и информационные технологии, педагогические требования, психологические требования, технические требования.

The article pays attention to the issues of improving the technologies for creating multimedia electronic textbooks on the discipline “Informatics and Information Technologies” for higher education. The development of information technologies and means of communication, as well as an increase in the number of electronic resources based on special programs in the formation of students' knowledge and skills are also analyzed.

Key words. Multimedia, electronic textbooks, technology, informatics and information technology, pedagogical requirements, psychological requirements, technical requirements.

Bugungi kunda ta’lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalarini qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bu nafaqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatish, balki zamonaviy texnologiyalar asosida egallayotgan bilimlarni mustaqil izlab topishlariga, tahlil qilishlariga, xulosalar chiqarishlariga yo‘naltirilgan. Shu nuqtayi nazardan, texnik vositalardan foydalanish, kompyuter imitatsion modellar yaratish va o‘quv jarayoniga samarali qo‘llash dolzarb vazifa hisoblanadi. Bu borada ta’lim muassasalari uchun yangi avlod o‘quv-metodik materiallari, elektron darsliklar, innovatsion texnologiyalarga asoslangan didaktik materiallar yaratish ishlarini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi kunda ta’lim tizimida zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalangan holda o‘qitish talabalar uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi. Birinchidan, axborot

texnologiyalari va kommunikatsiya vositalarining dasturlarini ishlab chiqish rivojlanadi. Ikkinchidan, talabalarni bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishda maxsus dasturlar asosida elektron resurslari soni ortadi.

O‘rganilgan tadqiqot ishlaridan shuni bilish mumkinki, ta’lim tizimida talabalarga dars o‘tish jarayonini kompyuter imitatsion model asosida tashkil etish samarali hisoblanadi.

Kompyuter imitatsion modeli – bu real hodisa va jarayonning kompyuter dasturlari asosidagi adekvat yoki yaqinlashtirilgan modelidir.

Kompyuter asosidagi imitatsion modelashtirish odatda obyektni o‘rganish, hodisalar, predmet, soha, hayotiy vaziyatlar va masalalarning qanday ko‘rinishda bo‘lishidan boshlanadi. Obyekt o‘rganib bo‘lingandan so‘ng model tuziladi. Model tuzishda asosiy bosh omillar ajratiladi (ikkinchi darajalilari tashlab yuboriladi). Undan so‘ng algoritm, dastur tuziladi va kompyuter eksperimenti o‘tkaziladi.

Bu vositalar talabalarga standartlarga mos ta’lim fanlarini erkin tanlash, har bir mavzu yuzasidan ketadigan jarayonlarni harakatlar orqali tasavvurni kengaytirish imkonini beradi. Bu muhitda talabaning ta’lim olish joyi va vaqtiga bog‘liq bo‘lmaydi. Chunki, talaba ixtiyoriy vaqtda mavzu bilan tanishadi, o‘quv materiallarini o‘qituvchi nazoratida hamda mustaqil tarzda ham o‘zlashtiradi. Talaba berilgan fan dasturini qanchalik tez o‘zlashtirsa, shunchalik tez fanni yakunlaydi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarni ta’lim va tarbiya jarayoniga zamonaviy o‘quv vositalari, xususan kompyuter imitatsion modellari joriy etilmasa, ularning bilim zaxirasiga ega bo‘lishini tasavvur qilish qiyin.

Talabalar odatdagi texnologiyalarga qaraganda axborot-kommunikatsion texnologiyalari yordamida bilimlarni yuqori darajada tez va qisqa muddatda o‘zlashtiradi. Shuning uchun ham axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali o‘qitish butun dunyo miqyosida tez rivojlanmoqda.

Shunday ekan, bugungi kun talabasi axborot texnologiyalarini yaxshi egallashi zarur. Uning faoliyati ko‘proq axborotga ega bo‘lganlik darajasi, ushbu axborotlardan samarali foydalana olish qobiliyatiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda.

Kompyuter asosidagi modellashtirish texnologiyasi o‘quv jarayonini sifatini yuqori darajaga ko‘tarishga olib keladi. Texnik vositalar yordamida talabalarga berilayotgan o‘quv materiallarining hajmini oshirib borish, zamonaviy fan yutuqlarini kiritib borish imkoniyati yaratiladi. Yaqin vaqtlargacha texnik o‘qitish vositalari sifatida kino va televideniya ta’lim tizimida katta yutuq sifatida qaralar edi. Ammo hozirgi vaqtda o‘quv jarayonida kompyuter asosida modellashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xuddi shunday kompyuter asosidagi imitatsion modellashtirish ta’lim tizimida muhim ahamiyatga ega. Tatbiq etilishi nuqtayi nazaridan kompyuter asosidagi modellashtirish va imitatsion modellashtirish bir-biriga o‘xshash vazifalarni bajaradi, ya’ni obyektni (ta’lim jarayoni nazarda tutilmoqda) ichki va tashqi xossalarini namoyon qilish imitatsiya yo‘li bilan ko‘rsatiladi.

O‘quv jarayonida kompyuter imitatsion modeldan foydalanib dars jarayonini tashkil etish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, imkoniyati cheklangan talabalarning ongi, nutqi va shaxsiyatini rivojlantirishda, ushbu vositalar alohida o‘rni borligini isbotlaydi. Ta’lim muassasalarini kompyuterlashtirish talabalarning o‘quv jarayoniga elektron ta’lim resurslarini joriy etish tizimini takomillashtirishga va o‘qitish usullarini yangicha yondashuvlarini joriy etishga hamda yangi bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi.

O‘rganilgan tadqiqot ishlaridan xulosa qilish mumkinki, imkoniyati cheklangan yoshlarga dars o‘tish jarayonini kompyuter imitatsion model asosida tashkil etish samarali hisoblanadi.

Pedagog va psixolog olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, talabalar (o‘rganuvchilar) birinchi marta eshitgan ma’lumotlarini to‘rtdan bir qismini, ko‘rganda uchdan bir qismini, eshitish va ko‘rishni birga tashkil etganda ma’lumotning yarmini esda qoldirishi aniqlangan. Bu jarayonga multimedia dasturlarini tatbiq etganda, ya’ni eshitish, ko‘rish va mulohaza yuritish birgalikda olib borilganda o‘zlashtirish darajasi anchaga ko‘tarilganligi aniqlangan.

Xulosa o‘rnida shuni takidlash lozimki, imkoniyati cheklangan yoshlar ta’limida yaratilgan elektron axborot-ta’lim resurslar fan dasturlariga mos kelishi, talabalarda bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantiruvchi topshiriq va vazifalardan tashkil topishi, uzluksiz tizimda taqdim etilishi, uzviylik tamoyillariga mos kelishi zarur. Shuningdek, yaratilgan elektron-ta’lim vositalariga joylashtirilgan resurslar, talabalar tomonidan egallagan bilimlarni tekshirish uchun nazariy savollar va test sinovlari hamda amaliy topshiriqlarni o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lishi lozim.

Modellashtirish uslubidan hozirgi kunda virtual borliq, virtual laboratoriyalar yaratishda keng foydalanilib kelinmoqda. Model (lot. modulus – o‘lchov, me’yor) – biror obyekt yoki obyektlar tizimining obrazi yoki namunasidir. Masalan, yerning modeli – globus, osmon va undagi yulduzlar modeli – planetariy ekrani.

Modelning taqribiylik xarakteri turli ko‘rinishda namoyon bo‘lishi mumkin. Masalan, tajriba o‘tkazish mobaynida foydalaniladigan asboblarning aniqligi olinayotgan natijaning aniqligiga ta’sir etadi.

Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, modellashtirish – bilish obyektlari (fizik hodisa va jarayonlar)ni, murakkab jarayonlarni hamda turli ko‘rinishdagi modellar yordamida tadqiq qilish, turli jarayon, hodisalar va voqelikning modellarini yasash va o‘rganishdir.

Atrofimizdagi dunyoni o‘rganish natijasida noaniq va to‘liq bo‘lmagan ma’lumotlar olinishi mumkin. Lekin bu koinotga uchish, atom yadrosining sirini aniqlash, jamiyatning rivojlanish qonunlarini egallash va boshqalarga ta’sir etmaydi. Ular asosida o‘rganilayotgan hodisa va jarayonning modeli yaratiladi. Model ularning xususiyatlarini mumkin qadar to‘laroq akslantirishi zarur.

Modellar tanlash vositalariga qarab abstrakt, fizik va boshqa guruhlarga ajratiladi.

Abstrakt modellar qatoriga matematik, matematik-mantiqiy va shu kabi modellar kiradi. Fizik modellar qatoriga kichiklashtirilgan maketlar, turli asbob va qurilmalar, trenajyorlar va shu kabilar kiritiladi. Modellarning mazmuni bilan qisqacha tanishib chiqamiz.

1. *Fizik model.* Tekshirilayotgan jarayonning tabiati va geometrik tuzilishi asl nusxadagidek, ammo undan miqdor (o‘lchami, tezligi, ko‘lami) jihatidan farq qiladigan modellar, masalan, samolyot, kema, avtomobil, poyezd, GES va boshqalarning modellari fizik modelga misol bo‘ladi.

2. *Matematik modellar* tirik organizmlarning tuzilishi, o‘zaro aloqasi, vazifasiga oid qonuniyatlarning matematik va mantiqiy-matematik tavsifidan iborat bo‘lib, tajriba ma’lumotlariga ko‘ra, mantiqiy asosda tuziladi, so‘ngra tajriba yo‘li bilan tekshirib ko‘riladi.

Umuman olganda, kompyuterli modellashtirishning metodologiyasida quyidagi yo‘nalishlarni ajratish mumkin:

Birinchi yo‘nalish – geometrik yo‘nalishdagi tajribalarni tashkillashtirish koordinatalar tekisligida amalga oshiriladi. Kompyuter geometrik obyektlarning xossalarini o‘rganish va matematik farazlarni tekshirishda modellarni qurish va ularni tadqiq etish vositasi sifatida ishlatiladi.

Ikkinchi yo‘nalish – turli xil harakatlarni modellashtirish bilan bog‘liq. Kompyuter modellari orqali turli xil harakatli masalalarni yechish mumkin. Bu ro‘y beradigan jarayonlarning mohiyatini chuqurroq va kengroq his qilishga, olingan natijalarni haqiqiy baholash va kompyuterda modellashtirish imkoniyatlari haqidagi tasavvurlarning kengayishiga olib keladi.

Uchinchi yo‘nalish – kompyuter ekranida funksiya grafiklarini modellashtirish – kasbiy kompyuter tizimlarida keng qo‘llaniladi. Eng muhimi shundaki, kompyuterda modellashtirish texnologiyasidan foydalanish haqiqiy voqelikni anglashda, bilish jarayonini amalga oshirishda yangi bosqich rolini o‘ynaydi.

Yuqoridagi keltirilgan fikrlardan kelib chiqqan holda, imkoniyati ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar uchun fizika fanidan kompyuter imitatsion modellar yaratishda kompyuterli modellashtirishning metodologiyasi uch yo‘nalishidan bosqichma-bosqich foydalanib yaratish maqsadga muvofiqdir.

O‘quv jarayonida kompyuter imitatsion modeldan foydalanib dars jarayonini tashkil etish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, imkoniyati cheklangan yoshlarni ongi, nutqi va shaxsiyatini rivojlantirishda kompyuterning alohida o‘rni borligini isbotlaydi. Ta’lim muassasalarini kompyuterlashtirish imkoniyati cheklangan yoshlarning o‘quv jarayoniga elektron ta’lim resurslarini joriy etishga yordam beradi hamda o‘qitish usullarini, yangi bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi.

AKT talabalar uchun ta’lim imkoniyatlarini qo‘llab-quvvatlashning asosiy usullari quyidagilardan iborat:

– shaxsiy rivojlanishning dastlabki darajasini (ko‘nikma va ko‘nikmalar) aniqlash;

– shaxsiy rivojlanishiga yordam berish, yangi ko‘nikmalarni shakllantirish yoki mavjudlarini yangilash;

– ma’lumotlarga kirishni yaxshilash;

– raqamli aloqa orqali geografik yoki ijtimoiy izolyasiyani bartaraf etish;

AKT afzalliklari to‘g‘risida xabardorlikni oshirish.

Yuqorida nomlari keltirilgan olimlar oliy ta’lim yo‘nalishlarida AKT vositalarni qo‘llash borasida olib borgan ishlarining deyarli hammasida elektron resurs yaratish va o‘quv jarayoniga qo‘llash masalasi yetarli darajada ko‘rilmagan.

Ta’lim tizimida elektron resurslar yaratish va o‘quv jarayoniga qo‘llash buyicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni tahliliy o‘rganish jarayonida shu narsa aniqlandiki, AKTdan foydalangan holda elektron resurslarni qo‘llash talabalarning qisqa vaqt orasida nazariy va amaliy bilimlarni egallashi, o‘tilayotgan fanlardan bilim va ko‘nikmalarini hosil qilishi, talabalar faoliyatini nazorat qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevraldagi “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5349-son Farmoni.

2. Fayziyev M.A. “O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini kompyuter imitatsion modeli asosida shakllantirish metodikasi” (“informatika va axborot texnologiyalari” fani misolida) Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. Samarqand davlat universiteti. 2008.

Abdug‘afur AVLIYOQULOV,
Termiz davlat universiteti katta o‘qituvchisi

UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARIDA ANIQ VA TABIIY FANLARNI O‘QITISHDA INTEGRATIV YONDASHUVLARNING KONSEPTUAL ASOSLARI

Annotatsiya

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida aniq va tabiiy fanlarni integrativ yondashuv asosida o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari bayon qilingan. Shuningdek, aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishda o‘qituvchi milliy o‘quv dasturi asosida o‘quvchilarga bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish vazifalari aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Integrativ yondashuv, metodologiya, integratsiya, ta‘lim, o‘qitish, fan, pedagogik texnologiya, matematika uzviylik integratsiyasi.

Изложены научно-теоретические основы преподавания точных и естественных наук в общеобразовательных школах на основе интегративного подхода. Кроме того, при преподавании точных и естественных наук учитель ставит перед учащимися задачи по формированию знаний, умений и навыков на основе национальной учебной программы.

Ключевые слова. Интегративный подход, методология, интеграция, образование, обучение, предмет, педагогические технология, математическое соеденение интеграции.

The scientific and theoretical foundations of teaching exact and Natural Sciences on the basis of an integrative approach are described in general secondary schools. Also, in the teaching of Exact and Natural Sciences, the teacher is charged with the tasks of forming knowledge, skills and qualifications for students on the basis of the national curriculum.

Key words. Integrative approach, methodology, integration, system of education sciences, teaching, subject, pedagogical technology, integration of continuity.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Buyuk bobolarimizning munosib davomchilari bo‘ladigan yetuk avlodni tarbiyalash muhim masala hisoblanadi”, degan so‘zlari O‘zbekiston taraqqiyotining keyingi bosqichida barcha sohalarda, jumladan, o‘ta muhim strategik jabha-yoshlar tarbiyasida ham amal qilinishi zarur bo‘lgan bosh maqsadimizni belgilab berdi. Hozirgi davrda taraqqiy etgan davlatlarning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy ravnaqi fan taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liqdir.

Integratsiya atamasi bir butunlik, degan ma’noni anglatadi. Aniq va tabiiy fanlar integratsiyasi deganda fanlar mazmunining o‘zaro singishi va aloqalari nazarda tutiladi. Integratsiya muammosi fanning rivojlanishi bilan bog‘liq[3]”. Bu esa, aniq va tabiiy fanlarni integrativ yondashuvlar asosida tashkil etish va boshqa fanlar doirasida ham qisman o‘zlashtirilgan bo‘lib ularni o‘zlashtirish o‘quvchilar uchun qiyinchilik tug‘dirmaydi va ularni bilim darajasini to‘ldirishga yordam beradi.

Integratsiya – chuqur noan’anaviy ta’lim bilan tavsiflana oluvchi, turfa xarakterdagi katta hajmli o‘quv materialining uyg‘unlashuvini o‘zida namoyon etadi[4]. Ensiklopedik va ilmiy adabiyotlarda “integratsiya” atamasini turli tipdagi qismlar va elementlarni bir butunga birlashtirish bilan bog‘langan rivojlanish jarayoni sifatida tushuniladi. Integratsiya-ayrim bo‘laklarning yoki elementlarning bir-biriga qo‘shilishi, bir butunga aylanishi, yaxlitlanishidir.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan mamlakatimizda uchinchi Renessans poydevorini yaratmoqdamiz. Davlatimiz rahbari “Biz Uchinchi Renessans masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo‘yib, uni milliy g‘oya darajasiga ko‘tarmoqdamiz”, deya yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar pirovard maqsadni ifoda etarkan, unga eltuvchi yo‘l ta’lim tizimi orqali ekanligini ta‘kitladilar. Keyingi yillarda mamlakatimizni har tomonlama taraqqiy ettirishning ustuvor omili sifatida ta‘lim tizimi tanlab olinib, sohadagi tub islohotlar orqali O‘zbekistonda yangi uyg‘onish davri, ya‘ni uchinchi Renessans poydevorini yaratish asosiy maqsad qilib belgilandi. Avvalo, ikki Renessansning yuzaga chiqish tarixi va shart-sharoitlariga bir nazar tashlasak, ularning insoniyat tamaddunidagi ahamiyatini e‘tirof etish lozim.

Sharqning ilk Renessansi IX-XI asrlar oralig‘ida ulug‘ allomalarimizning zahmati tufayli yuzaga chiqib, aniq va tabiiy fanlar, jumladan matematika, fizika, astronomiya, kimyo, odam anatomiyasi, botanika, zoologiya, biologiya, geografiya fanlarida olamshumul kashfiyotlar, davlat taraqqiyoti uchun nihoyatda muhim islohotlar va qonunlar joriy qilinishi, yer-suv va soliq munosabatlarida tub yangilanishlarga turtki berdi. “Xorazm Ma‘mun akademiyasi atrofiga to‘plangan mutaffakirlar ilmu tafakkurini qudratidan insoniyat o‘nli raqamlarning tizimli qo‘llanilishi, trigonometriya “funksiya” atamasining paydo bo‘lishi, geografik koordinatalar aniqligi, kurrai zaminning sferik globusi, qattiq va suyuq moddalarning solishtirma og‘irligi, minerallar tasnifi, quruqlik tarkibiy jismlarining harakati va qatlamlar hosil bo‘lishi, dengiz hamda materiklarning joylashuvi, tibbiy va farmasevtik bilimlarning bir tizimga solinishi, tashxislash va davolashning yangi usullari, ma‘danlar transmutatsiyasi imkonlarining tahlili kabi tushunchalarga ega bo‘ldi[5]”.

Yurtimiz tarixida ilk bor “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida” hamda “ Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi qonunlar qabul qilindi. Ona Vatanimizni jahondagi rivojlangan dunyoviy davlatlardan biriga aylantirish, ta‘lim-tarbiya ishlari milliy g‘oya tizimidagi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu esa O‘zbekistonning rivojlangan, kelajagi buyuk davlatlarga aylantirishning asosiy shartlaridan biridir. Uzluksiz ta‘lim tizimida yoshlarga aniq va tabiiy yondashuvlar asosida o‘qitishga yo‘naltirish quyidagicha komponentlarga ajraladi:

– uzluksiz ta‘lim tizimida yoshlarni tarbiyasini takomillashtirishning pedagogik-psixologik asoslari;

– barkamol avlod yoshlarini aniq va tabiiy fanlari bo‘yicha integrativ yondashuv asosida o‘qitish samaradorligini oshirish;

– o‘quvchilarni aniq va tabiiy fanlar bo‘yicha mustaqil ijodiy faoliyatga yo‘naltirish;

– o‘quvchilarni uzluksiz ta‘lim tizimida milliy o‘quv dastur asosida o‘qitish tendensiyasini shakllantirish.

Bizga ma‘lumki, uzluksiz ta‘lim tizimining asosiy maqsadi – bu maktabgacha, maktab va oliy ta‘lim hamkorligidir. Maktablarda ta‘lim sifatini oshirish va o‘quvchi-yoshlarni fanga qiziqishlarini oshirish maqsadida maktablarda kimyo, biologiya, tarix, matematika, fizika va boshqa fanlar bo‘yicha to‘garaklar tashkil etilmoqda. Bugungi kunda “Yangi O‘zbekiston” ni barpo etishda “Ustoz-shogird” an‘anasini uyg‘un va hamohang tarzda ta‘lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi samarali yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ajdodlarimiz me‘rosini asrab-avaylab, ular ishlarining davomchilari bo‘lish ruhida tarbiyalash ustoz va murabbiylar oldida turgan muqaddas burchi hisoblanadi. Aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuza olish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o‘qiy olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishdan maqsad – o‘quvchilarga aniq va tabiiy fanlarning nazariy va amaliy asoslariga oid kompetensiyalarni shakllantirish, o‘quvchilarni zamonaviy aniq va tabiiy fanlarning asoslari bilan tanishtirish va olgan nazariy bilimlarni ongli ravishda mohiyatini tushuntirish va ularni kundalik hayotida joriy etishga o‘rgatish bilan birga o‘quvchilarni aniq va tabiiy fanlarga bo‘lgan dunyoqarashini shakllantirish hamda atrof borliqni ongli o‘zlashtirishdan iboratdir.

Respublikamiz umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida ta‘lim sifatini oshirishning yangi tizimini amalga oshirish jarayoni o‘rganib chiqilib, ta‘limni isloh qilishning milliy o‘quv dasturi amaliyotga joriy qilindi. Barcha e‘tibor ta‘lim tizimini demoktarik va insonparvarlik tamoyillari asosida takomillashtirish uning moddiy texnika bazasini zamon va davr talabi darajasini ko‘tarish va O‘zbekistonda ta‘lim salohiyatini kuchaytirishga qaratilgan. Shu maqsadda 2020-yil 23-sentabrda “Ta‘lim to‘g‘risida” qonun qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g’risida”gi Qonunning “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim” 9-moddasida – “Tayanch o‘rta ta’lim o‘quv dasturiga muvofiq ta’lim oluvchilarga bilim, malaka va ko‘nikmalarning zaruriy hajmini beradi, ularda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi”[2], deb ta’kidlab o‘tilgan. Shu ma’noda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida aniq va tabiiy fanlarni integrativ yondashuv vositasida o‘qitishda o‘quvchilarning kompetensiyaviy bilimlarini shakllantirish bilan birga boshqa fanlar bo‘lgan qiziqishlarini oshirish kabi vazifalar yotadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagi PQ-4805-sonli qabul qilingan aniq va tabiiy fanlar, jumladan “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta‘lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida kimyo va biologiya fanlarini uzluksiz ta‘limda o‘qitish borasida belgilangan vazifalarni sharhlab, Qarorda ko‘zda tutilgan ikki asosiy jihatdan biri – maktablarni aniq va tabiiy fanlarga yo‘naltirilgan variativ o‘quv rejalari joriy etilishi belgilandi. Ya‘ni maktablarda asosiy o‘quv rejasidan tashqari, kimyo va biologiyaga qiziqqan yigit-qizlar bitta sinfga jamlanib, ularga ushbu fanlarni ko‘proq o‘qitishga maktablarga imkoniyat berildi. Ikkinchisi, maktablarda aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish milliy o‘quv dasturi ko‘rib chiqildi. Lekin birinchi bosqichdagi eng asosiy vazifa bu – birinchi va oltinchi sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitishning yo‘lga qo‘yilganidir. Tabiiy fanlar yagona bir jamlanmaga olinadi, yagona “science” yoki “tabiiy fan” degan fan doirasida umumlashtiriladi, mantiqiy ketma-ketlik ta’minlanadi. Darslikni yozayotgan mutaxassis yoki o‘qituvchi o‘z metodini qo‘llashi mumkin. Tabiiy fanlar 6-sinfgacha yagona, ya‘ni bitta fan doirasida o‘qitiladi. 7-sinfdan keyin esa aniq va tabiiy fanlar jumladan, biologiya, kimyo, fizika, geografiya fanlari alohida ajratilib o‘qitiladi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida aniq va tabiiy fanlarni integrativ yondashuv vositasida o‘qitishda quyidagi zamonaviy konseptual yondashuvlari mavjud:

1. Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish jarayoniga tizimli yondashuv;
2. Aniq va tabiiy fanlarini o‘qitish jarayoniga modulli yondashuv;
3. Aniq va tabiiy fanlarini o‘qitish jarayoniga innovatsion yondashuv;
4. Aniq va tabiiy fanlarini o‘qitish jarayoniga talabalar shaxsiga yo‘naltirilgan yondashuv.

Yuqorida qayd etilgan yondashuvlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun avvalo, umumiy o‘rta ta’lim tizimida barcha o‘quv fanlari, xususan aniq va tabiiy fanlardan tashkil etiladigan o‘qitish jarayonini ilmiy-nazariy asoslari bo‘lgan o‘qitish prinsiplari va qonuniyatlarini aniqlashi lozim.

1. O‘qituvchining faoliyati va pedagogik mahorati;

2. Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishda ta’lim berishning milliy o‘quv dasturining mazmuni, tahlili.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining aniq va tabiiy fan o‘qituvchilari tabiat va jamiyatning taraqqiyot qonunlarini, ularning o‘zaro aloqadorligi asosida yuz beradigan hodisa va voqealarni o‘rganuvchi fanlar erishgan yutuqlardan xabardor bo‘lishlari lozim. Chunki, aniq va tabiiy fanlar tizimida tabiat va jamiyatning o‘zaro aloqada rivojlanishi, majmuali, ko‘p qirrali, har tomonlama o‘rganuvchi yagona fanlar tizimidir. Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishda, o‘qituvchi nazariy bilimlarni, tabiiy-geografik jarayonlarni ta’riflar, gipotezalar, isbotlar va xaritalarga asoslangan holda og‘zaki bayon etadi. O‘quvchi esa mavzuni mustaqil o‘zlashtirishi jarayonida egallagan nazariy bilimlarini amaliyotga tadbiq etishda qiyin sharoitga tushib qoladi. Bu esa o‘z navbatida dars jarayonini samarali tashkil etishni, multimedia vositalari asosida darslar tashkil etishni rivojlantirishni, elektron darsliklar, elektron-o‘quv metodik ta’minot resurslaridan, innovatsion metodlardan o‘quv jarayonida unumli foydalanib, o‘quvchilar faolligini oshirishni, ijodkorlik qobiliyatlarini takomillashtirishni talab etadi. Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishda o‘qituvchi milliy o‘quv dasturi asosida o‘quvchilarga bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim:

• aniq va tabiiy fanlar ta’limi jarayonida o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash, ma’rifiy ishlarning samarali shakllari va usullarini ishlab chiqish va joriy etish;

• aniq va tabiiy fanlaridan tashkil etiladigan ta’lim-tarbiya jarayonida innovatsion va axborot kommunikatsiya va texnologiyalaridan foydalanish;

• aniq va tabiiy fanlar ta’limi jarayonida o‘quvchilar ongi va qalbiga milliy g‘oya va mafkurani singdirish, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida mafkuraviy tarbiyani bugungi kun darajasiga ko‘tarish;

• aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishda fanlar aro integratsiya orqali ta’lim oluvchilarning barkamolligini ta’minlash, huquqiy, iqtisodiy, ekologik va sanitariya-gigienik ta’limi hamda tarbiyasini takomillashtirish.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida aniq va tabiiy fanlarini o‘qitish jarayonida tizimli yondashuv negizida ta’lim mazmuni, o‘qitish metodlari, vositalari va shakllarining uzviyligini ta’minlashni o‘z ichiga oladi va ta’lim-tarbiya jarayonining mazkur tarkibiy qismlari bir yaxlit tizimini hosil qiladi. Aniq va tabiiy fanlar o‘quvchi-yoshlar bilimining asosiy poydevorini tashkil etishi bilan birga innovatsion texnologiyalar, sanoat, ishlab chiqarish, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim o‘rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. – T.: ‘‘O‘zbekiston” nashriyoti. 2017-y. – 36 b.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan. Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma’qullangan. 2020-yil 23-sentabr O‘RQ-637-son.

3. Islomov X., Avliyoqulov A., Xurramov N. “Matematik ta’limda algebraik va geometrik metodlar integratsiyasi masalasini mavjudligi va uning yechimlari haqida”. “Pedagogik mahorat” nazariy va ilmiy-metodik jurnal. “Poligraf nashr” nashriyoti. Buxoro shahri. 2014-yil 3-soni. – 116 b.

Dilorom OYMATOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

OILAVIY MUNOSABATLARDA BOLA INTELEKTINING O'ZARO ALOQADORLIGINI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolda bugungi kunda (taxmin qilish mumkin) individual mahsuldorlik va muvaffaqiyatga qo'yiladigan talablar yanada oshganligi bois, ko'pincha oiladagi ota intellektual va kasbiy muvaffaqiyat namunasi ekanligi qayd etiladi. Shuningdek, uning bolalarga ijtimoiy moslashgan shaxsning ideali sifatida ta'siri va bolalarning intellektual rivojlanishidagi ahamiyati ortib borishi masalalari tadqiq qilinadi.

Kalit so'zlar. Intellect, yondashuv, tadqiqot, rivojlanish, faollik, kognitiv, fazoviy, pedagogik.

В статье отмечается, что сегодня, когда (можно предположить) требования к индивидуальной производительности и успеху еще больше возросли, отец в семье часто является примером интеллектуального и профессионального успеха. Также исследуются вопросы его влияния на детей как идеала социально адаптированной личности и возрастающего значения в интеллектуальном развитии детей.

Ключевые слова. Интеллект, подход, исследование, развитие, деятельность, познавательный, пространственный, педагогический.

The article notes that today, when (one can assume) the requirements for individual performance and success have increased even more, the father in the family is often an example of intellectual and professional success. The issues of its influence on children as an ideal of a socially adapted personality and increasing importance in the intellectual development of children are also investigated.

Key words. Intellect, approach, research, development, activity, cognitive, spatial, pedagogical.

Bolaning intellekti – bu atrofdagi dunyoni samarali idrok etish va tushunish imkoniyatini ta'minlaydigan individual kognitiv tajribani tashkil etishning o'ziga xos shakli. Ammo maktabgacha yoshdagi bolalarning atrofidagi dunyo haqidagi bilimlar, maktab o'quvchilaridan farqli o'laroq, mashg'ulotlarga jamlanmaydi. Kundalik hayotda, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot qilish jarayonida, o'yinda, ishda va turli xil samarali faoliyat turlarida amalga oshiriladi. Demak, oilaning vazifasi kundalik hayot, yurish, bolaning turli xil faoliyati, uning faoliyat turlari va boshqalarning ta'lim, rivojlanish "yukini" oshirishdir. Bu an'anaviy darsda hamma narsani savol-javob bilan tartibga solish kerak degani emas. Ammo ota-ona va bola o'rtasidagi muloqotning har bir lahzasi uning atrofidagi dunyo haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi, muayyan hodisalar, hodisalar, odamlarga munosabatini tarbiyalaydi, tafakkur va nutqning rivojlanishiga ta'sir qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual rivojlanishining o'ziga xos xususiyati bilishning majoziy shakllari – idrok, majoziy fikrlash, tasavvurning ustunligidadir. Aynan ularning tarbiyasi va shakllanishi uchun maktabgacha yosh optimal imkoniyat-

lar yaratadi va bu insonning kognitiv faoliyatini rivojlantirishning umumiy jarayoniga asosiy hissasidir. Maktabgacha yoshdagi bolaning intellektual rivojlanishining eng muhim vazifasi kognitiv faoliyatning majoziy shakllarini har tomonlama rag‘batlantirish va boyitishdir. Bu yerda o‘yinlar ajralmas bo‘lib, atrofimizdagi dunyoni tushunishning badiiy vositalari, tabiatning xilma-xilligi, ranglari, tovushlari, hidlari, doimiy harakati va o‘zgarishi bilan tanishishdir.

Bolalarni o‘yinga tez-tez jalb qilish kerak, bu ko‘plab ta’lim muammolarini nutqni, xotirani, e’tiborni, kuzatishni rivojlantirish, dunyo haqidagi g‘oyalarni shakllantirish kabilarni hal qilishga yordam beradi.

Ko‘pgina tadqiqotlar, birinchi navbatda, o‘g‘il va qiz bolalarning intellektual rivojlanishidagi farqlarga oilaning ta’siri bilan bog‘liq. Xususan, o‘g‘il-qizlarga tug‘ilishdan boshlab turli talablar qo‘yilishi, ularning intellektual rivojlanishi uchun turli shart-sharoitlar yaratilishi ta’kidlangan. O‘g‘il bolalar uchun mo‘ljallangan o‘yinchoqlar va o‘yinlar mustaqillikni rivojlantirishni rag‘batlantiradi. Ular muammolarni hal qilishda tadqiqotchi yondashuvni va fazoviy munosabatlarni tushunishni rag‘batlantiradi. O‘g‘il bolalar ota-onalaridan ko‘proq hissiy jihatdan uzoqroq, ularga ko‘proq avtonomiyalar beriladi, ular atrofidagi dunyoning yanada kengroq hodisalariga duch kelishadi. Boshqa tomondan, qizlardan ko‘proq itoatkor va intizomli bo‘lishlari talab qilinadi, bu esa ularning kognitiv faolligini rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi. Ammo onalar o‘g‘illaridan ko‘ra qizlari bilan ko‘proq gaplashishadi.

Biroq, bolalarning umumiy intellektual rivojlanishiga asosiy hissa oilaning intellektual iqlimi deb ataladi. Birinchi marta taniqli psixolog R. Zayonts ko‘p va kichik oilalar farzandlarining intellekt darajasidagi farqlarga oid faktlarni tahlil qilib, ushbu tushunchaga murojaat qildi. Ko‘p bolali oilalarning bolalari 1-2 bolali oilalarning bolalariga nisbatan deyarli barcha intellektual testlarda past natijalarni ko‘rsatadi. Keyinchalik tug‘ilgan bolalarda aql darajasi katta aka-uka va opa-singillarnikidan past bo‘lib, bolaning oilada tug‘ilish tartibi (jinsidan qat’i nazar) va darajasi o‘rtasida yuqori ijobiy va muhim korrelyatsiya (statistik bog‘liqlik) mavjud.

Oilada intellektual rivojlanmagan bolani tarbiyalashni yaxshilashning mumkin bo‘lgan yo‘nalishlarini aniqlash, uni tuzatish oila mikromuhitining holatini va bolaning rivojlanishiga kattalar tomonidan ongli ravishda rahbarlik qilishini belgilovchi turli omillarni tahlil qilish bilan bog‘liq. Intellekt rivojlanmagan bolalar oilasining ta’lim salohiyatini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ularning ko‘plab zaif tomonlari bor. Oiladagi munosabatlar bolalarning ruhiy salomatligini shakllantirishning asosiy omillaridan biridir. Agar bolada turli darajadagi murakkablikdagi organik tabiatning ruhiy kasalliklari bo‘lsa, oilaning roli eng muhimlaridan biriga aylanadi. Oila bolaning kasalligini hisobga olib, jamiyatga moslashishiga yordam beradi. Nogironligi bo‘lgan shaxs uchun oila alohida ahamiyatga ega, u birlamchi mikro-jamiyat va sog‘lom odamga qaraganda ko‘proq yashash sharti sifatida ishlaydi. Qulay psixologik iqlim, birinchi navbatda turmush o‘rtoqlar, ota-onalar va bolalarning samarali o‘zaro ta’siri bilan belgilanadigan mehribon muhit bolaga o‘zini muhim his qilishiga, o‘zini yetarli emasligini his qilishiga imkon beradi va shu bilan birga uning rivojlanishini rag‘batlantiradi, uning salohiyatini to‘liq ochib berishga imkon beradi. Ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi munosabatlar har doim ota-onalarning o‘zlari o‘rtasidagi munosabatlarning tabiati, oilaning turmush tarzi, uning farovonligi va baxt-saodati bilan chambarchas bog‘liq.

Xulosa qilib aytganda, oilaning psixologik va axloqiy-emotsional iqlimi, uning tarbiyaviy imkoniyatlari nikoh munosabatlarining tabiati va holatiga bog‘liq. Nogiron kishi

tegishli bo‘lgan oila, qoida tariqasida, muammoli oilalar deb ataladi. Bunday oilalar oila ichidagi munosabatlarning buzilishiga, oilaviy inqirozga, oilaning buzilishiga olib keladigan o‘ta og‘ir vaziyatlarning paydo bo‘lishi bilan tavsiflanadi. Oilada rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolaning tug‘ilishi hayotning barcha jabhalariga ta’sir qiladigan, ota-onalar va yaqin qarindoshlarning kuchli hissiy tajribalarini keltirib chiqaradigan muammodir. Bunday oilalarda psixologik jihatdan muhim maqsadga erishishdagi qiyinchiliklar ota-onalarning umumiy farovonligining yomonlashishiga, turli xil nevropsixiyatrik kasalliklarning (reaktiv holatlar, depressiya, o‘z joniga qasd qilish bayonotlari, isteriya reaktsiyalari va boshqalar) paydo bo‘lishiga olib keladi. Bolaning aqliy yoki jismoniy rivojlanishidagi og‘ishlarda tashqi nuqsonlar kuzatilganda, ota-onalar uchun vaziyat qiyinlashadi.

Shunday qilib, intellektual rivojlanmagan bolalari bo‘lgan oilalar muammoli, ularning hayotini buzadigan va o‘z-o‘zidan yengib bo‘lmaydigan qiyin hayotiy vaziyatlar hisoblanadi. Ushbu qiyinchiliklarni noto‘g‘ri hal qilish oilaviy munosabatlarning buzilishiga, muammoli oilaning rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Ota-onalar farzandining imkoniyatlari va cheklovlarini tushunmaydigan, unga mavjud qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish huquqini bermaydigan oilalarda barcha oila a’zolari o‘rtasida norozilik va keskinlik holati paydo bo‘ladi. Hayotiy vaziyatni qayta ko‘rib chiqish, yangi qadriyatlar va ma’nolarni topish oilaning ishlashiga va uning a’zolarining shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adadbiyotlar:

1. Внешняя среда и психическое развитие ребенка / Под ред. Р.В.Тонковой-Ямпольской. – М.: Медицина, 2003. – С. 243.

2. Вайсбах Х. Эмоциональный интеллект / Х. Вайсбах, У. Дакс. – М., 1998. – С. 32.

3. Сёмина Р.Р. Взаимосвязь уровня эмоционального интеллекта ребенка и стиля семейного воспитания / Р.Р. Сёмина. – Текст: непосредственный // Молодой ученый. – 2021. – № 49 (391). – С. 337-339. – URL: https://moluch.ru/archive/391/86249/ (дата обращения: 29.04.2023).

Muxabbat XALILOVA,
Navoiy davlat pedagogika instituti, "Pedagogika va psixologiya"
kafedrasi mudiri, p.f.n

INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIM TIZIMIDAGI XORIJIY HAMKORLIK ISHLARINI TADBIQ ETISHNING ILMIY-AMALIY ASOSLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ilmiy va innovatsion hamkorlikning dolzarb masalalari, insoniyat sivilizatsiyasi rivojida ta'limning o'z aksini topganligi, inson kapitalini rivojlantirish uning zamonaviy ko'rinishlarini shakllantirish muommolari ham amaliy va nazariy jihatdan ilmiy asosda ilg'or davlatlar ta'lim tizimi misolida atroflicha bayon etilgan. Shuningdek, xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan, o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish masalalari muallif tomonidan o'rganilib, mulohazali tarzda o'z yechimini topgan.

Kalit so'zlar. Konsepsiya, rivojlanish, xalqaro hamkorlik, ta'lim, faoliyat, tizim, kapital, boshqarish, standart, o'quv reja, byudjet, resurs, iqtisodiyot, taraqqiyot strategiyasi, o'z-o'zini boshqarish, global, modernizatsiya, korporativ.

В данной статье подробно рассмотрены актуальные вопросы научно-инновационного сотрудничества, отражение образования в развитии человеческой цивилизации, проблемы формирования современных его проявлений в развитии человеческого капитала как на практике, так и теоретически на примере системы образования передовых государств на научной основе. Также на основе международного опыта автором были изучены и вдумчиво решены вопросы внедрения прогрессивных стандартов высшего образования, в том числе поэтапного перехода от образования, ориентированного на получение теоретических знаний в учебных программах, к системе образования, ориентированной на формирование практических навыков.

К**лючевые слова.** Концепция, развитие, международное сотрудничество, образование, деятельность, система, капитал, управление, стандарт, учебная программа, бюджет, ресурс, экономика, стратегия развития, самоуправление, глобальное, модернизация, корпоративное.

This article describes in detail the current issues of scientific and innovative cooperation, the reflection of education in the development of human civilization, the development of human capital and the treatment of the formation of its modern manifestations, both practical and theoretical, on the example of the educational system of advanced states on a scientific basis. Also, from international experiences, the issues of introducing advanced standards of higher education, including the gradual transition from an education aimed at obtaining theoretical knowledge in educational programs to an educational system aimed at the formation of practical skills, were studied by the author and found a thoughtful solution.

Key words. Concept, development, international cooperation, education, activity, system, capital, management, standard, curriculum, budget, resource, economy, development strategy, self-management, global, modernization, corporate.

Inson kapitalini rivojlantirishda ta’lim tizimidagi xorijiy tajribalarni o‘rganishning va tadbiq etishning ilmiy-amaliy asoslari O‘zbekiston Respublikasining qo‘yidagi qonun loyihalarida o‘z ma’zmunining naqadar dolzarb ekanligini huquqiy isbotladi.

‘‘O‘zbekiston respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida’’gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.10.2019 yildagi PF-5847-son farmoni ma’zmunida ta’lim tizimiga zamonaviy global miqyosda yangiliklar kiritish, O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida quyidagi vazifalar belgilandi. Jumladan:

1. Respublikadagi kamida 10 ta oliy ta’lim muassasasini xalqaro e’tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1000 talik o‘rindagi oliy ta’lim muassasalari ro‘yxatiga, shu jumladan, O‘zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini birinchi 500talik o‘rindagi oliy ta’lim muassasalari ro‘yxatiga kiritish.

2. Xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta’limning ilg‘or standartlarini joriy etish, jumladan o‘quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo‘naltirilgan ta’limdan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish.

3. Xalqaro aloqalar natijadorligini tahlil qilib borish, qo‘shma dasturlar samaradorligini baholash, hamkorlikning yangi shakllarini rivojlantirish, chet ellik professor-o‘qituvchilar va xorijdagi vatandoshlarni oliy ta’lim tizimiga jalb etish bo‘yicha takliflar tayyorlash.

4. Oliy ta’lim muassasalari faoliyati samaradorligini baholash va takomillashtirish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish asosida ularni respublika oliy ta’lim muassasalari sharoitida qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Albatta yuqoridagi vazifalarni bosqichma-bosqich hal etilishida xorijiy davlatlar ta’lim tizimi bilan hamkorlik ishlarini olib borish, ilg‘or tajribalarni hayotga tadbiq etish Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida amaliy ahamiyat kasb etadi.

Darhaqiqat ta’lim sohasining samarali faoliyatiga uning boshqarish tizimi hal etuvchi omil sifatida ta’sir ko‘rsatadi. Shu o‘rinda milliy ta’lim sohasining boshqarish tizimini takomillashtirishda ilg‘or mamlakatlar bilan hamkorlik ishlarini tashkil etish, bu yo‘nalishdagi tajribalarini o‘rganib, ularning ijobiy tomonlaridan mamlakatimizda foydalanish inson kapitalini rivojlartirishga olib keladi.

Ta’lim tizimida inson kapitalini rivojlantirish uning zamonaviy ko‘rinishlarini shakllantirish bugungi kunning har qachongidan ham dolzarb vazifalaridan biridir. Bu borada Buyuk Britaniyaning ta’lim sohasini boshqarish tizimiga oid tajribasi ham muhim manba sifatida xizmat qilishi mumkin. Chunki Buyuk Britaniyaning ta’lim sohasi va uni boshqarish tizimi o‘zining boy tarixi va xususiyatlariga ega.

Birlashgan Buyuk Britaniya qirolligi va Shimoliy Irlandiyada tegishli tartibda qabul qilinib ommaviylashtirilgan barcha ta’limga oid qonunlar bir xil kuch va ta’sirga ega. Umuman olganda Buyuk Britaniya ta’lim tizimini ta’lim vazirligi boshqaradi. Vazirlik umummilliy ta’lim standartlari va tavsiyalar tayyorlaydi. Biroq har bir maktab o‘z o‘quv rejasini mustaqil, vazirlikning tavsiyasiga binoan shakllantiradi.

Ta’lim tizimini boshqarishda mahalliy organlar ham ishtirok etadi. Vazirlikning subsidiyalari ta’lim muassasasi vazirlikning tavsiyalariga qanchalik amal qilishi va uning

muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga qarab taqsimlanadi. Buyuk Britaniya ta'lim tizimi ma'muriy boshqaruviga ko'ra quyidagilarga: 1) Angliya va Uels; 2) Shimoliy Irlandiya; 3) Shotlandiya ta'lim tizimlariga bo'linadi.

Darhaqiqat ta'lim tizimida inson kapitalini shakllantirish uchun tizimning yangi noananaviy shakli va boshqarish tizimidagi bu mustaqillik albatta ta'limni demokratlashtirishga va inson omilini yangi qirralarini ochishga katta imkon yaratadi.

Inson kapitali birinchi galda mustaqillik va yaratuvchanliik tamoyillari asosida tashkil etilishi lozim.

Britaniya ta'lim tizimining eng muhim jihati – davlatning ta'lim tizimini boshqarishdagi katta rolidir. Chunki Britaniya hukumati markaziy byudjetidan ta'lim tizimini doimiy ravishda moliyalashtirib boradi. Buyuk Britaniya oliy ta'lim tizimidagi moliyaviy boshqaruv talabalar qabulining miqdori, ta'limning mehnat va material talabgoriga asoslangan. Mazkur ko'rsatkichlarni inobatga olgan holda har yillik blokgrantlar ko'rinishidagi moliyaviy vositalari oliy ta'lim muassasalariga tegishli kengashlar va boshqa organlar orqali taqsimlanadi. Blokgrantlar oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning yetakchi shakli hisoblanadi, ular orqali 80 foiz moliyaviy resurslar har yili oliy o'quv muassasalari o'rtasida taqsimlanadi.

Albatta, ta'lim tizimidagi moliyaviy ta'minot inson kapitaliga xizmat qilib, ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqib, Davlatning iqtisodiy, ma'naviy, madaniy jihatdan rivojlanishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Buyuk Britaniya ta'lim tizimini boshqarish demokratik boshqarish tavsifiga ega bo'lib, ta'lim tizimini rivojlantirish strategiyasini davlat va mahalliy nodavlat korporativ organlar belgilaydi. Ta'lim tizimini boshqarish ta'lim sifatini oshirish, inson kapitalini rivojlantirish va shu asosda raqobatbardosh kadrlar va innovatsion mahsulotlar yaratishga yo'naltirilgan.

Istalgan davlatning ma'muriy tizimining milliy xususiyati ko'p jihatdan milliy xulqatvor xususiyatlari real ta'sirini o'tkazadi. Xozirgi vaqtda Xitoy xukumati "fan va ta'lim orqali mamlakat taraqqiyotiga erishish" tamoyili va uzoq muddatli rivojlanish strategiyasidan kelib chiqib, ta'limni modernizatsiyalashga va aholining madaniyati darajasini oshirishga ustuvor vazifa sifatida qaramoqda. Ta'limni mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun strategik ahamiyatga ega ekanligini e'tiborga olib, Xitoy hukumati ta'lim sohasida "Ta'limni rivojlantirish – modernizatsiyalashuv va kelajakni belgilab beruvchi omil" mazmunidagi yangi yo'nalish bo'yicha islohotlarni amalga oshirmoqda.

Xitoyda kasbiy ta'lim tizimini modernizatsiyalash oldiga mehnat bozorining kadrlar tayyorlash bo'yicha yuqori sifatga ega bo'lishi lozimligidan kelib chiqib, strategik maqsadlar qo'yilganidir. Bular qatoriga kasbiy ta'lim tizimi boshqaruvining markazlashuvi va muassasalarni restrukturalash kiradi. Xitoyda kasbiy ta'limni rivojlantirish samaradorligiga xorijiy mamlakatlarda kasbiy tayyorgarlikning tashkil etilishini o'rganish va ushbu tajribalarning ijobiy jihatlarini amaliyotga qo'llash orqali erishiladi.

Xitoyda zamonaviy oliy ta'lim tizimi tarkibiga universitetlar, kollejlar va kasbiy oliy maktablar kiradi. Universitet va kollejlarning asosiy qismi mamlakat ta'lim vazirligi nazorati ostida faoliyat yuritadi. Shu bilan birga mahalliy munitsipalitetlar tomonidan boshqariladigan oliy ta'lim muassasalari ham mavjud.

Munitsipalitet (nem.Munizipalitat, lot.municipium-o'zini o'zi idora qiluvchi jamoa) Mamlakatning oliy ta'lim muassasalari oliy ta'limning uch bosqichini ta'minlaydi. Birinchi bosqich – o'qish 4-5 yil davom etib, bakalavr darajasini berish bilan yakunlanadi. Ikkinchi bosqich – o'qish 2-3 yil davom etib, magistr darajasini berish bilan yakunlanadi.

Uchinchi bosqich – 3 yil ta’lim olishni nazarda tutadi va doktor darajasini (DSc) berish bilan yakunlanadi. Ushbu unvonni olish o‘quv kursining asosiy fanlaridan imtihonlar topshirish va mustaqil ravishda ilmiy tadqiqot ishini amalga oshirishni nazarda tutadi.

Hozirgi vaqtda Xitoyda 2 mingdan ortiq universitetlar, kollejlar va kasbiy oliy maktablar mavjud bo‘lib, ularda taxminan 9 million kishi tahsil olmoqda. Ushbu muassasalarning bakalavr bosqichida 5,5 million talaba, magistratura va doktorantura bosqichlarida 300 mingga yaqin kishi o‘qimoqda. Nodavlat oliy ta’lim muassasalarida jami talabalarning taxminan 20 foizi bilim olmoqda. Yildan-yilga ta’lim sohasida xalqaro hamkorlik va almashinuv kengayib bormoqda. Xitoy chet davlatlarga o‘qishga eng ko‘p talaba yuboruvchi mamlakat hisoblanadi.

Hamkorlik ishlarini yo‘lga quyilishi va keng tadbiq etilishi ta’lim tizimida zamonaviy va global miqyosdagi inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qilib ta’limning integrasiyasida yangi zamonaviy muhitni kirib kelishiga inson fikri va tafakkurida ijodiy imkoniyatlar eshigini ochib ilmiy tushunchalarni rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xitoyning ta’lim sektori sifat jihatidan va metodik ta’lim bo‘yicha katta zafarlarga erishdi. Xitoy oliy ta’limining sifati dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida tan olingan, shu sababdan, Xitoyga almashinuv dasturlari bo‘yicha juda ko‘p talabalar keladi. Mamlakatning 450 ta oliy ta’lim muassasalari xorijiy talabalarni tahsil olishga qabul qilish (‘‘laovay lyusyueshen’’) huquqiga egadirlar. 2000-yildan 2006-yilga qadar Xitoyga o‘qish uchun keluvchi chet ellik talabalar soni uch barobar kupaydi. 2006-yilda Xitoyga o‘qish maqsadida 185 ta mamlakatdan 162000 talaba kelgan. Xitoy hukumati universitet darajalari va ta’lim to‘g‘risida guvohnomalarni o‘zaro tan olish bo‘yicha 30 ta mamlakat bilan kelishuv shartnomalarini imzoladi. Shu sababdan Xitoy oliy ta’limi rivojlanishida oliy ta’lim sifati va sifat kafolatini berish dolzarb masala hisoblanadi.

Oxirgi 10 yillikda Xitoyda oliy ta’lim muassasalari soni 70 foizga o‘sdi va bu o‘sish birinchi navbatda nodavlat ta’lim muassasalarining tashkil etilishi hisobiga bo‘ldi. XXRda ta’limni rivojlantirish rejasiga binoan, barcha oliy ta’lim muassasalari har besh yilda ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini baholash jarayonidan o‘tishlari zarur. Xitoy oliy ta’lim muassasalari sifatini baholash jarayoni milliy hamda hududiy darajada maxsus tashkil etilgan tashkilot – Sifatni baholash agentligi tomonidan amalga oshiriladi. Undan tashqari, oliy ta’lim muassasalarining o‘zlarida ta’lim sifati uchun javobgar ichki bo‘linmalar tashkil etilgan.

Xitoy kasbiy ta’lim tizimida juda katta o‘zgarishlar amalga oshirildi. Bor yo‘g‘i 30 yil ichida Xitoy savodxonlik darajasi bo‘yicha qoloq mamlakatdan samarali o‘rta va oliy ta’lim tizimiga ega mamlakatga aylandi. Mamlakat iqtisodiy taraqqiyot uchun zarur bo‘lgan kadrlarni takror ishlab chiqarish uchun sharoit yarata oldi.

Albatta tahlillar shundan dalolat berib turibdiki, ta’lim tizimida inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy ta’minot, mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti uchun xizmat qilganligi barchani ilhomlantirmay qolmaydi.

Xitoyning kasbiy ta’lim sohasidagi yutuqlarini chet eldan ta’lim olish maqsadida kelayotganlarning yildan-yilga ko‘payib borayotganligi ham tasdiqlaydi. Xitoy Yaponiya bilan bir qatorda Janubi-Sharqiy Osiyoda xorijiy talabalarning oqimi bo‘yicha yetakchi o‘rinlarni egallamoqda. Xitoy oliy ta’limining taraqqiyoti global ta’lim makoniga integrasiyalashuviga yunaltirilgandir. Xitoy oliy ta’limi sohasidagi hozirgi davrning ustuvor yo‘nalishlaridan biri AQSh, G‘arbiy yevropa, MDH mamlakatlarining yetakchi universitetlari bilan hamkorlikda qo‘shma ta’lim dasturlarini yaratish hisoblanadi. Hozirgi kunda

shu kabi dasturlar doirasida iqtisodiy, texnik, tibbiy, filologik mutaxassisliklar bo‘yicha 1300 dan ortiq talaba tahsil olmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimini modernizatsiyalashda xorijiy tajribalarni o‘rganish va hamkorlik ishlarini jadal rivojlantirish, bugungi kunning oliy maqsadi sifatida ta’lim tizimida inson kapitalini rivojlantirish, raqobatbardosh kadrlar salohiyatini oshirishda va ilm-fan yutuqlarini eng so‘ngi mazmun va shaklda amaliyotga tadbiq etishga olib keladi.

Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot Strategiyasining uchinchi renessiansidagi vazifalarni amalga oshirishda ta’lim tizimida inson kapitalini rivojlantirishning dunyoviy yangiliklar bilan boyitib, zamonaviy raqobatbardosh intelliktni shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.08.2017-yildagi PF-5139-son

2. Shavkat Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi”. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – T.: .O‘zbekiston nashriyoti, 2022-yil.

3. Xoshimov P.Z., Oripov M.A. “Buyuk Britaniya ta’lim tizimini boshqarish xususiyatlari”. Zamonaviy ta’lim/Современное образовани 2018., – 1-6 b.

4. Otaxonov A. Ta’lim konsepsiyalari tarixi.

5. Muxitdinov X.A., Sobirov A.A. Boshqaruv nazariyasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan Oliy o‘quv yurtlarining 5340200 — “Menejment” aloqa va axborotlashiirish yo‘nalishi talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

6. Hayitov O.Ye. Boshqaruv psixologiyasi [Matn]: darslik / O.E. Hayitov. – T.: Istiqlol nashriyoti, 2021. – 236 b.

7. Hayitov O.E. Boshqaruv psixologiyasi: Darslik / O.E. Hayitov, D.N. Arzikulov, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. – Chirciq: O‘zDJTSU, 2020. – 250 b.

Boburbek NE'MATOV,
JTSMQTMOI "Jismoniy tarbiya, sport nazariyasi va uslubiyati"
kafedrasi dotsenti, PhD

JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA YENGIL ATLETIKANING BARERLAR OSHA YUGURISH TEXNIKASI

(Elementlariga o'rgatishda yig'ma barer asosiy vosita sifatida)

Annotatsiya

Maqolada yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini oshirish, bolalar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish hamda ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish masalalari yuzasidan so'z boradi. Shuningdek, o'quvchilarga jismoniy tarbiya darslarida yengil atletikaning barerlar osha yugurish texnikasi elementlariga o'rgatish va dars mobaynida yig'ma barerlardan foydalanish samaradorligi ochib berilgan.

Kalit so'zi. Jismoniy tarbiya, mashq, yengil atletika, barerlar, yugurish texnikasi, pedagogik kuzatish.

В статье рассматриваются вопросы повышения творческого и интеллектуального потенциала подрастающего поколения, формирования здорового образа жизни среди детей и молодежи, широкого вовлечения их в физическую культуру и спорт. Выявлена также эффективность обучения учащихся элементам техники легкой атлетики на уроках физической культуры и использования в ходе урока сборных перекладин.

Ключевые слова. Физкультура, упражнения, легкая атлетика, перекладины, техника бега, педагогическое наблюдение.

The article will talk about the issues of increasing the creative and intellectual potential of the younger generation, the formation of a healthy lifestyle among children and young people, as well as their wide involvement in physical education and sports. It also reveals the effectiveness of teaching students in physical education classes to elements of athletics ' cross-bar running techniques, and using prefabricated bars throughout the course.

Key words. Physical education, exercise, athletics, barriers, running techniques, pedagogical observation.

Respublikamizda yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini oshirish va ro'yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda sportchilarimiz turli musobaqalarda yuqori natijalarni qo'lga kiritib, O'zbekistonni dunyoga tanitmoqda. Ommaviy sport, ayniqsa, bolalar sportini ilmiy asosda rivojlantirish, uning tashkiliy asoslarini yaratishga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Jumladan, yurtimizda yosh yengil atletikachilarning mashg'ulotlarida barerlar osha yugurish texnikasi elementlarini o'rgatishning eng samarali uslublaridan foydalanish sport amaliyotining dolzarb masalalaridan biridir.

Umumta'lim maktablarida 10-12 yoshli o'quvchilarga jismoniy tarbiya darslarida yengil atletikaning barerlar osha yugurish texnikasi elementlariga o'rgatish va maxsus jismoniy tayyorgarlik mashqlarini rejalashtirish, barerlar osha yugurish texnikasi

elementlarini o‘rgatish maqsadi yig‘ma barerlardan foydalanish dars samaradorligini oshiradi.

Barerlar osha yugurish texnikasini o‘rgatishda quyidagi umumiy qoidalarga rioya etish talab qilinadi:

– jismoniy tarbiya darsini olib borishda uning doim bir xil bo‘lmasligiga e’tiborni qaratib, turli-tuman usul va vositalardan foydalanish;

– har doim jismoniy tarbiya darsida o‘quvchilar faoliyatini ma’qullash, rag‘batlantirish, ko‘rsatma berish va ogohlantirish kabi usullarni qo‘shib olib borish;

– o‘quvchilarning barerlar osha yugurishda yo‘l qo‘ygan xatolarini faqatgina ularning o‘ziga aytish, boshqalarga oshkor qilmagan holda kamchiliklarni ko‘rsatib berish;

– hamma o‘quvchini va ularning har birini alohida o‘rgatish tamoyiliga rioya qilish;

– o‘quvchilarda barerlar osha yugurish mashqlarini mustaqil holda bajarishga intilish ko‘nikmalarini hosil qilish, bu bilan ularni jismoniy mashqlarni muntazam ravishda mustaqil bajarishga tayyorlashga ko‘niktirish lozim.

Biz tomonimizdan taklif etilayotgan yig‘ma barer plankasi qayishqoq rezinadan tashkil topgan. Barer siljiydigan ustuni bukish uchun mo‘ljallangan, po‘lat prujinali amortizator davom ettiradi. Barer plankasi oyoq kuchi ta’sirida (1200-1300 g) ular bilan ustunlar ham 45° bukiladi va so‘ngra barer yiqilmasdan dastlabki holatiga qaytadi. Bu yosh o‘rganuvchilarga barerdan o‘ta olishlariga katta ishonch hosil qilishda o‘z ta’sirini ko‘rsatadi va texnikalarini o‘rganish jarayonini tezlashtiradi.


Odatda taklif etilayotgan barerda boshqa standart barerlarda o‘rgatishga nisbatan jismoniy tarbiya darslarida oladigan shikastlanish va lat yeyishlar kamroq bo‘ladi.

Barer plankasi va siljiydigan prujinali amortizatorli ustun asosga mahkamlangan. Asosiy ustun ichiga erkin kirib chiqadi va qisqich yordamida kerakli balandlikka keltirish mumkin.

Barer asosiy qismini fitingli bog‘lanishi, barerni 1.5-2 daqiqa ichida yig‘ish va yig‘ishtirish mumkin.

Barer chizmada qismlarga bo‘lib-bo‘lib ko‘rsatilgan yig‘iladigan barer og‘irligi 3,340 kg. Uni bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirish qulay va yosh o‘rganuvchi o‘quvchilar uchun barerlar osha yugurish texnika elementlarini o‘zlashtirib olishlarida va sakrash mashqlarini bajarishda katta imkoniyatlar yaratadi.

Barerni tayyorlashda plastik truba, espander prujina, yassi rezina lenta va bir shaklda bir-biriga tutashtirib mahkamlab foydalanish mumkin.



Yig‘ma barer sxematik ko‘rinishi:

A) barer tepa qismidagi yassi rezinali lenta; B) plankani biriktiruvchi ustun;

C) barerga kuch tushganda amortizator vazifasini bajaruvchi po‘lat prujina; D) siljiydigan ustun; E) qopqoq; F) siljiydigan ustunni maxkamlash uchun qisqich va plankani kerakli balandlikka keltirish moslamasi. G) tayanch ustun; H) fiting; I) ikki ustunni biriktiruvchi to‘sin; J) tayanch sterjen.

Yig‘ma barerning barer prototipidan asosiy farqi

T/p	Yig‘ma barerlar	Barerlar prototipi	Izoh
1.	Barer plankasi yassi rezina lentali.	Yog‘och planka	Shikastlanish va lat yeyishlarni oldini olish maqsadida
2.	Po‘lat prujina	Temir ustun	Barerga kuch tushganda amortizator vazifasini bajaradi
3.	Og‘irligi 3.400 kg.	Og‘irligi 10 kg.	Bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirish qulay
4.	Plankaga 1200-1300 g. kuch ta’sir etganda barer yiqiladi	Plankaga 3500-4000 g. kuch ta’sir etganda barer yiqiladi	Yosh o‘rganuvchilarga barerlar osha yugurish texnika elementlarini o‘rgatishda katta samara beradi.

Barerlar osha yugurish texnikasi elementlarini oqilona o‘rgatish uchun barerdan oshib o‘tish mashqlari kompleksidan foydalanish lozim. Shu narsani aniqladikki, 10-12 yoshli o‘quvchilar barerlar osha yugurish texnikasi elementlarini o‘rganib, uni egallashlarida barerlardan oshib o‘tishning alohida elementlarini emas, balki blokli tarzda osonroq o‘zlashtirdilar. Har bir shunday blok muayyan koordinatsiya elementidan iborat bo‘lib, uning yordamida mana shu blok talablari bo‘yicha harakatlar bajariladi. O‘quvchilar dastlab katta hajmdagi umumjismoniy tayyorgarlikni egallaydilar. Buning uchun ko‘plab sport turlarining xilma-xil umumrivojlantiruvchi mashqlaridan foydalanish kerak.

Pedagogik kuzatishlarimiz natijasida shu narsa aniqlandiki, 30, 35, 40 sm balandlikdagi barerlar 10-12 yoshli o‘quvchilar uchun yetarli bo‘lmaydi. O‘quvchilar barerlar ustidan hech to‘xtalmay, bemalol yugurib o‘tdilar. Bunda ularning harakatlarida to‘xtalishlar sodir bo‘lmadi. Barerlarni oshib o‘tishdagi maxsus harakatlarni bajarmadilar, barerlar osha harakatlar barerdan o‘tishda oyoqning depsinishi ro‘y bermadi, ya’ni oddiy yugurish qadami tarzida namoyon bo‘ldi.

Barerlar 65-70 sm balandlikka o‘rnatilganda barerlar orasidagi yugurish maromida keskin farqlar sezildi. Barerdan oshib o‘tish uchun endi o‘quvchilar ko‘proq vaqtlarini sarfladilar, barerlardan oshib o‘tishda bir talay qiyinchiliklar yuzaga keldi.

Barerlar balandligining 50-60 sm qilib belgilanishi barerlar osha yugurish texnikasi elementlarini o‘zlashtirish uchun optimal o‘lcham hisoblanib, o‘quvchilar uchun qulay vaziyat hosil qildi. Dastlabki xulosalarga asoslanib, barerlarning shu 50-60 sm balandligi barerlar osha yugurish mashqlarini 10-12 yoshli o‘quvchilarda ommaviy ravishda o‘rgatish uchun qulay balandlik bo‘ladi, deb hisobladik.

Shu boisdan 10-12 yoshli bolalarga jismoniy tarbiya darslarida past bo‘yli (50 sm.) barerdan, ora-orada esa baland (60 sm.) barerdan foydalanib jismoniy tarbiya darslarini o‘tishni lozim deb topdik. Bizning fikrimizcha, bu balandlikdagi yig‘ma barerlar barerlar osha yuguruvchilarning kuchi va yugurish tezligini aniq nazorat qilish imkonini berdi. Ruhiy jihatdan esa shug‘ullanuvchilar bu balandlikda o‘rnatilgan barerlardan o‘tishda ko‘nikma hosil bo‘lib, oddiy barerlar osha yugurish, deb qaray boshladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Soliyev I.R. Qisqa masofaga yuguruvchilarning yillik tayyorgarlik mashg‘ulotlarini rejalashtirish: dissertatsiya avtoreferati, ped.fan.bo‘yicha falsafa doktori 13.00.04. / Soliyev Iqrorjon Roziqovich, Chirchiq 2020-yil. – 58 b.

2. Xabibullayev S.X. Jismoniy tarbiya darslarida sport o‘yinlari qoidalarini o‘rgatishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish. Academic research in educational sciences (ares), volume 1, issue 3, 1150-1156.

3. Xabibullayev S.X. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida sport to‘garaklarini tashkil etishning samarali usuli. Maktab va hayot, №2, 23-25.

4. Soliyev I.R. Yuqori malakali uzoq masofaga yuguruvchi sportchi qizlarni tayyorgarlik mashg‘ulotlari va musobaqa jarayonining qiyosiy tahlili. // O‘zMU XABARLARI. – T., 2018 yil №1/1 2018y. – 171-174 b.

5. Джалилова М.И., Тажибаев С.С., Джалилова Л.А. Правовые основы олимпийского образования учащейся молодёжи. In Актуальные проблемы правового регулирования спортивных отношений (16 апреля 2020 года)– материалы X международной научно-практической конференции, посвящённой 50-летию Уральского государственного универси-тета физической культуры: Челябинск, 16 апреля 2020 года/Под ред. СА За-харовой. – Челябинск: Уральская Академия, 2020. – С. 246. (p. 218).

6. Туробов Х. Национальная система массового вовлечения всех слоев населения в спортивно-оздоровительную деятельность. Academic Research in Educational Sciences, 2. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 1 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Academic Research, Uzbekistan 122 www.ares.uz.

7. Miryunusovna Z.G. Selecting criterias of talented preschool children for the forming of sports reserve in swimming. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences , 8(2).

8. Matnazarov X.Y. Influencing factors for selecting effectiveness of talented swimmers on swimming sports. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8(3), – 41-44.

9. Farkhodovich I.B. Development of balance in young kayakers in the initial stage of training. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8(2), 66-70.

10. Azimov Z.N. Research Of Training Loads On The Simulator “Concept-2” In The Preparation Of Youth In Academic Rowing. The American Journal of Applied sciences, 2(11), – 104-109.

Sarvar BAXODIROV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

OLIY TA’LIMDA FUTBOL TO‘GARAKLARINI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI VA DOLZARBLIGI

Annotatsiya

Maqolada hozirgi kunda sport katta ijtimoiy ahamiyatga egaligi va umumiy ma’noda bir qancha funksiyalarni (tarbiyaviy, sog‘lomlashtiruvchi, kommunikativ va boshqa ko‘plab funksiyalarni) amalga oshirish bilan birga, nafaqat shaxs, balki jamiyat manfaatlariga xizmat qiladigan faoliyat haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar. Sport, futbol, trening, mashg‘ulot, bo‘lajak sportchi, musobaqa, to‘garak, funksiya, jamiyat.

В статье спорт имеет большое социальное значение на сегодняшний день. В самом общем смысле речь идет о деятельности, служащей интересам не только личности, но и общества, наряду с выполнением ряда функций (воспитательной, оздоровительной, коммуникативной и многих других).

Ключевые слова. Спорт, футбол, тренировка, упражнение, будущий спортсмен, соревнование, клуб.

In the article, sport is of great social importance today. In the most general sense, we are talking about activities that serve the interests of not only the individual, but also society, along with the implementation of several functions (educational, health-giving, communicative and many other functions).

Key words. Sport, football, training, exercise, future athlete, competition, club.

Professional sport turlarini o‘rganar ekanmiz, shuni aytishimiz mumkinki, bu tijorat va sport faoliyati bo‘lib, u iqtisodiy samaradorlikni va sport va ko‘ngilochar tadbirlarning yuqori axborot-ko‘ngilochar qiymatini nazarda tutadi.

Eng ajoyib va qiziqarli sport turlaridan biri bu futbol. Dunyoda futbolning mashhurligi shunchalik yuqoriki, futbol bo‘yicha jahon chempionati teletomoshabinlari Olimpiya o‘yinlari teletomoshabinlaridan ko‘proq. Futbolga bo‘lgan bunday e’tibor aynan futbol to‘garaklarining boshqaruv tizimining xususiyatlariga jiddiy e’tibor qaratishiga asos bo‘ladi.

Futbol to‘garaklarida xususan oliy ta’limda ham menejmentni tashkil qilish masalasiga e’tibor qaratish lozim. Avvalo, futbol menejmenti tushunchasining o‘ziga xosligi xususida to‘xtalganda, to‘garak futboli menejmenti – bu tashkilotning ichki imkoniyatlaridan foydalanish asosida uning maqsadlariga erishishga qaratilgan futbol to‘garagini boshqarish tamoyillari, usullari majmui ekanligini aniqlanadi. Menejmentning bu turi futbol to‘garakining o‘z resurslaridan (infratuzilmasi, o‘yinchilar, xodimlar), faoliyat usullari va moliyaviy imkoniyatlaridan optimal foydalanishi bilan chambarchas bog‘liq. Shuningdek, to‘garak futboli boshqaruvi uchun tashqi muhit (muxlislar, homiylar, ommaviy axborot vositalari va boshqalar) bilan ishlash katta ahamiyatga ega. Shuning uchun to‘garak futboli boshqaruvining vazifasi tashqi muhit (bozor) va ichki muhit (aktivlar) o‘rtasidagi munosabatlar mexanizmini ishlab chiqish bilan bog‘liq.

To‘garak futboli menejmentining rivojlanishi boshqaruv tuzilmasi va kadrlar siyosatini takomillashtirish bilan bog‘liq. Rivojlanishning dolzarb yo‘nalishlari (tadqiqotga ko‘ra) quyidagi yo‘nalishlardir.

Oliy ta’limda ham futbol to‘garagi daromadlarini optimallashtirish. Biznesga nisbatan iqtisodiy samaradorlik olingan natija va unga erishish uchun sarflangan xarajatlar yoki resurslar nisbati bilan belgilanadi. Har qanday biznes kabi futbol ham moliyaviy natijalari, ya’ni faoliyatdan olingan barcha daromadlar va faoliyat davomida qilingan xarajatlar o‘rtasidagi farq orqali baholanadi. Optimallashtirish futbol to‘garagi daromadining oshishi bilan bog‘liq bo‘lib, u uchta asosiy manbadan olinadi: o‘yinlar kunidagi daromad (chiptalarni sotishdan tushgan tushum, shu jumladan, abonent chiptalari, oziq-ovqat; atributlar), jamoaning o‘yinlarini translyatsiya qilish huquqini sotish; boshqa tijorat faoliyatidan olingan mablag‘lardir (masalan, homiylardan tushgan mablag‘lar).

Futbol to‘garagi infratuzilmasini yaxshilash. Har qanday sport tashkilotining tijorat farovonligi va samarali faoliyati asosi uning o‘ziga xos zamonaviyligidir. Futbol to‘garagining ideal tuzilmasi ko‘plab bo‘limlardan iborat bo‘lib, ularning aksariyati bevosita futbol bilan bog‘liq emas. Agar to‘garakning rivojlanish yo‘lining boshida bir xodim bir nechta asosiy pozitsiyalarni birlashtira olsa, liga darajasi ko‘tarilishi bilan tashkilot ichidagi delegatsiya ortadi. Shuningdek, futbol to‘garaki infratuzilmasini yaxshilashda har qanday sport tashkilotining tijorat farovonligi va samarali faoliyat yuritishining asosi o‘zining zamonaviy stadioni ekanligini qayd etish lozim.

Futbol to‘garagi nafaqat o‘yinga tashrif buyuruvchilarning ko‘pligi va muxlislarni stadionga jalb qilishdan manfaatdor, balki stadionning o‘zi ham chiptalar sotishdan qo‘shimcha daromad olayotganligi sababli, tomoshabinlarni o‘yinga jalb qilish strategiyasini ishlab chiqish va qo‘llash zarur. Buning uchun bozorni o‘rganish kerak, turli toifadagi tomoshabinlar tomonidan stadionga tashrif buyurish uchun asosiy rag‘bat nima ekanligini, ularni individual o‘yinlarga borishdan abonement sotib olishga qanday rag‘batlantirish mumkinligini aniqlash kerak. Shu nuqtayi nazardan, muxlislar uchun sodiqlik va a’zolik dasturini ishlab chiqish; umumiy ovqatlanish tovarlari va xizmatlari uchun chegirmalar tizimidan foydalanish; faol tomoshabinlarga sodiqlik ballari bo‘yicha qo‘shimcha to‘lov bilan yuqori sinf o‘rinlarini egallash imkoniyatini berish ham tegishli.

Oliy ta’limda futbol to‘garagining marketing strategiyasini ishlab chiqishda ishbilarmonlik muhiti va raqobatning jadal rivojlanishi sharoitida tashkilot faoliyati samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biri pirovard natijada mijozlar ehtiyojlarini to‘liq qondirishga qaratilgan samarali marketing siyosatiga e’tibor qaratish lozim. Keng ma’noda sport marketingining quyidagi maqsadlari ajralib turadi: aholi tomonidan xizmatlarni iste’mol qilishning eng yuqori darajasiga erishish, iste’molchilarning maksimal darajada qoniqishiga erishish, aholiga xizmatlarning eng keng tanlovini ta’minlash kerak.

Xulosa qilib, professional futbol to‘garagini boshqarish samaradorligiga quyidagi omillar ta’sir qiladi:

1. Ma’muriyat va xodimlarning hissiy muvozanati, optimal psixologik iqlimni yaratadigan xatti-harakatlar strukturasining barqarorligi, xodimlar o‘rtasida o‘ziga ishonch hissini shakllantirishga yordam beradi va uzoq muddatli maqsadlarni shakllantirishga imkon beradi. Professional futbol to‘garagi menejerlari xulq-atvorining beqaror tuzilishi xodimlarni xulq-atvorini doimiy ravishda o‘zgartirishga majbur qiladi, bu esa haddan tashqari keskinlikka olib keladi va ish samaradorligini pasaytiradi.

2. Rahbarning qo‘l ostidagilarga nisbatan ijtimoiy-psixologik munosabatlarining muvofiqligi, bu ularning kasbiy va shaxsiy fazilatlarini obyektiv baholashga yordam beradi. Rahbar munosabatining nomutanosibligi professional futbol to‘garagi xodimlarining faoliyatini xolisona baholashga olib keladi va ish samaradorligini pasaytiradi.

3. Rahbarlik uslubining professional futbol to‘garagi xodimlarining tashkiliy darajasiga muvofiqligi. Yuqori darajadagi ongli va tashkilotchilikka ega bo‘lgan kadrlar etakchilikning demokratik turini yaxshiroq idrok etadilar. Yomon tashkil etilgan xodimlar uchun avtoritarga yaqin boshqaruv uslubi ko‘proq mos keladi.

Keyingi tadqiqot istiqbollari tarbiyaviy-mashq ishlarini yanada takomillashtirish va yuqori sport natijalariga erishish maqsadida professional futbol to‘garagini boshqarishning tashkiliy tuzilmasini chuqur o‘rganish zarurligidan kelib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Платонов В.Н. Общая теория подготовки спортсменов в олимпийском спорте: Учебник для студентов вузов физического воспитания и спорта. – К.: Олимпийская литература, 1997. – С. 384.

2. Матвеев Л.П. Основы общей теории спорта и системы подготовки спортсменов: учебное издание. – К.: Олимпийская литература, 2002. – С. 319.

3. Верхошанский Ю.В. Исследование закономерностей процесса становления спортивного мастерства в связи с проблемой оптимального управления многолетней тренировкой (на материале скоростно-силовых видов спорта): Автореф. дисс. … доктора пед. наук. – М., 1973. – С. 39.

4. Друзь В.А. Моделирование процесса спортивной тренировки. – К.: Здоровя, 1976. – С. 95.

5. Келлер В.С. Функции управления в системе подготовки спортсменов // Теория и практика физической культуры. – 1975. - № 6. – С. 57-58. Антонов Д.А. ОРГАНИЗАЦИЯ.

6. МЕНЕДЖМЕНТА В СОВРЕМЕННЫХ ФУТБОЛЬНЫХ КЛУБАХ // Международный студенческий научный вестник. – 2018. – № 5. ;

Gullola OMONOVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika
universiteti magistranti

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA HAMKORLIK PEDAGOGIKASINING AYRIM ASPEKTLARI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotida hamkorlik pedagogikasining asosiy tushunchalari, uning kelib chiqish, elementlari hamda hamkorlik pedagogikaning asosiy tamoyillari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, pedagog-novatorlar ishlarining tahlili, hamkorlik pedagogikasi hamda hamkorlik pedagogikasining muhim elementlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar. Maktabgacha ta'lim, tashkilot, hamkorlik, pedagogika, tushunchalar, kelib chiqishi, tamoyillari.

В статье рассмотрены основные понятия педагогики сотрудничества в дошкольной образовательной организации, ее истоки, элементы, а также основные принципы педагогики сотрудничества. Также освещены анализ работы педагогов-новаторов, педагогика сотрудничества и важные элементы педагогики сотрудничества.

Ключевые слова. Дошкольное образование, образование, организация, сотрудничество, педагогика, понятия, истоки, принципы.

The article discusses the basic concepts of pedagogy of cooperation in a preschool educational organization, its origins, elements, as well as the basic principles of pedagogy of cooperation. The analysis of the work of innovative teachers, the pedagogy of cooperation and important elements of the pedagogy of cooperation are also highlighted.

Key words. Preschool education, organization, cooperation, pedagogy, concepts, origin, principles.

Maktabgacha ta'limda hamkorlik pedagogikasi – bu o'qituvchi, ota-ona va bolalar o'rtasidagi hamkorlik asosida ta'lim jarayonini tashkil etishga oid qarash, har bir qatnashchining o'ziga xos qobiliyatlarini namoyish etish va muvaffaqiyatga erishish imkoniyatiga ega bo'lishni maqsad qilgan.

Pedagog-novatorlar ishlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, ularning fikriga ko'ra, darslarda o'qituvchi va tarbiyalanuvchilarni ishbirligi, tushunchali, bir-biriga qarashli, umumiy qiziqish va maqsadlarga yo'naltirilgan ishni tashkil etish kerak: tarbiyalanuvchilar umumiy dars maqsadini tushunmasalar tushuntirish, qayta-qayta o'tkazish, tekshirish, bir savoldan boshqa savolga o'tish. Tarbiyalanuvchilarnining passivligini oldini olish uchun bolalarga ishonch va hurmat asosida insonchilik munosabatlari kerak. O'qituvchi va tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi ishbirligining maqsadini aniqlash, tarbiyalanuvchilar tomonidan darsning maqsadi va vazifalarini tushunish, ta'lim jarayonining noma'lumligini oldini olish uchun zarurdir. Pedagog-novatorlarning ta'kidlashicha, bu asosda, tarbiyalanuvchilarni o'qitish faoliyatining hamkorlari bo'lib, o'z o'rinlarini tushunishadi, keyinchalik ishga tushish uchun o'qituvchi va sinfdoshlar bilan aloqaga kiradi. Muhimki, ishbirligi darsda birinchi daqiqalardan boshlanishi kerak (tashkil etish jarayoni bilan) va tarbiyalanuvchilarning dars maqsadini tushunishga yordam berishi kerak. Bu pe-

dagog-novatorlar tarbiyalanuvchilar bilan dars tashqarisida muloqot olib, o‘zaro ta’sir qilishlariga yordam berishi mumkinligini ko‘rsatishadi.

Jamoa rivojlanishida o‘z-o‘zini boshqarishning ahamiyati katta. “O‘z-o‘zini boshqarish – ma’noli jamoaviy faoliyat tashkil etish va muhim jamoaviy maqsadlarni erishish uchun bolalarining o‘z-o‘zini rivojlantirishiga asoslangan”. Ijodiy o‘z-o‘zini boshqarish g‘oyasi barcha pedagog-novatorlar ishlarini o‘z ichiga oladi va ular uchun yosh do‘stlaridan yordam so‘rash hamda hamkorlik ruhiyati bilan birlashishni talab qiladi.

Maktab pedagog-novatorlari tez-tez maktab baho qo‘yishlari bilan qarshi chiqishadi, ular har doim hamkorlik munosabatlarini, o‘qish, tarbiyalash va rivojlanish uchun optimal sharoitlar yaratishda yordam beradigan baho qo‘yishlarni ko‘rsatmaydi, ammo fanga qiziqishini oshirishga, ya’ni musbat motivatsiyaga ega bo‘lish uchun baho qo‘yishlarni to‘g‘rilashga ruxsat beradi. Shunday qilib, ta’lim-tarbiya jarayonida barcha subyektlar o‘rtasidagi konflikt manbai o‘chiriladi. Pedagog-novatorlar ishlarining tahlili olimlar tomonidan quyidagi natijaga olib kelishga imkon berdi: “Hamkorlik pedagogikasi uchun muhimki, darsda o‘quvchini hech qanday holatda yo‘qotmaslik, har xil usullar va vositalar arsenalidan foydalanish, har bir kishi sinf bilan birgalikda ishlashni rag‘batlantiruvchi va shu bilan birga, xato yoki muvaffaqiyatsizlik holatida sinfdoshlar tomonidan yomon yozilmasangiz yoki o‘qituvchi tomonidan zarur yordam, maslahat, tilaklar berilmaydi”.

S.L. Lysenkovaning ishlari va ilm-fan mutaxassislari ishlarining tahlili shuni ko‘rsatdiki, ularning fikriga ko‘ra, quyidagi konseptual g‘oyalarini aniqlash mumkin: bilim, ko‘nikmalar va ko‘nikmalar o‘rgatish; ta’lim standartlariga va barcha tarbiyalanuvchilarnining muvaffaqiyatli o‘qitishiga yo‘naltirish; shaxsiy qarashlar; tarbiyalanuvchilar faoliyatini ta’lim jarayonini boshqarish orqali tahlil qilish (bu tarbiyalanuvchilarni emas, o‘qituvchi ham darsda sinf faoliyatini boshqaradi, bu esa o‘quv, tarbiyaviy va rivojlanish masalalarini hal qilishga yordam beradi); tarbiyalanuvchilarni hamkolik, kompleks o‘quv ko‘nikmasi (o‘ylayman, aytaman, yozaman) shakllanadi, hamkorlik va yordam ko‘rsatish hissi tarbiyalanadi, va o‘qituvchi har bir o‘quvchiga doimiy qayta aloqaga ega bo‘lishi mumkin; “O‘quvchi-pedagog” orqali, o‘quv materialining tartibi va tizimi, oldindan ko‘rsatish, “qiyinchiliklari va kursning eng muhim savollari darslarga qo‘shish orqali, joriy o‘rganilayotgan materialga yaqinlashtirish orqali”, bu barcha maktab tarbiyalanuvchilarga uy vazifalarini o‘zini o‘zi tayyorlashga yordam beradi, chunki darsda bolalar bunday mashqlarni bajarishni o‘rganishganlar, shuning uchun ko‘p vaqt sarflamaydilar; to‘liq o‘z-o‘zini o‘zlashtirish – daromadli ravishda; oporniylar va jadvaldan foydalanish; doimiy takrorlash; har bir uchun vazifalarni farq qilish, tarbiyalanuvchilarniga qulaylik ko‘rsatish; tarbiyalanuvchilarnining baholashida pozitivizm; xatoliklarni oldindan ogohlantirish, ular ustida ishlash emas; biladigan o‘quvchidan bilmasa o‘rganish; o‘z-o‘zini tekshirish va baholash; bolalar o‘qishda rivojlanishning asosiy shartlari sifatida muvaffaqiyat. Sinf atmosferasi: do‘stlik, yordam ko‘rsatish, xavotir, qo‘rqish, o‘qituvchilar uchun zararli his-tuyg‘u.

Hamkorlik pedagogikasining asosiy elementlaridan biri o‘qituvchilar va ota-onalar o‘rtasidagi muloqotdir. Muloqotlar farqli darajalarda amalga oshirilishi mumkin: bolaga oid ma’lumot almashishdan ta’lim loyihasi ustida birgalikda ishlashgacha. Demak, o‘qituvchilar va ota-onalar ta’lim jarayonida teng huquqli sheriklar ekanligini tushunishlari va ularning hamkorliklari bolaning muvaffaqiyatli rivojlanishiga yo‘naltirilganligini tu–shunishlari zarur.

Boshqa muhim hamkorlik pedagogikasi elementi har bir bolaga individual yondashuvdir. O‘qituvchilar har bir bolaning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda

uning shaxsiy ta’lim dasturini yaratishlari kerak. Ota-onalar esa, o‘z bolalari va ularning xususiyatlari haqida ma’lumot berish orqali o‘qituvchilarga yordam berishlari mumkin.

Hamkorlik pedagogikasining boshqa muhim elementi esa, bolalar uchun qiziqishlari bo‘yicha rivojlanishlariga imkon beradigan turli o‘qitish usullaridan foydalanishdir. O‘qituvchilar o‘qitish usullarining turli xususiyatlarini hisobga olish va bolalarga ularning eng mos keladigan usullarni tanlash imkoniyatini berishlari kerak.

Barcha holatda, maktabgacha ta’limda hamkorlik pedagogikasi, bolalar uchun muvaffaqiyatga erishish va o‘ziga xos qobiliyatlariga va qiziqishlariga mos keladigan tarzda rivojlanishlari uchun samarali ta’lim jarayonini tashkil etishga oid samarali qarashdir.

Hamkorlik pedagogikasining asosiy tamoyillari quyidagilardir:

1. Pedagoglar, ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi hamkorlik. Hamkorlik ishonch, hurmat va tushuncha asosida bo‘lishi kerak. Pedagoglar ota-onalar va bolalar fikrini hisobga olishlari, ota-onalar esa pedagoglar fikrini hisobga olishlari kerak.

2. Har bir bolaga individual yondashuv. Har bir bola xususiyatlarga ega va unikaldir. Pedagoglar bu xususiyatlarni hisobga olgan holda individual o‘quv va tarbiyalash dasturlarini yaratishlari kerak.

3. Bolalarda yaratuvchi qobiliyatlarini rivojlantirish. Bolalar o‘z yaratuvchi qobiliyatlarini namoyish etish va ularni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lishlari kerak. Pedagoglar bu uchun sharoitlar yaratishlari kerak, masalan, yaratuvchi majmualar va musobaqalar tashkil qilish.

4. Ijtimoiy ko‘nikmalar rivojlantirish. Bolalar bir-biriga muloqot qilish, boshqa odamlarning fikrini hurmat qilish va munosabatlarni xalqaro ravishda hal qilishni o‘rganishlari kerak. Pedagoglar bu ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun sharoitlar yaratishlari kerak, masalan, o‘yinlar va hamkorlikda tashkil etilgan tadbirlar.

5. Sog‘liqni saqlashni rivojlantirish. Bolalar o‘z sog‘ligi haqida xavotirlash, to‘g‘ri ovqatlanish va kasalliklardan saqlanishni o‘rganishlari kerak. Pedagoglar bu ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun sharoitlar yaratishlari kerak, masalan, sport mashg‘ulotlari va sog‘liqni saqlash bilan bog‘liq tadbirlar tashkil qilish.

Hamkorlik pedagogikasi ko‘p afzalliklarga ega. U yaxshi o‘quv muhitini yaratishga imkon beradi, har bir qatnashchining qobiliyatlarini namoyish etish va o‘qishdan maksimal foydalanish imkoniyatini berishga yo‘naltirilgan. U aynan shu bilan birga, bolalarning ijtimoiy ko‘nikmalarini, yaratuvchi qobiliyatlarini va sog‘liqni saqlashni rivojlantirishga yordam beradi.

Hamkorlik pedagogikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida muhim hisoblanadi. U yaxshi o‘quv muhitini yaratishga imkon beradi, har bir qatnashchining qobiliyatlarini namoyish etish va o‘qishdan maksimal foydalanish imkoniyatini berishga yo‘naltirilgan. U aynan shu bilan birga, bolalarning ijtimoiy ko‘nikmalarini, yaratuvchi qobiliyatlarini va sog‘liqni saqlashni rivojlantirishga yordam beradi.

Pedagoglar, ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi hamkorlik, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida eng muhim aspektlardan biridir. Bu hamkorlik, bolalar muvaffaqiyatli rivojlanishi va tarbiyalanishi maqsadiga erishishga yo‘naltirilgan.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi pedagoglar bolaning shaxsiyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ular uning intellektual, jismoniy va hissiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun sharoitlar yaratishadi. Ammo, ota-onalar qatnashmasa, bu ish to‘liq ravishda samarali bo‘lmaydi.

Ota-onalar bolaning birinchi o‘qituvchilari hisoblanadi. Ular unga o‘z bilimlari, ko‘nikmalari va qadriyatlarini o‘tkazishadi. Bolaning rivojlanishiga eng yaxshi sharoitlarni ta’minlash uchun, ota-onalar va pedagoglar birgalikda ishlashlari muhimdir.

Pedagoglar va ota-onalar o‘rtasidagi hamkorlik bolaning maktabgacha tashkilotida bo‘lishidan boshlanadi. Pedagoglar ota-onalar bilan tanishadi, tashkilotning asosiy ish prinsiplarini tushuntiradi, o‘z metodikasi va bolalarni tarbiyalashga qarashlari haqida aytadi.

Samarali hamkorlikni ta’minlash uchun, pedagoglar ota-onalarni eshitishni va ularning fikrini hisobga olishni bilishlari kerak. Ota-onalar esa, bolasini maktab hayotiga qiziqishini ko‘rsatishi, ota-onalar majlislari va maslahatlarida ishtirok etishi, savollarni berish va o‘z takliflarini aytishlari kerak.

Pedagoglar va ota-onalar o‘rtasidagi hamkorlikning muhim aspektlaridan biri, birgalikda tashkil etilgan tadbirlar. Bu bayramlar, musobaqalar, ko‘rgazmalar, ekskursiyalar va boshqa tadbirlar bo‘lishi mumkin, ular ota-onalar, pedagoglar va bolalar o‘rtasidagi aloqalarni kuchaytirishga yordam beradi.

Muhim e’tibor qaratilishi kerakki, pedagoglar, ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi hamkorlik ishonch va hurmat asosida bo‘lishi kerak. Pedagoglar ota-onalar fikrini tinglay bilishi va ularning tanlov huquqini e’tiborga olishlari, ota-onalar esa pedagoglarning kasbiy qarashlariga va ularning tajribasini hurmat qilishlari kerak.

Natijada, pedagoglar, ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi hamkorlik, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning muvaffaqiyatli rivojlanishi va tarbiyalanishi uchun zarur shartdir. Bu esa bolaning rivojlanishi uchun qulay atmosfera yaratishga, ota-onalar va pedagoglar o‘rtasidagi aloqalarni kuchaytirishga, shuningdek, sog‘lom jamiyat shakllanishiga yordam beradi.

Hamkorlik pedagogikasining asosiy tamoyillari – bu har bir bolaga individual yondashuvni taqdim etishdir. Har bir bola aniq va o‘ziga xos xususiyatlarga ega va o‘qitish hamda tarbiyalashda hisobga olingan bo‘lishi kerak.

Har bir bolaga individual yondashuv, har bir bolaning xususiyatlari hisobga olingan o‘qitish va tarbiyalash dasturlarini yaratishni taqdim etadi. Bu usul o‘qitish va tarbiyalashda maksimal natijalarga erishishga yordam beradi, shuningdek, har bir bolaning xususiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Individual yondashuvning asosiy tamoyillari – bu har bir bolaning individual talablari hisobga olinishi kerak. Bunda pedagoglar har bir bolaning bilmayotgan va biladigan darajasi, shuningdek, qiziqishlari, xarakteri va rivojlanish xususiyatlarini hisobga olishi kerak. Faqat bunday yondashuv usuli har bir bolaning maksimal natijalarga erishishiga yordam beradigan o‘qitish va tarbiyalash dasturini yaratishga imkon beradi.

Boshqa muhim individual yondashuv tamoyillaridan biri har bir bolaning o‘qish usullarini hisobga olishdir. Har bir bola o‘ziga xos o‘qish uslubi bilan ta’minlangan bo‘lishi mumkin, bu vizual, tinglovchi yoki kinestetik bo‘lishi mumkin. Pedagoglar bu faktorni hisobga olgan holda o‘qitish dasturlarini yaratishlari kerak, bu har bir bolaning o‘qish uslubiga mos keladi.

Har bir bolaga individual yondashuv – bu faqat modadagi so‘z emas, balki hamkorlik pedagogikasining muhim tamoyillaridan biri. Faqat bunday yondashuv usuli o‘qitish va tarbiyalashda maksimal natijalarga erishishga yordam beradi. Pedagoglar har bir bolaning xususiyatlarini hisobga olib, bolaning maksimal natijalarga erishishiga yordam beradigan individual o‘qitish va tarbiyalash dasturlarini yaratishlari kerak.

Pedagogik hamkorlikning asosiy maqsadi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun sharoitlar yaratishdir. Bu maqsadga erishish uchun, har bir bolaning o‘z fikrlarini va ideyalarini bayon qilishi mumkin bo‘lgan, shuningdek, pedagoglar va yaqinlari tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi mumkin bo‘lgan ishonch va hurmat atmosferasi yaratilishi kerak.

Hamkorlik pedagogikasining asosiy tamoyillaridan biri jamoaviy ijodiyatdir. Bolalar jamoada loyihalar ustida ishlashadi, ideyalar va tajribalarni almashishadi, birgalikda muammolarni hal qilishni o‘rganadi. Bu usul bolalarda kommunikatsiya, rahbarlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi, shuningdek, jamoada ishlashni o‘rganishga yordam beradi.

Hamkorlik pedagogikasining muhim elementlari ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradigan turli texnikalar va usullarni qo‘llashdir. Masalan, “fikr yuritish” usulidan foydalanish mumkin, bu yerda bolalar ma’lum bir mavzuga oid o‘z fikrlarini bayon qilishadi, keyin eng qiziqarli ideyalarni tanlashadi va ular ustida birgalikda ishlashadi. Shuningdek, “rol o‘yini” usulidan foydalanish mumkin, bu yerda bolalar turli rollarni o‘ynaydilar va o‘zlarining tajribalarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishadi.

Hamkorlik pedagogikasining ahamiyatli tomonlari shundaki, bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berishini, balki ularning boshqa ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga ham yordam beradi, masalan, boshqalarni eshitish, ularning fikrini hurmat qilish, muammo hal qilish va hokazo.

Bundan tashqari hamkorlik pedagogikasining asosiy elementlaridan biri o‘qituvchilar va ota-onalar o‘rtasidagi muloqotdir. Muloqotlar farqli darajalarda amalga oshirilishi mumkin: bolaga oid ma’lumot almashishdan ta’lim loyihasi ustida birgalikda ishlashgacha. Xulosa shuki, o‘qituvchilar va ota-onalar ta’lim jarayonida teng huquqli sheriklar ekanligini tushunishlari va ularning hamkorliklari bolaning muvaffaqiyatli rivojlanishiga yo‘naltirilganligini tushunishlari zarur. Hamkorlik pedagogikasining boshqa muhim elementi esa, bolalar uchun qiziqishlari bo‘yicha rivojlanishlariga imkon beradigan turli o‘qitish usullaridan foydalanishdir. O‘qituvchilar o‘qitish usullarining turli xususiyatlarini hisobga olish va bolalarga ularning eng mos keladigan usullarni tanlash imkoniyatini berishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva N.Sh. Hamkorlik pedagogikasi asosida bolalarni maktab ta’limiga sifatli tayyorlashda variativ ta’limning ahamiyati. https://cyberleninka.ru/article/n/amkorlik-pedagogikasi-asosida-bolalarni-maktab-talimiga-sifatli-tayyorlashda-variativ-talimning-a-amiyati/viewer

2. Лысенкова С.Н. Методом опережающего обучения: Кн. для учителя: Из опыта работы / С.Н. Лысенкова. – М.: Просвещение, 1988. – С. 192. (Твор. лаб. учителя).

Ra’no NOSIROVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
“Maktabgacha ta’limi metodikasi” kafedrasi
pedgogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARINING O‘QUV MASHG‘ULOTLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK TA’LIM INNOVATSION KLASTERI KOMPONENTLARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Maqolada mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘quv mashg‘ulotlari samaradorligini oshirishda pedagogik ta’lim innovatsion klasteri komponentlaridan foydalanish va uni amaliyotga tadbiq etish masalalari xususida fikr bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Maktabgacha ta’lim tizimi, tashkilot, yosh avlod, aqliy-intellektual, metakognitiv, ko‘nikma, ma’naviy salohiyat, maktabga tayyorlash, takomillashtirish.

В статье описаны реформы, проводимые для дальнейшего совершенствования и развития системы дошкольного образования в нашей стране, использование компонентов инновационного кластера педагогического образования для повышения эффективности воспитательной деятельности в дошкольных образовательных организациях, вопросы его реализации на практике.

Ключевые слова. Система дошкольного образования, организация, молодое поколение, ментально-интеллектуальные, метакогнитивные, навыки, духовный потенциал, подготовка к школе, совершенствование

The article describes the reforms carried out to further improve and develop the system of preschool education in our country, the use of the components of the innovative cluster of teacher education to improve the efficiency of educational activities in preschool educational organizations, and the issues of its implementation in practice.

Key words. System of preschool education, organization, young generation, mental-intellectual, metacognitive, skills, spiritual potential, preparation for school, improvement.

Mamlakatimizda pedagogik ta’lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslari, uzluksizlik, uzviylik va izchillik bilan bog‘liq tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Xususan, bu borada G‘.I. Muxamedov, U.N. Xodjamkulov, Sh.I. Botirova, S.A. Toshtemirovalar tomonidan ta’lim klasteriga oid yangicha yondashuvlar va g‘oyalar ilgari surilgan.

Klasterli yondashuvning samarasi ko‘p sohalarda amaliyotda o‘z isbotini topganligi sababli O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 14-apreldagi “Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 213-sonli Qarori asosida qator vazifalar belgilab berildi. Xususan, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi G‘.I. Muxamedovning tadqiqot ishida mamlakatning hududiy tuzilmalari o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlikning strategik va pedagogik imkoniyatlari ochib berilgan. Bizningcha, mamlakatning ijtimoiy taraqqiyotida barcha ta’lim turlari va ijtimoiy institutlar o‘rtasidagi hamkorlik muhim o‘rin egallaydi. Chunki ta’limning umumiy maqsadi har tomonlama rivojlangan yetuk shaxslarni tarbiyalashdan iborat. Barkamol shaxs sifatlari maktabgacha ta’lim-

dan boshlanadi. Bola ijtimoiy hayotda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi uchun ijtimoiy va bilish kompetentsiyasini egallab boradi.

U.N. Xodjamqulovning fikricha, “Klaster yondashuvi universallik xarakteriga ega bo‘lib, uning ta’lim jarayoniga tatbiq qilinishi uzluksiz ta’lim tizimida mavjud tarqoqlikni bartaraf qilish, ta’lim turlarini umumiy maqsad atrofida birlashtirish, uzviylik va uzluksizlikni qaror toptirish, o‘zaro raqobat va nazorat muhitini shakllantirish, pedagogik sohada samarali vorisiylikni ta’minlovchi yaxlit tizimni yaratishga asos bo‘ladi”.

Darhaqiqat, uzluksiz ta’limning barcha sohalarida umumiy maqsad yagona sifatli va samarali ta’limni tashkil etishdir. Tadqiqotimizning asosiy konsepsiyasini klaster yondashuvi asosida bolalarda metakognitiv ko‘nikmalarni shakllantirish orqali maktab ta’limiga tayyorlashni tashkil etish, tarbiyalanuvchilarga ta’lim-tarbiya berishda MTT, oila, mahalla va OTMlarning uzviy hamkorligi ta’minlanishdan iborat.

Maktabgacha ta’lim jarayonida o‘quv-tarbiyaviy faoliyat samaradorligi, uni baholash va mashg‘ulotlarni olib borish bo‘yicha jahonda qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan: maktabgacha ta’lim sohasida sifat nazoratining ichki baholash mexanizmlari ishlab chiqilgan (London universiteti qoshidagi “Layf Kouching”); ta’lim institutlari (Buyuk Britaniya); ta’lim sifati menejmenti tizimini sertifikatlash va sifatni kafolatlash usullari tavsiflangan (Bavariya akkreditatsiyalash, sertifikatlash va sifatni kafolatlash instituti, Germaniya); ta’lim sifati nazoratining tashqi baholash mexanizmlari takomillashtirilgan (Nant, Frantsiya); sifatning yalpi boshqaruvi konsepsiyasini oliy ta’lim jarayonida qo‘llash xususiyatlari ochib berilgan (Kaliforniya va Ogaya universitetlari, AQSH); ta’lim-tarbiya natijasini baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari takomillashtirilgan (Vullongong universiteti, Avstraliya); sifat boshqaruvini takomillashtirib borish yo‘nalishlari aniqlangan (Tokio pedagogika universiteti, Yaponiya); nodavlat maktabgacha ta’lim tizimi pedagoglari faoliyatini sifatli tashkil etish (Seul Milliy universiteti); tarbiyachi faoliyatini baholash va monitoring qilish usullari yaratilgan (Shanxay ta’limni baholash instituti, XXR); maktabgacha ta’lim-tarbiya sifatini tahlil qilish ilmiy-amaliy jihatdan asoslangan (Puchon Milliy universiteti, Koreya Respublikasi); pedagoglar mahoratini oshirish orqali ta’lim sifatini ta’minlash mexanizmi yaratilgan (Malaka oshirish markazi, O‘zbekiston).

Maktabgacha ta’lim tashkilotining davlat o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish borasidagi davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan me’yoriy-huquqiy hujjat bo‘lib, unda maktabgacha ta’lim tashkilotining maqsad va vazifalari, o‘quv-tarbiyaviy faoliyatning asosiy g‘oyalari ifodalangan, shuningdek, bolaga ta’limning keyingi bosqichiga o‘tishidagi asosiy kompetensiyalari belgilangan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim berishda kompetensiyaviy yondashuv o‘sib borayotgan bola shaxsini hayotga tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan axloqiy me’yor va qadriyatlarni o‘zlashtirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, «Men» obrazini qurish bolani maktab ta’limiga tayyorlash bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat usullarini shakllantirishga tayyorgarlikni ko‘zda tutadi.

6-7 yoshli bolalarda metkognitiv ko‘nikmalarni shakllantirish orqali quyidagicha kompetensiyalarining rivojlanishiga erishiladi:

Kompetensiya bolaning bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlari majmuidir. Boshlang‘ich kompetensiyalar, rivojlanish sohasidan qat’i nazar, bola shaxsi shakllanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolalar egallashi lozim bo‘lgan muhim kompetensiyalar quyidagilardan iborat:

Kommunikativ kompetensiya – muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko‘nikmasi.

O‘yin kompetensiyasi – bolaning o‘yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko‘nikmalardan ijodiy foydalanishi. O‘quv-tarbiyaviy faoliyat uchun asos hisoblanadi.

Ijtimoiy kompetensiya – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan mulo–qotda axloq qoidalari va me’yorlariga rioya qilgan holda o‘zini tutish mahorati.

Bilish kompetensiyasi – atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish, o‘zlashtirilgan malaka va qadriyatlardan ta’limiy vazifalarni hal qilish uchun foydalanish mahorati.

Maktabgacha ta’limda metakognitiv ko‘nikmalarni shakllantiruvchi klaster asosida bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda: jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi; ijtimoiy-hissiy rivojlanish; nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari; bilish jarayonining rivojlanishi; ijodiy rivojlanish soha kompetensiyalari amalga oshiriladi. Bunda MTT, oila, maktab hamkorligi ko‘zda tutiladi. Ta’lim-tarbiya faoliyatida bolalarda rivojlanish kompetensiyalarining shakllantirilishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish muhim hisoblanadi.

Maktabgacha ta’limda metakognitiv ko‘nikmalarni shaklantiruvchi klaster asosida tayyorlov guruhidagi bolalar ‘‘Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi’’ soha kompetensiyasi bo‘yicha: o‘z imkoniyatlari va yoshi bilan bog‘liq jismoniy rivojlanish me’yorlariga mos ravishda jismoniy faollik ko‘rsatadi; turli harakatchanlik faolligini uyg‘un ravishda va maqsadli bajarishni biladi; turli hayotiy va o‘quv vaziyatlarida mayda motorika ko‘nikmalaridan foydalanadi; o‘z harakatlarini hissiyot va sezgi organlari yordamida boshqaradi;

‘‘Ijtimoiy-hissiy rivojlanish’’ sohasida: o‘z ‘‘Men’’i va boshqa insonlarning hayotiy faoliyat muhitidagi roli to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘ladi; o‘z hissiyotlarini boshqaradi va ularni vaziyatga mos ravishda ifodalaydi; o‘zgalarning hissiyotlarini farqlaydi va ularga mos ravishda javob beradi; murakkab vaziyatlardan chiqishning konstruktiv yo‘llarini topadi.

‘‘Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari’’ rivojlanish sohasida: nutqni eshitadi va tushunadi; o‘z nutqida to‘g‘ri talaffuz, qulay grammatik shakllar va xilma-xil gap konstruktsiyalaridan foydalanadi.

Ikkinchi tilni o‘rganishga qiziqishda; ikkinchi tilni egallash bo‘yicha dastlabki bilimlarini ko‘rsatadi; badiiy adabiyot asarlariga qiziqishini namoyish qiladi; so‘zning lug‘aviy, bo‘g‘inli va fonetik tuzilishi to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘ladi; turli ma’no shakllarini mustaqil ravishda tuzish va so‘zlab berishni biladi.

“Bilish jarayonining rivojlanishi” bo‘yicha: bilim olishga faol qiziqishini namoyish etadi; o‘quv va hayotiy faoliyatga doir axborotni mustaqil ravishda topadi va undan foydalanadi; predmetlar, voqealar o‘rtasidagi oddiy aloqalarni tushunadi va ularni yaxlit bir butunlik sifatida idrok qiladi; raqamlar bilan bog‘liq hisob-kitobni biladi va ularni hayotda qo‘llaydi; makon, shakl va vaqtga mos ravishda ish tutadi; elementar matematik hisoblashlarni amalga oshiradi; atrof muhitdagi voqea-hodisalarni kuzatadi hamda tahlil qiladi;

‘‘Ijodkorlik’’ sohasida: san’at va madaniyatga qiziqishini namoyish qiladi; milliy an’analarni qadrlaydi va ularni kundalik hayotning bir qismi sifatida idrok etadi; san’atning muayyan turini afzal ko‘rishini mustaqil ravishda ifodalaydi; olingan bilim va ko‘nikmalardan turli hayotiy vaziyatlarda o‘z ijodiy rejalarini tuzish va tatbiq qilish uchun foydalanadi; insonning dunyoni o‘zgartirishdagi yaratuvchanlik rolini tushunadi.

Metakognitiv ko‘nikmalarni shakllantiruvchi klaster asosida bolalarni maktab ta’limiga sifatli tayyorlashning umumiy modeli ijtimoiy-pedagogik tizimning asosiy komponenti sifatida ota-onalar va bolalarning turli ehtiyojlariga asoslangan ta’lim talablarini qondirishga qaratilgan. Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, maktabgacha 6-7 yoshdagi bolalarda metakognitiv ko‘nikmalarni shakllantiruvchi komponentlar tizimlashtirildi.

Mazkur komponentlar uzluksiz ravishda bolalarning bilish jarayoni va ijodiy qobiliyati rivojlanishini ta’minlovchi pedagogik jarayonni takomillashtirishni ko‘zlaydi. Bolani maktabga tayyorlashda shaxsiy qobiliyatlari va qiziqishlarini o‘rganish psixik xususiyatlarini tahlilga tortish va rivojlanish xaritasini monitoring qilish uning o‘qishga tayyorligini aniqlash imkonini beradi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayoni, uni baholash, ilmiy-nazariy jihatdan asoslash, kvalimetriyaga murojaat etish, sifatning yalpi menejmentini qo‘llash mazkur tizimni takomillashtirishning muhim shartlaridan biridir.

Har bir insonning ta’lim olishi, iqtidori va iste’dodini namoyon etishi hamda muayyan soha bo‘yicha kasb tanlashiga ilk poydevor maktabgacha ta’lim davridan yaratiladi. Inson tug‘ilganda individ hisoblanadi. Uning shaxsga aylanishida jamiyatdagi ijtimoiy xulq-atvor qoidalari, ta’lim-tarbiya muhim rol o‘ynaydi. Maktabgacha ta’lim jarayonida bolalarda ijtimoiy ko‘nikma va malakalari shakllantiriladi. Ularda aqliy va kognitiv ko‘nikmalarning namoyon bo‘lishi yangi bilimlarning yuzaga kelishi bilan belgilanadi. Bolalarning shaxs sifatida rivojlanishiga biogenetik va ijtimoiy omillar uzviylikda ta’sir ko‘rsatadi. Kichkintoylarning hayotiga nafaqat faoliyat, balki oiladagi voqea-hodisalar va sog‘lig‘i ham ta’sir qiladi. Bola butun hayoti davomida rivojlanadi hamda ijtimoiy-ruhiy kamolotga yetadi. Bu o‘rinda ta’lim-tarbiya muhim bo‘lib, u jamiyatning munosib a’zosi sifatida jamiyatga moslashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi 595-sonli “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni // https://lex.uz/docs/4646908

2. Botirova Sh.I. Adabiy ta’lim klasterining ilmiy-nazariy asoslari. Ped. fan. dok. (DSc) diss. avtoref. – Chirchiq, 2021. – 60 b.

3. Muhamedov G.I. Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri: ehtiyoj, zarurat, natija // Xalq so‘zi. 2019-yil15-fevral. http://xs.uz/uzkr/post.Toshtemirova S.A. Klaster yondashuvi asosida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish. Ped. fan. fals. dok. (PhD) diss. avtoref. – Chirchiq, 2021. –18 b.

4. Xodjamqulov U.N. Pedagogik ta’lim klasteri ilmiy-pedagogik muammo sifatida (pedagogik ta’limni klasterlashtirishning zarurati) // Zamonaviy ta’lim, 2019. – № 10 (83). – 10-15 b.

5. Khurvalieva T.L., Nosirova R.KH., Maripova N.Kh., Abdullayeva M.J. Possibilities of using art therapy in preschool education November 30, 2022 y 5842-5848 https://www.e-afr.org/article/view/5842.html.

6. Hamidovna N.R. (2020). Preparation of children in schools by making technological techniques in pre-school education. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, *8*(2), – 120-124.

7. Nosirova R.K. (2020). Methodology for teaching outdoor games in preschool institutions. *Academic Research in Educational Sciences*, *1*(4).

Lola AHMEDOVA,
Maktabgacha ta’lim tashkilotlari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti tayanch doktoranti

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA BOLANI KASBGA YO‘NALTIRISHDA FAOLLIK MARKAZLARINING ROLI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarga kasblar haqidagi asosiy bilimlarni shakllantirishning asosiy bosqichlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, bolalar bog‘chada kasblarning xilma-xilligi va keng tanlovi bilan tanishishi va yosh avlodni kasbga yo‘naltirishning asosiy imkoniyatlari aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Maktabgacha ta’lim, faollik, markaz, ilm, fan, til va nutq, kasb mahorati, kasbga yo‘naltirish, qobilyat, san’at, syujetli rolli o‘yinlar, kasbga yo‘naltirish.

В статье рассматриваются основные этапы формирования у воспитанников дошкольной образовательной организации базовых знаний о профессиях. Также отмечено знакомство детей с многообразием и широким выбором профессий в детском саду и основные возможности профориентации подрастающего поколения.

Ключевые слова. Дошкольное образование, деятельность, центр, наука, Наука, язык и речь, профессиональное мастерство, профориентация, одаренность, искусство, сюжетно-ролевые игры, профориентация.

The article reflects on the main stages of the formation of basic knowledge about professions for preschoolers. Also mentioned in kindergarten are the main opportunities for acquaintance with the variety and wide selection of professions and the orientation of the younger generation to the profession.

Key words. Preschool education, activism, center, science, science, language and speech, professional skills, career orientation, ability, art, plot Role-Playing Games, career orientation.

Bolalar dunyoning ustuni. Ularning zehni, aql-idroki, bilimga chanqoqligini yangiliklar kashf qilish uchun asos bo‘ladi, deyish mumkin. Shu sabab biror sohaga yo‘naltirishda, ma’lum bir yangilikni o‘rgatishda bolalikdan boshlab u haqidagi tushunchalarni shakllantirib borish, uni rivojlantirish va o‘rgatib borish yuqori natija beradi. Bu ko‘rsatgich maktagacha yoshdagi bolalarda, ayniqsa, baland deya olamiz. Dunyo olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda ham yuqoridagi fikrimiz o‘z isbotini topgan. Xalqimiz orasida esa “Yoshlikda olingan bilim – toshga o‘yilgan naqsh kabidir”, degan maqol ham bejizga paydo bo‘lmagan. Yurtimizda olib borilayotgan tub islohotlar natijasi o‘laroq bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimiga ham ko‘plab o‘zgartirishlar kiritilibgina qolmay, uni yanada takomillashtirish, o‘sib kelayotgan yosh avlodni jahon hamjamiyatida o‘z o‘rnini topishi uchun yetuk shaxs sifatida tarbiyalash ham dolzarb masala sifatida ta’lim tizimi oldiga vazifa sifatida qo‘yildi. Buni “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Prezident qarorida ham o‘z aksini topganligini ko‘rishimiz mumkin. Bugungi kunning muammolaridan biri bo‘lgan ishsizlik maslasini

bartaraf qilish uchun esa uni tub ildizi bo‘lgan bolalikdanoq kasbga qiziqish uyg‘otish va kelajakda o‘z ishining ustasi bo‘lib yetishish, hamda jamiyatda barqaror o‘ringa ega bo‘lish uchun ham zarur, deb hisoblanmoqda. Bunda nafaqat kasbga yo‘naltirish maktablari, kasb-hunar kollejlari, kasb mahorati darslari, balki shu bilan bir qatorda, maktabgacha ta’limning ham o‘rni beqiyos, deyiladi. Bolalarni kasbga yo‘naltirish ishlari maktabgacha ta’lim tizimidanoq olib borilishi orqali, bolalarga kattalar mehnati, unga nisbatan hurmat, qiziqish, qadrlash tuyg‘ularini shakllantirish va yanada yaxshi natijalarga erishish mumkin. Ushbu o‘rinda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining roli yuqori bo‘lib, tarbiyachi tarbiyalanuvchilarga yangi metodlar orqali zamon talabi bo‘lgan kasblarga yo‘naltirish vazifasini o‘z vazifasidan kelib chiqqan holda birgalikda olib boradi. Tarbiyachi bu masalani kun tartibiga qo‘shishi, tarbiyalanuvchilar bilan ham ularning qobilyatini, qiziqishlarini hisobga olgan holda ish yuritishi lozim. Kun tartibida belgilangan mavzu doirasida bevosita bolani kuzatish orqali uning qaysi kasbga qiziqishini yo‘l-yo‘lakay aniqlashi ham mumkin. Hozirda guruhlarda mavjud bo‘lgan faollik markazlari ham bu borada tarbiyachiga yordam beradi. Rivojlantiruvchi ushbu markazlarimizda bola bilan faoliyat olib borar ekan, har bir markaz qaysidir ma’noda tarbiyalanuvchilarning qobilyatlarini ochishga va uni tahlil qilishga imkon yaratib beradi, ya’ni:

1. Til va nutq markazi. (Nutq o‘stirish, til va badiiy adabiyot bilan bog‘liq mashg‘ulotlar).
2. Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazi, (Qurish yasash va matematika mashg‘ulotlari).
3. San’at markazi (Rasm, applikatsiya, loy qurish, yasash mashg‘ulotlari).
4. Syujetli-rolli o‘yinlar va dramalashtirilgan markaz (Guruh yoshiga mos bo‘lgan syujetli qoidali o‘yinlar).
5. Ilm-fan va tabiat markazi. (Tabiat, atrof-olam bilan tanishtirish mashg‘ulotlari)

Endi markazlardagi faoliyatlar tahliliga birma-bir to‘xtaladigan bo‘lsak, til va nutq markazida bolalarning do‘stlari orasida o‘z fikrlarini bera olishlari, mavzu asosida hikoyalar tuzish, savol-javoblar qilish, bolalarga suhbatlar tashkil etish imkoniyati mavjud bo‘ladi. Bola markazda o‘zi xohlagan mavzusida hikoyalar tuzishi ham mumkin. Ushbu markaz bevosita tarbiyalanuvchilardagi tilga bo‘lgan qobilyatini ko‘ratish uchun yordam beribgina qolmay, unda bo‘lajak shoir, yozuvchi, filolog hamda pedagoglar faoliyati uchun poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Keying markaz qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazida bolalarda sensor tarbiya, ijodkorlik rivojlanadi. Bola bir vazifani bajarishi orqali ham qurish-yasash ham matematika bilan shug‘ullanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bundan tashqari bolalarning muloqatida qo‘shish, ayirish, taqqoslash, kattalik kabi ilk matematik tasavvurlar kengayib boradi. Ushbu markazimiz tom mo‘noda arxitektor, dizayner, moliyachi va matematiklar kabi kasb uchun bolajonlarimizni tayyorlashga xizmat qiladi.

Navbatdagi markaz – “San’at markazi”da bolalarni kayfiyatini ko‘tarish imkoni mavjud. Bolalarning ijodiy qobiliyatlari qo‘llab-quvvatlanadi. San’atning rassomlik, haykaltaroshlik, bugungi kunda yangilik sifatida rivojlanib borayotgan san’at turlari mavjud. Shu sababli bunda faqat iqtidorli bolalar ko‘proq ishtirok etadi. Markazdagi kerakli jihozlar orqali bolada yasash, chizish texnologiyalari shakllanadi. Markazda ishlasa bolaning mayda motorikasi rivojlanadi. Mayda motorikaning rivojlanishi esa, bola nutqining rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Shunday qilib ushbu markaz o‘zida bo‘lajak rassomlar, haykaltaroshlar, san’atshunoslarni tarbiyalaydi.

Yana bir kabi eng muhim markaz bu – “Syujetli-rolli o‘yinlar va dramalashtirilgan markaz”. Ushbu markaz bolalar iqtidorini namoyon bo‘lishi, o‘z mahoratini ko‘rsatishi

uchun juda qulay muhitga ega bo‘lib, bu markazni bolaning "Men"ini shakllantiruvchi markaz deb ham atash mumkin. Markazdagi barcha jihozlar bolalar hayotida uchraydigan jihozlar bo‘lib, o‘yin jarayonida bola ulardan foydalanishni o‘rganadi, kasblar bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo‘ladi. O‘yinda oila a’zolarining o‘zaro munosabatlari aks etadi va ular orqali axloqiy tarbiya olish (tarbiyachi uchun esa oiladagi muhitni o‘rganish) imkoni yaratiladi.

Eng so‘nggi beshinchi markaz “Ilm-fan va tabiat markazi”da tajriba sinov maydonchasida o‘tkazilayotgan tajribalar bolalarda qiziqish uyg‘otadi va ularni yangi ixtirolar qilishga undaydi. Bu markaz bolalarni tabiat va undagi hodisalarni bilish uchun eng katta imkoniyat markazi hamdir. Markaz faoliyati to‘g‘ri tashkil etilsa bolalar tabiat haqidagi bilimlarning 90 foizini o‘zlashtiradi. Bundan tashqari markazlarning yana quyidagi ijobiy tomonlari mavjud:

1. Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish.
2. Ijtimoiy-hissiy rivojlanish.
3. Nutq, muloqot, o‘qish va yozish ko‘nikmalari.
4. Bilim olish (anglash orqali rivojlanish).
5. Ijodiy rivojlanish kabilar uni maktab muhitiga tayyorlovchi asosiy me’zonlar sanaladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kattalar ishi haqidagi bilimlar bolalar bog‘chasining tarbiyaviy ishlarida yetakchi o‘rinlardan birini egallashi kerak. Bundan tashqari, bolalarni kattalar va alohida kasblar ishi bilan tanishtirish muhim bir vazifa sifatida qaralishi emas, aksincha, yaxlit jarayon sifatida amalga oshirilishi kerak. Maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiylashuvi bolalar uchun eng yaqin, qulay, qiziqarli faoliyat sifatida ko‘proq o‘yin orqali amalga oshirilishini hisobga oladigan bo‘lsak, rolli o‘yinlar kattalarning turli xil faoliyati, ularning boshqa odamlar bilan munosabatlari, kasblar va ularda ishlatiladigan asboblar, foydalaniladigan jihoz va obyektlar va boshqalar haqidagi bolalarning tasavvurlarini kengaytirish va konkretlashtirish imkonini beradi. Shu sababdan ham rivojlantiruvchi markazlar tarbiyalanuvchilarni kasbga yo‘naltirishda juda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PQ-4312, 2019 y.
2. “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim muassasasining o‘quv dasturi. – T., 2018.
3.“O‘yin orqali ta’lim olish”. Metodik qo‘llanma. (birinchinashr). Grosheva I.V., Mikailova U.T., UNICEF. – T., 2020.
4. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida ta’lim jarayonini rejalashtirish. Metodik qo‘llanma. (birinchi nashr). Shin A.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Grosheva I.V., Mikailova U.T., UNICEF. – T., 2020.
5. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim dasturlarini ishlab chiqish. Metodik qo‘llanma. (birinchi nashr).Grosheva I.V., Mirziyoyeva Sh.Sh.,Tashmuxamedova F.B., Mikailova U.T., Rustamova M.E., UNICEF. – T., 2020.

Muhabbat TAYIROVA,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi
Toshkent iqtisodiyot va sanoat texnikumi o'qituvchisi

O'QUVCHILARNING MULTIMEDIA VOSITALARI BILAN ISHLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-AMALIY TEXNOLOGIYALARI.

Annotatsiya

Maqolada o'quvchilarning multimedia vositalari bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyalari yoritiladi. Jarayon ularning yosh va psixologik xususiyatlari, dizayn nazariyasi hamda multimedia vositalarining didaktik imkoniyatlari asosida tashkil etilishi lozimligi ta'kidlanadi. Maktab va jamoatchilik hamkorligida trening, vorkshop va interaktiv mashg'ulotlarni integratsiyalash mexanizmlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar. Multimedia vositalari, pedagogik-amaliy texnologiyalar, dizayn nazariyasi, yosh va psixologik xususiyatlar, trening, vorkshop, estetik did.

В статье освещаются технологии развития у учащихся навыков работы с мультимедийными средствами. Подчеркивается, что процесс должен быть организован на основе их возрастных и психологических особенностей, теории дизайна и дидактических возможностей мультимедийных средств. Проанализированы механизмы интеграции тренингов, воркшопов и интерактивных занятий в сотрудничестве школы и общественности.

Ключевые слова. Мультимедийные средства, педагогико-практические технологии, теория дизайна, возрастные и психологические особенности, тренинг, воркшоп, эстетический вкус.

The article covers technologies for developing students' skills in working with multimedia tools. It is emphasized that the process should be organized based on their age and psychological characteristics, design theory, and the didactic capabilities of multimedia tools. The mechanisms for integrating training, workshops, and interactive sessions in cooperation between the school and the public are analyzed.

Key words. CMultimedia tools, pedagogical and applied technologies, design theory, age and psychological characteristics, training, workshop, aesthetic taste.

Ta'lim jarayonida multimedia vositalaridan samarali foydanish o'quvchilarning bilim olish motivatsiyasini oshirish, ijodiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng qo'llanilishi ta'limni interaktiv, vizual va emotsional jihatdan boyitish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, u o'quvchilarda estetik didni shakllantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni chuqur anglash, ijodiy faoliyatga qiziqishni kuchaytirish uchun ham keng imkoniyat yaratadi.

Multimedia mahsulotlari-animatsiyalar, interaktiv taqdimotlar, elektron darsliklar,

virtual laboratoriyalar, grafik, audio - vizual materiallar o‘quvchilarning bilimlarni tezroq va samaraliroq o‘zlashtirishiga xizmat qiladi. Ular nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, balki amaliy faoliyatni tashkil etishda ham yuqori samaradorlikka erishishni ta’minlaydi. Masalan, murakkab tushunchalarni infografika orqali ko‘rsatish, tarixiy voqealarni video lavhalar yordamida tahlil qilish yoki adabiy syujetlarni storyboard shaklida tasvirlash o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi, ularning tafakkurini rivojlantiradi.

Shu nuqtayi nazardan, multimedia vositalaridan foydalanishda o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda pedagogik-amaliy texnologiyalarni ishlab chiqish ta’lim jarayonining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Ta’limni faqat bilim berish jarayoni sifatida emas, balki shaxsning ma’naviy-estetik, ijodiy va kommunikativ salohiyatini rivojlantirish omili sifatida tashkil etish bugungi kun talabidir.

Multimedia vositalari ta’lim jarayonida integratsiyalangan yondashuvni amalga oshirish imkonini beradi. Bunda turli fanlarni uyg‘unlashtirgan holda o‘quvchilarda kompleks dunyoqarashni shakllantirish mumkin. Masalan, tasviriy san’at darslarida tarixiy mavzularni infografika orqali ko‘rsatish, adabiyot darslarida matnni animatsion syujetlar yordamida jonlantirish yoki musiqa darslarida audio-vizual vositalardan foydalanish o‘quvchilar estetik didini, ijodiy tafakkurini va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Bundan tashqari, multimedia mahsulotlari o‘quvchilarda mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Interaktiv darsliklar, elektron testlar va virtual laboratoriyalar orqali o‘quvchilar mavzuni o‘zlashtirish bilan birga, bilimlarini sinovdan o‘tkazish, mustaqil izlanish va muammoli vaziyatlarni hal qilish malakasini egallaydilar. Shu jarayonda ular nafaqat bilim, balki o‘z-o‘zini rivojlantirish, muloqotga kirishish va jamoada ishlash qobiliyatlarini ham mustahkamlaydilar.Zamonaviy ta’lim tizimida multimedia vositalaridan foydalanish o‘quv jarayonini samarali tashkil etishning muhim omillaridan biridir.

Multimedia vositalari (video, animatsiya, grafika, interaktiv dasturlar) o‘quvchilarda bilim olish motivatsiyasini oshiradi, ularning kognitiv faoliyatini faollashtiradi, estetik didini shakllantiradi hamda ijodiy faoliyatini rivojlantiradi. Shu jihatdan, ta’lim jarayonida multimedia vositalaridan foydalanish imkoniyatlarini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

O‘quvchilarning multimedia vositalari bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda quyidagi omillar alohida ahamiyat kasb etadi:

Didaktik yondashuvlar. Multimedia mahsulotlari o‘quv materialini vizual, emotsional va interaktiv shaklda taqdim etish imkonini beradi. Bu esa o‘quvchilarda mavzuni yaxshiroq anglash, eslab qolish va mustaqil tahlil qilish jarayonini qo‘llab-quvvatlaydi. Shuningdek, multimedia vositalari o‘quvchilarning bilishga bo‘lgan qiziqishini orttiradi, mustaqil izlanish va tajriba o‘tkazishga rag‘batlantiradi.

Yosh va psixologik xususiyatlar. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun sodda grafikalar, rang-barang tasvirlar, qisqa animatsiyalar va interaktiv o‘yin-topshiriqlar samarali hisoblanadi. Yuqori sinflarda esa loyiha asosidagi topshiriqlar, dizayn ishlari, murakkab multimedia dasturlaridan foydalanish ijodkorlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. O‘quvchilarning yoshiga mos metodik yondashuv multimedia vositalarining samaradorligini oshiradi.

Dizayn nazariyasi.Ta’limiy multimedia mahsulotlarini yaratishda rang uyg‘unligi,

kompozitsiya, muvozanat, milliy ornament elementlari va badiiy obrazlardan oqilona foydalanish o‘quvchilarda estetik didni shakllantirishga xizmat qiladi. Dizayn tamoyillariga amal qilish nafaqat o‘quv materialini tushunarli qiladi, balki estetik zavq uyg‘otib, o‘quvchining ijodiy faoliyatga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Texnologik tayyorgarlik. Multimedia vositalari bilan ishlashda texnik vositalarning yetarli darajada mavjudligi va ulardan foydalanish ko‘nikmasi muhimdir. Zamonaviy kompyuter dasturlari, grafik va video-montaj ilovalari, onlayn ta’lim platformalari bilan ishlash malakasiga ega bo‘lgan o‘quvchilar mustaqil ravishda turli multimedia mahsulotlarini yarata oladilar.

Hamkorlik va kommunikativ faoliyat. Multimedia loyihalari jamoada ishlash, o‘z fikrini muloqot jarayonida erkin ifodalash, tengdoshlari bilan hamkorlik qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa o‘quvchilarda nafaqat axborot texnologiyalari bo‘yicha bilimlarni, balki ijtimoiy ko‘nikmalarni ham shakllantirishga xizmat qiladi.

Tarbiyaviy ahamiyat. Multimedia vositalari orqali o‘quvchilarda milliy qadriyatlar, madaniy meros, ekologik madaniyat va axloqiy fazilatlarni targ‘ib qilish mumkin. Ta’limiy filmlar, animatsiyalar va virtual sayohatlar orqali o‘quvchilarda vatanparvarlik, estetik did, tabiatga e’tibor va insoniylik fazilatlari shakllanadi.

Multimedia vositalari orqali o‘quvchilarda ijodkorlikni rivojlantirish jarayoni maktab va jamoatchilik hamkorligida samarali amalga oshiriladi. Bunda:

1. Treninglar – dasturiy vositalardan foydalanishni bosqichma-bosqich o‘rgatish. Treninglar o‘quvchilarning texnik savodxonligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ular quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

Boshlang‘ich bosqichda – grafik muharrirlar, taqdimot dasturlari, oddiy video-montaj vositalari bilan tanishtirish;

O‘rta bosqichda – infografika, animatsiya, audio va video tahrirlash jarayonlarini o‘rgatish;

Yuqori bosqichda – turli multimedia dasturlarini integratsiyalash, masalan, matn, ovoz va videoni uyg‘unlashtirib taqdimot yaratish.

Treninglar davomida o‘quvchilarning nafaqat texnik ko‘nikmalari, balki mustaqil ijodiy izlanishlari ham shakllanadi.

2. Vorkshoplar – kichik guruhlarda real multimedia mahsulotlarini yaratish. Vorkshoplar o‘quvchilarni amaliy jarayonga jalb qiladi. Bunda:

Har bir kichik guruh ma’lum mavzu bo‘yicha loyiha ishlab chiqadi (masalan, tarixiy mavzuda animatsiya, ekologiya haqida infografika, adabiy asar asosida video rolik);

Guruh ichida vazifalar bo‘linadi: dizayner, matn muharriri, ovoz yozuvchi, montajchi;

Yakunda tayyor mahsulot jamoaga taqdim etiladi.

Bu jarayon o‘quvchilarni hamkorlikda ishlash, mas’uliyatni bo‘lishish, ijodiy yechim topish ko‘nikmalariga o‘rgatadi.

3. Forumlar – ota-onalarning ishtirokida taqdimot va baholash. Forumlar o‘quvchilarning mehnatini keng jamoatchilikka namoyish qilish imkoniyatini beradi. Bu:

Ota-onalarni ta’lim jarayoniga jalb qilish, ularni farzandlarining ijodiy ishlariga sherik qilishga yordam beradi;

O‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, chunki ular o‘z ishlarini nafaqa o‘qituvchilar, balki ota-onalar va boshqa jamoatchilik vakillari oldida himoya qiladi;

Baholash jarayonida faqat texnik sifat emas, balki ijodiy g‘oya, milliy va ma’naviy qadriyatlarni ifodalash darajasi ham hisobga olinadi.

4. Interaktiv mashg‘ulotlar – qiziqarli, raqobatbardosh va ijodiy muhit yaratish. Multimedia vositalari yordamida o‘quv jarayonini interaktiv tashkil etish ijodkorlikni yanada rivojlantiradi:

Raqobatbardosh o‘yinlar – masalan, “Eng yaxshi infografika”, “Bir kunda video tayyorla”, “Mini-komiks” tanlovlari;

Virtual laboratoriyalar – o‘quvchilarning tajriba qilish, natijalarni vizualizatsiya qilish imkoniyatlarini kengaytiradi;

Simulyatsiyalar va rolli o‘yinlar – o‘quvchilarni turli ijtimoiy vaziyatlarga qo‘yib, ularni ijodiy yechim topishga yo‘naltiradi.

Bunday mashg‘ulotlar o‘quvchilarda ijodiy tafakkur, tanqidiy fikrlash, muammoga noodatiy yondashish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Multimedia vositalarini qo‘llash orqali o‘quvchilarda estetik didni tarbiyalash:

• Tarixiy mavzularda infografikalar yaratish. O‘quvchilar tarixiy voqealar, qahramonlar va madaniy yodgorliklar haqida grafik ko‘rinishda ma’lumot tayyorlash orqali vizual estetikani va badiiy didni rivojlantiradilar.

• Adabiy asar syujetiga asoslangan storibordlar tayyorlash. Bunda o‘quvchilar she’r, hikoya yoki roman voqealarini ketma-ket kadrlar tarzida tasvirlaydi.

• Milliy san’at va madaniyat elementlarini multimedia dizaynga tatbiq etish. Milliy naqsh, me’moriy shakllar, musiqa va raqs elementlarini slayd, animatsiya yoki dizayn ishlanmalarida qo‘llash orqali estetik tarbiya bilan bir qatorda milliy qadriyatlarni singdirish imkoniyati yaratiladi.

• “Bir kunda mini-rolik” kabi ijodiy topshiriqlar. O‘quvchilar qisqa vaqt ichida kichik videorolik, animatsiya yoki musiqiy klip yaratib, o‘z tasavvurlarini amalda sinab ko‘radilar. Bu ularning kreativ fikrlashini, dizayn didini va jamoaviy ishlash qobiliyatini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda o‘quvchilarning multimedia vositalari bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda pedagogik-amaliy texnologiyalarni to‘g‘ri tanlash va ularni o‘quv jarayoni bilan integratsiyalash ta’lim samaradorligini oshiradi. Maktab va jamoatchilik hamkorligidagi treninglar, vorkshoplar va interaktiv mashg‘ulotlar o‘quvchilarda nafaqat texnologik savodxonlikni, balki estetik didni ham uyg‘un shakllantirish imkonini beradi. Shu bois, multimedia vositalaridan foydalanish ta’limning nafaqat o‘quv, balki tarbiyaviy va estetik maqsadlariga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nazarov Q. (2019). Estetik tarbiya nazariyasi va metodikasi. Toshkent: Fan nashriyoti.

2. Hasanov, B. (2020). “Fanlararo integratsiya asosida estetik tarbiya metodlari”. Ta’lim va taraqqiyot jurnali, №4, 45–51.

3. Tayirova M.A. "Informatika fanini o‘qitishda multimedia texnologiyalarini qo‘llashning nazariy va amaliy ahamiyati.". Xalq ta'limi jurnali №6, 67-73-bet.

4. Осин, А.В. Мультимедиа в образовании: контекст информатизации / А.В. Осин. М., 2004.

Maqsuda MINGBOYEVA,
Jizzax davlat pedagogika universiteti magistranti

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI TA'LIM TIZIMIGA TADBIQ ETISHNING AHAMIYATI HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR

Annotatsiya

Yurtimizda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jabhalardagi bugungi islohotlarning borishi ta'lim tizimini ham tubdan isloh qilishni taqozo etmoqda. Chunki, har bir jabhaning taraqqiyoti o'sha soha mutaxassislarining bilimi, idroki, tafakkuri va malakasi, dunyodagi shu yo'nalishning rivojlanish tendensiyalarini qanchalik o'zlashtirganligi bilan belgilanadi. Mazkur maqolada, O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimiga raqamli texnologiyalarni tadbiq etish ijtimoiy zarurat sifatida ko'rib chiqiladi, "raqamlashtirish" jarayoni tushunchasiga izoh beriladi, raqamli texnologiyalarning avzalliklari va ta'limda raqamli texnologiyalarni o'qitish sifatini saqlab qolgan holda samarali qo'llash shartlari keltirib o'tiladi.

Kalit so'zlar. Raqamli texnologiyalar, raqamlashtirish, ma'lumotlarni izlash va saralash, raqamli iqtisodiyot.

Сегодняшние реформы на социально-экономическом и политическом фронтах, которые проходят в нашей стране, требуют кардинальной реформы и системы образования. Потому что прогресс каждого направления определяется знаниями, восприятием, мышлением и компетентностью специалистов в этой области, тем, насколько они усвоили тенденции развития этого направления в мире. В данной статье рассматривается внедрение цифровых технологий в систему образования в Республике Узбекистан как социальная необходимость, дается разъяснение понятию процесса "цифровизация", приводятся преимущества цифровых технологий и условия эффективного применения цифровых технологий в образовании с сохранением качества преподавания.

Ключевые слова. Цифровые технологии, оцифровка, поиск и сортировка данных, цифровая экономика.

The progress of today's reforms on the socio-economic, political fronts in our country also necessitates a radical reform of the educational system. Because, the progress of each aspect is determined by the knowledge, perception, thinking and qualifications of specialists in the same field, how much the world has mastered the development trends of this direction. In this article, the implementation of digital technologies in the educational system in the Republic of Uzbekistan is considered as a social necessity, the concept of the "digitization" process is explained, the advantages of digital technologies and the conditions for effective application of digital technologies in education, while maintaining the quality of their training.

Key words. Digital technologies, digitization, data search and sorting, digital economy.

Raqamli texnologiyalar asta-sekin kundalik hayotning har qanday sohasining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bugungi kunda hayotning barcha sohalari faoliyatini elektron, kompyuter, tarmoq va boshqa muhim avtomatlashtirilgan texnologiyalarsiz tasavvur qilish qiyin. Aloqa va xarid qilishdan tortib, mahsulot ishlab chiqarish va kompaniyaning mustaqil "ishi"ga qadar hamma narsa raqamli muhitga o'tmoqda. Shu sababdan, jahon iqtisodiyoti rivojlanishining yangi paradigmasida raqamli texnologiyalar ijtimoiy farovonlikning o'sishini belgilaydigan asosiy ishlab chiqarish manbai sifatida qaraladi.

Mamlakatimizda ham raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta‘lim, sog‘liqni saqlash va qishloq xo‘jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta‘minlashni ko‘zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlangan. Bu o‘zgarishlar turli sohalarning rivojlanishi, insonlarning kasbiy va shaxsiy o‘sishi kabi ijobiy natijalarga olib kelmoqda. Jumladan, ta‘lim tizimida ham axborot-kommunikativ va raqamli texnologiyalarning ahamiyati katta. Oliy ta‘lim muassalarida ta‘lim jarayoniga Moodle elektron ta‘lim tizimini joriy etilishi, onlayn kurslari tashkillashtirilishi, aralash (blended) kurslarni tatbiq etilishi, ochiq resursli (MOOC – Massive Open Online Course) kurslarni faoliyat olib borishi mamlakatimizda raqamli texnologiyalarni ta‘lim sohasini rivojlantirayotganligiga yaqqol misol bo‘la oladi.

Hozirgi vaqtda “raqamlashtirish” atamasi tor va keng ma‘noda qo‘llanilmoqda. Tor ma‘noda raqamlashtirish axborotning raqamli shaklga aylanishini anglatadi, bu ko‘p holatlarda xarajatlarning pasayishiga, yangi imkoniyatlarning paydo bo‘lishiga olib keladi.

Keng ma‘noda «raqamlashtirish» jarayoni, odatda, raqamli texnologiyalarni keng qo‘llash va assimilyatsiya qilish tashabbusi bilan boshlangan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishni anglatadi. Unga axborotni yaratish, qayta ishlab almashish va uzatish texnologiyalari kiradi.

A. Marey fikricha, raqamlashtirish – bu bizning fikrlash tarzimiz, harakatimiz, atrof-muhit va bir-birimiz bilan aloqa qilishimizning paradigmal o‘zgarishi, ya‘ni raqamlashtirishni aloqa va o‘zaro munosabat paradigmasining o‘zgarishidir.

E.L. Vartanova, M.I. Makseenko, S.S. Smirnovlar ta‘kidlashlaricha, raqamlashtirish – bu nafaqat ma‘lumotni raqamlashtirish, balki infratuzilmaviy, boshqaruv, xulq-atvor, madaniy tabiatning kompleks yechimi, ya‘ni internet va mobil aloqani rivojlantirish raqamlashtirishning asosiy texnologiyalari degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Bugungi kunda axborot va bilim jamiyat taraqqiyotining asosi bo‘lib, unga an‘anaviy tushunchalar va modellar qo‘llanilmaydi. L.V. Shmelkova ta‘kidlaganidek, raqamli iqtisodiyotga mos keladigan shaxsning eng muhim xususiyati, bu raqamli texnologiyalarga egalik qilish va ularni kasbiy faoliyatda qo‘llashdir. Raqamli texnologiyalar, bir tomondan, ishlab chiqarish hajmi va samaradorligini yanada oshirishga yordam beradi, boshqa tomondan, ularga turli sohalarda individual yondashishga imkon beradi.

Ta‘kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi ‘‘Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g’risidall’’gi PQ-4699-sonli Qarori qabul qilindi. Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni yanada rivojlantirishning asosiy vazifalaridan biri, bu, ta‘lim tizimining barcha bosqichlarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va zamonaviy iqtisodiyot uchun zarur bo‘lgan raqamli bilimlarning darajasini oshirish, ta‘lim infratuzilmasini takomillashtirish, shuningdek, ‘‘Besh tashabbus’’ loyihasini amalga oshirish doirasida 2022-yilga qadar respublikamizning barcha hududlarida raqamli bilimlarga asoslangan o‘qitish markazlarini ochishdir.

Ma‘rifatli va rivojlangan mamlakatlarda muvaffaqiyat bilan qo‘llanib kelayotgan innovatsion texnologiyalarni o‘rganib, xalqimizning milliy pedagogika an‘analaridan

hamda ta‘lim sohasining shu kundagi holatidan kelib chiqqan holda O‘zbekistonning milliy pedagogik texnologiyasini yaratish lozim. Respublikamizning pedagogika sohasida faoliyat yuritayotgan olim va amaliyotchilari ilmiy asoslangan hamda O‘zbekistonning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan ta‘lim texnologiyalarini yaratish va ularni tatbiq etishga intilmoqdalar.

Oxirgi 15 yil ichida hayotimizda mobil qurilmalarning so‘nggi avlodlarini kirib kelishi, ulardan foydalangan holda Internet tarmog‘i orqali dunyoda bo‘layotgan voqea va hodisalarni tezkor ravishda kuzatib borish hamda barcha turdagi materiallarni (video, audio, matn, 3D, 5D, 7D grafikalar) tezkorlik bilan qabul qilish, saqlash va uzatish imkoniyatlari tug‘ladi hamda raqamli texnologiyalarning vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Raqamli texnologiyalarning vujudga kelishi har kuni an‘anaviy o‘qitish usullarini almashtirmoqda. Auditoriyalar qanchalik shiddat bilan o‘zgarib borayotganligi sabab, eski usullarni unutib, raqamli texnologiyalarga asoslangan yangi o‘qitish usullarini joriy qilish maqsadga muvofiq. Raqamli texnologiyalardan foydalangan holda masofaviy o‘qitishni tashkil etish qog‘oz va daftarlar o‘rniga oddiy planshetlardan, murakkab dasturlar va raqamli jihozlardan foydalanishni o‘z ichiga oladi.

Ta‘lim oluvchilarning xalqaro miqyosda harakatlanishi, ma‘lumotlarni izlash va saralash, istalgan joyda va vaqtda bilim olish va boshqa ko‘pgina afzalliklar raqamli texnologiyalarni ta‘limda qo‘llashni qulay ekanligidan dalolat beradi.

Raqamli texnologiyalar: texnologiyalarning ta‘lim olish va o‘qitishda ta‘lim beruvchi va o‘rganuvchining faoliyatini engillashtiradi; ta‘lim jarayonini qiziqarli qilishga yordam beradi; baholash, axborotlarni saralash, boshqarish, ma‘lumotlarni birlashtirish, muloqot qilish, ular va ota-onalar orasidagi aloqalarni rivojlantirish, o‘qituvchilararo hamkorlik, kasbiy rivojlanish kabi ma‘lum maqsadlar uchun xizmat qiladi.

Ta‘lim sohasidagi bu tendensiyaning vazifasi nafaqat ta‘lim beruvchi va o‘quvchilarning kompyuter savodxonligini oshirish va axborot texnologiyalaridan maqsadli foydalana olishi, balki o‘rganuvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga, o‘z fikrini namoyon qila olishga undaydi, ularning kommunikativ malakalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu borada YUNESKO va NMC Horizon media konsorsiumining hisobotiga asosan raqamli savodxonlikning ta‘limning ajralmas qismiga aylanib borayotgani sababi sifatida uning ta‘lim oluvchida hayotiy malakalarni shakllantira olishi, talabaning kelgusida ish bilan ta‘minlanishida, ta‘lim olishini o‘zi mustaqil va uzluksiz ta‘minlay olishi qayd etilgan.

Ta‘limda raqamli texnologiyalarni o‘qitish sifatini saqlab qolgan holda samarali qo‘llash uchun quyidagi vazifalar muvaffaqiyatli hal etilmog‘i dakor:

– birinchidan, albatta mamlakatimizda Internet infratuzilmasini yaxshilashimiz, mobil operatorlar tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish va eng muhimi aholining, ayniqsa, talaba yoshlarni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining so‘ng yutuqlarini o‘zlashtirishga shart-sharoitlar hamda imtiyozlar yaratib berish lozim;

– ikkinchidan, o‘quv jarayonini tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘lamini kengaytirish va axborot resurslari, o‘qitish vositalari va masofaviy o‘qitish texnologiyalarini rivojlantirish, ijodkor talabalarni universitetni raqamlashtirish loyihalariga jalb qilish bilan oliy ta‘lim muassasalari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarga o‘zgartirish kiritish bo‘yicha vakolatli organlarga takliflar berish, yuqori samaradorlikka ega raqamli qurilmalar bilan jihozlangan tuzilmalar, o‘quv xonalari, laboratoriyalar, mediastudiyalar va boshqalarni o‘z ichiga olgan markazlarni

tashkil etish hamda unda orttirilgan tajribani O‘zbekistonning barcha oliy ta‘lim muassasalarida qo‘llash;

– uchinchidan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta‘lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta‘minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish;

– to‘rtinchidan, interfaol taqdimot tizimlaridan foydalanish, ma‘ruza va seminar darslari uchun internet bilan bog‘liq holda interfaol va multimediali taqdimotlarni ishlab chiqish kabi mavzular bo‘yicha o‘qituvchilarning malakasini oshirish uchun kurslarni tashkil qilish va o‘tkazish;

– beshinchidan, real vaqt rejimida interfaol taqdimot tizimlari, videokonferensaloqa tizimlari, virtual zallar, elektron resurslardan foydalanib istalgan vaqtda masofaviy o‘qitish jarayonini amalga oshirish.

– oltinchidan, bulutli texnologiyalar, virtual voqelik, kengaytirilgan voqelikdan foydalanish hamda didaktik materiallar va tajriba dizaynlarini ishlab chiqishda 3D printerini qo‘llash, raqamli didaktika va raqamli ta‘lim modellarini qo‘llash, o‘qituvchilar va talabalar uchun loyihalar, diplom ishlari, ilmiy izlanishlar va boshqalarini muhokama qilish uchun ilmiy veb-saytlar ishlab chiqish lozim. Shundagina, biz raqamli texnologiyalardan foydalanib ta‘lim sifatini tushirmagan holda talaba-yoshlarga bugungi kun talabi darajasida bilim olishlariga erishamiz.

Xulosa qilib aytganda, o‘qituvchining obro‘si va uning faoliyatining samaradorligi faqatgina kurs mazmunidagi bilimlar darajasi va uning pedagogik qobiliyatiga emas, balki muayyan o‘quv materialini to‘plash, qayta ishlash va o‘qitishda o‘qituvchining qanchalik zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, raqamli asrda ta‘lim qayta ko‘rib chiqilishi va ta‘lim paradigmasi o‘zgartirilishi shart, chunki talabalar ortiq an‘anaviy uslubda o‘qishni xohlamaydilar va o‘qituvchilar ham bu kabi odatiy usulda o‘qitishni davom ettirishlari kerak emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. ‘‘Raqamli O‘zbekiston — 2030’’ strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni// https://lex.uz/docs/5030957.

2. Кешелава А.В., Буданов В.Г., Румянцев В.Ю. и др. (2017). Введение в ‘‘Цифровую’’ экономику - ВНИИ Геосистем, – С. 28.

3. Исследование российского рынка онлайн-образования и образовательных технологий [Электронный ресурс]. — Режим доступа: https://edmarket.digital/.https://lex.uz/docs/4800657

Sabina XOLTO‘RAYEVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

BOLALARNI MAKTAB TA’LIMIGA TAYYORLASHDA TAYANCH KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASPEKTLARI

Annotatsiya

Maqolada bolalarni maktabga tayyorlashda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish va ularning maktabga qiyinchiliklarsiz moslashishlari haqida fikr yuriilgan. Shuningdek, maktabgacha o‘z navbatida bolaning diqqati hamda irodasi kabi muhim xislatlarni o‘stirishga va mustahkamlash ularni maktabga tayyorlash tayanch kommunikativ, ijtimoiy shaxsiy xatti-harakatlari aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Tayanch kompetensiyalarni shakllantirish, ularning maktabga qiyinchiklarsiz moslashishlari, ehtiyoj, kengroq doiradagi munosabatlar.

В статье рассматривается формирование базовых компетенций в подготовке детей к школе, их адаптация к школе без трудностей. Также были упомянуты коммуникативные, социально-личностные поведения, которые в свою очередь являются основой подготовки ребенка к школе, воспитания и закрепления таких важных качеств, как внимание и воля.

Ключевые слова. Формирование базовых компетенций, их адаптация к школе без затруднений, потребность, более широкий круг взаимоотношений.

The article suggests that the formation of backbone competencies in the preparation of children for school, is their adaptation to school without difficulties. Also mentioned are the basic communicative, social personal behaviors that prepare them for school to grow and strengthen important qualities such as the attention and will of the child in the preschool part.

Key words. The formation of base competencies, their adaptation to school without difficulties, the need, relationships in a wider circle.

Respublikamizda so‘ngi yillarda ta’lim tizimida tub burishlar yuz berdi desak, mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Ta’lim tizmining barcha yo‘nalishlarida xorijiy tajribalar asosida yangiliklar kiritish, ularni amaliyotga joriy etish bo‘yicha uzluksiz ishlar amalga oshirilmoqda. Ta’lim sohasining boshlang‘ich bo‘g‘ini bo‘lmish maktabgacha ta’lim sohasiga qaratilayotgan e’tibor, albatta, natijasiz qolmadi. Qamrov darajasining oshishi, moddiy texnik bazaning mustahkamlanishi, kadrlar salohiyatining oshishi, bu borada amalga oshirilayotgan ishlarning amaldagi natijasidir. Maktabgacha ta’limda sifat va samaradorlikni oshirishga qaratilgan bir qancha qonunlar, farmonlar, qarorlar ishlab chiqildi. Bunga yaqqol misol qilib 2016-yilning 29-dekabrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ‘‘2017-2021-yillarda Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘grisida”gi PQ-2707-sonli Qarorini keltirishimiz mumkin. Makur qarorda Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy texnika bazasini yanada mustahkamlash, maktabgacha ta’lim tizimi tarmog‘ini yanada kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, talim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tadbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun sharoit yaratish, asosiy maqsad qilib belgilandi.

Bolalarning o‘qish faoliyatiga oid fikrlar qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy asarlarida ham o‘z aksini topgan. Uning fikriga ko‘ra, bilim olish uchun o‘quvchilarda avvalo intilish va qiziqish bo‘lishi kerak. Darhaqiqat, nimanidir o‘rganish, tadqiq qilish uchun insonda intilish, harakat va qiziqish bo‘lmasa, u hech narsaga erisha olmaydi. Ilm olishning muhim yo‘llaridan biri inson hammani o‘ziga do‘st tutishi va boshqa insonlarga ham yaxshilik qila olishi lozim. Olimning mazkur fikrlarini fan tilida o‘quv faoliyatiga nisbatan ehtiyoj tug‘ilsagina o‘quv motivlari shakllantirilishi mumkin, deya talqin qilsa bo‘ladi.

Bolalarni maktabga sifatli tayyorlash ularni erta yoshdanoq har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalasidir. Bolalarni maktabga tayyorlashda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish ularning maktabga qiyinchiklarsiz moslashishlariga asos bo‘ladi.

Kompetensiya – bolaning bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlari majmuidir.

Kompetentli bola o‘z bilim, ko‘nikma va malakalarini muayyan vaziyatda safarbar qilishi va qo‘llashi, o‘z maqsadiga erishishi va rivojlanishning har bir bosqichida yoshiga mos keladigan vazifalarni hal qilishi mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim berishda kompetensiyaviy yondashuv bolalarning bilish bilan bog‘liq bo‘lgan ehtiyojlari, muammolar va imkoniyatlarga samarali javob berish qobiliyatini shakllantirish, axloqiy me’yorlar va qadriyatlarni rivojlantirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, shaxsiy (“Men” konsepsiyasi) shakllantirishni o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston respublikasining “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari”da 3 dan 7 yoshgacha bo‘lgan davr maktabgacha yoshi davri ekanligi nazarda tutilgan. Davlat talablarida bolalarning beshta rivojlanish sohalari bo‘yicha talablar keltirib o‘tilgan bo‘lib, bu talablarning bajarilishida tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish alaohida ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasida juda tez sifat o‘zgarishlari bo‘lishini inobatga olgan holda 3-davrga (3-4 yosh) kichik maktabgacha davri (4-5 yosh), o‘rta maktabgacha davr (6-7 yosh) va katta maktabgacha davr yoshlarga ajratish mumkin. Bola rivojlanish jarayonida kichik yosh davridanoq insoniyat qo‘lga kiritgan barcha yutuqlarni faol ravishda o‘zlashtirib, egallab boradi. Bunda predmetlar olamini, ular yordamida amalga oshiriladigan xatti-harakatlarni, tili, odamlar orasidagi munosabatlarni egallab olishi, faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning o‘sib borish, katta yoshli kishilarning bevosita yordamida amalga oshirilib borilmog‘i kerak. Asosan, shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga beriladigan, tarbiya, ularning murakkab harakatlarini o‘zlashtirish, elementar gigiyena, madaniy va mehnat malakalarini shakllantirish, nutqini rivojlantirish hamda ijtimoiy axloq va estetik didining dastlabki kurtaklarini hosil qilish davridir.

Mashhur rus pedagogi Lesgaftning fikricha, insonning maktabgacha yoshidagi davri shunday bir bosqichki, bu davrda bolalarda xarakter xususiyatlarining namunalari shakllanib, axloqiy xarakterning asoslari yuzaga keladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ko‘zga tashlanadigan o‘quvchilik xususiyatlaridan biri, ularning harakatchanligi va taqidchanligidir. Bola tabiatining asosiy qonunini shunday ifodalash mumkin: bola uzluksiz faoliyat ko‘rsatishni talab qiladi, lekin u faoliyat natijasidan emas, balki faoliyatning bir xilligi va surunkaliligidan toliqadi. Kattalar va tengdoshlari bilan bo‘lgan munosabat orqali bola axloq me’yorlari, kishilarni anglashi, shuningdek, ijobiy va salbiy munosabatlar bilan tanisha boshlaydi. Maktabgacha

yoshidagi bola endi o‘z gavdasini yaxshi boshqara oladi. Uning harakati muvofiqlashtirilgan holda bo‘ladi. Bu davrda bolaning nutqi jadal rivojlana boshlaydi. U yangiliklarni egallashga nisbatan o‘zi bilganlarini mustahkamlashga ehtiyoj sezadi. o‘zi bilgan ertagini qayta-qayta eshitish va bundan zerikmaslik, shu davrdagi bolalarga xos xususiyatdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ehtiyojlari va qiziqishlari jadal ravishda ortib boradi. Bu avvalo, keng doiraga chiqish ehtiyoji, munosabatda bo‘lish, o‘ynash ehtiyojlarinig mavjudligidir.

Maktabgacha yoshidagi bolalar nutqni bir muncha to‘la o‘zlashtirganlari va haddan tashqari harakatchanliklari tufayli ularda o‘zlariga yaqin bo‘lgan katta odamlar va tengdoshlari bilan munosabatda bo‘lish ehtiyoji tug‘iladi. Ular tor doiradan kengroq doiradagi munosabatlarga intila boshlaydilar. Ular endi qo‘ni-qo‘shnilarning bolalari bilan ham jamoa bo‘lib o‘ynashga harakat qiladilar. Hamma narsani bilib olishga bo‘lgan ehtiyoj kuchayadi. Maktabgacha yoshdagi bola tabiatiga xos bo‘lgan kuchli ehtiyojlardan yana biri, uning har narsani yangilik sifatida ko‘rib, uni har tomonlama bilib olishga intilishidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar hayotida va ularning psixik jihatidan o‘sishida qiziqishning roli kattadir. Qiziqish xuddi ehtiyoj kabi, bolaning biror faoliyatga undovchi omillardan biridir. Shuning uchun ham qiziqishni bilish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan murakkab psixik hodisa, desa bo‘ladi. Bolaning kamol topishida qiziqishning ahamiyati shundaki, bola qiziqqan narsasini mumkin qadar chuqurroq, bilishga intiladi va uzoq vaqt davomida qiziqqan narsasi bilan shug‘illanishdan zerikmaydi.

Maktabgacha o‘z navbatida bolaning diqqati hamda irodasi kabi muhim xislatlarni o‘stirishga va mustahkamlash ularni maktabga tayyorlash tayanch kommunikativ, ijtimoiy shaxsiy (“Men” konsepsiyasini qurish, bilish, kommunikativ kompetensiya yuqoridagi xatti-harakatlarini to‘laqonli rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash jarayonida alohida ahmaiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2707-sonli Qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 1-son, 11-modda, 35-son, 923-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.07.2018-y., 06/18/5483/1594-son; 01.01.2020-y., 07/20/4555/4257-son

2. Abu Rayhon Beruniy. Tarayxalar (Javohirot kitobidan) − T.: Meros, 1991. − 47 b.

3. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” davlat o’quv dasturi /takomillashtirilgan ikkinchi nashr/ – T., 2022.

4. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari. – T.,2018-yil 18-iyun, 1-mh-son

5. Xalilova Dilnoza Furqatovna. Bo‘lajak tarbiyachilarning pedagogik faoliyatiga kreativ yondashuv. “PEDAGOGS” international research journal ISSN: 2181 4027 _ SJIF : 4.995 / www.pedagoglar.uz Volume - 7, Issue- 1, April -2022. 166.

6. Djamilova N., Kim I., Marasulova D., Imamova N., Ismanova G. (2022). Ecological Culture Development of Independent Learning, Creativity, Integrative Technology and Logical Thinking. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 2524-2529.

7. Махмутазимова Ю.Р. (2019). Роль воспитателя в детском саду в формировании личности ребенка. Actual Problems of Applied Sciences Journal World, (3), – С. 24-28.

Shuxrat BOYJIGITOV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

O‘QUVCHILARNING INTELLEKTUAL IJODIY QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISHDA FINLANDIYA TA’LIM TIZIMI

Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘quvchilarning intellektual ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda finlandiya ta’lim tizimi, materiallarni o‘zlashtirishdagi umumiy barqaror muammolar bilan bog‘liqligi, shuningdek, Finlandiya maktablarida matematika o‘qitish metodikasi haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar. Finlandiya, metod, korreksion, pedagog, intellektual, ijodiy qobiliyat, aloqadorlik orqali qiziqtirish, xususiyat, amaliyot.

В данной статье представлена информация о финской системе образования в формировании интеллектуальных творческих способностей учащихся, об общих устойчивых проблемах усвоения материала, а также о методике преподавания математики в финских школах.

Ключевые слова. Финляндия, метод, коррекционная, педагогическая, интеллектуальная, трудовая способность, заинтересованность через взаимосвязь, особенность, практики.

This article presents information about the Finnish education system in the formation of intellectual creative abilities of students, about the general persistent problems of mastering the material, as well as about the methodology of teaching mathematics in Finnish schools.

Key words. Finnish, method, correction, pedagogy, intellectual, job ability, interest through engagement, feature, practice.

Shaxs mustaqil fikrga ega bo‘lgandagina jamiyatda ijtimoiy faol fuqaroga aylanadi va o‘z sohasining mahoratli mutaxassisi sifatida millat ijtimoiy tafakkurining rivojiga o‘z ta’sirini ko‘rsata oladi. Shuning uchun maktabga ilk qadam qo‘ygan bolani dastlabki o‘qish kunlaridan boshlab mustaqil fikrlashga o‘rgatib borish kerak.

Finlandiya maktablarida ta’lim tizimi yuqori darajada rivojlangan va katta yutuqlarga erishgan. Hech kimga sir emaski, bugungi kunda Finlandiya maktablarida matematika o‘qitish metodikasi eng yuqori darajada bo‘lib, shulardan bitta oddiy misol keltiradigan bo‘lsak, Finlandiyada fandan yuqori va past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bir biriga yordamchi yoki o‘quvchi bir-biriga ustoz metodi, yanayam aniqroq aytadigan bo‘lsak, juft yoki toq metodida o‘qitish ham ommalshgandir. Juft metodida yuqori va past o‘zlashtiruvchi ikkita o‘quvchiga dars o‘tiladi va past o‘zlashtiruvchi o‘quvchi tushunmagan qismini o‘quvchining tushunishi oson bo‘lgan atamalari bilan yuqori o‘zlashtiruchi o‘quvchi past o‘zlashtiruvchi o‘quvchiga tushuntiradi. Toq usul esa, past o‘zlashtiruvchi o‘quvchi bilan fan o‘qituvchisi shug‘ullanadi, undan keyin maktabning to‘garak o‘tuvchi o‘qituvchisi shug‘ullanadi va oxirgi bosqichda esa past o‘zlashtiruvchi o‘quvchining ota-onasi shug‘ullanib boshqa sinfdagi tez o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarga yetib olishlariga yordam berishadi. Bu ikkita metodning afzalliklari juda samarali natija berishida bo‘lib, bir necha yillardan beri sinalgan metodlardan biri bo‘lib hisoblanadi.

O‘qituvchilari tomonidan bu metod a’lo darajada o‘zlashtirilgan va amaliyotda tatbiq etib kelinmoqda. Bizning asosiy maqsadimiz bu ulkan tajribalarni o‘zimizni ta’lim tizimizga joriy etib, matematika fanini o‘qitishda Finlandiya matematika metodlarni joriy etish hamda o‘quvchi yoshlarni matematika faniga qiziqishini oshirishdir.

Finlandiyada shunaqangi ta’lim borki, bu Korrektsion ta’lim — materialni o‘zlashtirishdagi umumiy barqaror muammolar bilan bog‘liq. Masalan, bu ta’lim olib boriluvchi fin tilini tushunmaslik yoki eslab qolish yo matematik qobiliyatining yaxshi emasligi, yoxud ba’zi bolalarning asotsial xatti-harakatlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Korreksion ta’lim kichik guruhlarda yoki individual tarzda o‘tkaziladi.

“Yo hayotga tayyorlaymiz, yoki – imtihonlarga. Biz birinchisini tanlaymiz”, - deydi finlar. Shuning uchun Finlandiyadagi maktablarda imtihonlar yo‘q. Nazorat ishlari va oraliq test sinovlari o‘qituvchining qaroriga qarab belgilanadi. Umum ta’lim maktabini tugallashda faqat birgina majburiy standart test o‘tkaziladi. Shunisi diqqatga sazovorki, o‘qituvchilar uning natijalari uchun alohida qayg‘urishmaydi, test natijalari uchun birovning oldida javob ham berishmaydi, bolalar ham unga maxsus tayyorgarlik ko‘rishmaydi. Bizning maktablarimizdachi?! Bizning ta’lim tizimimizda faqat test sinovlar bilan ishlaymiz, xuddiki hayotga o‘sha test sinovidan o‘tishimiz uchun kelgandekmiz. Maktabni tamomlayotganda test sinovi, oliy o‘quv yurtiga kirish uchun test sinovi va ba’zida ishga kirish uchun ham test sinovi.

Finlandiya maktablarida hayotda kerak bo‘ladigan bilimlar beriladi. Masalan, biror bir qurilmaning tuzilishi ularga kerak bo‘lmaydi, uni o‘rganishmaydi ham. U yerdagi bolalar bolalikdan portfolio, shartnoma, bank kartasi nima ekanini yaxshi bilishadi. Merosdan soliq fozini yoki kelgusidagi daromadlarini hisoblay olishadi, internetda tashrif-saytini yarata olishadi va hok. Agarda mana shu ta’lim metodlarini o‘zimizning maktablarimizda qo‘llab ko‘rsak, bizda ham o‘sish bo‘ladi. Chunki bizlarda o‘quvchilar qiziqmagan fanini ham majburlab o‘rgatiladi. Ba’zida bu fan unga umuman kerak emasdek, tuyuladi.

O‘qishni istagan odam o‘qiydi. Pedagoglar o‘quvchining e’tiborini qaratishga harakat qilishadi, lekin uning o‘rgatilayotgan fanga qiziqishi yoki qobiliyati bo‘lmasa, darrov ‘‘ikki’’ baho bilan ‘‘siylashmaydi’’, bolani kelgusida uncha murakkab bo‘lmagan, amaliy jihatdan foydali bo‘lgan kasbga yo‘naltirishadi. Hamma ham samolyot ixtiro qilishi shart emas, avtobuslarni ham kimdir boshqarishi kerak-ku, axir!

Bunga ham o‘rta maktabda chora ko‘riladi – muayyan o‘smir litseyda bilimlarini davom ettirishi kerakmi yoki olgan bilimlari yetarlimi, professional kasb-hunar maktabiga borish kerakdir, ehtimol. Ta’kidlash joizki, bu ikki yo‘l ham mamlakatda birdek qadrlanadi. Har bir bolaning u yoki bu faoliyatga moyilligini aniqlash ‘‘kelajak o‘qituvchisi’’ tomonidan test va suhbatlar yo‘li orqali amalga oshiriladi.

Umuman olganda, Finlandiya maktabida ta’lim jarayoni yumshoq, biroq bu maktabni jiddiy qabul qilmasa ham bo‘ladi, degani emas. Maktab rejimiga rioya qilish majburiy. Barcha o‘tkazib yuborilgan darslarda qayta o‘tirishga to‘g‘ri keladi. Masalan, o‘qituvchi 6-sinf o‘quvchisi uchun o‘z jadvalidan ‘‘bo‘sh soat’’ni belgilaydi yoki 2-sinfning darsiga kirib o‘tiradi. Dars qiladimi, zerikib o‘tiradimi, o‘ziga havola. Kichik yoshlilarga xalaqit bersa, bu hisobga o‘tmaydi, yana boshqa soatda qayta o‘tirishga to‘g‘ri keladi.

O‘qituvchi bergan vazifani bajarmagan, darsda ishlamagan bolaning ota-onasi maktabga chaqirtirilmaydi, tanbeh ham berilmaydi, aqliy qoloqlikda ayblanmaydi

ham. Agar ota-ona ham farzandining bunday xatti-harakatlariga befarq qarasa, bola shunchaki keyingi sinfga o‘tmaydi.

Ona (fin) tili va o‘qish, matematika, tabiat, din (e’tiqodiga qarab) yoki hayotiy tushunchalar (dinga qiziqmaydiganlar uchun), musiqa, tasviriy san’at, mehnat va jismoniy tarbiya. Bir darsda bir yo‘la bir necha fan o‘tilishi mumkin.

3-6 sinflar:

Ingliz tili o‘rgatila boshlanadi. 4-sinfda - tanlov asosida yana bir chet tili: fransuz, shved, nemis yoki rus tillari hamda qo‘shimcha fanlar kiritiladi (tanlov asosida, har bir maktabda har xil): klaviaturada ishlash tezligi, kompyuter bilimlari, daraxt bilan ishlash, xor ijrosi. Deyarli barcha maktablarda musiqiy asboblarda chalishni o‘rgatishadi, bolalar 9 yillik ta’lim davomida barcha musiqiy asboblarida chalishni mashq qilib ko‘rishadi.

5-sinfda biologiya, geografiya, fizika, kimyo va tarix qo‘shiladi. 1-sinfdan 6-sinfgacha deyarli barcha fanlardan bir o‘qituvchi kiradi. Jismoniy tarbiya darsi haftada 1-3 marta istalgan sport o‘yini shaklida o‘tadi (maktabning tanlovi asosida). Darsdan keyin dush qabul qilish majburiy. Adabiyot bizning tushunchamizdagidek o‘qitilmaydi, ko‘proq shunchaki o‘qishni eslatadi.

Xulosa qilib aytganda, Finlandiya tajribasi asosida ta’lim jarayonida integratsion yondashuvlardan foydalanish o‘quvchilarni fanga oid bilimlarni har tomonlama mukammal egallashi, dunyoqarashi va intelektual ijodiy fikrlashi rivojlanadi. Shu bilan birgalikda fanga oid bilimlarni fanlararo aloqadorlik orqali qiziqtirish asosida ma’lumotlarni mazmunan chuqur idrok etadi, o‘z bilimlarini amaliy xususiyatini ochib berish asosida amaliyotda faolroq qo‘llaydi hamda o‘quv jarayonida ortiqcha yuklamalar bartaraf etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Toshpulatova Sh.O. O‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish // Monografiya. – T.: Ta’lim taraqqiyoti. 2017. – 65 b.

2. Petrov G. Oq Nilufarlar yurtida //Matn. – T.: Factor Press. 2021. – 192 b. (N.Sultonmurodov tarjimasi)

3. www.xs.uz 4. www.ziyonet.uz

Baxtiyor O‘TABOYEV,
A. Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti, “Texnologik ta’lim tasviriy san’at fanlari” kafedrasi o‘qituvchisi

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI ME’MORCHILIGI

Annotatsiya

Mazkur maqolada Amir Temur va Temuriylar davrida tasviriy san’at, amaliy san’at, me’morchilik sohalarining rivojlanishi, usta rassomlarga bo‘lgan e’tibor, shuningdek, o‘sha davrda Movorounnahrning ilm fan bilan birgalikda san’at sohasining butun jahonda markazi bo‘lganligi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar. San’at, fan, maqbaralar, portret, ijod, miniatyura, kitobat san’ati, amaliy bezak san’ati.

В этой статье рассказывается о развитии изобразительного искусства, прикладного искусства, архитектуры во времена Амира Тимура и Тимуридов, о внимании к мастерам-художникам в целом в то время, когда Мавераннахр был центром искусства во всем мире вместе с наукой.

Ключевые слова. Искусство, наука, мавзолеи, портрет, творчество, миниатюра, книжное искусство, прикладное декоративное искусство.

This article talks about the development of the fields of Fine Arts, applied art, architecture under Amir Timur and Timurids, the emphasis on Master Artists in general at that time, together with science, Movorounnahr became the center of the art sphere throughout the world.

Key words. Art, science, mausoleums, portraiture, creation, miniature, Biblical Art, Applied decorative art.

Chingizxon barpo qilgan imperiya XII asr oxirlariga kelib qator mustaqil, bir-biriga aloqasi bo‘lmagan davlatlarga ajrala boshladi. Buning ustiga Chingizxon vorislari tomonidan taxt uchun bo‘lgan kurashlar ham bu davlat qudratini susaytira boshlagan edi. Ana shu davrda O‘rta Osiyoda yangi hukmdor Amir Temur maydonga chiqa boshladi. Temur o‘z mavqeini mustahkamlab borib, 1370-yili butun Mavorounnahrni egalladi va Samarqand shahrini o‘z saltanatining poytaxti etib tayinladi. Asta-sekin bu davlat kengayib O‘rta Sharqda yirik davlatga aylandi.

Bu davlat Temur davlati nomi bilan tarixga kirdi. Temur va uning sulolasi davrida O‘rta Sharqda fan, san’at va madaniyat rivoj topdi. Shu davrda ajoyib saroylar, masjid va madrasalar, koshinkor maqbaralar qurildi. Buyuk olimu-fozillar bu davlat shuhratini olamga tanitdilar. Buyuk Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Kamoliddin Behzod kabi olimlar, shoirlar va miniatyura ijodkorlari shu davrda yashab ijod qildilar. Kitobat san’atida yangi kashfiyotlar, ya’ni kitob muqovasini relefli bo‘rtma shakl va tasvirli ishlash yuzaga keldi. Keyinchalik O‘rta Sharq kitobatida keng o‘rin egalladi. Amaliy bezak san’ati nihoyatda keng rivojlandi. Bronza, kumush va oltindan quyma idishlar yasash borasida katta muvaffaqiyatga erishdilar. Ayniqsa, kumush va oltindan nafis buyumlar yasash keng rivojda bo‘lib, saroy ahli talabiga javob berdi. Shu xususda Ispaniya elchisi Klavixo Temur saroyida bo‘lganida oltin va kumushdan ishlangan buyumlarning ko‘pligi, Temurning oltin taxti va stoli, uning dam oladigan xonasida oltindan va qimmatbaho toshlar bilan ishlangan daraxt, undagi mevalar, daraxtda qo‘nib

turgan ajoyib qushchalar bo‘lganligini yozib qoldirgan. Temuriylar davrida an’anaviy me’morchilik shakl va uslublarini qayta ko‘rib chiqildi. Ayniqsa, me’morchilik yodgorliklarini rangli koshinlar bilan boyishi katta badiiy-estetik ahamiyat kasb etdi. Albatta, rangli bezak O‘rta Osiyo an’anaviy me’morchiligining ham ajralmas qismi bo‘lgan. Lekin XIV asrga kelib bino ichki va tashqi pardozida bu uslub alohida o‘rinni egallay boshladi. Sirli sopol taxtachalardan ishlangan rangli naqshlar, XIV asr oxiridan keng tarqala boshlagan o‘yma sirli naqshlar amalga tadbiq etilishi O‘rta Sharq xalqlari ijodiy tafakkurining katta yutug‘i bo‘ldi.

XIV asr oxiri va XV asr boshlarida Samarqandda katta qurilish ishlari olib borilgan. Temur davrida shahar va shahardan tashqarida saroylar qurish, istirohat bog‘lari yaratish keng tus oldi. Temur nafaqat o‘z ona shahri Kesh va poytaxti Samarqandda, balki o‘z mamlakatining boshqa shaharlarida ham qator hashamatli binolar qurdirdi. Jumladan, Tabrizda masjid, Sherozda saroy, Bag‘dodda madrasa, Turkistonda maqbara qurdirganligi shuning isbotidir. Temur davrida ulug‘vor masjidlar barpo etilgan bo‘lib, 1399-1402-yillarda bunyod etilgan Bibixonim jome’ masjidi shular jumlasidandir. Qurilishda Ozarbayjon, Hindiston va Erondan kelgan 200 dan ortiq usta, 500 dan ortiq tosh kesuvchi mehnat qilgan. Qurilishda 95 ta fil ham ishtirok etgan.

Bibixonim masjidi katta to‘rtburchak shaklidagi maydonni egallagan, uning atrofi esa devor bilan o‘rab chiqilgan. To‘rt burchagida minoralar qurilgan. Masjid sharqqa qaragan juda katta peshtoqli darvoza bilan boshlanadi. Masjid chor hovlisi atrofi ustunli ochiq ayvonlar bilan o‘ralgan, ikki yon tomoni va o‘rtasida uncha katta bo‘lmagan peshtoq - gumbazli binolar qurilgan. Hovlining ichkarisida esa 40 metrli peshtoq va uning burchaklarida esa qirrali minora ishlangan. Shu peshtoq bilan masjidni asosiy “muqaddas” yarim sferik gumbazli binosi boshlanadi. Masjid ichki va tashqi tomonini bezagiga alohida e’tibor berilgan. Sirli koshinlar bilan bezatilgan, bino dekoratsiyasida ko‘k va sarg‘ish, yashil rang keng o‘rinni egallaydi. Ayniqsa, moviy rang butun bino koloritida hukmronlik qilib, uning yaxlit va ulug‘vorligini ta’minlab, go‘yo uni cheksiz falak bilan musobaqalashayotgandek, qilib ko‘rsatadi.

Qurilishda Sharq va G‘arbning ustayu-naqqoshlari, me’moru toshtaroshlari ishtirok etganligi yozma manbalardan ma’lum. O‘rta asr me’morchiligining haqiqiy durdonasi bu Temuriylar maqbarasidir. Amir Temur farmoniga binoan qurila boshlangan bu bino O‘rta Sharq me’morchiligida muhim o‘rinni egallaydi. Bino tantanavor monumentalligi va dekorativ qurilganligi bilan ajralib turadi. Bino sodda me’morchilik hajmlardan sakkiz qirrali asos, silindirik baraban va qirrali ko‘k-moviy gumbazdan tashkil topgan. Binoning ichki qismi ham juda serjilo. Uning ichki devorlari marmar bilan pardozlangan o‘yma naqsh hamda rangli va oltin suvi yuritilgan naqshlar bino ichki qismiga alohida fayz kiritgan. Temur davri me’morchiligini “Shohi zinda” me’morchilik kompleksisiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

Afsonaviy Afrosiyob yon bag‘riga joylashgan bu ansanbl XI-XII asrlarda qurila boshlagan maqbaralar o‘rnida barpo etilgan. Bu yer musulmonlarga qadar ham muqaddas sig‘inish joyi bo‘lgan. Temur davrida qurilgan maqbaralar o‘zining badiiy yechimining yuksakligi va yorqin rangdorligi bilan ajralib turadi. Sirli koshin va naqqoshlik san’ati butun ansamblga ajoyib fayz kiritib, davr kishilarning go‘zallik tushunchalarini ifodalaydi. “Bu yer jannat bog‘i, bu yerda baxt yulduzlari ko‘milgan”, deb maqbara peshtoqlarining biriga yozilgan so‘zlarda butun ansamblning g‘oyaviy-badiiy va falsafiy mazmuni yechiladi. Shahrisabzdagi Oqsaroy, Turkistonda Ahmad Yassaviy maqbarasi, Toshkent viloyatida Zangi ota me’moriy obidalari shular jumlasidandir.

Temur va temuriylar davrida tasviriy va amaliy bezak san'ati o'zining haqiqiy gullash davrini boshidan kechirdi. Miniatyura va devoriy rassomlik san'atida nodir asarlar yaratildi. Haykaltaroshlik esa asosan bo'rtma tasvir tarzida namoyon bo'ldi.

Amir Temur davrda monumental rang-tasvir nihoyatda rivojlandi. Bu davrda qurilgan saroy, qasr, masjid va maqbaralar, zodagonlarning xonadonlari turli mavzudagi rasmlar bilan bezatilganligi haqida tarixchilarning yozma bayonlari saqlanib qolgan. Afsuski, bu binolar bizgacha yetib kelmagan yoki ayrim parcha va ko'chirmalarda saqlanib qolgan, xolos. Shularning o'zi ham davr san'ati to'g'risida tasavvur beradi. Jumladan, Shirinbeka Og'a maqbarasi devorlarida tabiat ko'rinishi tasvirlangan bo'lib, daraxtlarda qushlar aks ettirilgan. Bibixonim machiti devorlariga naqshli bezaklar bilan birga tabiat manzarasi rasmlari ishlangan. Bu davrda devoriy rassomlik saroy va qasrlarni bezatishda keng ishlatilgan. Saroy devorlari murakkab syujetli kompozisiyalardan tashkil topgan. Ularda Temurning olib borgan janglari, o'tkazgan bazmlari, o'zi va yaqinlarining portretlari tasviri, ov manzaralari aks ettirilgan. Tarixchi ibn Arabshohning so'zlariga qaraganda, Temurning jasoratini ko'rmaganlar rasmlar orqali bilib olishlari kerak bo'lgan.

Bog'i Shamol saroyi devorlariga ham rassomlik asarlari bilan bezatilgan. Dilkusho saroyi devoriy rasmlarida esa Temurning Hindistonga yurishi tasvirlangan. 1400 yili Hirotda qurilgan bino devorlari ham bezakka boy bo'lib, u yerda Temurning jangu jadallari aks ettirilgan. Amir Temur saroyining yirik musavviri Xo'ja Abdulxay rassomlar ustaxonasining boshlig'i lavozimida ishlagan. Uning ishlash uslubi Samarqand rassomchilik maktabining asosini tashkil etdi. Rassomning bir qator asarlari bizgacha ko'chirmalarda yetib kelgan. "Sher", "Suvdagi o'rdak", "Urushayotgan ikki jangchi" rasmlari shu san'atkor ijodining namunalaridan bo'lib, u ishlanishi, nafisligi va rangi bilan ajralib turadi. Sa'diyning "Guliston" asariga ishlangan rasmda darvish haqida hikoya tasvirlangan. Unda cho'l-sahrodan o'z eshagida qo'shiq va hazil bilan og'ir yo'l qiyinchiliklarni yenggan darvish, uni yo'l davomida kalaka qilib kelgan, o'ziga zeb bergan boy yo'lovchi tasvirlanib, boyning oxir oqibatda ovullardan birida yiqilib o'lganligi hikoya qilinadi.

O'rta Osiyo san'atining yangi bosqichi temuriy Sulton Abu Said nomi bilan bog'liq. U 1451-yili mamlakatdagi notinchliklardan foydalanib qattiq kurashlarda hokimiyatni o'z qo'liga oladi. 1456-yili esa u poytaxtni Samarqanddan Hirotga ko'chirdi. Natijada Movarunnahrda yashab ijod etgan san'atkor va davlat arboblarini shu yangi joyga ko'chib o'tishlariga sabab bo'ldi.

Temuriylar davri san'ati va madaniyati shu yerda o'z rivojini yangi bosqichini boshladi. Temuriyzoda Husayn Bayqaro 40 yildan ortiq hukumronligi davrida mamlakatda kattagina obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi. Bu ishlarda davrning buyuk mutafakkiri, o'zbek she'riyatining yulduzi Alisher Navoiyning xizmatlari katta bo'ldi. Uning rahnamoligida yirik inshootlar, masjid va madrasalar qad ko'tardi. Shu yerda O'rta Sharq miniatyura maktabi o'zining eng yuksak cho'qqisiga erishdi. Temuriylar va shayboniylar davri tasviriy san'atining yirik vakillaridan biri Kamoliddin Behzod bo'lib, Hirotda dunyoga keldi. Ota-onasidan juda erta judo bo'lgan Behzod Alisher Navoiy homiyligida kamol topdi. Shu yerda dastlab xattot va musavvir Mirak naqqosh qo'lida tarbiyalanib, undan tasviriyot va xattotlik sirlarini o'rgandi. So'ngra buxorolik musavvir Usta Jahongirning shogirdi Pir Sayyid Tabriziy qo'lida o'qishini davom ettirdi hamda tezda mohir san'atkor naqqosh va musavvir sifatida tanildi. U o'z davrigacha bo'lgan tasviriy san'at sohasida erishilgan yutuqlarni mukammal egalladi.

Musavvirlikda yuksak insoniy fikrlar va boshqa ilg‘or g‘oyalar bilan sug‘orilgan hayotiy tasvirlari bilan shuhrati orta bordi. Behzod dastlab Alisher Navoiy, biroz keyinroq Husayn Bayqaro kutobxonasida ishladi. Shu davrdan Behzod she’riy munozara va ijodiy majlislarda, anjuman va yig‘ilishlarda qatnashdi, ishlagan tasvirlarini namoyish etib, fikr mulohazalarni eshitdi. Behzod Shayx Sa’diyning “Bo‘ston”, “Guliston”, Alisher Navoiyning “Xamsa”, Amir Xisrav Dehlaviyning “Xamsa”, “Layli va Majnun”, Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarlariga chizgan suratlari bor. Ularda turli voqealar - maishiy hayot, jang va ov voqealari, shahzoda hamda malikalarning rasmlari ishlangan.

Behzod Shayboniyxon xizmatida bo‘lgan kezlari uning portretini ham ishladi. Tasvirda Shayboniyxon oyoqlarini chalishtirib bolishga (yostiqqa) suyangan holda ikki qo‘lini tizzasiga tirab allanimalar haqida o‘ylab yozishga tayyorlangan payti tasvirlangan. Uning kiyimlari oddiy, gavdasi pishiq, hiyla qorin solgan. Uning oldida turgan yozuv ashyolari: siyohdon, qalam, kitob Shayboniyxonning o‘qimishli, bilimdon, har bir ishni puxta o‘ylab amalga oshiradigan shaxs sifatida tasvirlaydi. Asarda tasvirlangan qamchi esa uning qattiq qo‘lligi, mohir chavandozligi ramzi sifatida idrok etiladi. Shayboniyxonning mazkur surati hozir AQSHda shaxsiy kolleksiyada saqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Bakr Muxammad ibn Ja’far Narshaxiy. Buxoro tarixi. – T., 1993.
2. Abdullayev N. O‘zbekiston san’ati tarixi. – T., 2007.
3. Bulatov S., Mansurov O‘. Milliy me’morchilikda amaliy san’at falsafasi. – T., 2005.
4. Vaxidov M.M., Mirzayev Sh.R. Me’morchilik tarixi. 1-qism. Darslik. – T., 2010.

Dildora AXATOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

O‘RTA ASR ISLOM FALSAFASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI TAHLILI

Annotatsiya

Abu Ali Ibn Sino – zamondosh olimlar tomonidan “Shayx ur-Rais” (olimlar yo‘lboshchisi, ustozi), g‘arbda – “Faylsasuflar Sultoni” va “Shifokorlar podshosi” nomi bilan shuhrat qozongan. Maqolada ham olimning ilmiy, falsafiy, ijtimoiy-siyosiy va tabiiy qarashlari juda serqirraligi qayd etiladi. Qaysi fan sohasida qalam o‘rmasin, unga o‘z fikrini qoldira olgan. Mutafakkir o‘z asarlarida ilm va adob-axloq uyg‘unligi, barkamol avlod kamoloti va baxt-saodati, adolat va diyonat, insonlarning o‘zaro do‘stligi hamkorligi, rahbarning burchi va mas’uliyati to‘g‘risida qiziqarli go‘yalari ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar. Ruh, jism, mutafakkur, ta’lim, tarbiya, ma’naviyat, ma’rifat, muloqot.

Абу Али Ибн Сина является лидером и учителем современных ученых, а на западе известен как ‘‘султан философов’’ и ‘‘король врачей’’. В статье также отмечается, что научные, философские, общественно-политические и естественно-научные взгляды ученого весьма разнообразны. Он мог оставить свое мнение в любой области науки. В своих произведениях мыслитель выдвигает интересные идеи о гармонии науки и нравственности, зрелости и счастье совершенного поколения, справедливости и религии, взаимной дружбе и сотрудничестве людей, долге и ответственности руководителя.

Ключевые слова. Душа, тело, мыслитель, образование, воспитание, духовность, просвещение, общение.

Abu Ali Ibn Sina is a leader and teacher of scientists by contemporary scientists, and in the west he is known as “Sultan of Philosophers” and “King of Physicians”. The article also notes that the scientist’s scientific, philosophical, socio-political and natural views are very diverse. He was able to leave his opinion in any field of science. In his works, the thinker has interesting ideas about the harmony of science and morality, the maturity and happiness of a perfect generation, justice and religion, mutual friendship and cooperation of people, the duty and responsibility of a leader. put forward.

Key words. Soul, body, thinker, education, upbringing, spirituality, enlightenment, communication.

Dunyo tamaddunida mashhur nom qozongan, benazir alloma Abu Ali Ibn Sino 980-1037 yillarda yashab ijod etgan. To‘liq ismi Sharifi Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn al-Hasan ibn Alidir. Qomusiy olim, mashhur tabib ibn Sino Buxoroning Afshona qishlog‘ida tavallud topgan. Ibn Sino – taxallusi Sino-doriy tilida gavharlarni teshuvchi ma’nosni anglatadi. Qadimgi yahudiylar tilida Ibn Sinoni Aben Sino, deb ataganlar, keyinchalik esa bu nom Ovropada juda keng tarqalib, Avesenna sifatida ommalashib ketgan (lotincha – Avicenna)[1].

Paduan universitetining professori Ferrarining darsligida (1471) Ibn Sinoning nomidan 3000 marotaba iqtibos keltirilgan bo‘lsa, Roziy va Galendan – 500 marta, Gippoktratdan esa – 140 marta keltirilgan[1]. Shuning o‘zi Ibn Sinoning Ovro‘pada naqadar mashhur ekanligining dalili bo‘la oladi.

[1] https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/abu-ali-ibn-sino-ishq-haqida-risola-1.html

Uyg‘onish davrining buyuk dahosi Leanardo da Vinchi ham Ibn Sinoning asarlari bilan tanish bo‘lgan va ularni o‘rgangan. Uning mashhur zamondoshi Mikelanjelo esa “Boshqalarga ergashib haq bo‘lgandan ko‘ra, nohaq bo‘lsa ham Galen va Avitsenaga ergashgan ma’qulroq”, degan edi[2].

Abu Ali ibn Sino tibbiyotdan tashqari hisob va aljabr bilan ham shug‘ullanib, arab tili va adabiyotini chuqur egallaydi.

Buxorolik tabib Abu Mansur al-Hasan ibn Nuh al-Qumriydan tabiblik sirlarini o‘rganadi. Ibn Sinoning “Kitob ash-shifo”, “Kitob an-najot” (“Kitob ash-shifo”ning qisqartirilgan shakli), “Al-ishorat vat-tanbihot”(“Ishoralar va tanbehlar”), “Kitob al-ishorat fil-mantiq val-hikmat”(“Mantiq va falsafaning ishoralari”), fors tilida yozilgan “Donishnoma”(“-Bilimlar kitobi”) risolalari hamda “Tayr qissasi”, “Salomon va Ibsol”, “Hayy Ibn Yaqzon”, “Yusuf haqida qissa”, kabi falsafiy mazmundagi badiiy qissalari bizga ma’lum. Bundan tashqari, olim botanika, geologiya, mineralogiya, kimyo, astronomiya, matematika va musiqaga oid asarlar ham yozgan. Uning tib ilmiga doir o‘ttizdan ziyod asari bizgacha yetib kelgan bo‘lib, ulardan biri “Tib qonunlari” butun dunyoda ma’lum va mashhurdir.

Ibn Sino nafaqat ulug‘ tabib, balki faylasuf,ustozi avval Arastu va ustozi soniy Muhammad Abu Nasr Forobiyning izdoshi, juda ko‘p ilm-fanlar sohibi hisoblanadi. Rossiya tibbiyot fanlari akademiyasining akademigi B.D. Petrovning ta’biri bilan aytganda: “Ovro‘pada o‘rta asrlarda bilimlarining keng qamrovligi, iste’dodi, mehnatsevarligi va buyuk ijodiy samaralari jihatidan hech kimni unga tenglashtirib bo‘lmaydi”[3].

Ibn Sinoning faylasuf Notiliydan keyingi ustozi – Buxoroda yuksak martabali olim, fiqh, hadis va tafsir, Kalom ilmlari bilimdoni, xorazmlik Abu Bakr ibn Muhammad Baraqiyga atab “Ma’od yoxud azhaviya” (Yorug‘lanish) asarini shu ustoziga bag‘ishlaydi.

“Azhaviya” asarining nomi Qur’oni Karimda uchraydigan “Az-Zuho” – “tong yorishuvi” so‘zidagi falsafiy ma’no – ong yorishuvini ifodalaydi. Inson ongi yorishganda gunoh va savobni farqlaydi. Ibn Sino keyinchalik bu asarni davom ettirib “Ishroq (“Sharqdan quyosh chiqishi”) falsafasi” asarini yozadi. Ibn Sino “Azhaviya” asarida Sharq va G‘arb falsafiy oqimlari, dealiktiklar, zardushtiylar, Moniy izdoshlari va so‘fiylarning haqiqatga yetishish uchun inson o‘z ruhini turli tuban, hayvoniy mayl, istaklardan tozalaydi, kamolot, insoniy fazilatlar hosil qilishi haqidagi fikrlariga munosabat bildiradi. Keyinroq Ibn Sino yunon faylasufi Arastuning “Metafizika” (arabcha “Mo ba’dat-tabia”) asarini qirq marta o‘qib tushunmaganidan so‘ng, ustozi soniy Forobiyning shu asarga sharhini o‘qib, ongi yorishgani va barcha falsafiy muammolarni bilib olganini yozadi. Forobiy ham, Ibn Sino ham Arastu falsafiy merosini o‘rganishda Iskandar (Aleksandr) Afrodiziy sharhlaridan foydalangan edilar.

“Azhaviya” asari arab tilida yozilgan bo‘lib, XII asrda forschaga, so‘ng G‘arb tillariga tarjima qilingan. Asosiy matn qo‘lyozmalari Angliyada Badlean kutubxonasida, Toshkent va Dushanbe Sharq qo‘lyozmalari xazinasida saqlanadi. Asarni fors-tojik tilidan rus tiliga sharqshunos M. Komilov tarjima qilgan. Rus tilidan o‘zbek tiliga Mahkam Mahmudov va Zayniddin Bahriddinov tarjima qilishgan. Shu tarjimani, ya’ni falsafiy risolani qisman bo‘lsa-da talqin qilamiz.

Muallif falsafiy risolani atroflicha tahlil qilib o‘tadi. Aynan “Ma’od” – avd” arabcha “qaytmoq” , ya’ni biron narsaning joylashgan o‘rni yoki holatidan ajralib, yana o‘shanga qaytishini tushuntirib o‘tadi. “Qaytish” haqidagi falsafiy mushohadalarni, dialektik qarashlarni atroflicha talqin qilib o‘tadi. Ruhning tanaga qaytishini dil, ruh – latif jism

[2] https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/abu-ali-ibn-sino-ishq-haqida-risola-1.html

[3] https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/abu-ali-ibn-sino-ishq-haqida-risola-1.html

ekanligini aytganlarni ham ilmiy, ham diniy isbotlashga harakat qiladilar. Tanasux (matempsixoz) oqimi tarafdorlari fikrini ham talqin qilib o‘tadilar. Ulardan birlarining fikrlari, ya’ni o‘simlik va hayvon tanasida ham ruh borligi, boshqasi ruh ko‘chishi faqat hayvon tanasiga xos ekanligini ta’kidlashlarini aytib o‘tadilar.

Ayrim faylasuf va olimlarning Qur’oni Karim haqidagi foydasiz tortishuvlarini tanqid qiladilar: “Ul zot (Alloh) bir, sifatlari ko‘p, garchi Ul zot ko‘plikka manba (Yaratuvchi) bo‘lsa ham, Uning mohiyati hech qanday sababga muhtoj emas. Ikkidan biri: tushunchalar Ollohning haqiqiy mohiyatini chuqurroq bilmoq yoki Ul zot haqidagi foydasiz tortishuvlarga chek qo‘ymoq uchun zarurdir. Tortishuv jarayonida biron xato kelib chiqishi va bundan odamlar gunohkor bo‘lib qolishi mumkin. Biroq bu sohada tortishuv zarur bo‘lsa, unda avval yakkaxudolik (tavhid)ning haqiqiy ma’nosini bilish kerak bo‘ladi”[4]. Va yana fikrlarini aniqroq qilib, ruhni shunday ta’riflab o‘tadilar “… shuni bilki, tanadan ajralgan ruh yana tanaga qaytar ekan, u yoki avvalgi moddasiga qaytadi yoki boshqa jismga ko‘chib o‘tadi”[5].

Yana ushbu risolada ruhning jismga yoki tanaga taalluqliligi, mohiyat va shaklning izohlari – ilmiy asoslab berilgan. Masalan: “… Ammo tekshirishlardan shu narsa aniqlanganki, odamni odam qilib turgan sifatlar, xislatlar, fazilatlar uning mohiyatidir. Odamdagi ana shu mohiyat (aql-idrok, bilim, ma’rifat, adolat, bag‘rikenglik, bunyodkorlik…) uni aziz va mukarram qiladi. Narsalarni anglash, kasb-hunar egallash va o‘zini bilish (hatto o‘z borlig‘i haqida o‘ylaganda badandagi a’zolarini “unutib” qo‘ysa ham) ruh mohiyatidir. Yomonlikdan saqlanish, ezgulikka intilish, yaxshilikdan sevinish, qayg‘u kulfatlardan iztirob chekish va lazzatdan kayf-safo hissini tuyish – barchasi ruh javhariga bog‘liq”[6].

“Tanaga taalluqli bo‘lgan lazzat, yaxshilik va yomonliklar ikkinchi darajali narsalarga kiradi. Bu tananing ruhdan alohidaligini bildiradi”[7]. “Odam badanining jismga a’zo, uzviy bo‘lmagan qismi ruh deb ataladi”[8]. “Odamlar tanaga emas, ruhga orom va lazzat bag‘ishlash uchun intilishlari lozim.

Demak, barcha moddiy narsalar miqdor va mohiyat jihatdan bo‘linadi. Ammo bo‘linmas ruhni “bo‘linadi” deb aytish bema’ni gapdir. Inson ruhi uning mohiyati – vujudini harakatga keltiradi, - deydilar.

Demak, shunday qilib, ruh o‘z mohiyati tufayli o‘z harakatini biladi, ya’ni aqliy, nomoddiy tushunchalarni faqat ruh bilan bila oladi. Bir ruhning harakati ozuqa manbai – modda manbai emasligini bilib oldik. Demak fikrlovchi ruh vosita va moddaga bog‘liq emas. Hissiy a’zolar (ko‘z, quloq, hid, teginish) modda va vositaga qanchalik bog‘liq bo‘lsa, ular o‘z quroli (vositasi) va mohiyatlarini yoki nimanidir fahmlashlari, bilishlari mumkin emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/abu-ali-ibn-sino-ishq-haqida-risola-1.html
2. Sharq yulduzi № 1 2014.

[4] Sharq yulduzi № 1 2014
[5] Sharq yulduzi № 1 2014
[6] Sharq yulduzi № 1 2014
[7] Sharq yulduzi № 1 2014
[8] Sharq yulduzi № 2 2014

Сарвар АШУРОВ,
Научно-исследовательский институт изучения проблем и определения перспектив народного образования имени А. Авлони, магистрант

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕХАНИЗМА ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОГО ПАРТНЕРСТВО В СФЕРЕ ОБРАЗОВАНИЯ КАК ОСНОВА ОБЕСПЕЧЕНИЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УСЛУГ

Annotatsiya

Maqolada davlat-xususiy sheriklikni tashkil qilish va rivojlantirishning prinsiplari va ularning ta'lim tizimidagi o'ziga xos xususiyatlari bayon etilgan. Shuningdek, ushbu masalalarning nazariy jihatlarini tadqiq qilish natijasida davlat-xususiy sheriklikka oid atamalar sharhlangan. Davlat-xususiy sheriklik ishtirokchilari va manfaatdor sub'ektlarining o'zaro bog'liqligiga ham alohida ahamiyat berilgan. Maqolada davlat-xususiy sheriklikning qonunda e'tirof etilgan oltita asosiy prinsiplari ham keltirilgan. Bunga tayangan holda ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib muallif tomonidan yana oltita prinsipni qo'shish lozimligi ilmiy jihatdan asoslangan.

Kalit so'zlar. Davlat-xususiy sheriklik, davlat ijtimoiy sheriklik, jamoat nazorati, davlat sherigi, xususiy sherik, ta'lim sohasi, ta'lim xizmatlari, DXSh prinsiplari, DXSh subyektlari, davlat, investor, aholi.

В статье изложены принципы организации и развития государственно-частного партнерства и их специфика в системе образования. Также в результате исследования теоретических аспектов этих вопросов были интерпретированы термины, относящиеся к государственно-частному партнерству. Особое значение придается также взаимосвязи участников и заинтересованных субъектов государственно-частного партнерства. В статье также представлены шесть основных принципов государственночастного партнерства, признанных в законе. Исходя из этого, особенностей системы образования, автором научно обосновано, что необходимо добавить еще шесть принципов.

Ключевые слова. Государственно-частное партнерство, государственное социальное партнерство, общественный контроль, государственное партнерство, частное партнерство, сфера образования, образовательные услуги, принципы ГЧП, субъекты ГЧП, государство, инвестор, население.

The article describes the principles of the organization and development of publicprivate partnership and their specifics in the education system. Also, as a result of the study of the theoretical aspects of these issues, the terms related to public-private partnership were interpreted. Special importance is also attached to the relationship of participants and stakeholders of publicprivate partnership. The article also presents six basic principles of public-private partnership recognized in the law. Based on this, the features of the education system, the author scientifically proves that it is necessary to add six more principles.

Key words. Public-private partnership, public social partnership, public control, public partnership, private partnership, education, educational services, PPP principles, PPP entities, state, investor, population.

Во всем мире отношения бизнеса и государства являются мощным источником развития современной экономической системы. В последнее десятилетие наблюдается устойчивый рост установления партнерских отношений бизнеса и государства, подкрепленных обоюдными мотивационными установками, обусловливающими возможности эффективного взаимодействия. Зарубежный и отечественный опыт показывает, что успешное социально-экономическое развитие государства не может осуществиться без взаимодействия всех его участников: бизнеса, государства и общества, то есть без реализации государственно-частных проектов. Неслучайно, что последние в годы активно развивается государственно-частное партнерство в области образования.

Необходимо отметить, что данные проблемы пока мало изучены в отечественной науке и по ним недостаточно научных публикаций, адаптированных к реалиям развития непрерывного образования.

Исследуя большое количество источников – как отечественных, так и зарубежных – касающихся развития государственно-частного партнерство в сфере образования, опираясь на большой статистический материал, мировая практика показывает, что наиболее активно государственно-частные партнерства развиваются в инфраструктурных отраслях, в том числе в отраслях социальной инфраструктуры, к которым относится образование.

В наиболее развитых странах государственно-частное партнерство гораздо чаще, чем в каких-либо других областях, используется в образовании и здравоохранении, в связи с необходимостью активного взаимодействия государства и бизнеса при разработке и реализации масштабных программ и проектов, направленных на решение актуальных социально-экономических проблем, причем ключевыми достоинствами такого партнерского сотрудничества является привлечение дополнительных финансовых средств и других ресурсов, повышение гибкости и эффективности управления, уменьшение рисков, получение дополнительных гарантий.

Анализ понятия “государственно-частное партнерство” необходимо начинать с общего определения “партнерство”. В политическом словаре “партнерство” понимается как “форма сотрудничества, участники которой отдают себе отчет в ограниченности объединяющих их целей, интересов, задач, в наличии или возможности возникновения между ними серьезных расхождений, конфликта интересов и, как следствие, прекращения отношений партнерства; в бизнес-словаре партнерство рассматривается как форма организации компании, фирмы, которая создается на основе договора между партнерами, в котором оговариваются их права, обязанности, ответственность и т.д.; в экономическом словаре партнерство – одна из важнейших юридических форм организации предприятия. Партнерство создается на основе договора, которым регулируются права и обязанности пайщиков (партнеров), порядок возмещения общих расходов и распределения прибыли, сроки деятельности партнерства, условия его роспуска и т.д.”. В толковом словаре партнерство понимается как “добровольное соглашение о сотрудничестве между двумя или более сторонами, в котором все участники договариваются работать вместе для достижения общей цели или выполнения определенной задачи и разделять риски, ответственность, ресурсы, правомочность и прибыль”.

Каждое партнерство / сотрудничество преследует как общие цели, так и индивидуальную выгоду. На современном этапе развития многие бизнесмены ста-

раются сделать свой бизнес социально ответственным, т.е. ориентированным в том числе на общественное благо и пользу. Таким образом, частный сектор экономики принимает участие в реализации проектов социальной сферы, а ответственность за данный сектор несет государство.

Государственно-частное партнерство является неотъемлемой частью сильного, развивающегося современного государства. Существует множество определений государственно-частного партнерства. Всемирный банк даёт наиболее общее определение государственно-частного партнерства: государственно-частное партнёрство – это соглашение между публичной и частной сторонами по поводу производства и оказания инфраструктурных услуг, заключаемое с целью привлечения дополнительных инвестиций и, что ещё более важно, как средство повышения эффективности бюджетного финансирования.

Государственно-частного партнерства реализуется за рубежом в сфере образования по таким направлениям, как образовательные ваучеры от предприятий и стипендии; частное управление государственными школами; участие частного сектора в материально-техническом обеспечении образовательного процесса; контракты на предоставление вспомогательных профессиональных услуг. Вышеперечисленные направления государственно-частного партнерства в образовании актуальны тем, что они несут много преимуществ. Они, во-первых, отслеживают эффективное распределение инвестиций; во-вторых, при тесном сотрудничестве делятся опытом; в-третьих, предоставляют возможности государству удовлетворять новый спрос и облегчают процесс внедрения инноваций в обучение.

Значение качественного образования для продвижения по пути экономики знаний, требует обеспечения условий для формирования национальной инновационной системы, в рамках которой осуществляется интеграция и социальное взаимодействие государства и бизнеса.

Основными причинами неудач реализации ГЧП в развивающихся странах является: непродуманное распределение рисков, недостаточное финансирование государственно-частного партнерства - проектов, коррупция и завышение стоимости проектов. Вышеперечисленные препятствия очень значимы и для нас, так как государственно-частное партнерство – одно из главных перспективных направлений социально-экономического развития страны.

